


FARG'ONA 2022

68.9
1486

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**



MUMINOVA ELNORAXON ABDUKARIMOVNA

BOJXONA ISHI

darslik

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Oliy, o'rta
maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy
birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashi tomonidan 60310100 –
“Iqtisodiyot” yo'nalishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan**



Farg'ona, Al-Ferganus 2022

УДК339.543.(075.8)
ББК 64.428а.73
ISBN:978-9943-8579-9-5

Muminova E.A.

Bojxona ishi: darslik/Muminova E.A. Farg'ona, AL-FERGANUS, 2022.

"Bojxona ishi" darsligida bojxona tizimi, bojxona organlari, bojxona to'lovlari, tarif va notarif tartibga solish, bojxona hududi va bojxona chegarasi kabi tushunchalar mohiyati ochib berilgan. Bojxona qonunchiligi, bojxona ishi tizimining huquqiy asoslarini o'rganish talabalarga davlat bojxona siyosatining mohiyati va mazmuni, uning asosiy maqsad va vazifalarini tushunish imkonini beradi, bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Darslik fanning tashkiliy-metodik bo'limi, video-taqdimot materiallari, davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari, yo'nalishning o'quv rejasiga muvofiq o'quv-uslubiy ish turlari va nazorat shakllari, fan bo'yicha boshqa o'quv-uslubiy materiallarni o'z ichiga oladi.

Darslik oliy ta'limning 60310100 "Iqtisodiyot" yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan talabalar, o'qituvchilar, bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassislar, bojxona brokerlari, tadbiqkorlar, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun mo'ljallangan.

Тасриччилар:

Urinov A.A. — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (FarDU)

G'olibov N. — Farg'ona viloyati Bojxona boshqarmasi tashkiliy-nazorat, xizmat faoliyatini tahlil qilish va baholash bo'limi boshlig'i, bojxona xizmati kapitani

Ashurov M.S. — iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (FarPi)

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi
Muvofiqlashuvchi kengash tomonidan iqtisodiy yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari
talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan.*

Guvohnoma №388-101

ISBN 978-9943-8579-9-5



9 789943 857995 >

©Farg'ona politexnika instituti, 2022

© Muminova E.A, 2022

УДК339.543.(075.8)
ББК 64.428я.73
ISBN: 978-9943-8579-9-5

Муминова Э.А.

Таможенное дело: учебник/ Э.А.Муминова, Фергана, AL-FERGANUS, 2022.

Учебник «Таможенное дело» раскрывает такие понятия как таможенная система, таможенные органы, таможенные платежи, тарифное и нетарифное регулирование, таможенная территория и таможенная граница. Изучение правовых основ системы таможенного законодательства, таможенного дела позволит студентам понять сущность и содержание государственной таможенной политики, её основные цели и задачи, что имеет важное значение при подготовке конкурентоспособных кадров.

Учебник включает в себя организационно-методический раздел дисциплины, видео-презентационный материал, нормативно-правовую базу деятельности государственных таможенных органов, виды учебной работы и формы контроля в соответствии с учебным планом направления, другие учебно-методические материалы по предмету.

Учебник предназначен для студентов, обучающихся по направлению высшего образования 60310100 «Экономика», преподавателей, специалистов по таможенному оформлению, таможенных брокеров, предпринимателей, а также для всех хозяйствующих субъектов, занимающихся внешнеэкономическими операциями.

Рецензенты:

Уринов А.А. – кандидат экономических наук, доцент (ФерГУ)

Голибов Н. – Начальник отдела организационного контроля, анализа и оценки служебной деятельности Ферганского областного таможенного управления, капитан таможенной службы

Ашуров М.С. – кандидат экономических наук, доцент (ФерПИ)

Рекомендовано в качестве учебника для студентов высших учебных заведений по экономическим направлениям Координационным советом при Министерстве высшего и среднего специального образования

Республики Узбекистан.

Удостоверение № 388-101

ISBN 978-9943-8579-9-5



9 789943 857995 >

©Ферганский политехнический институт, 2022

©Муминова Э.А., 2022

UDC 339.543.(075.8)
LBC 64.428ya.73
ISBN: 978-9943-8579-9-5

Muminova E.A.

Customs: textbook / E.A. Muminova, Ferghana, AL-FERGANUS, 2022.

The textbook "Customs" reveals such concepts as the customs system, customs authorities, customs payments, tariff and non-tariff regulation, customs territory and customs border. Studying the legal foundations of the system of customs legislation, customs affairs will allow students to understand the essence and content of the state customs policy, its main goals and objectives, which is important in the preparation of competitive personnel.

The textbook includes the organizational and methodological section of the discipline, video presentation material, the legal framework for the activities of state customs authorities, types of educational work and forms of control in accordance with the curriculum of the direction, other educational and methodological materials on the subject.

The textbook is intended for students studying in the direction of higher education 60310100 "Economics", teachers, customs clearance specialists, customs brokers, entrepreneurs, as well as for all business entities involved in foreign economic operations.

Reviewers:

Urinov A.A. – Candidate of Economic Sciences, Associate Professor (FerGU)

Golibov N. - Head of the department of organizational control, analysis and performance evaluation of the Fergana regional customs department, captain of the customs service

Ashurov M.S. – Candidate of economic sciences, docent (FerPI)

Recommended as a textbook for students of higher education establishments in economic areas by the Coordinating Council under Ministry of Higher and Secondary Specialized Education Republic of Uzbekistan.

Certificate No.388-101

ISBN 978-9943-8579-9-5



9 789943 857995 >

©Fergana polytechnic institute, 2022

© Muminova E.A., 2022

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BOJXONA XIZMATINI SHAKLLANISH BOSQICHLARI

1.1.1. Davlat Bojxona
qo'mitasi

Davlat Bojxona
qo'mitasi, bojxona
organlarining
shakllanish bosqichlari,
bojxona kodeksi,
bojxona ishi, bojxona
organlarining
strategiyasi, respublika
manfaatlari, iqtisodiyot
muhofazasi, rivojlanish
konsepsiyasi, konsepsiya
maqsadi, bojxona
organlarini
rivojlantirishning
ustuvor yo'nalishlari,
bojxona istiqbolini
belgilash

Reja:

1.1 Respublika bojxona
organlarini shakllanish
bosqichlari.

1.2 Bojxona organlarining
2020-2023 yillarda
rivojlantirish konsepsiyasi.

Juda qadim zamonda, hali insoniyat qabilachilik shaklida yashash sharoitidan boshlab, bojxona ishi elementlari shakllana borgan. Bir qabila hududidan ikkinchi qabila hududiga o'tib, narsa almashtirish yoki uchinchi qabila hududiga o'tib borish u yerda «savdo» ishlarini amalga oshirish mobaynida o'tish shartlari vujudga kela boshladi va rivojlandi.

Insoniyatning muhim hayotga o'tishi, qadimiy tsivilizatsiyaga ega bo'lgan joylarda ishlab chiqarishning rivojlanishi, shuningdek davlatchilikning rivojlanishi, ortiqcha tovarlarni sotishga (almashtirishga) ya'ni savdo yo'llarining ochilishi va rivojlanishiga olib keldi. Davlat institutlarini o'ziga xos bo'lgan (qiroliklar, xonliklar) ma'murlari, lashkarlari, soliqchilari va boj oluvchilari vujudga kelib rivojlana boshladi.

Eramizdan avvalgi 3-2 ming yillardayoq Assiriya podshosi Ashshur Farmon chiqarib, savdoga olib kelingan tovarlarni tekshirib, ulardan boj olishni taqazo etgan va tarixga «Ashshur boji» nomi bilan kirgan.

SHu jumladan junlarni olib kelish va olib ketishda ham boj to'langan.

Podsho va hukmdorlar xazinasini to'ldirib borish soliqchilar va boj oluvchilar zimmasiga tushgan va shu yo'nalishning rivojlanishiga sababchi bo'lgan. Soliq va bojlar bozorlarda olina boshlangan.

Eramizdan avvalgi 3 asrda Gibraltar bo'g'ozidan o'tish uchun boj olingan. hozirgi Ispaniyaning Tarif shahrida tovarning nomi va boj miqdorining ro'yxati ishlab chiqilgan va u shahar nomi bilan «Tarif» deb atalgan (2300 yil avval Rim imperiyasi, Karfagen davri).

O'sha vaqtlardayoq O'rta Osiyoda, Buyuk Ipak yo'li savdo tarmog'i amalda ishlayotgan vaqti edi. Bu – soliq va bojlarning o'ziga xos tartibi, yurtdan yurtga o'tish tartiblari borligidan va amalda shakllanganligidan dalolat beradi. Xitoy tovarlarini Yevropaga olib o'tish tarmog'i eramizning 2 asrlardayoq amalda ishlab turganligi to'g'risida mashxur mutafakkir Ptolomey o'z tarixiy asarlarida ko'rsatgan, ya'ni Buyuk ipak yo'li vujudga kelishi va o'ziga xos rivojlanishga ega bo'lgan.

Davlatchilik rivojlangani sari bojlarning miqdori oshgan va o'sha davrda imtiyozlar ham vujudga kela boshlagan. Masalan, qurol-yarog' olib kelgan savdogarlardan boj olinmasdi. Lashkarboshilar, hukmdorlar, podshoh a'yonlaridan ham boj olinmasdi.

Boj salmog'i oshgan sari tovarlarni boj to'lamasdan olib kirish rivojlanib ketdi va o'ziga yarasha kontrabandistlar sulolalarining kelib chiqishiga sabab bo'ldi. SHuningdek, Osiyoda qaroqchilar vujudga kelishi tarixan ko'chmanchi qabilalar hayotiga xos xususiyatlardan biri bo'lib, ular savdo karvonlarini talon-taroj qilib yushaganlar.

Kontrabanda tovarlari butun boshliq imperiyalarni, davlatlarni iqtisodiy inqirozga olib kelgan, ularning yemirilishiga sabab bo'lgan.

Tarifni boshqarish (regulirovat² tarif) va bu yo'l bilan boshqa davlatlar iqtisodiga ta'sir etishi namoyon bo'ladi, shuning uchun ham har bitta davlat o'z manfaatlarini ko'zlagan holda bu soha ustida ishlashga majbur bo'ldi. Masalan, qudingi Karfagen davlatida xorijiy davlatlar bilan savdo-sotiq qilish hamda ulardan boj undirish shunday mukammal yo'lga qo'yilgan ediki, natijada bir necha bor avj olgan Karfagen-Rim urushi harajatlarini faqat boj to'lovlari bilan qoplangan.

Kontrabandaga qarshi kurash eramizdan oldingi bojxona munosabatlari paydo bo'lgan o'sha davrlarga to'g'ri keladi. Ammo o'rta asrlarga kelib kontrabanda juda keng miqyosda avj olib ketdi.

Kontrabanda tovarlarini ushlagan bojxona xodimiga ushlangan tovarning 70 foizi miqdorida pul berishgan, 20 foizi xazina hisobiga olingan va 10 foizi yetimxonalarga berilgan. Bu miqdorlar doim o'zgarib har xil shakllarda namoyon bo'lib kelgan.

Avval ham, ayniqsa o'rta asrlarda bojxona soliqchilari bilan kontrabandistlar o'rtasida urushlar bo'lib turgan, bu urushlarga davlatlarning asosiy jangovor kuchlari ham jalb etilgan. Karvonlarni kuzatib nazorat qilib boruvchilar xizmati ham rivojlanib borgan. Ular o'z ulushlarini olib ketilayotgan tovar hisobidan olishgan.

SHu o'rinda qadimdan savdo munosabatlari gullab-yashnagan O'rta Osiyo hududidagi kontrabanda holatlari haqida to'xtalmoq joizdir. Amudaryoning janubiy

va janubiy-g'arbiy Osiyo mamlakatlari – hindiston, Xuroson, Eron va boshqa hududlariga o'tish joyidagi Puli Zindon kechuvining yon-atrofidagi hududlar azaldan savdo karvonlarini talovchi yo'lto'sar qaroqchilar makoni bo'lib kelgan. Ularning yuzlab yillar davom etgan bu faoliyatiga faqat Amir Temur davridagina barham berilgan. Animo sohibqiron vafotidan so'ng beqarorlik davri boshlangach, xuddi shu joyda qaroqchilik holatlari yana boshlangan. hatto bir gal kichik karvon bilan ketayotgan Bobur Mirzo ham ma'lum muddatga ularning tutquniga aylangan.

Tovarlar o'lchov me'yorlarining har xil bo'lishi, pul me'yorlarining har xil bo'lishi albatta, boj olishda o'z davlatlarining iqtisodiy manfaatlariga qaratilgan. Davlatlar bojxona siyosatini yurgizish bo'yicha muayyan farmonlar, qoidalar qabul qilganlar va amalga oshirganlar. Masalan, Angliya 1650 yilda o'z koloniyalaridan savdo tovarlarni faqat Angliya kemalarida tashilsin, degan farmon chiqargan. Ya'ni boshqa davlat kemalarining yuk tashishga huquqi bo'lmagan, yuk tashish man etilgan yoki katta jarimalar solingan. Bu Angliya kemasozligini rivojlantirishda va xazinasini boyitishda muhim rol o'ynagan. Bu farmon 1850 yilda bekor qilingan.

Ma'lumki, hindiston Angliya tomonidan bosib olingach, bu yerga sanoat korxonalarida ishlab chiqarilgan tovarlar ko'plab keltirila boshlaydi. Bu hol hindistonning o'z sanoati rivojlanishiga to'sqinlik qilar edi. SHuning uchun ilg'or fikrli hindistonliklar tomonidan «hind xalqi faqat hindiston tovarlarini sotib olish kerak» degan shiorlar o'rta tashlanadi. Bu hol iqtisodiy rivojlanish uchun birmuncha qulaylik tug'diradi. Jumladan, hozir Rossiyada ham xuddi shunday harakat boshlangan.

Amir Temur davlatida savdo va bojxona siyosati. Amir Temurning Buyuk Ipak yo'li tufayli savdoni rivojlantirish, uning xavfsizligini batamom ta'minlash, atrofni obodonlashtirish, savdogarlar uchun shart-sharoitlarni yaratish, unda Markaziy Osiyo ahamiyatini kuchaytirish borasida ishlari ayniqsa ibratlidir. Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo xalqlari manfaatlariga bo'ysundirilishi bilan bu borada SHarq va G'arb o'rtasida aloqa bog'lanib, uning xavfsizligi to'la ta'minlandi. Natijada savdo ko'lami kengaydi. Xatto chorvadorlar suruv-suruv qo'y-echki, mollar, yilqilarni ham xorijga sotish uchun hayday boshladilar. SHunday qilib, Markaziy Osiyo

qorako'li dovrug'ining yer shari bo'ylab taralishida ham Ipak yo'lining ahamiyati katta edi.

De Klavixo o'zining «Kundaligi»da Samarqand bozorida dunyoning turli burchaklaridan kelgan turli tillarda so'zlashuvchi savdogarlarni va ular keltirgan xorijiy mollarni ko'plab uchratganligini aytdi. SHu asardagi ma'lumotlardan Samarqandning Osiyo savdosida mol ombori bo'lib qolganligini ham fahmlash qiyin emas. Samarqandga hindistondan attorlik va bo'yoq buyumlari, Xitoydan ipak gazlamalar, har xil chinnivorlar, qimmatbaho toshlar, shimoldan esa noyob po'stinlar karvoni ko'plab kelardi. Bu yerdan Osiyoning boshqa shaharlariga, ovropa mamlakatlariga ham karvon-karvon mollar jo'natilar edi. Savdogarlar shu yo'l bilan Xorazm, Nijniy Novgorod, hatto Moskvaga ham borardilar. Ikkinchisi Xitoy-Qazvin-Trantun bilan genuyaliklar, venetsiyaliklar savdo kemalariga tushib Ovropaga yetardi. Nihoyatda mudhish va qo'rqinchli, serurush zamonlar bo'lishiga qaramay Amir Temur hokimiyati soyasi tushgan yerlarning barchasida savdo jonli va batamom xavfsiz bo'lgan edi. Bu xususda o'sha davrning mashhur mucaxxixlaridan Nizomuddin SHomiyning «Zafarnoma»sida shunday deyiladi:

«...Uning adolati-yu siyosati o'rnatilgan kunlarda Movaroaunnahming eng chekka joylaridangina emas, balki, Xo'tan chegarasidan Dehli va Kanboyit aholilarigacha, Bobbul Abvobdan to Misr va Rum hududigasa bo'lgan yerlardan savdogarlar u yoqdan tursin, bolalaru beva xotinlar ham ipakli matolar, oltin kumush va eng zarur tijorat mollarini keltirardilar va olib ketardilar. hech bir kimsa ularning bir doniga ham ko'z olaytira olmaydi va bir dirhamiga ham ziyon yetkazmaydi. Bu chekka ne'mat va poyonsiz marhamatlar Amir Sahibqironning siyosati va adolati natiijasidir».

Buyuk Ipak yo'li savdoni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lishi bilan birga davlatlar munosabatlarini yaxshilash, yanada rivojlantirish, ilm-ma'rifat, madaniyat durdonalarini va davlatchilik asoslarini rivojlantirish va yanada mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etgan. Umuman Ipak yo'li hamma asrlarda, jumladan Turonzaminni va uning poytaxti Samarqandni butun jahonga tanitishda asozliq rol o'ynagan.

Temur davlatida qonun ustuvorligiga va hamma masalalarda so'z va ish birligiga kelishilganligi tufayli tartib intizom, osoyishtalik, mamlakat bo'yicha aloqa xizmati ibratli bo'lgan. Faqat Ipak yo'lidagina emas. Sohibqiron davlatining hamma burchaklarida ham osoyishtalik o'rnatilgan. Mamlakatning hamma yo'llarida ma'lum masofalarda maxsus musofirxonalar qurilib u yerlarda hamma shart-sharoitlar muhayyo etilgandi. Bu xususda De Klavix qiziqarli ma'lumotlar keltirib, u Ispaniyadan kelishida Amir Temur davlati chegarasiga kelishi bilan guvohi bo'lganligini yozadi. Bu xususda shunday deyiladi:

«Yo'llarga otlar tayyorlab qo'yilardi. Kimsasiz joylarda musofirxonalar tarzida katta binolar qurilib, yaqin shahar va qal'alarining aholasi bu binolarni suv va oziq-ovqat bilan ta'minlab turar edi. Bu yerda otlarni boqib parvarishlovchi otboqarlar tayinlangan edi. Yo'lovchilarga maxsus odamlar kerak bo'lganda qo'shib ham yuborilar edi.

Faqat bu yo'llar emas, shoh tasarrufidagi barcha yerlar ana shunday aloqa vositasi bilan ta'minlangan. SHoh shu qadar tezlashtirilgan aloqa vositasi orqali o'z yerlari va chegaralarining hamma burchaklaridan bir necha kun ichida xabar olib turardi». D.N.Logofetning zikr etilgan asarida o'qitilganidek, «u dunyoda birinchi bo'lib xabar yetkazish – pochta xizmatini to'g'ri yo'lga qo'ydi». Bular Sohibqiron davlatidagi yo'llarda qatnovni yaxshilash sohasida ko'rilgan tadbirlarning natijasi edi.

O'rta Osiyoda Amir Temur davrida bojlarni tartibga soluvchi hujjatlar ishlab chiqilib, shularga amal qilingan. O'sha davrda Yevropa, Osiyo va yaqin SHarq davlatlari bilan savdo-sotiq ishlari olib borilgan va savdogarlarga katta imtiyozlar berilgan. Davlat chegaralariga qal'alar qurdirib, o'tuvchilarni o'sha yerda kutib olishgan. Karvonsaroylarga joylashtirib, boj olishgan, yuklariga tamg'alar bosib berishgan. Bu ishlar shahar darvozasiga kirishda yoki bozorda amalga oshirilgan. Ma'lumki, «tamojnya» so'zi tamg'a so'zidan kelib chiqqan.

Amir temur tomonidan Oltin O'rda xoni To'xtamish xonligining tugatilishi rus knyazliklarining rivojlanishiga va Rossiya davlatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

Rossiya ishlab chiqarish kuchlari rivojlana borgan sari bojxona munosabatlari ham rivojlanib, 1811 yilda tashqi savdo departamenti tuzildi va shu departamentda bojxona boshqarmasi tashkil etildi. Petr 1 Yevropaga borib kelganidan keyin bojxonaga doir tegishli farmon va qarorlarni yangicha tartibga sola boshladi. Rossiya boj tarifi siyosatini amalga oshirishda kimyo olimi Mendeleev D.I.ning xizmati diqqatga sazovardir.

Milliy bojxona tizimining vujudga kelishi va rivojlanishi. Bu davrda Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyo bosib olinadi va Turkiston guberniyasi tashkil etiladi. Shu davrda 1893 yilda Rossiyada 11 chegara okruglari tashkil etilib, unda Turkiston okrugi ham bor edi. Turkiston okrugida 16 ta bojxona idoralari bor edi. Jumladan, 1895 yil Termez shahrida «Pattakesar» (Patta-Gissarskiy) bojxona tashkil etilib, u asosan Afg'oniston hududidan o'tganlaridan boj olish bilan shug'ullangan va yiliga bojlardan keladigan daromad muttasil oshib borgan. O'sha davrda Afg'oniston hududidan O'rta Osiyo davlatlariga kontrabanda orqali juda ko'p tovarlar o'tgan. har yili shu bojxona postida 2.500 nafardan ko'p hajga boruvchilar o'tkazilardi.

Sho'rolar hukumati tuzilgandan so'ng Sanoat va Savdo xalq komissariati tuzildi va bojxona tizimi, bojxona boshqarmasi sifatida shu komissariat tarkibiga kiritildi. Bu komissarlik keyinchalik «Tashqi va ichki savdo xalq komissarligi» deb ataldi. Tashqi va ichki savdo xalq komissarligining 133-sonli buyrug'iga asosan 1921 yil 24 dekabrda bojxona boshqarmasi tuzildi. O'sha davrda 8 bojxona okrugi bo'lib, ulardan bittasi Turkiston okrugi bojxonasi edi. 1925 yil bojxona boshqarmasi SSSR Bosh Bojxona boshqarmasiga aylantirildi. Uning tarkibida 11 ta bojxona inspektorlari idoralari bor edi. O'zbekistonda ham shu idoraga bo'ysunuvchi Pattakesar bojxonasi Termiz bojxonasiga aylantirildi. O'sha davrda sobiq SSSRda 266 ta bojxona posti bo'lib, ularda shtat bo'yicha 5710 ta xodim ishlardi. Keyinchalik xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilganda, Bosh bojxona boshqarmasi Tashqi savdo vazirligi tarkibiga kiritildi.

SSSR Ministrlar Sovetining 1986 yil 12 fevraldagi 222-sonli qarori bilan BBB GUGKga aylantirildi. (Glavnoe Upravlenie Gosudarstvennogo Tamojennogo kontrolya pri Sovete Ministrov SSSR).

Toshkent aeroporti sobiq Sovet Ittifoqining janubiy darvozasi bo'lib, yuk aviatsiyasi rivojlanishi natijasida chet eldan kelayotgan samolyotlar Toshkent aeroportiga qo'nib o'tadigan bo'ldi. Tranzit havo yo'llari ochilishi munosabati bilan 1959 yil 14 aprelda SSSR havo transporti vazirligi buyrug'iga ko'ra, Toshkent aeroportida bojxona posti tashkil qilindi va Termiz bojxonasiga bo'ysundirildi. Yangi tashkil etilgan Toshkent aeroporti bojxonasida atigi 3 ta xodim ishlagan, ularning boshlig'i Vasiliy Nikitovich Naumov bo'lgan. Tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi tufayli bu post 70-yillardayoq Toshkent bojxonasiga aylantirildi 1984 yillar boshida harbiy yuklar nazoratini kuchaytirish maqsadida Tuzels posti, Farg'ona shahrida «Farg'ona» bojxona posti tashkil etildi.

1988 yili Toshkent bojxonasi O'zbekiston Respublikasi bojxonasiga aylantirildi.

1988-89 yillari Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo'qon, Navoiy, Urganch, CHirchiq, Olmaliq bojxona postlari ishga tushdi. 1990 yilning oxirida va 1991 yilning boshida Samarqand, Farg'ona, Nukus postlari bojxonaga aylantirilib, O'zbekiston Respublikasi bojxona boshqarmasiga bo'ysundirildi.

SHuni ta'kidlab o'tish kerakki, bojxona ishlari to'ppa-to'g'ri Moskvadan boshqarilar va rahbar xodimlar ham ular tomonidan tayinlanardi. Bojxona tomonidan musodara qilingan tovar material boyliklar va boj to'lovlari to'liq ravishda Moskva ixtiyoriga o'tkazilar edi.

O'zbekiston Mustaqillikka erishgach, 1991 yilning sentyabrda Respublika Ichki ishlar vazirligi huzurida «O'zbekiston Respublikasi hududidan tovar-moddiy boyliklarni noqununiy olib chiqib ketilishining oldini olish bo'yicha inpektsiya» tashkil etildi. 1991 yilning 25 oktyabrda esa O'zbekiston Respublikasi Bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risidagi Prezident Farmoni e'lon qilindi.

Mazkur farmonga binoan, shtatlar soni 415 nafar qilib belgilandi.

Jo'raev Erkin Muyassarovich – bojxona qo'mitasining birinchi raisi etib tayinlandi.

O'zbekiston hududi quyidagi bojxona zonalariga bo'lindi:

1. Toshkent bojxonasi zonasi – 11 ta bojxona posti
2. Samarqand bojxonasi – 7 ta bojxona posti
3. Termez bojxonasi – 4 ta bojxona posti
4. Farg'ona bojxonasi – 10 ta bojxona posti
5. Buxoro bojxonasi – 4 ta bojxona posti
6. Qoraqalpog'iston bojxonasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992 y. 10 avgustdagi PF – 451-sonli Farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Bojxona Qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi huzuridagi tovar-moddiy boyliklarni olib ketishni nazorat qiluvchi Davlat inspeksiyasi negizida Davlat Bojxona qo'mitasi tashkil topdi.

SHtatlar soni 1277 nafar xodim qilib belgilandi. Militsiya general-mayori Abdug'aniev O'.A. Davlat bojxona qo'mitasining raisi etib tayinlandi. SHundan so'ng Qoraqalpog'iston Respublikasida, Toshkent shahri va viloyatlarda bojxona boshqarmalari tuzildi.

1994 yil 18 yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF 744-sonli Farmoniga asosan, Davlat Soliq qo'mitasi tuzildi.

Davlat bojxona qo'mitasi Bosh bojxona boshqarmasiga aylantirilib, Soliq qo'mitasi tarkibiga kiritildi. Bosh bojxona boshqarmasi boshlig'i etib Y.S.H. Sheraliyev tayinlandi va qisqa muddat rahbarlik qildi. Davlat soliq qo'mitasi raisi o'rinbosari va Bosh bojxona boshqarmasi boshlig'i etib Alimboev S.A. tayinlandi.

SHtatlar soni 2024 nafar xodim qilib belgilandi. Qoraqalpog'iston Respublikasida, Toshkent shahri va viloyatlarda bojxona boshqarmalari bojxona xizmatlariga aylantirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 y. 8 iyuldagi PF – 1815 sonli «O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasini tashkil qilish to'g'risida»gi Farmoni bojxona tarixida katta voqea bo'ldi.

Ushbu Farmonda bojxona organlariga huquqni muhofaza qilish maqomiga qo'shimcha ravishda tezkor qidiruv chora-tadbirlarini mustaqil o'tkazish huquqi berildi.

Bu Farmon bo'yicha Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan qarorga muvofiq, Davlat bojxona qo'mitasida o'quv markazining tashkil etilishi ham bojxona ishi tarixida birinchi Qaror hisoblanadi va uning bojxona uchun malakali kadrlarni tayyorlashdagi ahamiyati beqiyosdir.



1997 yil O'zbekiston Respublikasi bojxona ishida tub o'zgarishlar yili bo'ldi. Bojxona ishini xalqaro normalar asosida, shuningdek tizimi va tuzilishi, vazifalarni takomillashtirish zaruriyati tug'ildi.

Xuddi shuningdek, xalqaro munosabatlarni kengaytirish va bojxona ishini takomillashtirish maqsadida **O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 8 iyul 1997 yil №PF 1815 sonli farmoni bilan “Respublika Bojxona Qo'mitasi”** tashkil topdi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi O'zbekiston Respublikasining qonun xujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq bojxona ishi, kontrabandaga, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarning g'ayriqonuniy muomalasiga qarshi kurash masalalari bo'yicha xorijiy davlatlarning bojxona va boshqa organlari hamda xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni amalga oshiradi.


O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining yagona tizimini tarkib topishi va rivojlanishi uning ish qobiliyatini ta'minlash bosqichlari o'ziga xos davrlarni bosib o'tadi. O'zbekiston hududida birinchi bo'lib 1893-yilda Termizda PattaHisor bojxona posti ochilgan, ikkinchi bojxona posti 1959-yilda Toshkent Xalqaro aeroportida tashkil etilgan, undan so'ng 1970-yilda Toshkent Bojxonasi ochildi va mazkur bojxona posti Termizdagi bojxona postiga bo'ysunnagan holda faoliyat yuritadigan bojxona posti bo'lgan.

Birinchi bosqich (1991-1994 yilgacha) O'zbekiston Respublikasining Prezidentining Bojxona Qo'mitasini tashkil qilish xaqidagi 1991 yil 25 oktyabrda qabul qilinishi va O'zbekiston Respublikasida Bojxona xizmatining ahamiyati va organning mohiyati bilan belgilanadi,

Keyinchalik bojxona tizimining vazifalari va shartnomalarning o'zgarishi munosabatlari bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 18 yanvardagi farmoni bilan Davlat Soliq Qo'mitasining Bojxona Bosh Boshqarmasiga aylantirildi.

Ikkinchi bosqich (1994-1999 yillar). Mazkur bosqichda Bojxona organlari shakllanishida muhim bo'lgan qadamlar tashlandi. Eng avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 8-iyuldagi PF-1815 O'zbekiston Respublikasi "Davlat Bojxona Qo'mitasi"ni tashkil etish to'g'risidagi farmoni muhim qadamlardan biri bo'ldi deb aytishimiz mumkin. Mazkur farmonning 7-bandiga asosan "O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat soliq boshqarmasini O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasiga o'zgartirish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 18-yanvardagi Farmonining ikkinchi bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin, shuningdek mazkur Farmonning kirish qismidagi "va bojxona" so'zlari olib tashlansin. Yuqoridagi farmonning qabul qilishdan maqsad: "Bojxona ishini tashkil qilishni yaxshilash, yagona bojxona siyosatini o'tkazish, respublika bojxona organlarining tezkorligini hamda ular faoliyatining samaradorligini oshiris, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini mustahkamlashda ularning rolini kuchaytirish, shuningdek, bojxona ishi sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanda kengaytirish"

Uchinchi bosqich (1999- yildan hozirgi davrlargacha). Bu bosqichning asosiy mohiyati bojxona ishini tashkil etish darajasini ko'tarish, kontrabanda va boshqa bojxona ishidagi jinoyatlarga qarshi kurashishini takomillashtirish va shu bilan birgalikda bojxona xizmatini kadrlar bilan ta'minlash masalalarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha faoliyatlar olib borilib, mazkur yo'nalishlarni boshqarish maqsadida turli hukumatning xujjatlari qabul qilindi.





Shu bilan birgalikda, bu bosqichni o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri yangi tahrirdagi "Bojxona Kodeksi" loyihasini ishlab chiqilishi bo'ldi(20.01.2016).

Davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining 2018-

yil 18-oktabr kunidagi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan «Davlat Bojxona Xizmati to'g'risida» qonuni hisoblanadi (yangi tahrir).

1.2

Bojxona organlarining 2020-2023 yillarda rivojlantirish konsepsiyasi.

Bojxona organlarning huquqiy

O'ta dolzarb va ayni vaqtda murakkab bo'lgan vazifalarni amalga oshirishda, avvalambor, bojxona organlari strategiyasi hamda uzoq muddatli kompleks rivojlanish dasturlarini ishlab chiqish zamon talabiga aylandi.



asosining asosiy elementi bo'lib,

uning kompetensiyasi hisoblanadi (lotincha, competentia - kirish, qobiliyat, huquqiy tegishlilik). Ushbu so'z, ikki xil ma'noni anglatadi: savollar to'plami ya'ni bunda belgilangan shaxs o'z aqliy qobiliyati va ikkinchisi huquq va majburiyatlar. Davlat bojxona organlarining huquq va majburiyatlari qonun bilan ifodalanadi.

Davlat bojxona organlari quyida sanab o'tilgan huquq va majburiyatlarga egadirlar.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunning 2-hobida bojxona organlari, ularning huquq va majburiyatlari keltirilgan bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

6-modda. Bojxona organlari

Bojxona organlari huquqini muhofaza qiluvchi organlardir.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'yicha boshqarmalari, Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi, bojxona postlari, Oliy harbiy bojxona instituti, shuningdek Milliy kinologiya markazi bojxona organlaridir.

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomu ko'rsatilgan muhrga ega bo'lgan yuridik shaxslardir.

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi.

Bojxona organlarining tashkiliy-shrat tuzilmasi va cheklangan shratlar soni, bojxona postlarining toifalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi to'rtidagi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkaması tomonidan tasdiqlanadi.

Bojxona organlariga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi rahbarlik qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi zarur hollarda bojxona organlarining tashkiliy-shrat tuzilmalariga belgilangan umumiy shratlar soni doirasida o'z qarorlari haqida qo'shimcha qaror qolishi.

Bojxona postlari tarkibida bojxona punktlari tashkil etilishi mumkin. Bojxona punktlari O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi.

1-rasm. Bojxona organlari

8-modda. Bojxona organlarining majburiyatlari

Bojxona organlari:

bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bojxona to'lovlarini to'g'ri hisoblanishi, to'liq va o'z vaqtida to'lanishi ustidan nazoratni amalga oshirishi;

bojxona nazoratini tashkil etishi;

toylarni va transport vositalarini olib o'tish, shuningdek O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tish chog'ida jismoniy va yuridik shaxslarni ularning huquq va majburiyatlari to'g'risida o'z vaqtida xabar berish;

o'z xizmat vazifasini bajarishi chog'ida o'ziga ma'lum bo'lib qolgan davlat sirlarini, jumladan qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni tashkil etuvchi ma'lumotlarni oshkor etmasligi;

huquqbuzarliklarning oldini olish, ularning sodir etilishiga imkon yaratgan sabablar va sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish choralari ko'rish;

bojxona organlarida korruptsiya va boshqa mansabdorlik jinoyatlari sodir etilishining oldini olishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish;

davlat xavfsizligini, jamoat tartibini, fuqarolarning hayoti va sog'lig'ini saqlash, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga ko'maklashish;

asbabi-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda axborot xavfsizligi talablariga rioya etilishini ta'minlashi shart.

2-rasm. Bojxona organlarining majburiyatlari

7-modd. Bojxona organlarining huquqlari

Bojxona organlari o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarini bajarishda quyidagi huquqlarga ega:

bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ma'lumotlar va hujjatlarni tekshirish, og'zaki so'rov o'tkazish, axborot olish, bojxona ko'zdan kechiruvini bojxona ko'rigini va shaxsiy ko'rikni o'tkazish, shuningdek binolar, hududlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish;

tovarlar va transport vositalari erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarning to'g'riligini hamda ularning tashqi savdo faoliyati qonuniyligini tekshirish maqsadida tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona nazoratini amalga oshirish

banklardan, moliya organlaridan hamda boshqa tashkilotlardan shuningdek jismoniy va yuridik shaxslardan eksport-import operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlar va hujjatlarni so'rash va olish;

bojxona nazoratini o'tkazish maqsadida tovarlar hamda boshqa buyumlardan namunalar va nusxalar olish;

bojxonaga oid huquqbuzarliklarning bevosita predmeti bo'lgan tovarlarning va boshqa qimmatliklarni ushlab turish hamda olib qo'yish;

tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish;

huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarni ma'muriy xo'l bilan ushlab turishni amalga oshirish;

massus ruxsatnomalar va litsenziyalar berish;

bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan va nazoratning texnik vositalaridan foydalanish;

bojxona to'g'risida qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida mutaxassisni yoki ekspertni jalb etish;

bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish.

3-rasm. Bojxona organlarining huquqlari

I. Kontseptsianing asosiy maqsadi¹

Kontseptsianing asosiy maqsadi— tovar va transport vositalarini

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tish uchun maksimal

Kontsepsiya bo'limlari:

I bo'lim. Umumiy qoidalar	II bo'lim. Bojxona organlari faoliyatining joriy holati va mavjud kamchiliklar	III bo'lim. Bojxona organlari faoliyatini rivojlantirishnin g maqsadi va ustuvor yo'nalishlari	IV bo'lim. Kontseptsianing amalga oshirishdan kutilayotgan natijalar	V bo'lim. Kontseptsianing amalga oshirish tadbirlari ustidan monitoring
---------------------------------	--	---	---	--

qulay sharoitlar yaratish, bojxona operatsiyalarini amalga oshirish vaqtini

¹ www.customs.uz – O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona Qo'mitasi rasmiy sayti.

qisqartirish, amalga oshirilayotgan operatsiyalarni avtomatlashtirish va ilg'or texnologiyalarni, shuningdek, xalqaro me'yor va standartlar, xorijiy davlatlarning eng yaxshi tajribalariga muvofiq ishlashning yangi usullarini joriy etish.

4-rasm. Konseptsiya bo'limlari

Kontseptsianing asosiy vazifasi - Kontseptsiyadan ko'zlangan asosiy maqsadga erishish uchun O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va istiqbolini belgilashdir.

II. Konseptsiya bo'limlari:

III. Bojxona organlarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari

"Quyidagilar bojxona organlarini rivojlantirishning bir-biri bilan uzviy bog'liq ustuvor yo'nalishlaridir:

- bojxona sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;
- mavjud kuch va vositalarni optimal qo'llagan holda bojxona organlari faoliyati va infratuzilma ob'ektlarining institutsional asoslarini rivojlantirish;
- raqamli iqtisodiyot doirasida zamonaviy va ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini bojxona sohasiga joriy etish orqali bojxona organlari faoliyati samaradorligi hamda samaradorligini ta'minlash;
- bojxona organlarining fiskal funksiyalarini amalga oshirishni takomillashtirish, TII ni tarif va notarif jihatdan tartibga solishni soddalashtirish;
- kontrabanda va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishiga qarshi kurashish;
- bojxona organlari xodimlarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasi va mahoratini yanada oshirish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;
- xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bojxona xizmatlari bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish"².

So'nggi yillarda bojxona organlarini isloh etish, ularning samaradorligini oshirish va ularning faoliyatiga ilg'or, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq etish bo'yicha keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Jumladan:

- tovar va transport vositalarini «yalpi» bojxona nazoratidan o'tkazish tartibi bekor qilindi hamda ularni tanlov asosida bojxona nazoratidan o'tkazishni nazarda tutuvchi xavflarni boshqarish tizimi joriy etildi;
- vakoliatli iqtisodiy operatorlar instituti joriy etildi;
- bojxona rasmiylashtiruv va tovarlarni chiqarib yuborish vaqti bir necha marta qisqartirildi;
- chegaraviy bojxona postlarini jahondagi ilg'or ishlab chiqaruvchilarning zamonaviy inspeksion-ko'rik majmualari bilan jihozlash amalga oshirildi.

SHunga qaramay, bojxona siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishga to'sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar hamon saqlanib qolmoqda, ular qatorida:

- "bojxona organlarining samarasiz va ortiqcha nazorat funksiyalari;
- eskirgan tartibotlar hamda ularning xalqaro me'yorlar va standartlarga nomuvofiqligi;
- bojxona organlari faoliyatida byurokratik to'siqlarning saqlanib qolayotganligi;
- samarali idoralararo hamkorlikning mavjud emasligi;
- bojxona operatsiyalarini amalga oshirishda ko'p vaqt sarflanishi;
- bojxona organlarining faoliyatida bojxona to'lovlarini undirishda kuch va vositalarning haddan tashqari jamlanishi bilan bog'liq institutsional muammolarning mavjudligi;
- o'tkazish punktlarining o'tkazish qobiliyati past darajada ekanligi va ularning moddiy-texnik jihatdan yetarli darajada ta'minlanmaganligi;
- qonunchilikka rioya etilishi uchun tashqi iqtisodiy faoliyat (keyingi o'rinlarda — TIF) ishtirokchilarini rag'batlantirish mexanizmlarining mavjud emasligi"³.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:

- 
1. Vazirlar Mahkamasi qarori bilan tasdiqlangan «Respublika Bojxona Qo'mitasi» haqidagi qonuni nechanchi yil tasdiqlangan?
 2. «Respublika Bojxona Qo'mitasi» qachon tashkil topdi?
 3. O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari nechta davrga bo'lingan?
 4. Konsepsiyani amalga oshirishda II-bosqich qanday nomlangan?
 5. Davlat Bojxona Qo'mitasining shakllanishida ikkinchi bosqich qaysi yillarni o'z ichiga oladi?
 6. Kompetensiya nima?
 7. «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunning nechanchi moddasi bojxona organlarining huquqlari haqida?
 8. Bojxona organlari tomonidan jismoniy shaxslarning o'zlarini tekshiruvdan o'tkazish mumkinmi?
 9. Konsepsiyani amalga oshirishdan ko'zlangan maqsad nimadan iborat?
 10. Bojxona tizimini yanada rivojlantirish va isloh qilishning yana qanday ustuvor yo'nalishlarini bilasiz?
- 

³ <https://lex.uz/docs/-4844615?trvc=duc>

BOJXONA ISHINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH ASOSLARI

Asosiy tushuncha va atamalar

*Bojxona ishi, Davlat
bojxona qo'nutasi,
Bojxona organlari,
Bojxona xizmati,
Bojxona komplekslari
va hodimlari,
Bojxona
organlarining
intizomiy ustavi,
Umumiy qoidalar
Boshliqlarning
rag'batlantirish,
Bojxona
organlarining
mansabdor
shaxslariga
rag'batlantirishlar,
O'zbekiston
Respublikaasi Vazirlar
Mahkamasi, Yagona
avtomatlashtirilgan
axborot tizimi.*

Reja:

2.1 Bojxona organlari tizimi va tuzilmasi

2.2 Bojxona komplekslari va hodimlari tarkibi

2.3 Bojxona organlarining intizomiy ustavi

2.4 Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi

Bojxona ishi O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iboratdir.

Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuziladi.

Bojxona organlari o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, Davlat bojxona xizmati to'g'risidagi qonunga, O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga amal qiladilar.



O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bo'yicha boshqarmalari, «Toshkent-AERO» ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi, bojxona postlari, Oliy harbiy bojxona instituti, shuningdek Jahon mintaqaviy kinologiya markazi bojxona organlaridir.

Bojxona organlari qonun hujjatlariga muvofiq o'z faoliyatini davlat xokimiyati mahalliy organlaridan mustaqil tarzda amalga oshiradilar. Bojxona organlari o'z vakolatlari doirasida qabul qiladigan qarorlar barcha yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ijro etilishi shart. Bojxona organlari xuquqni muxofaza qiluvchi organlar hisoblanadi va davlat byudjeti mablag'laridan ta'minlanadi. O'zbekiston Respublikasi Davlat gerbining tasviri tushirilgan va o'z nomi bilan bitilgan muhrga ega.

Bojxona xizmati O'zbekiston Respublikasida bojxona organlarining yagona tizimi sifatida tarkib topgan va faoliyat ko'rsatadi. **Bojxona organlarning yagona tizimi** qoidalari bir tomonlanma prinsip bilan bog'langan bo'lib bojxona ishlarini tashkil qilish va boshqarishi qoidalariga asoslanadi, bular yagona bojxona siyosati, yagona bojxona xududi, yagona bojxona qonunchiligi, yagona bojxona qiymati asosida yo'lga solinib borish va iqtisodiy normalari bilan uyg'ulantiirilib borilishini


o'z ichiga oladi. Umuman olganda O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi tizimining asosiy qoidalaridan biri bo'lgan yagona iqtisodiy sohalarini oddiylashtirib aniq belgilaydi.



O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksiga binoan bujxona organlarining yagona tizimini tarkibiga bu tizimni tashkil etuvchi quyidagi organlar kiritiladi:

- O'zbekiston Respublikasi bojxona davlat qo'mitasi (O'zBDK),
- O'zbekiston Respublikasining xududiy bojxona boshqarmalari,
- O'zbekiston Respublikasi bojxonasi va bojxona postlari,
- Bojxona postlarini tashkil etish tartibi, qayta tashkil etish va tugatish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 sentyabrdagi "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi **PF-6310-sonli** Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining tashkiliy tuzilmasi⁴:



⁴ <https://lex.uz/doc/5627593>

2.1 –rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining tashkiliy tuzilmasi



2.2–rasm. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasi

Bugungi kunda bojxona organlari tizimi va tuzilmasini yanada takomillashtirish, Respublikada tashqi iqtisodiy faoliyatni liberallashtirish, investitsion jozibadorlikni oshirish va mamlakatning eksport salohiyatini mustahkamlash bo'yicha vazifalar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Bu borada ko'plab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarorlari va Farmonlar qabul qilinib, ijro etilayotgani so'zimiz isbotidir.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son, ya'ni "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" Qarori qabul qilindi va 2018 –yil 13-apreldan kuchga kirdi. Huddi shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-son' ya'ni "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni e'lon qilindi va 2018 –yil 13-apreldan kuchga kirdi.

Bu farmon orqali bojxona ishida juda katta tub o'zgarishlar va islohotlarga tamal toshi qo'yildi. Shuningdek hujjatda talon-toroj qilish, mansab vakolatini suiiste'mol qilish va boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun bojxona organlarining

mansabdor shaxslariga nisbatan prokuratura organlari tomonidan jinoyat ishlari qo'zg'atilganligi va tergov olib borilayotganligi aytiladi.

Quyidagilar O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarini isloh qilishning muhim yo'nalishlari hisoblanadi:

1. bojxona organlarining barcha darajadagi tuzilmalari vazifa va funksiyalarini aniq belgilash hamda taqsimlash, shuningdek, bojxona organlari markaziy va hududiy mahkamalarining samarali faoliyat ko'rsatishini tashkil qilishda axboriy tuzilmalarning



muvofiqlashtiruvchi roli va uslubiy ko'magini kuchaytirish;

2. bojxona organlari tizimida korrupsiya ko'rinishlariga murosasiz munosabatni shakllantirish, xalqning ishonchini mustahkamlash va davlat bojxona xizmati obro'sini oshirish, xodimlarni ijtimoiy himoya qilish va moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish;

3. Oliy harbiy bojxona instituti faoliyatini, yuqori professional ko'nikmaga, ma'naviy-axloqiy sifatlariga va Vatan taqdiriga daxldorlik tuyg'usiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash, tanlash hamda joy-joyiga qo'yish tizimini tubdan takomillashtirish;

4. tovarlarni noqonuniy olib kirishning asosiy shakllari va uslublari hamda bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlash sxemalari haqidagi ma'lumotlarni aniqlash, o'rganish va umumlashtirish orqali bojxona to'lovlarining o'z vaqtida va to'liq to'linishini ta'minlash, byudjetning daromad qismini oshirish;

5. "yulpi" bojxona nazoratini o'tkazishdan har tomonlama tahlil asosida bojxona nazorati obektlarini aniqlash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat tashkilotlari uchun ma'muriy to'siqlarni kamaytirish imkonini beruvchi xavfni aniqlash tizimiga o'tish;

6. bojxona nazoratini amalga oshirishning zamonaviy shakllari, uslublari va texnik vositalarini tatbiq etish hisobiga Davlat chegara o'tkazish punktlarida bojxona tartib-taomillarini amalga oshirishning davomiyligini qisqartirish;


7. bojxona organlari barcha tarkibiy tuzilmalarining faoliyati va idoralararo axborot almashinuvi samaradorligini oshirishga qaratilgan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish;

8. xorijiy davlatlarning bojxona organlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada kengaytirish, bojxona ishi sohasida ilg'or tajribani, xalqaro norma va standartlarni tizimli o'rganish va joriy qilish.

Quyidagilarni nazarda tutuvchi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o'rinlarda Dastur deb yuritiladi) ilovaga muvofiq tasdiqlangan:

- ❖ bojxona organlarining faoliyatini takomillashtirish bo'yicha institutsional o'zgarishlar, ularning vazifa va funksiyalarini optimallashtirish;
- ❖ bojxona organlari faoliyatining ochiqligi va shaffofligini ta'minlash;
- ❖ bojxona nazorati samaradorligini oshirish va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- ❖ samarali idoralararo hamkorlikni ta'minlash;
- ❖ kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish, bojxona organlari xodimlarini ijtimoiy himoya qilish tizimini yanada takomillashtirish.

Farmonning 5-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tuzilmasida shtat birliklarining umumiy soni doirasida quyidagilar tashkil etildi:



2.3-rasm. Yangi tashkil etilgan boshqarmalar


Farmonning 6- bandiga ko'ra esa O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi:

2018 yil 1 sentyabrga qadar muddatda tovarlarning bojxona nazoratini tanlov asosida o'tkazishni nazarda tutuvchi xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimi ishlab chiqilishi va joriy etilishini ta'minlandi.


2.2

Bojxona komplekslari va hodimlari tarkibi.


Davlat bojxona xizmatini samaradorligini oshirish maqsadida Respublikadagi barcha bojxona posti komplekslari bojxona organlari hodimlari bilan komplektatsiyalangan. Unga asosan, **davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar hoshqarmalari bojxona komplekslari va postlari quyidagicha strukturaga ega (PF-122-sonli 27.04.2022 y.).**



2.4-rasm. CHegara bojxona postlarining namunaviy tuzilmasi



2.5-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona postlarining namunaviy tuzilmasi



2.6-rasm. Masofaviy elektron deklaratsiyalash bojxona postlarining namunaviy tuzilmasi

Bojxona kompleksi boshlig'ining o'rinbosari, navbatchilar boshlig'i hisoblanib, guruhining navbatchilik qismi tuguganida keyingi navbatchilik davrigacha o'z guruhi bilan u ham almashadi.

Bojxona organlari hodimlari ham davlatning boshqa xuquq-targ'ibot organlari kabi o'zining boshqaruvchi tarkiblariga ega bo'lib u, to'rt boshqaruvchi tarkibni o'z ichiga oladi. Unga asosan bojxona hodimlarining bo'ysinish pog'onalari ham ishlab chiqilgan bo'lib, uni organ sifatida shakllanganligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son' yalini "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" qaroriga asosan quyidagilar:

- ❖ O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining tashkiliy tuzilmasi;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi markaziy apparati tuzilmasi;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va «Toshkent-AERO» ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi boshqaruv apparatlarining namunaviy tuzilmasi;
- ❖ chegara bojxona postlarining namunaviy tuzilmasi;
- ❖ tashki iqtisodiy faoliyat bojxona postlarining namunaviy tuzilmasi;
- ❖ Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari va «Toshkent-AERO» ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi apparatlari shtatlarining cheklangan soni;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining bojxona postlari ro'yxati;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining faoliyati tugatilayotgan bojxona postlari ro'yxati;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarida xizmatni o'tash to'g'risidagi Nizom;
- ❖ O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlarining Intizomiy ustavi;
- ❖ 2018 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va rivojlantirish bo'yicha

«Yo'l xaritasi» (keyingi o'rinlarda Yo'l xaritasi deb yuritiladi) tasdiqlangan.

Hujjatning 3-bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari xodimlarining (mutaxassis, yordamchi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlardan tashqari) umumiy cheklangan shtatlar soni 4 248 nafar, shu jumladan Qo'mita markaziy apparati xodimlarining soni 240 nafar etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-son, ya'ni "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida" farmoniga ko'ra 26-yanvar O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati xodimlarining kuni etib belgilandi.

Bojxona organlari xodimlari mehnatiga haq to'lash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011 yil 16-sentabrdagi 263-son qarori, ya'ni "Bojxona organlari xodimlari mehnatiga haq to'lash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qabul qilingan va 2011 yil 16-sentabrdan kuchga kirgan hujjat yanada asoslab, takomillashtirib bergan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son, ya'ni "O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari kadrlarini tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori va 2018-yil 11-noyabrdan kuchga kirgan va bu qonun hujjati malakali va halol kadrlar tayyorlash tizimida tub islohotlarga sabab bo'ldi.

Bojxona organlari mansabdor shaxslarining lavozimlari:

Serjantlar tarkibi:

- ❖ Bojxona xizmatining kichik serjanti
- ❖ Bojxona xizmatining serjanti
- ❖ Bojxona xizmatining katta serjanti

2. Kichik ofitserlar tarkibi:

- ❖ Bojxona xizmatining leytenanti
- ❖ Bojxona xizmatining katta leytenanti
- ❖ Bojxona xizmatining kapitani

3. Katta ofitserlar tarkibi:

- ❖ Bojxona xizmatining mayori

❖ Bojxona xizmatining podpolkovnigi

❖ Bojxona xizmatining polkovnigi

4. General-lar tarkibi:

❖ Bojxona xizmatining general-mayori

❖ Bojxona xizmatining general-leytenanti

❖ Bojxona xizmatining general-polkovnigi

2.3

Bojxona organlarining intizomiy ustavi

O'zbekiston respublikasi bojxona organlari faoliyatini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 apreldagi 3665-son qarori 10-ilovasi bilan **"O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining intizomiy ustavi"** tasdiqlangan. Mazkur ustav 8 bob va 64 baddan iborat bo'lib, u o'z ichiga quyidagilarni oladi:

➤ 1-bob. Umumiy qoidalar;

➤ 2-bob. Xodimlarning odob-ahloq qoidalari;

➤ 3-bob. Boshliqlar va xodimlarning o'zaro munosabatlari;

➤ 4-bob. Rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari;

➤ 5-bob. Boshliqlarning rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash bo'yicha vakolatlari;

➤ 6-bob. Rag'batlantirish choralari qo'llash;

➤ 7-bob. Intizomiy jazo choralari qo'llash;

➤ 8-bob. Boshliqlarning harakatlari ustidan shikoyat qilish.

"Mazkur Intizomiy ustav bojxona organlarining barcha mansabdor shaxslariga tatbiq etiladi.

➤ Xizmat intizomi har bir xodimni quyidagilarga majbur qiladi:

➤ O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon, qaror va farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga amal qilish, O'zbekiston Respublikasi DBQ hay'ati qarorlarida belgilangan

talablarni, O'zbekiston Respublikasi DBQ raisining buyruq, farmoyish va ko'rsatmalarini qat'iy bajarish;

➤ bojxona organi xodimining qasamyodiga sodiq bo'lish, «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» degan o'zining xizmat burchini so'zsiz bajarish;

➤ fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish, samarali bojxona nazoratini ta'minlash, kontrabandaning oldini olish, bojxona qonunchiligiga rioya etilishini nazorat qilish;

➤ ishonib topshirilgan tabelъ quroli, mol-mulk va texnikani asrab-avaylash;

➤ hushyor bo'lish, davlat va xizmat sirini qat'iy saqlash;

➤ xodimlar o'rtasida o'zaro munosabatlar qoidalariga amal qilish, boshliqlar va hamkasblarni hurmat qilish;

➤ doimiy ravishda o'z bilim va kasbiy ko'nikmalarini takomillashtirib borish, malaka va huquqiy madaniyatini oshirish;

➤ xizmatdan tashqari holatlarda o'zini munosib ravishda tutish, jamoat tartibi va odob-ahloq qoidalariga amal qilishda namuna bo'lish"⁵.

Bojxona organlaridagi qat'iy intizomga:

➤ Bojxona organlari shaxsiy tarkibini vatanparvarlik, yuksak ma'naviy-ruhiy va ishchanlik fazilatlarini, insonparvarlik va xizmat burchini bajarishga ongli munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalash, qasamyodga rioya qilish;

➤ Ustav tartibini saqlash;

➤ Qonuniylikka so'zsiz rioya qilinishini ta'minlash;

➤ Boshliqlarning o'zlariga bo'ysunuvchilarga nisbatan kundalik talabchanligi, ular to'g'risida doimiy ravishda g'amxo'rlik qilishi, ularning shaxsiy qadr-qimmatini hurmat qilishi, ishontirish va majbur qilish chora-tadbirlarini mohirlik bilan qo'shib olib borish va to'g'ri qo'llash orqali erishiladi.

Boshliq o'ziga bo'ysunuvchilar o'rtasida intizomning ahvoli uchun javob beradi. U O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, O'zbekiston Respublikasi

⁵ <https://lex.uz/docs/1680599>

qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlariga, respublika hokumatining qarorlari va farmoyishlariga, qasamyod va mazkur Ustav talablariga, shloq normalariga rioya qilishda ularga doimiy ravishda namuna bo'lishi, bo'ysunuvchilarda xizmat burchini, sha'n va qadr-qimmatni anglashni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash, tashabbusni, xizmatda tirishqoqlik va o'zini ko'rsatishni rag'batlantirishi hamda dangasa va ishyoqmaslarni qattiq jazolashi kerak.

Boshliqlarning asosiy e'tibori bo'ysunuvchilarning individual sifatlarini o'rganishga, ular o'rtasidagi Ustavga oid o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashga, jamoani jipslashtirishga, bo'ysunuvchilarning qilmishlari sabablarini o'z vaqtida aniqlash va ularning oldini olishga, intizomni buzuvchilarga nisbatan munosabatlar munosabatini yaratishga qaratilishi kerak. Bunda u jamoaning ta'sir kuchidan har tomonlama foydalanishi shart.

Bo'ysunuvchi tomonidan intizom buzilgan taqdirda boshliq bunday harakatlarga yo'l qo'yilmasligi to'g'risida ogohlantirishi, sodir etilgan qilmishning og'irligiga va aybdorlik darajasiga ko'ra esa aybdorni intizomiy jazoga tortishga yoki xodimning qilmishi to'g'risidagi materiallarni ko'rib chiqish uchun or-nomus o'rtoqlik sudiga berishga haqlidir.

Bojxona organlarining intizomiy jazoga tortilgan xodimlari, bashedi ularning harakatlari huquqni buzish tarkibiga kiruvchi belgilar mavjud bo'lsa, ma'muriy va jinoy javobgarlikka tortishdan ozod qilinmaydi.

Rag'batlantirishni va intizomiy jazoni faqat to'g'ridan-to'g'ri boshliqlargina qo'llashlari mumkin. Bojxona organlari mansabdor shaxslari xizmat bo'yicha bo'ysunadigan boshliqlar to'g'ridan-to'g'ri boshliqlar hisoblanadi.

Xodimga eng yaqin bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri rahbar bevosita boshliq hisoblanadi.

Bojxona organlarining xizmat bo'yicha bir-biriga bo'ysunmaydigan mansabdor shaxslari katta yoki kichik mansabdor shaxslar bo'lishi mumkin. Katta boshliqlik maxsus unvonlar bilan belgilanadi.

Mazkur nizomda bojxona organlarining mansabdor mansabdor shaxslariga nisbatan qo'llaniladigan rag'batlantirishlar ham ko'rsatib o'tilgan. **"Bojxona**

organlarining mansabdor shaxslariga nisbatan quyidagi rag'batlantirishlar qo'llanadi:

- a) minnatdorchilik e'lon qilish;
- b) qimmatbaho sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash;
- v) Faxriy yorliq bilan taqdirlash;
- g) idoraviy ko'krak nishoni bilan taqdirlash;
- d) muddatidan oldin navbatdagi maxsus unvon berish;
- e) egallab turgan lavozimida ko'zda tutilganidan bir pog'ona yuqori maxsus unvon berish"⁶.

Alohida xizmatlari uchun xodimlar O'zbekiston Respublikasining faxriy unvonlari va davlat mukofotlariga taqdim etilishi mumkin.

Oylik ish haqi, mukofotlar, qo'shimcha to'lovlar, ustama haqlari va xodimlarning pul ta'minotida nazarda tutilgan boshqa to'lovlar rag'batlantirishga kirmaydi.

Davlat bojxona qo'mitasi o'quv yurtlarida, ushbu Ustavning 25-bandida nazarda tutilgan rag'batlantirishlardan tashqari, o'qish kursini a'lo baholar bilan tugallashgan kursantlar va tinglovchilar nomini hurmat taxtasiga yozib qo'yish tarzidagi rag'batlantirishlar qo'llanadi.

Bida Nizomning 24-bandida nazarda tutilgan rag'batlantirish choralaridan tashqari kursantlarga nisbatan quyidagi rag'batlantirish choralari ham qo'llaniladi:

- a) ta'lim muassasasi hududidan navbatdan tashqari chiqib kelish;
- b) Hurmat taxtasiga kiritish;
- v) kursantning ota-onasi yoki turar joyiga minnatdorchilik xati yuborish;
- g) O'zbekiston Respublikasi DBQ raisi stipendiyasini tayinlash.

Rag'batlantirish choralari alohida xodimga nisbatan ham, bir guruh xodimlarga nisbatan ham qo'llanilishi mumkin.

Xodimga nisbatan bir yutug'i uchun faqat bitta rag'batlantirish chorasi qo'llanilishi mumkin.

⁶ <https://lex.uz/docs/-3680599>

Rug'batlantirish chorasini belgilashda xodimning xizmat ko'rsatkichlari va xizmat sifatini, shuningdek uning ilgari xizmatga qanday munosabatda bo'lganligi e'tiborga olinadi.

Nizomning 28-bandi «a», «b» va «v» kichik bandlarida nazarda tutilgan intizomiy jazo qo'llanilgan xodim mazkur jazoni bekor qilish orqali rug'batlantiriladi. Intizomiy jazoni bekor qilish huquqi uni qo'llagan boshliqqa, shuningdek yuqori turuvchi vakolatli rahbariyatga beriladi.

"Rug'batlantirish choralari, qoida tariqasida, quyidagicha qo'llaniladi:

minnatdorchilik e'lon qilish — yuklatilgan vazifani, boshliqning buyrug'i yoki topilmasini muvaffaqiyatli bajargan xodim (xodimlar guruhi)ga nisbatan;

qimmatbaho sovg'a yoki pul mukofoti bilan taqdirlash — xodim (xodimlar guruhi)ga nisbatan xizmat faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgani, xizmat vazifasini namunali bajargani va benuqson xizmati uchun, shuningdek zaxiraga (tashabbus) chiqishi munosabati bilan yoki musobaqa (bellashuv)ning yakuniy natijalariga ko'ra;

Faxriy yorliq bilan taqdirlash — xodim (xodimlar guruhi)ga nisbatan xizmat faoliyati davomida yuqori natijalarga erishgani, xizmat vazifasini namunali bajargani va benuqson xizmati uchun, shuningdek musobaqa (bellashuv)ning yakuniy natijalariga ko'ra va o'qishni (o'quv yilini) muvaffaqiyatli yakunlaganda;

ilmiy ko'krak nishoni bilan taqdirlash — xodimga nisbatan yuqori xizmat natijalari va ko'p yillik benuqson xizmati, bojxona organlari tizimini takomillashtirishga salmoqli hissa qo'shigani, xizmat burchini bajarish chog'ida mehnat va jasorat ko'rsatgani, shuningdek yosh avlodni Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qo'shgan munosib hissasi uchun;

muddatidan oldin navbatdagi maxsus unvon berish yoki egallab turgan lavozimida ko'zda tutilganidan bir pog'ona yuqori maxsus unvon berish — xodimga nisbatan yuqori xizmat intizomi, xizmat burchini bajarish chog'ida ko'rsatgan qahramonligi, jasorati va fidoyiligi, bojxona organlari amaliy faoliyatiga salmoqli hissa qo'shigani (ilmiy darajani olganda), xizmat vazifalarini yuksak darajada

bajarishda namuna bo'lgani uchun (bojxona organlarida xizmatni o'tash masalalarini tartibga soluvchi qonun hujjatlari talablariga muvofiq);

BI hududidan navbatdan tashqari chiqib kelish — yuklatilgan vazifalarni, komandirlarning buyruq yoki topshiriqlarini vijdonan bajargan kursantlarga nisbatan;

Hurmat taxtasiga kiritish — ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirok etayotgan, o'quv dasturlarini a'lo baholarga o'zlashtirgan BIning kursantlariga nisbatan;

ota-onasiga yoki turar joyiga minnatdorchilik xati yuborish — ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirok etayotgan, o'quv mavsumini a'lo baholar bilan yakunlagan O'zbekiston Respublikasi DBQ ta'lim muassasalarining kursantlariga nisbatan;

O'zbekiston Respublikasi DBQ raisining stipendiyasini tayinlash — ijtimoiy-madaniy hayotda faol ishtirok etayotgan, o'quv intizomiga rioya qilishda namuna bo'lgan, o'quv yilini a'lo baholar bilan yakunlagan BI kursantlariga nisbatan⁷.

Qo'llanilgan rag'batlantirish chorasi buyruq bilan e'lon qilinadi. Minnatdorchilik e'lon qilish va ta'lim muassasasi hududidan navbatdan tashqari chiqib kelish buyruq orqali ham, og'zaki ham e'lon qilinishi mumkin.

Rag'batlantirilganligi haqida xodimga shaxsan, saf oldida yoki kengaytirilgan majlis (yig'ilish)da tantanali ravishda e'lon qilinadi.

Tegishli rag'batlantirish to'g'risidagi buyruq e'lon qilingan vaqtda, qoida tariqasida, xodimlarga faxriy yorliq, qimmatbaho sovg'a yoki pul mukofotlari, ko'krak nishonlari topshiriladi.

Buyruq bilan e'lon qilingan rag'batlantirish chorasi xodimning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga kiritish orqali hisobga olinishi lozim.

Rag'batlantirish choralari hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi DBQ raisi tomonidan belgilanadi.

Bojxona organlari mansabdor shaxslari o'zlariga belgilab berilgan vazifalarni sidqidildan bajarmagan va boshqa hollarda ularga nisbatan jazo choralari ham qo'llaniladi.

⁷ <https://lex.uz/docs/-3680599>

Xodimlarga nisbatan quyidagi intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin:

- a) hayfsan;
- b) qattiq hayfsan;
- v) xizmatga to'liq muvofiq emasligi haqida ogohlantirish;
- g) maxsus unvonini bir pog'ona pasaytirish;
- d) egallab turgan lavozimidan ozod etish (pasaytirish);
- d¹) gauptvaxtada hibsda ushlab turish;
- e) bojxona organlari xizmatidan bo'shatish.

Nizomda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralari qo'llash taqiqlanadi.

Sodir etilgan nojo'ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo tayinlanadi.

Xizmat intizomi bir necha xodimlar tomonidan buzilganda, intizomiy jazo har bir aybdorga nisbatan alohida qo'llaniladi.

Sodir etilganligi ma'muriy jazo tayinlashga olib kelgan xatti-harakatlar uchun intizomiy jazo qo'llashga yo'l qo'yilmaydi.

Intizomiy jazo choralari qo'llangan xodimlar, agarda ularning xatti-harakatlarida jinoyat tarkibi alomatlari bo'lsa, ular jinoy javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Intizomiy jazo choralarining qo'llanilishi asosli bo'lishi va sodir etilgan nojo'ya xatti-harakat og'irligi hamda ayb darajasiga muvofiq kelishi zarur. Intizomiy jazo choralari belgilash chog'ida nojo'ya xatti-harakat xususiyati, sodir etilish holati, uning oqibatlari, aybdorning bungacha bo'lgan xulq-atvori, bojxona organlaridagi xizmat muddati, shuningdek yuklatilgan xizmat vazifalarini bajarishga bo'lgan munosabati e'tiborga olinadi.

Xodim tomonidan sodir etilgan nojo'ya xatti-harakat unchalik ahamiyatga ega bo'lmasa, boshliq unga nisbatan intizomiy jazo chorasini qo'llamasligi va boshqa banduy holatlarga yo'l qo'ymaslik borasida og'zaki ogohlantirish berish bilan kifoyalanishi mumkin.

Jamoda yuzaga kelgan nizoli vaziyatlarni hal etish, nojo'ya xatti-harakatlar sodir etgan xodimlarga jamoatchilik ta'sirini o'tkazish maqsadida bojxona

organlarida saylov asosida o'rtoqlik axloq sudlari tashkil etilib, O'zbekiston Respublikasi DBQ raisi tomonidan belgilangan tartibda faoliyat ko'rsatadi.

"Intizomiy jazo choralari, qoida tariqasida, quyidagicha qo'llaniladi:

hayfsan — normativ-huquqiy hujjatlar va Nizom talablarini, xizmat guvohnomasidan foydalanish qoidalarini buzgan, belgilangan kun tartibiga muntazam ravishda amal qilmagan va xizmat majburiyatlarini bajarmagan, jamoadagi ma'naviy-ruhiy muhitga salbiy ta'sir ko'rsatgan xodimlarga nisbatan;

qattiq hayfsan — amaldagi «hayfsan» intizomiy jazosi bo'lgan xodimlarga nisbatan, xizmat intizomini, normativ-huquqiy hujjatlar va Nizom talablarini takroran buzgani uchun;

xizmatga to'liq muvofiq emasligi haqida ogohlantirish — amaldagi intizomiy jazosi bor-yo'qligidan qat'i nazar, xizmat intizomini, normativ-huquqiy hujjatlar va Nizom talablarini qo'pol ravishda buzgan, xizmat burchiga mas'uliyatsiz yondashgan, ish samaradorligi past bo'lgan xodimlarga nisbatan;

maxsus unvonini bir pog'ona pasaytirish yoki egallab turgan lavozimidan ozod etish — amaldagi intizomiy jazosi bo'lgan, xizmat intizomini, normativ-huquqiy hujjatlar va Nizom talablarini takroran qo'pol ravishda buzgan, xizmatni o'tashga loqaydlik bilan munosabatda bo'lgan, yuklatilgan xizmat majburiyatlarini bajarmagan xodimlarga nisbatan;

gaaptvaxtada hibsda ushlab turish — qat'iy intizomiy jazo chorasi sifatida sodir etgan nojo'ya xatti-harakati bojxona organlaridan bo'shatish uchun asos bo'ladigan xodimlarga nisbatan;

bojxona organlari xizmatidan bo'shatish — xizmat intizomini qo'pol ravishda buzgan, bojxona organi xodimi sha'niga putur yetkazuvchi xatti-harakat sodir etgan, intizomiy jazo choralari mavjud bo'la turib muntazam ravishda xizmat intizomini buzgan, qonun hujjatlarida belgilangan cheklov va taqiqlarga rioya etmagan xodimlarga nisbatan;

navbatdan tashqari naryadda xizmat o'tashga yoki besh sutkagacha xo'jalik ishlariga jalb etish, bir oy muddatgacha ta'lim muassasasi hududidan navbatdagi chiqish huquqidan mahrum qilish — yuklatilgan vazifalarni va komandir

(boshliq)ning topshiriqlarini bajarmagan, BIning o'rnatilgan ichki tartib-qoidalarini buzgan, o'quv dasturini qoniqarsiz o'zlashtirgan kursantlarga nisbatan;

kursantlar ro'yxatidan o'chirish — BI kursantlariga nisbatan odob-axloq qoidalarini, xizmat intizomini buzganligi, o'quv dasturini o'zlashtira olmaganligi uchun⁸.

Amaldagi intizomiy jazo bor-yo'qligidan qat'i nazar, xizmat intizomini qo'pol ravishda buzgan xodimga nisbatan bojxona organlari xizmatidan bo'shatishgacha bo'lgan har qanday intizomiy jazo qo'llanilishi mumkin.

Quyidagilar xizmat intizomini qo'pol ravishda buzish sirasiga kiradi:

bojxona ishi sohasidagi normativ hujjatlar hamda qonun hujjatlari bilan o'rnatilgan qoidalarining buzilishiga olib kelgan, zimmasiga yuklatilgan vazifalarni shaxsiy foyda olish maqsadida bajarish yoki bajarmaslik;

fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzishga, odamlarning hayoti va (yoki) sog'lig'iga xavf tug'dirishga olib keluvchi xatti-harakatlar sodir etish, agar bu jinoiy javobgarlikka sabab bo'lmasa;

xizmat joyida alkogol ichimlik, giyohvandlik vositasi va (yoki) boshqa moddalar ta'sirida mast holatda bo'lish;

xodimning sababsiz ravishda uzluksiz uch kundan ortiq xizmat joyida bo'lmasligi;

maxfiylik tartiboti talablarini buzish, agar bu jinoiy javobgarlikka olib kelmasa;

xodimga ishonib topshirilgan tabel quroli va uning o'qlarini, mol-mulk va (yoki) texnikalarni qasddan yo'q qilish, zararlantirish yoki uning (ularning) yo'qolishiga olib kelgan ehtiyotsizlik bilan saqlash, agar bu jinoiy javobgarlikka olib kelmasa.

Xodim xizmat joyida alkogol ichimlik, giyohvandlik vositasi va (yoki) boshqa moddalar ta'sirida mast bo'lgani sababli intizomiy javobgarlikka tortish uchun ushbu holatni isbotlash maqsadida tibbiy tekshiruv natijalariga, agar xodim tekshiruvdan bosh tortsa, kamida ikki xodim yoki boshqa shaxslar ko'rsatmalariga amal qilinadi.

⁸ <http://lex.uz/docs/-3680599>

Odob-axloq qoidalarini, shuningdek boshliq va xodimlar o'rtasidagi munosabat qoidalarini qo'pol ravishda buzish bojxona organi xodimi sha'niga putur yetkazuvchi xatti-harakat sodir etish hisoblanadi.

Jamiyatdagi odob-axloq qoidalarini ochiqdan-ochiq pisand qilmaslik bilan bog'liq bo'lmagan oilaviy kelishmovchiliklar, janjallar va maishiy nizolar bojxona organi xodimi sha'niga putur yetkazuvchi xatti-harakat sirasiga kirmaydi.

Muntazam ravishda xizmat intizomini buzish deganda buyruq asosida e'lon qilingan amaldagi intizomiy jazo chorasi mavjud bo'lgani holda, xodim tomonidan xizmat intizomini bir necha bor buzish tushuniladi.

Gauptvaxtada hibsdan ushlab turish intizomiy jazo chorasi qo'llanilganda, agar xodim jinoiy javobgarlikka tortilmasa, uni ushbu nojo'ya xatti-harakati uchun bojxona organlaridan bo'shatishga yo'l qo'yilmaydi.

Gauptvaxtada hibsdan saqlash muddati oddiy safdorlar, kichik ofitserlar va serjantlar tarkibi xodimlari uchun — 10 sutkagacha, katta ofitserlar tarkibi xodimlari uchun — 5 sutkagacha.

Gauptvaxtada hibsdan ushlab turish intizomiy jazo chorasi ayollarga nisbatan qo'llanilishi mumkin emas.

Intizomiy jazo qo'llashdan avval xodimdan yozma tushuntirish olinishi lozim. Agar xodim ushbu tushuntirishni berishdan bosh tortsa, tegishli ravishda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.

Tushuntirishni berishdan bosh tortish holati sodir etilgan qilmish uchun intizomiy jazo tayinlashga to'sqinlik qila olmaydi va jazoning og'irroq ko'rinishi va choralari qo'llashga olib kelmaydi.

Intizomiy jazo choralari qo'llash paytida boshliq xodimning sha'ni va qadrigimnatini kamsitmasligi, u bilan munosabatda qo'pollikka yo'l qo'ymasligi zarur.

Maxsus unvonini bir pog'ona pasaytirish yoki egallab turgan lavozimidan ozod etish tarzidagi intizomiy jazo choralari, qoida tariqasida, aybdorga boshqa intizomiy jazo turlari tegishli ta'sir ko'rsatmagan hollarda qo'llanilishi mumkin.

Intizomiy jazoning qo'llanilishi xodimni nojo'ya xatti-harakat oqibatida yetkazilgan moddiy zararni qoplash majburiyatidan ozod etmaydi.

Intizomiy jazo nojo'ya xatti-harakat boshliqqa ma'lum bo'lgan kundan boshlab bir oy muddat ichida, xizmat tekshiruvi o'tkazilganda esa — tekshiruv tugagan kundan boshlab o'n sutkadan kechikmay qo'llanilishi kerak, bunda aybdorning xalqaro, ta'tilda bo'lgan va buyruq chiqarilgan vaqtlar hisobga olinmaydi.

Intizomiy jazo nojo'ya xatti-harakat sodir etilgan kundan bir yildan ortiq muddat o'tgandan keyin qo'llanilishi mumkin emas.

Mast holatda bo'lgan aybdorga nisbatan intizomiy jazo qo'llash, shuningdek undan har qanday tushuntirish olish xodim hushyor holga kelguncha kechiktiriladi.

Qo'llanilgan intizomiy jazo chorasi buyruq bilan e'lon qilinadi. Tanbeh, navbatdan tashqari naryadda xizmatni o'tashga yoki besh sutkagacha xo'jalik ishlariga jalb etish, bir oy muddatgacha BI hududidan navbatdagi chiqish huquqidan mahrum etish ham buyruq orqali, ham og'zaki e'lon qilinishi mumkin.

Buyruqda e'lon qilingan intizomiy jazo qo'llash haqidagi qaror O'zbekiston Respublikasi DBQ raisi tomonidan belgilangan tartibda o'tkaziladigan xizmat, kompleks yoki inspektorlik tekshiruvlari o'rtoqlik axloq sudi xulosasi, asosida qabul qilinadi.

Intizomiy jazo chorasi qo'llanilganligi haqida xodimga shaxsan, saf oldida yoki kengaytirilgan yig'ilish (majlis)da e'lon qilinadi.

Amaldagi intizomiy jazosi mavjud bo'lgan xodim ushbu jazo bekor qilingunga qadar rag'batlantirishga, navbatdagi maxsus unvon olishga va yuqori lavozimlarga tayinlanishga taqdim etilmaydi.

Shikoyat bilan arz qilingan hollarda tayinlangan intizomiy jazoni ijro etish to'xtatilmaydi.

Xodim intizomiy jazo e'lon qilingan kundan e'tiboran bir oy muddat ichida yuqori turuvchi boshliqqa shikoyat bilan murojaat etishi mumkin.

Buyruq asosida tayinlangan intizomiy jazo tayinlangan vaqtdan boshlab bir yil o'tgach bekor qilinadi, agar xodim shu muddat ichida yangi intizomiy jazoga tortilmasa. Rag'batlantirish tartibida jazo bir yil o'tmasdan bekor qilinishi mumkin.

Agarda bir yil ichida xodimga nisbatan bir necha intizomiy jazo tayinlansa, ularni bekor qilish muddati oxirgi tayinlangan intizomiy jazo chorasi sanasi bo'yicha hisoblanadi.

Buyruqda e'lon qilingan intizomiy jazo chorasi xodimning shaxsiy hujjatlar yig'majildiga kiritish orqali hisobga olinishi lozim.

Intizomiy jazo choralari hisobga olish tartibi O'zbekiston Respublikasi DBQ raisi tomonidan belgilanadi.

2.4

Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi

O'z ichiga axborotlarni yig'ish, saqlash, Qayta ishlash va ularni berishning texnologik jarayonlarini kompleks avtomatlashtirishni, barcha darajalaridagi bojxona organlarining Yagona ma'lumotlar bazasidan tekker ma'lumot olishini ta'minlashni, bojxona nazorati ostidagi tovarlar bilan aniq vaqt ko'lamida soliq etilayotgan barcha tartib-qoidalarining muntazamini oliji borishini tashkiliy-funksional tuzilmasini tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasi

Vazirlar Maxkamasi

28.09.2004 y. N 450

"O'zbekiston Respublikasi

Davlat bojxona

Qo'mitasining Yagona

Avtomatlashtirilgan Axborot

Tizimini tashkil etish

to'g'risida"gi Qaroriga asosan

Respublikada yagona avtomatlashtirilgan bojxona axborot tizimi barpo etildi.

Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi

Ushbu hujjat bojxona siyosatini amalga oshirishning samaradorligini oshirish xamda tovarlar bojxonada rasmiylashtirilishini xisobga olishning Yagona tizimini joriy etish maqsadida ishlab chiqildi.

Mazkur holat doirasida O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasining "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasining Yagona

2.9-rasm. YAAT avtomatlashtirilgan axborot tizimini (YAAT) tashkil etish" loyixasini amalga oshirish to'g'risidagi taklifi qabul qilindi.

Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini barpo etishda Yana quyidagi ishlar belgilab olingan. O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy


banki ko'rsatib o'tilgan loyixani amalga oshirish uchun xorijiy bank bilan belgilangan tartibda qarz bitimi tuzish va xorijiy bank mablag'lari **O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasiga** qayta moliyalashtirilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son, yu'ni "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini ta'minlash uchun zarur bo'lgan qo'riqlar to'g'risida" Qaroriga asosan 2018 — 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» (keyingi o'rinlarda Yo'l xaritasi deb yuritiladi) tasdiqlandi.

Shuningdek hujjatda yo'l xaritasini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Moddiy yordam, ijtimoiy himoya, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilangan.


Yana hujjatning 5-qism "b" bandiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisining birinchi o'rinbosari quyidagilar uchun shaxsan javobgar hisoblanadi:

➤ davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini tubdan takomillashtirish, axborotlarni tahlil qilish va undan foydalanish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng



foydalanish orqali bojxona organlarining jismoniy va yuridik shaxslar bilan bevosita aloqasiz muloqot qilish shakllarini joriy etish;

➤ xavfni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish va samarali ishlashini ta'minlash, vijdonli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga nisbatan soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillarini ko'llash tartibini shakllantirish.



Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Davlat bojxona qo'mitasi tuzilmasi tarkibi qaysilar?
2. Bojxona organlarning yagona tizimi qanday qoidalariga asoslanadi?

3. Bojxona organlarining yagona tizimini tarkibiga bu tizimni tashkil etuvchi qaysi organlar kiritiladi ?
4. Bojxona komplekslari va postlari strukturasi qanday tuzilmaga ega?
5. Bojxona organlari hodimlari qanday tarkibni o'z ichiga oladi?
6. Hozirgi kunda Davlat bojxona qo'mitasi raisi lavozimida kim?
7. Bojxona organlarining intizomiy ustavi nechki qismdan iborat?
8. "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona Qo'mitasining Yagona Avtomatlashtirilgan Axborot Tizimini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori qachon tasdiqlangan ?
9. Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimi nimalarni o'z ichiga oladi?
10. Yagona avtomatlashtirilgan axborot tizimini barpo etishda qanday ishlar belgilab olingan?

JAHON HOLIYAVIY - IQTISODIY INQIROZI DAVRIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOJXONA SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH

Reja:

Asosiy tushuncha va atamalar

*Bojxona siyosati,
kontrabanda, Bojxona
organlari, bojxona
statistikasi, tovar
nomenklaturasi,
valyuta nazorati, Jahon
Savdo Tashkiloti (JST),
Erkin savdo siyosati
(«frifrederlik»),
Proteksionizm siyosati,
Qisman cheklash
siyosati, Tanqis bazorni
to'ldirish siyosati,
Demokratizm prinsipi*

3.1 Inqiroz davrida
Bojxona organlarining
vazifalari

3.2 Bojxona siyosatini
tashkil etuvchi iqtisodiy
asoslar

3.3 Bojxona siyosatining
asosiy vazifalari va
tamoyillari

Mustaqillik yillarida bojxona xizmatining roli ancha o'sdi, bu sohadagi qonunchilik takomillashib, xalqaro talablarga javob bera oladigan darajaga chiqdi. samarali bojxona xizmati faoliyati uchun zarur huquqiy baza yaratildi, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining Normativ-huquqiy hujjatlari "O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi", "Davlat bojxona xizmati to'g'risida", "Muhofaza



choralari, antidemping va kompensatsiya choralari to'g'risida", "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi Qonunlari ishlab chiqildi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi Bojxona siyosatini takomillashtirishda Bojxona organlarining vazifalari o'zgarmaydi. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi, Davlat bojxona qo'mitasining Qoraqalpog'iston

Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri bo'yicha boshqarmalari, bojxona komplekslari va bojxona postlari bojxona organlaridir. Davlat bojxona qo'mitasi o'z vakolatlari doirasida yagona boj siyosati o'tkazilishini, bojxona ishlari to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini, DBQ organlari tizimining samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi «Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga muvofiq Bojxona organlarining quyidagi asosiy vazifalari mavjud:

- Jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari, erkinliklari hamda qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlarini himoya qilish
- O'z vakolati doirasida O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash
- Bojxona nazorati va rasmiylashtiruvini amalga oshirish
- Bojxona to'lovlarini undirish
- Bojxona to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish, qonunchilik buzilishlarining, shu jumladan kontrabandaning oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo'yish
- Tashqi savdo operatsiyalarining monitoringini amalga oshirish, eksport-import shartnomalarining ijrosini tahlil qilish, shuningdek tashqi savdo operatsiyalarining bojxona organlariga taalluqli qismini o'tkazishda valyuta to'g'risidagi qonunchilikka rioya etish
- Tovarlarining tashqi savdosiga doir bojxona statistikasini hamda tashqi iqtisodiy faoliyatning tovar nomenklaturasini yuritish
- Fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish
- Xavfni boshqarish tizimi qo'llanilishi samaradorligining muntazam monitoringini amalga oshirish
- Bojxona organlari faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini va nazoratning texnik vositalarini qo'llash
- Bojxona ishini rivojlantirish va takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish
- O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining bojxona ishiga taalluqli qismidan kelib chiqadigan majburiyatlarning bajarilishini ta'minlash

3.1.-rasm. Bojxona organlarining vazifalari.

Bojxona organlari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa vazifalarni ham bajaradilar. Bojxona organlari o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni davlat boshqaruvining boshqa organlari va davlat hokimiyati mahalliy organlari bilan hamkorlikda bajaradilar. Mazkur organlar bojxona nazoratini amalga oshirish hamda bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga qarshi kurashda bojxona organlariga ko'maklashishlari shart.


3.2

Bojxona siyosatini tashkil etuvchi iqtisodiy asoslar

Bojxona ishi qonunlari davlat iqtisodiyotini, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi muhim richaglardan biridir. Davlat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash iqtisodiyotning asosiy institutlaridan biri bo'lgan bojxona xizmatiga tegishli. Tashqi savdo aylanmasini tartibga solishda ishtirok eta borib, bojxona xizmati davlat budjetini to'ldirib boradi va shu yo'l orqali iqtisodiy rivojlanish omili bo'lib xizmat qiladi.

Bojxona siyosatini ishlab chiqish vakolati Oliy Majlisga tegishlidir. Bojxona siyosatining umumiy rahbarligi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi amalga oshiradi.

Bojxona nazoratida tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdoni tartibga solish bilan bog'liqdir. Ko'p davlatlar ishbiarmonlari o'zlarining ichki bozoriga tashqi raqobatchilarni kiritishga qarshidirlar. Xaridorlar esa arzon va imkoni boricha sifatli mahsulot sotib olishdan manfaatdorlar.




3.2.-rasm. Bojxona siyosatining asosiy maqsadlari

Ushbu holat ko'plab davlatlarning siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini ifodalovchi va tushkunlikka tushurib yuboruvchi xolatdir. Davlat ushbu holatda shunday siyosatni amalga oshirish lozimki, mamlakat to'raligicha yengib chiqsin, shuningdek ichki bozorga import tovarlarining kirib kelishiga yo'l qo'ymas.

Iqtisodiy va bojxona siyosatining 4 ta asosiy ko'rinishlari mavjud bo'lib, ular buyosita davlat iqtisodiy qiziqishidan kelib chiqib qo'llaniladi.

Ular quyidagilardan iborat:



3.3.-rasm. Iqtisodiy va bojxona siyosatining asosiy ko'rinishlari

Qismaniy cheklash siyosati.Ichki bozorga chet el tovarlarini kiritmaslik maqsadida amalga oshiriladi. Masalan: kinovideo mahsulotlari, bosma mahsulotlari, g'ayriqonuniy qarashlar va xokazolar.

Proteksionizm siyosati, (lotinch Protectib - yashirish, himoya qilish).Ushbu siyosat ichki bozorni tashqi raqobatdan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.

Odatda, u eksport ishlab chiqarishni u yoki bu darajada importning o'rmini berishni rag'batlantirish bilan birga qo'shib olib boriladi. Basharti, milliy ishlab chiqarish raqobatga bardoshli bo'lmasa, tadbirkorlik tuzilmalarining qistovi bilan davlat tomonidan qabul qilinadi. Proteksionizm – milliy tovar ishlab chiqaruvchilariga alohida imtiyozli sharoitlar yaratib berishdir, bu esa milliy iqtisodiyotda turlicha oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Bir tomondan, importning cheklanishi iste'molchilarga va umuman mamlakatga zarar yetkazadi, chunki xalqaro mehnat taqsimoti afzalliklaridan foydalanilmaydi. Yuqori bojlar solinishi orqali milliy ishlab chiqaruvchilarga

vujudga keltiriladigan imtiyozli shartlar texnologik jihatdan eskirgan ishlab chiqarish konservatsiya qilinishiga olib kelishi mumkin (monopoliya samarasi).

Ikkinchi tomondan, xorijiy raqobatchilarga qarshi proteksionistik choralar ko'rilishida mahalliy tadbirkorlarni himoya qilish milliy kompaniyalar va firmalar shakllanishi paytida juda zarurdir. Bu xo'jalik yuritishning yangi shakllariga o'zini saqlab qolish, kuch to'plash imkonini beradi.

Erkin savdo siyosati («fritrederlik»)- tashqi savdoda chegaralashni minimumgacha kamaytirish (iloji boricha kamaytirish). Odatda erkin savdo siyosati bozorda peshqadamlik qilayotgan, raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarayotgan mamlakatlar tomonidan amalga oshiriladi. Bojxona siyosati, erkin savdoga shuningdek, ko'proq olib kelinayotgan mahsulotlar ichki ishlab chiqarish bilan raqobatdoshlik qilmaydigan yoki muhim tarmoqlarda hom ashyo sifatida ishlatiladigan mamlakatlarga qaratilgan. Agar import ichki ishlab chiqarish bilan raqobatdoshlik qilmasa, mamlakatning siyosiy kuchlari iste'molchilar uchun arzonga tushadi degan fikrga keladilar. Agar himoya qilishga hech narsa bo'lmasa, proteksionizm ishonituvchan bo'lmaydi. Shunga o'xshab, chet davlatlari ishlab chiqarishi bilan raqobatbardosh tarmoqlardan yirikroq tarmoqlar uchun zarur xom ashyo bo'lgan mahsulot odatda bojlardan foriq etiladi (yoki kam miqdorda belgilanadi), lekin istisno bo'lishi ham mumkin.

Tanqis bozorni to'ldirish siyosati- «teskari proteksionizm». U faqat hammaga joy topiladigan katta milliy tanqis bozorda samarali hisoblanadi.

Ushbu siyosat milliy bozor nihoyatda taqchil bo'lgan taqdidragina samarali bo'ladi. Ushbu strategiya unsurlaridan 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida O'zbekistonda xorijiy tovarlarni jalb qilish maqsadida foydalanildi. Ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi eski, rejali aloqalarning barham topishi, yangi mustaqil davlatlarni tushkunlikka solib qo'ygan ishlab chiqarishning pasayishi deyarli barcha tovar bozorlarida taqchillikni keltirib chiqardi. Import bojlarining bekor qilinishi, imtiyozli kredit berish va boshqa choralar 1995 yil o'rtalariga kelib taqchillik muammosi kun tartibidan olib tashlanishiga ko'maklashdi. Agar u yoki bu siyosat shartlari hamma mahsulot va bozorlar bo'yicha o'tkazilsa, uni amalga oshirish qiyin

bo'lishi mumkin. Agar siyosat alohida mahsulot va bozorlar bo'yicha o'tkazilsa, ushbu shartlar oson bo'lishi ham mumkin. Importni cheklash haridorlarga va mamlakatga katta zarar etkazishi ham mumkin. Chunki xalqaro mehnat taqsimotini foydali darajasi pasayadi. Yuqori boj belgilash eskirgan texnologiyani milliy ishlabarmonlar qo'llashiga olib kelmoqda. Hozirgi sharoitda milliy mahsulot va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlarga boj to'lovlari kamaytirilgan tartibi belgilanmoqda. Bu esa valyuta oqimini kirib kelishiga olib keladi va mamlakat iqtisodiyotini barqaror olib kelishiga sabab bo'ladi. Davlat bojxona siyosati vositalari tarifli va notarif boshqarish vositalari orqali ularning tovarlar, ishlar va xizmatlar eksporti va importi bo'yicha faoliyatiga ta'sir ko'rsatadi. Bojxona organlari O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

3.3

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari va tamoyillari

O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosatini amalga oshirishi o'z maqsadlariga erishishga yo'naltirilgan (2-moddada ko'rsatib o'tilgan «Bojxona kodeksi» da). Har qanday faoliyat qandaydir tamoyillarga asoslanadi va ushbu tamoyillar asosida o'z maqsadiga erishishga natijaviy asos sifatida qaraladi. Xuddi shu yo'sinda bojxona siyosatining asosiy tamoyillari va vazifalari ham aniq maqsadlarni amalga oshirishga yo'naltirilgan.

Bojxona siyosati o'z ichiga aniq maqsadlarni, tamoyil va vazifalarni olgan konsepsiyasiga asoslanadi. Har bir tamoyil xalqaro tajribalar bazasi ostida ishlab chiqiladi va **Jahon Savdo Tashkiloti (JST)** xujjatlariga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki va tashqi siyosati bazasi ostida ham ishlab chiqiriladi va to'liq unga asoslanadi.

Bojxona siyosati o'z ichiga aniq maqsadlarni, tamoyil va vazifalarni olgan konsepsiyasiga asoslanadi. Har bir tamoyil xalqaro tajribalar bazasi ostida ishlab chiqiladi va Jahon Savdo Tashkiloti (JST) hujjatlariga kiritiladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ichki va tashqi siyosati bazasi ostida ham ishlab chiqariladi va to'liq unga asoslanadi



WTO OMC

3.4.-rasm.

Bojxona siyosatining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Milliy iqtisodiyot tarkibini qayta qurishga yordamlashish;
- Mamlakat xalq xo'jaligini jahon iqtisodiyotiga kirishi;
- Bozorning ishlashi uchun sharoit yaratish;
- Mamlakat savdo va to'lov balansini kuchaytirish;
- Davlat budjeti daromadining o'sishi;
- Davlatning siyosiy savdo tizimlarini mustahkamlash;
- Chet davlatlari va ularning ittifoqdoshlarini kamsitish aksiyalariga

qarshi harakat;

- Korxona, tashkilot va tadbirkorlarning tashqi bozorga chiqishini ta'minlash.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tarkibiy o'zgarish raqobat ta'sirida vujudga kelgan tarmoqlararo mablag' va ishchi kuchini yo'naltirish asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Brinchi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatining asosiy prinsiplariga asoslanadi. Chunki bojxona ishi ham tashqi iqtisodiy aloqalarning bir bo'lagi sifatida

davlatning iqtisodiy qiziqishlarini himoya qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, u quyidagi prinsiplarni o'z ichiga oladi:

1. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olish prinsipi. Bunda bojxona qonun hujjatlarida xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olishidan iboratdir (O'zbekiston Respublikasi bojxona kodeksining muddasining 3-qismi). O'zbekiston jahon hamjamiyatiga qo'shilar ekan, o'z qiyofasini yo'qotmaslikka intiladi, bunda xalqaro huquqiy normalar va standartlarga rioya qilishga tayyordir. O'zbekiston Respublikasining Birlashgan Millatlar Tashkilotiga, Jahon Bojxona Tashkilotiga va boshqalarga a'zo bo'lib kirishi O'zbekiston xalqaro hamjamiyatning ajralmas qismiga aylanganligini, bojxona ishi sohasida muhim jahon muammolarini hal qilishda faol ishtirok etish uchun katta imkoniyatlar ochilganligini anglatadi.

2. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bojxona siyosati yagonaligi prinsipi. Barcha joylarda turlicha bojxona siyosati o'tkazilishidan voz kechishni, O'zbekiston Respublikasining butun bojxona hududiga yagona bojxona siyosati tatbiq etilishini anglatadi. Bojxonato'g'risidagi qonun hujjatlari, agar hujjatlarning o'zida kechroq muddat ko'rsatilmagan bo'lsa, rasmiy e'lon qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

3. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalar o'rnatilishi va rivojlanishi prinsipi. Ushbu prinsip O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlikda faol ishtirok etishga intilishi orqali amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasida bojxona ishi umumqabul qilingan xalqaro normalar va amaliyot bilan o'ynash va bixillashish yo'nalishida rivojlanmoqda. O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar doirasida hamkorlik chuqurlashishi tarafdoridir.

4. O'z milliy davlat manfaatlarini yuqoriligi sharoitida o'zaro manfaatlar va savdo yengilliklarini har tomonlama hisobga olish prinsipi. Ayrim iqtisodiy muammolarni hal etish, mustaqil iqtisodiy siyosat o'tkazish va bozor iqtisodiyotiga o'tish uchun chuqur islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotning barqarorlashuvi, rivojlanish sur'atlari muayyan darajada hozircha ijtimoiy-siyosiy vaziyatga va qo'shni mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyatga bog'liqdir. Bojxona siyosati, agar u

hamkor davlatlarning joriy manfaatlarini hisobga olsa, muayyan murosallarga borsa, o'z samaradorligini oshiradi. Biroq davlatlarning milliy xavfsizligi manfaatlar shubha ostiga qo'yilishi kerak emas.

5. Kamsitmaslik prinsipi. Davlat o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida bojxona siyosati vositalari orqali ko'pincha u yoki bu milliy bozorda cheklash choralaridan foydalanadi. Ushbu choralar kamsitmaslik shaklida amalga oshirilishi kerak, ya'ni barcha qatnashuvchi davlatlarga nisbatan o'tkazilishi, ayrim mamlakatlarga nisbatan tanlab o'tkazilmasligi zarur.

6. Bir tomonlama harakatlarning qabul qilinmasligi prinsipi. Milliy bozorni himoya qilish bo'yicha qarorlar ko'pt omonlama maslahatlashuvlardan keyin qabul qilinishi kerak.

7. Demokratizm prinsipi. Bojxona siyosatini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda demokratizm prinsipi bojxona ishi sohasida fuqarolarning, xo'jalik sub'ektlarining huquqlari himoya qilinishi ta'minlanishini taqozo etadi. Bojxona organlari ularga yuklangan vazifalarni bajarishda jamoat tartibini himoya qilish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishiga, aholining axloqiyligi, insonning hayoti va sog'lig'i, hayvonla va o'simliklar muhofazasi, atrof va tabiiy muhit himoyasi, tashqaridan olib kiriladigan tovarlardan milliy iste'molchilarni himoya qilishga ko'maklashadi.



3.5.-rasn. Bojxona siyosati tamoyili uch elementga asoslanadi.

Iqtisodiyotdagi ahvolni tahlil qilish. Oqilona bojxona siyosati ana shundan boshlanadi. Tahlil makrodarajada - mamlakat iqtisodiyotining ahvoli, uning byudjetga, to'lov balansi va boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni o'rganish, aniq, bozorlar darajasida esa, talab va taklif nisbatini, milliy va xorijiy taklifni, tovarlarning sifat tavsifini, raqobatni va jazolarni o'rganish asosida amalga oshiriladi. Tahlil davomida hal etilmagan muammolar aniqlanadi, ularni hal etish,

salbiy hodisalarni bartaraf etish yoki bartaraf etmaslikning muqobil oqibatlari baholanadi.

Muqsadlarni tahlil qilish. U barcha imkoniyatlarni aniqlashdan, ya'ni maqsadlarni umumlashtirishdan boshlanadi, so'ngra har bir maqsadning xususiyati aniqlanadi. Ushbu maqsadlar dastlabki, bevosita yoki pirovard, miqdorli yoki sifatli, qisqa muddatli yoki o'rta muddatli maqsadlarga bo'linadi. Ayrim maqsadlarga bir vaqtning o'zida turlicha tavsiflar berilishi mumkin. Bunday holda zamonaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda ularning asosiylarini ko'rsatish zarur. Maqsadlar shuningdek ularning iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatish ko'lamlari va xarajatlarning miqdor ko'rsatkichlari, institutsional, moliyaviy va kadrlar ta'minoti, imkoniyatlari bo'yicha ham farqlanadi. So'ngra maqsadlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar aniqlanadi, ular uyg'un, betaraf yoki nizoli bo'lishi mumkin.

Bojxona orqali tartibga solish vositalari qo'llanishini tahlil qilish. Bojxona siyosati konsepsiyasini ishlab chiqishda ayrim tartibga soluvchi vositalar qo'llanilishi shartlarini, ayrim vositalarning birgalikda qo'llanilishi darajasini, ularning maqsadga muvofiqligini, ularni qo'llashdan ko'riladigan qo'shimcha samaralarni, tartibga solish vositalari samaradorligini va ularni zarurligining yetarlicha asoslanganligini aniqlash muhimdir.

Samarali bojxona siyosati milliy iqtisodiyotni jahon bozori strukturasi bilan o'zgarishlaridan himoya qilishga, uning jahon xo'jaligiga qo'shilishiga faol ishtirok etishga da'vat etilgandir. O'zbekistonning bojxona ishi sohasida hamkorlikda qatnashishi ushbu yo'nalishdagi juda muhim qadam hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosati jahondagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarni nisbatan tez o'zgarayotganligini hisobga olib, dinamik, harakatchan, moslashuvchan bo'lishga, ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasi jahon xo'jaligiga qo'shilayotgan bir sharoitda gap iqtisodiy suverenitet, vatan iqtisodiyotini rag'batlantirish, mamlakatning tub manfaatlariga rioya qilish bo'yicha borar ekan, yetarlicha barqaror bo'lishga da'vat etilgandir. Bunga bojxona siyosati o'z rivojlanishining umumiy asoslangan konsepsiyasiga tayyargandagina erishish mumkin.

Bojxona siyosati konsepsiyasi ishlab chiqilishi bojxona orqali tartibga solishning real amaliyotidan oldinda borishi kerak, ya'ni u aniq maqsadlar qo'yilishi va ular amalga oshirilishigacha iqtisodiyotdagi ahvol o'zgartirishini anglangan zaruriyati sifatida shakillantirilishi kerak. Agar konsepsiya davlat boshqaruv apparatining iqtisodiy –siyosiy eksperimentlari jarayonida shakllansa, bojxona siyosatidan orqada qolishi mumkin.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar



1. Bojxona oid O'zbekiston Respublikasi Qonunlarining Normativ-huquqiy hujjatlarini bilasizmi?



2. O'zbekiston Respublikasi Bojxona siyosatini takomillashtirishda Bojxona organlari qanday vazifalarni bajaradi?

3. O'zbekiston Respublikasi Bojxona organlari qanday tarkiblarga bo'linadi?

4. Bojxona organlari o'z vazifalarini bajarishda qanday huquqlarga ega?

5. O'zbekiston Respublikasining "Davlat Bojxona xizmati to'g'risida"gi Qonunining Bojxona organlarining majburiyatlarda nimalar belgilab qo'yilgan?

6. Bojxona siyosatining asosiy maqsadlarini ayting?

7. Iqtisodiy va bojxona siyosatining qanday asosiy ko'rinishlari mavjud?

8. Qisman cheklash siyosati deganda nimani tushunasiz?

9. Protektsionizm siyosati deganda nimani tushunasiz?

10. Tanqis bozorni to'ldirish siyosati, Erkin savdo siyosati («fritrederlik») deganda nimani tushunasiz?

BOJXONA REJIMLARI VA ULARNI QO`LLASH SHARTLARI

Reja:

Asosiy tushuncha va atamalar

Bojxona rejimlari, bojxona rasmiylashtiruvi, erkin muomalaga chiqarish (import); reimport; eksport; reeksport; tranzit; vaqtincha olib kirish (olib chiqish); vaqtincha saqlash; bojxona ombori; erkin bojxona zonasi; erkin ombor; boj olinmaydigan savdo do'koni; bojxona hududida qayta ishlash; bojxona nazorati ostida qayta ishlash; bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash; yo'q qilish; davlat foydasiga voz kechish.

1. Bojxona rejimlarini ahamiyati va huquqiy asoslari
2. Bojxona rejimlarini turlari
3. Bojxona rejimlarining qisqacha mazmuni

Rejim soʻzining lugʻaviy maʼnosi **intizomiy amal** yoki **tartibot** mazmunini bildiradi. Ingliz, rus, fransuz, shuningdek, boshqa tillarda ham atamadan rejim bir hil foydalaniladi.

Bojxona rejimi — Oʻzbekiston

Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib oʻtiladigan tovar va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui; yaʼni bojxona hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlarning maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalarni har

bir rejimga nisbatan xalqaro huquq meʼyorlari asosida qoʻllash tartibotini koʻrsatadi — bojxona chegarasidan oʻtayotgan tovarlarni qonuniy oʻtkazish tartibotlarini belgilaydi.

Bojxona rasmiylashtiruv — tovar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini taʼminlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui boʻlib, bojxona rejimlari bilan uzviy bogʻliqdir (Bojxona kodeksining 21- modda).

Bu qoidalar majmui har bir rejim boʻyicha dastavval bojxona toʻlovlarini va iqtisodiy siyosat choralari qoʻllash yoki qoʻllamaslikni belgilaydi. Bojxona rejimida belgilangan talab va shartlar inobatga olgan holda, rejimga joylashtirilishi lozim boʻlgan tovar va transport vositalarini bojxona rejimida rasmiylashtiruv tartibi amallarini aniqlanadi.

Bojxona chegarasini amalda kesib oʻtgan va bojxona nazorati ostida turgan tovarlarni bojxona maskanidan chiqishga ruhsat berish (tovar egasi ihtiyoriga berish yoki bermaslik) muayyan bojxona rejimi asosida rasmiylashtirilganidan soʻnggina amalga oshiriladi.

Shaxs (eksporter va importer), agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan boʻlsa, tovar va transport vositalarining hususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgan yoki nima maqsadga moʻljallanganligidan qatʼiy nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni almashtirishga haqli.

Lekin yuqorida ta'kidlaganimizdek, qonun hujjatlariga to'g'ri kelsa, buni avvalambor deklarant belgilaydi, chunki deklaratsiya to'ldirish vakolati ularga berilgan. Ya'ni deklarant shaxs taqdim etgan hujjatlarni, yo'l varaqalarini, shuningdek, shartnoma, bitim shartlari va talablaridan kelib chiqqan holda rejimga moslab, qaysi rejimga joylashtirilishini belgilaydi. Bojxona hodimlari rejimning qo'llanilishi huquqiy asoslariga qarab tekshirib ya'ni to'g'ri yoki noto'g'riligi haqida qaror qabul qilishi kerak. Ushbu qaror rasmiy ravishda deklarantga e'lon qilinishi lozim.

Ma'lumki, tovarlar rejim talablariga asosan muayyan bojxona rejimida bojxona chegarasidan o'tgan tovar va transport vositalariga qo'llaganimizda shaxs ihtiyoriga o'tishi yoki o'tmasligi mumkin. Shu asosda shartli ravishda bojxona rejimlarini 2 toifaga bo'lib ko'rib chiqamiz:

1-toifa rejimlariga joylashtirilgan tovarlarga (rasmiylashtirilishiga) nisbatan bojxona nazorati tugallangan va tovarlar shaxs ihtiyoriga to'liq o'tganligini belgilovchi rejimlar bularga:

- ① Erkin muomalaga chiqarish (import);
- ② Eksport;
- ③ Reeksport;
- ④ Davlat foydasiga voz kechish.

2-toifa rejimlariga joylashtirilgan tovarlar uchun (rasmiylashtirishiga) nisbatan bojxona nazorati tugallanmaganligini ya'ni tovarlar shaxs ihtiyoriga to'liq berilgan (yoki berilmagan) bo'lsada, ularga nisbatan bojxona nazorati va protseduralari to'liq amalga oshirilmaganligini ko'rsatuvchi rejimlar, ularga:

- ① Vaqtincha olib kirish;
- ② Vaqtincha olib chiqish;
- ③ Vaqtincha saqlash;
- ④ Bojxona ombori;
- ⑤ Bojxona hududida qayta ishlash;
- ⑥ Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash.

Bojxona rejimini qo'llashning maqsadi va mohiyati asosida tovarlarga nisbatan

Boj va soliqlarni to'lash yoki to'lamaslik, yoki qisman to'lashni;

Iqtisodiy siyosat choralari qo'llash yoki qo'llamaslikni;

Rejimga joylashtirish «talablarini»;

Rejimga joylashtirish «shartlarini»;

Rejim bo'yicha muddatlarini;

Rejim bo'yicha to'liq yoki soddalashtirilgan byudni to'ldirishni belgilaydi.

4.1.-rasm. Rejimlarining alohida jihatlari

Shuning uchun bojxona rejimini tovarlar rasmiylashtiruv jarayonida to'g'ri qo'llash belgilovchi ahamiyatga molik bo'lib, davlat byudjetiga bojxona to'lovlarini to'g'ri tushirish bilan uzviy bog'liqdir. Bojxona rasmiylashtiruv tartibi ham rejim mohiyatidan va maqsadidan kelib chiqadi.

2-SAVOL

Bojxona rejimlarini turlari

Tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish maqsadlariga bog'liq ularning bojxona rasmiylashtiruv bojxona rejimlarining quyidagi riga muvofiq amalga oshiriladi (II Bo'lim, 4-Bob, 25-moddasi)

- | | | |
|--|------------------------------------|----------------------------------|
| 1. eksport | 6. reimport; | 12. erkin bojxona zonasi; |
| 2. reeksport; | 7. vaqtincha olib kirish | 13. boj olinmaydigan savdo; |
| 3. vaqtincha olib chiqish; | 8. bojxona hududida qayta ishlash; | 14. bojxona tranziti; |
| 4. bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash; | 9. vaqtincha saqlash; | 15. yo'q qilish; |
| 5. erkin muomilaga chiqarish (import); | 10. bojxona ombori; | 16. davlat foydasiga yoz kechish |
| | 11. erkin ombor; | |

4.2.-rasm. Bojxona rejimlari

Shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalarining xususiyati, miqdori, qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgani yoki qaysi maqsadga mo'ljallanganligidan qat'i nazar, istalgan rejimni tanlashga yoki uni boshqasiga o'zgartirishga haqli.

Yuqorida ko'rsatilgan rejimlar xalqaro huquq me'yorlari asosida, ya'ni «Hujxona protseduralarini uyg'unlashtirish va soddalashtirish» xalqaro konvensiyasi bo'yicha o'rnatilgan talab va standartlar asosida va Evropa hamjamiyati bojxona qonunlariga moslashtirib ishlab chiqilgan.

Eksport. Eksport bojxona rejimi

Eksport bojxona rejimi shunday rejimki, bunda O'zbekiston tovari uni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladi.

Eksport bojxona rejimiga joylashtirilgan va amalda bojxona hududidan olib chiqilgan tovar O'zbekiston tovari maqomini yo'qotadi

Rejim import bojlari, soliqlarni va boshqa boj to'lovlarini to'lashni, iqtisodiy siyosat choralari va hamda boshqa chora-tadbirlarga rioya etishni nazarda tutadi.

Tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari bojxona to'lovlarini to'lash hamda iqtisodiy siyosat choralari rioya etishdan iboratdir.

Tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish qonun hujjatlariga muvofiq boshqa talablar va shartlarga rioya etgan holda ham amalga oshirilishi mumkin.

Eksport bojxona rejimiga muvofiq chiqarilgan tovar bojxona deklaratsiyasi ro'yxatdan o'tkazilgan kuni qanday holatda bo'lsa, amalda shunday holatda bojxona hududidan olib chiqilishi lozim, bundan tovar holatining tabiiy eskirishi yoki tashish va (yoki) saqlash normal sharoitlarida kamayishi oqibatida ro'y bergan o'zgarishlari munosibo.

Eksport bojxona rejimiga nisbatan bojxona rasmiylashtiruv uchun zarur bo'ladigan hujjatlarning ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Tegishli ruxsat etish xususiyatiga ega hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda eksport qilinadigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi

Reeksport Reeksport bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan tovar yoxud bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni qayta ishlash mahsuloti bojxona hududidan bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan

holda, ushbu Kodeksning 35-moddasida nazarda tutilgan hollarda esa, uni olib kirishda to'langan bojxona bojlari va soliqlar summalari qaytarilgan holda olib chiqiladi.

Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organi tomonidan ushbu Kodeks 21-bobining qoidalariga muvofiq beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgan tovarlarni reeksport qilish tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirishga ruxsatnoma olinmagan holda amalga oshiriladi.

Reeksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni bojxona hududidan amalda olib chiqish bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Tovar yoki uni qayta ishlash mahsuloti bojxona organi identifikatsiya qila oladigan taqdirdagina tovar reeksport qilinishiga yo'l qo'yiladi, bundan ushbu Kodeks 74-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Avariya yoki yengib bo'lmay kuch ta'siri oqibatida shikastlangan yoki buzilgan tovarning reeksportiga yo'l qo'yiladi, bunday holat vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan bo'lishi lozim.

Ilgari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirishga ayni bir vaqtning o'zida quyidagi talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari bajarilmagan bo'lsa;

tovar bojxona hududida ishlatilmagan va ta'mirlanmagan bo'lsa, bundan tovarni qaytarishga sabab bo'lgan nuqsonlarni yoki boshqa holatlarni aniqlash uchun tovardan foydalanish zarur bo'lgan hollar mustasno;

tovar o'zgarmagan holatda turgan bo'lsa, bundan uning nuqsonlari aniqlangan hollar mustasno.

Tovarni reeksport bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda reeksporti amalga oshiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Reeksport bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovar bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etiladi.

Ilgari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar reeksport qilinayotganda, tovarning amalda reeksport qilinayotgan qismiga nisbatan to'langan bojxona bojlari va soliqlar summalarini qaytarish ushbu Kodeksning 49-bobida nazarda tutilgan tartibda, ayni bir vaqtning o'zida quyidagi talablar va shartlarga rioya etilgan taqdirda amalga oshiriladi:

tovarning reeksporti uni erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirish ma'lum qilingan kundan e'tiboran ikki yil ichida amalga oshirilayotgan bo'lsa, tovar bojxona hududida ishlatilmagan va ta'mirlanmagan bo'lsa, bundan tovarni qaytarishga sabab bo'lgan nuqsonlarni yoki boshqa holatlarni aniqlash uchun tovarni ishlatish zarur bo'lgan hollar mustasno.

Tovarni amalda olib chiqish ushbu Kodeksning 32-moddasida ko'rsatilgan muddatda amalga oshirilmagan taqdirda, mazkur tovar erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgandagi kabi bojxona bojlari va soliqlar to'lanadi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududida erkin muomalada turgan tovar ushbu hududdan tashqarida vaqtincha foydalanish maqsadida, bojxona bojlari va soliqlar to'lanishdan shartli ravishda ozod etilgan, iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda olib chiqiladi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish ushbu Kodeks 21-bobining qoidalariga muvofiq bojxona organi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish quyidagi talablar va shartlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi:

vaqtincha olib chiqilayotgan tovarning bojxona organlari tomonidan identifikatsiyalashni amalga oshirish mumkinligi;

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, ushbu organlarning ruxsatnomalari bojxona organlarining axborot tizimida mavjudligi;

tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirayotgan shaxs O'zbekiston Respublikasining yuridik yoki jismoniy shaxsi yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxs bo'lishi kerak.

Bojxona hududidan vaqtincha olib chiqilgan tovar o'zgarmas holatda qolishi kerak.

Quyidagi tovarlar vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilmaydi:

“O'zbekiston Respublikasidan olib chiqilishi taqiqlangan tovarlar;

chiqindilar;

elektr energiyasi, suv, quvurlar orqali yetkazib beriladigan tovarlar (neft⁹, gaz), shuningdek yoqilg'i;

olib chiqilishi kvotalanadigan tovarlar;

sarflash materiallari va sarf qilinadigan namunalar, xom ashyo, yarim tayyor mahsulotlar, oziq-ovqat mahsulotlari, alkogolsiz ichimliklar, alkogol⁹ va tamaki mahsuloti;

bir marta ishlatish uchun mo'ljallangan tovarlar”⁹.

Ushbu moddaning uchinchi qismida ko'rsatilgan tovarlarni faqat reklama, namoyish qilish va ilmiy-tadqiqot maqsadlarida bitta nusxadan vaqtincha olib chiqishga yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib chiqilgan tovar ustidan bojxona nazorati uning bojxona rasmiylashtiruvini bajargan bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

⁹ <https://lex.uz/docs/-2876354>

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda vaqtincha olib chiqiladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Tovarlarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish ruxsatnomasi amal qilish muddati cheklanmagan holda beriladi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddati tovar vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan sanadan e'tiboran ikki yilni tashkil etadi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs mazkur bojxona rejimining amal qilishi muddati tugamay ushbu Kodeksning 41-moddasiga muvofiq ushbu bojxona rejimini tugallash huquqiga ega.

Quyidagi tovarlarning vaqtincha olib chiqish muddati bojxona organi tomonidan vakolatli shaxsning arizasi asosida ikki yildan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin:

O'zbekiston Respublikasining chet davlatlar hududida joylashgan ob'ektlarida, diplomatik vakolatxonalarida va konsullik muassasalarida foydalanish uchun olib chiqilgan tovarlar;

O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari hamda chet davlatlarning yuridik va jismoniy shaxslari o'rtasidagi ijara shartnomalari asosida vaqtincha olib chiqilgan temir yo'l va havo transporti vositalari, shuningdek ularning ehtiyot qismlari hamda ularga xizmat ko'rsatish uchun mo'ljallangan transport uskunolari. Bunda vaqtincha olib chiqish muddati ijara shartnomasi

muddatlaridan kelib chiqqan holda belgilanadi;

lizing shartnomasi asosida olib chiqilgan tovarlar. Bunday tovarlarni vaqtincha olib chiqishga lizing shartnomasining amal qilish muddatiga ruxsat etiladi;

tovarlarni (ishlarni va xizmatlarni) eksport qilish kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) shartlari bo'yicha kafolat muddati ichida xizmat ko'rsatish va nuqsonlarni bartaraf etish uchun olib chiqilgan tovarlar (bojxona hududidan tashqarida qoldirish uchun mo'ljallangan tovarlar bundan mustasno). Bunday tovarlarni vaqtincha olib chiqishga kafolat davrining amal qilish muddatiga yo'l qo'yiladi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari asosida vaqtincha olib chiqishning ko'proq muddati belgilangan tovarlar.

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza vaqtincha olib chiqis bojxona rejimining amal qilish muddati tugaguniga qadar bojxona organiga berilishi lozim.

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirishga ruxsatnoma berish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshirilib, tovar bojxona organiga amalda taqdim etilmaydi.

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilishi tovarni vaqtincha olib chiqish muddatini uzib qo'ymaydi va to'xtatib turmaydi.

Tovarni vaqtincha olib chiqish muddati uzaytirilayotganda boshqa bojxona deklaratsiyasi berilmaydi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqini O'zbekiston Respublikasining boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsiga yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxsiga o'tkazishga vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi tugaguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqi O'zbekiston Respublikasining boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsiga yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxsiga bojxona organining ruxsatnomasi asosida ushbu tovarni amalda bojxona organiga taqdim etmagan holda mazkur shaxs tomonidan taqdim qilingan vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasini bojxona organi qabul qilgan paytdan e'tiboran o'tkazilgan hisoblanadi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovardan foydalanish va (yoki) uni tasarruf etish huquqining ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq O'zbekiston Respublikasining boshqa yuridik yoki jismoniy shaxsiga yoxud vakolatli davlat organlarida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxsiga o'tkazilishi

ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan vaqtincha olib chiqish muddatini o'zgartirmaydi.

Vaqtincha olib chiqilgan tovar vaqtincha olib chiqish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay bojxona hududiga qaytarib olib kirilishi kerak.

Vakolatli shaxs tovarni bojxona hududidan tashqarida qoldirgan holda uni boshqa bojxona rejimiga joylashtirish yo'li bilan vaqtincha olib chiqish bojxona rejimini tugallashi mumkin, bundan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq vaqtincha olib chiqilgan tovar bojxona hududiga olib kirilishi shart bo'lgan hollar mustasno. Bunday holda vaqtincha olib chiqish bojxona rejimini tugallashga tovarni bojxona organiga amalda taqdim etmagan holda yo'l qo'yiladi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi eksport bojxona rejimiga o'zgartirilgan taqdirda tovarning bojxona qiymati va miqdori tovar vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirilgan kundagi holatga ko'ra belgilanadi, bojxona bojlari va soliqlarning stavkalari esa, tovarni eksport bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risidagi bojxona deklaratsiyasi bojxona organi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundagi holatga ko'ra belgilanadi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan muddatda tugallanmagan taqdirda, tovarning olib chiqishdagi bojxona qiymatidan va (yoki) miqdoridan hamda tovarni vaqtincha olib chiqish bojxona rejimiga joylashtirish ma'lum qilingan kuni amalda bo'lgan bojxona bojlari va soliqlar stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan bojxona bojlari hamda soliqlar to'lanadi.

Vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan muddatda tugallanmasligiga quyidagi hollarda yo'l qo'yiladi:

avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida tovarlarning yo'q bo'lishi yoki butunlay yo'q bo'lib ketishi;

tovarlar turgan chet davlat organlarining qarorlari yoki mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) natijasida tovarlarning vakolatli shaxs egaligidan chiqib ketishi.

Tovarlarning yo'q bo'lishiga yoki mutlaqo yo'qolib ketishiga sabab bo'lgan holatlarni tasdiqlash majburiyati bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etilishiga mas'ul shaxslarning zimmasiga yuklatiladi. Chet davlatlar hududida yuzaga kelgan holatlar O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va konsullik muassasalari tomonidan yoki hududida mazkur holatlar sodir bo'lgan davlatning vakolatli organlari tomonidan tasdiqlanadi.

Ushbu moddaning beshinchi qismida ko'rsatilgan hollarda, tovarlarni vaqtincha olib chiqqan va ularni ushbu Kodeksning 39-moddasida belgilangan muddatda qaytarib olib kirmagan shaxs vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi talablari hamda shartlariga rioya etmaganlik uchun javobgar bo'lmaydi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi shunday rejimki, bunda O'zbekiston tovarlari bojxona hududidan tashqariga qayta ishlash va ularning qayta ishlash mahsulotlarini keyinchalik bojxona hududiga olib kirish maqsadida olib chiqiladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga muvofiq olib chiqilayotgan tovarga nisbatan bojxona bojlari va soliqlar to'lanishidan shartli ozod etish qo'llaniladi. Bu tovarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmaydi, bundan ushbu Kodeksning 54-moddasida nazarda tutilgan taqiqlar va cheklollar mustasno.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organining tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun ushbu Kodeks 21-bobining qoidalariga muvofiq beriladigan ruxsatnomasi asosida amalga oshiriladi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari quyidagilardan iborat: olib chiqilgan tovar uning dastlabki xossalarini va individual ko'rsatkichlarini o'zgartirib, lekin qayta ishlash mahsulotida uni identifikatsiyalash imkonini beruvchi xususiyatlarini

saqlagan holda mazkur tovarni bevosita qayta ishlash yoki unga ishlov berish, bundan ushbu Kodeks 46-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

olib chiqilgan tovardan foydalangan holda boshqa tovarni tayyorlash, shu jumladan montaj qilish, yig'ish yoki qismlarga ajratish;

tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash, modernizatsiya qilish, uning buzilgan yoki eskirgan tarkibiy qismlarini (elementlarini) almashtirish yoxud o'zlash, nuqsonlarini bartaraf etish.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari amalga oshirilayotganda qayta ishlashga ko'maklashuvchi yoxud qayta ishlashni yengillashtiruvchi boshqa tovarlardan butunlay yoki qisman foydalanishga yo'l qo'yiladi.

Quyidagilar tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyalari jumlasiga kirmaydi:

tovarning but saqlanishini ta'minlash, uni sotishga va tashishga tayyorlash operatsiyalari;

har qanday turdagi hayvonlarning naslini olish, ularni parvarishlash va klonlashtirish,

bo'rdoqiga boqish va tutish (ushlash, ovlash), shuningdek ularning mahsullarini olish va to'plash;

har qanday o'simlik turlarini yetishtirish va yig'ish;

foydali qazilmalarni qazib olish;

axborotdan, audio- va video yozuvlardan istalgan turdagi axborot tashuvchi jihamlarga nusxa ko'chirish va ko'paytirib olish.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda yo'l qo'yiladi:

olib chiqilgan tovarni bojxona organlari tomonidan uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash mumkin bo'lganda, bundan ushbu Kodeks 46-moddasining to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan korxonalar uchun — tovarni qayta ishlash jarayonining texnik-iqtisodiy asoslari vakolatli organ bilan kelishilgan bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan hollar bundan mustasno;

ustav fondida (ustav kapitalida) davlat ulushi bo'lgan korxonalar uchun — tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlariga zarar yetkazmasligi haqida vakolatli organning xulosasi mavjud bo'lsa;

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, bojxona organlarining axborot tizimida ushbu organlarning ruxsatnomalari mavjudligi;

texnik-iqtisodiy asoslarning va amaldagi qayta ishlash jarayonining ko'rsatkichlari bir-biriga mos bo'lishi;

tovarni qayta ishlash operatsiyalarining ushbu Kodeks 43-moddasi talablariga muvofiq bo'lishi.

Quyidagi hollarda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimidan foydalanish mumkin emas:

agar tovarning olib chiqilishi to'langan bojxona bojlari va soliqlar summasini qaytarishni, ulardan ozod qilishni yoxud olib chiqishda taqdim etiladigan to'lovlarni undirishni talab qilishga asos bo'lsa;

bojxona to'lovlarini to'lashdan shartli ozod etilgan holda erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga ilgari joylashtirilgan tovarga nisbatan ushbu shartli ozod etishning amal qilish muddati tugaguniga qadar, bundan shunday tovarni ta'mirlash, shu jumladan uni tiklash, modernizatsiya qilish, uning buzilgan yoki eskirgan tarkibiy qismlarini (elementlarini) almashtirish yoki tiklash, nuqsonlarini bartaraf etish uchun olib chiqish mustasno.

Kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari yoki qayta ishlash jarayonining texnik-iqtisodiy asoslanishi ko'rsatkichlari o'zgargan taqdirda tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasini berish to'g'risida yangi ariza berilishi lozim. Bunda yuridik shaxs o'zgartirilganligi, uning nomi yoki joylashgan yeri (pochta manzili) o'zgarganligi, shuningdek jismoniy shaxsning familiyasi, ismi, otasining ismi yoki faoliyat ko'rsatadigan joyi o'zgarganligi sababli kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlari o'zgargan taqdirda yangi ariza berish talab etilmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash amalga oshiriladigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Tovarning va qayta ishlash bo'yicha amalga oshiriladigan operatsiyalarning xususiyatidan kelib chiqqan holda bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash quyidagi usullardan biri yoki bir nechtasi yordamida amalga oshirilishi mumkin:

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarga vakolatli shaxs va (yoki) bojxona organi tomonidan muhrlar qo'yish va, zarur bo'lgan hollarda, shtamplar qo'yish, raqamli va (yoki) boshqa turda tamg'alash;

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni batafsil tavsiflash, uni suratga olish yoki boshqa o'lchamlarda tasvirlash;

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarning oldindan olingan nusxalarini yoki nusxalarini va uni qayta ishlash mahsulotini tadqiq etish natijalarini qiyoslash;

qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarning zavod va seriya raqamlari tarzida mavjud bo'lgan tamg'alashdan yoxud boshqacha tamg'alashdan foydalanish.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash qonun hujjatlariga muvofiq boshqa usullarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Vakolatli shaxsning so'roviga va bojxona organining roziligiga ko'ra, olib chiqilayotgan tovarni bojxona maqsadida identifikatsiyalash ishlab chiqarishda foydalaniladigan xom ashyo, materiallar va butlovchi qismlar haqida, shuningdek qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi to'g'risida taqdim etilgan batafsil ma'lumotlarni tadqiq etish yo'li bilan ta'minlanishi mumkin.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilayotgan tovarni uni qayta ishlash mahsulotlarida identifikatsiyalash quyidagi hollarda talab etilmaydi, agar:

ular mazkur Kodeksning 49-moddasiga muvofiq qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarga ekvivalent bo'lgan tovarni qayta ishlash natijasida olingan bo'lsa; qayta ishlash uchun ishlab chiqarishning uzluksiz sikllariga taalluqli texnologiya jarayonidan foydalanilayotgan bo'lsa.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasi ikki yil muddatga beriladi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasini olgan shaxs ushbu Kodeksning 52-moddasiga muvofiq mazkur ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashidan avvalroq bojxona rejimini tugallash huquqiga ega.

Bir muncha uzoq davom etadigan qayta ishlash jarayoni talab qilinadigan ayrim toifadagi tovarlarga nisbatan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddati vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra bojxona organi tomonidan ikki yildan ko'proq muddatga uzaytirilishi mumkin.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddati va qayta ishlash muddati tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran, tovar alohida turkumlar bilan olib chiqilganda esa, tovarning birinchi turkumi bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risidagi ariza bojxona organiga ushbu ruxsatnomaning amal qilish muddati tugashiga kamida bir oy qolganda berilishi kerak. Ruxsatnomaning amal qilish muddatini uzaytirish ruxsatnomani olish uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish to'g'risida ariza berilganligi ruxsatnomada ko'rsatilgan tovarni qayta ishlash muddatini uzib qo'ymaydi yoki to'xtatib turmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasining amal qilish muddatini uzaytirish rad etilgan taqdirda, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar ushbu Kodeksning 52-moddasiga muvofiq boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi ma'lum qilinishi kerak.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi vakolatli shaxs tomonidan aniqlanadi va tovarni qayta ishlashni amalga oshirishning loqiqiy sharoitlaridan kelib chiqqan holda, tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasi berilayotganda bojxona organi tomonidan belgilanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini belgilashda bojxona organlari qayta ishlashning vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjatlarga hamda vakolatli organning va (yoki) vakolatli tashkilotlarning (shu jumladan bojxona laboratoriyalarining) qayta ishlashning aniq texnologik jarayoniga asoslangan xulosalariga tayanadi.

Qayta ishlash mahsulotlarining tavsifi, miqdori, sifati qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasi belgilanganidan keyin aniqlanadi.

Ekvivalent kompensatsiyaga, ya'ni olib chiqilgan tovardan olingan qayta ishlash mahsulotlarini boshqa ekvivalent chet el tovari bilan almashtirishga, agar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash operatsiyasi tovarni ta'mirlashdan iborat bo'lsa, tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasi asosida, shuningdek boshqa hollarda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori asosida yo'l qo'yiladi.

Bojxona maqsadlari uchun ekvivalent chet el tovari deganda olib chiqilgan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash natijasida olingan qayta ishlash mahsulotiga o'z tavsifi, sifati va texnik xususiyatlari bo'yicha mos keluvchi chet el tovari tushuniladi.

Ekvivalent chet el tovari olib kirilayotganda ushbu bob qoidalariga muvofiq olingan olib chiqilgan tovarning qayta ishlash mahsuloti sifatida qaraladi.

Ekvivalent kompensatsiya chog'ida ekvivalent chet el tovarini olib kirishga tovarni qayta ishlash uchun bojxona hududidan olib chiqilguniga qadar yo'l qo'yiladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishiga qayta ishlash mahsulotiga almashtiriluvchi tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga muvofiq ta'mirlash uchun mo'ljallangan tovar bilan aynan bir xil yoki unga o'xshash bo'lgan taqdirda yo'l qo'yiladi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovar ta'mirlanayotganda qayta ishlash mahsulotining almashtirilishi uchun kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) tegishli qoidalari va (yoki) tovarni ta'mirlayotgan shaxsning kafillik majburiyatlari asos bo'ladi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga ruxsatnoma olgan shaxs olib chiqilib, qayta ishlanmagan tovar qoldig'ini ushbu Kodeksda belgilangan shartlar asosida tegishli bojxona rejimlariga joylashtirgan holda, ushbu Kodeksning 47-moddasiga muvofiq belgilangan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tasarruf etishi kerak.

Olib chiqilib qayta ishlanmagan tovar qoldiqlariga bojxona rasmiylashtiruvchi maqsadida bojxona hududiga reimport qilinadigan tovarlar sifatida qaraladi.

Tovarni qayta ishlash natijasida hosil bo'lgan chiqindilar qayta ishlanganidan keyin olib kirilgan taqdirda, bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etiladi.

Qayta ishlash mahsulotlari ushbu Kodeksning 47-moddasiga muvofiq belgilangan tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash muddati tugaydigan kundan kechiktirmay bojxona hududiga olib kirilishi lozim yoxud bojxona rejimi ushbu moddaning ikkinchi qismiga muvofiq tugallanishi kerak.

Bojxona hududidan olib chiqilgan tovarga yoxud uning qoldig'iga nisbatan bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi quyidagi usullarning biri orqali tugallanishi mumkin:

tovarni yoki uning qoldig'ini reimport bojxona rejimiga joylashtirish;

tovarni yoki uning qoldig'ini amalda bojxona organiga taqdim etmasdan, ushbu Kodeksda belgilangan talablar va shartlarga rioya etgan holda eksport bojxona rejimiga joylashtirish,

hundan bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq olib chiqilgan tovar yoki uning qoldig'i majburiy tartibda reimport qilinishi shart bo'lgan hol mustasno.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 25 apreldagi "Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo'llanilishini soddalashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-115-sonli Farmoniga asosan, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanishni ta'minlash, eksportni qo'llab-quvvatlash uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlash rejimiga joylashtirish tartibotlarini soddalashtirish maqsadida bir qator chora-tadbirlar belgilab olindi.

Qayta ishlash mahsulotlari bittadan ortiq turkumda olib kirilayotganda, qayta ishlash mahsulotlari miqdorining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan miqdorga muvofiqligini tekshirib ko'rish vaqti-vaqti bilan, lekin uch oyda kamida bir marta va qayta ishlash mahsulotlarining oxirgi turkumi import qilingan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar kundan kechiktirmay amalga oshirilishi mumkin.

Qayta ishlash mahsulotlari miqdorining bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash ruxsatnomasida ko'rsatilgan miqdorga muvofiqligini tekshirib ko'rish natijalari bo'yicha bojxona organi ruxsatnoma olgan shaxs bilan birgalikda dalolatnoma tuzadi. Agar olib kirilgan qayta ishlash mahsulotlarining miqdori tekshirib ko'rish natijasida ruxsatnomada ko'rsatilgan miqdordan ortiqligi aniqlangudek bo'lsa, bojxona organi qo'shimcha bojxona to'lovlari to'lash zarurligi to'g'risida qaror qabul qiladi. Bunday holda bojxona organi ruxsatnoma olgan shaxsqa qaror qabul qilingan kunning ertasidan kechiktirmay yozma shaklda xabar qilishi shart.

Agar bunday to'lovlarni to'lash yozma xabar olingan kundan e'tiboran o'n ish kuni ichida amalga oshirilsa, ularning summalariga penya hisoblanmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimi

qo'llanilganligi to'g'risidagi ma'lumotlarni qayta ishlash muddati tugagan kundan e'tiboran o'ttiz kalendar' kun ichida solishtirib chiqishi shart.

Qayta ishlash mahsulotlari bojxona hududiga qaytarilmagan taqdirda, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun olib chiqilgan tovarga nisbatan mazkur tovar eksport bojxona rejimiga joylashtirilganda bo'lgani kabi bojxona bojlari va soliqlar qo'llaniladi. Bunda tovar bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga joylashtirilgan kundagi bojxona bojlari va soliqlar stavkalar qo'llaniladi.

Olib kiriladigan qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilayotganda bojxona bojlari va qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni qayta ishlash operatsiyalarining qiymatidan kelib chiqib hamda qayta ishlash mahsulotlariga qo'llaniladigan bojxona bojlari va qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari bo'yicha hisoblanadi. Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan aktsiz solig'i qayta ishlash mahsulotlarining bojxona qiymati va miqdoridan kelib chiqib, qayta ishlash mahsulotlariga qo'llaniladigan stavkalar bo'yicha hisoblanadi.

Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan bojxona bojlarining xos stavkasini qo'llanilayotganda to'lanishi lozim bo'lgan bojxona bojlarining miqdori qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan xos stavkada hisoblangan bojxona boji summasi bilan qayta ishlash operatsiyalari qiymatining qayta ishlash mahsulotlari bojxona qiymatiga nisbatining ko'paytmasi sifatida qayta ishlash mahsulotlari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganda bo'lgani kabi hisoblab chiqariladi.

Qayta ishlash mahsulotlariga nisbatan ushbu moddaga muvofiq qo'llaniladigan bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida, qayta ishlash operatsiyalar qiymati quyidagi qiymatlarning summasini ifoda etadi:

olib chiqilgan tovarlarni qayta ishlash;

tovarni qayta ishlash joyiga va uning qayta ishlash mahsulotlarini bojxona chegarasigacha qaytarib yetkazib berish, agar bular qayta ishlash qiymatiga qo'shilmagan bo'lsa.

Agar olib kirilayotgan qayta ishlash mahsulotlariga bo'lgan mulk huquqi ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar boshqa shaxsга o'tkazilgan bo'lsa, mazkur qayta ishlash mahsulotlari ushbu shaxs tomonidan import qilinayotganda bojxona to'lovlari mazkur shaxs tovarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimiga mustaqil joylashtirganida bo'lgani kabi hisob-kitob qilinadi.

Olib kirilayotgan qayta ishlash mahsuloti:

agar tovar shartnoma yoki kafolat majburiyatiga binoan tekin ta'mirlash uchun yoxud ishlab chiqarish nuqsoni mavjudligi sababli olib chiqilgan bo'lsa, bu nuqsonning mavjudligi tovarni dastlabki erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirishda hisobga olinmagan bo'lsa, bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan;

agar tovar haq evaziga ta'mirlash uchun olib chiqilgan bo'lsa, bojxona bojlari va aksiz solig'i to'lashdan ozod etiladi.

tovarlarning ayrim turlariga nisbatan bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga yo'l qo'yilmaydigan hollar;

muayyan tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bo'yicha ayrim operatsiyalarni o'tkazishga doir cheklavlarni;

bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash bojxona rejimida tovarlarni qayta ishlashga yo'l qo'yishga doir miqdoriy cheklavlarni belgilashi mumkin.

Vaqtincha saqlash Vaqtincha saqlash bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kirilgan har qanday tovar tayinlangan bojxona organiga taqdim etilgan paytdan boshlab va tanlangan bojxona rejimiga muvofiq chiqarib yuborilguniga qadar, shuningdek ushbu Kodeksning 177-moddasida nazarda tutilgan hollarda va shartlarda, bojxona to'lovlari to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat chorolari qo'llanilmagan holda vaqtincha bojxona nazorati ostida saqlanishi mumkin.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimiga har qanday tovar, shu jumladan ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar joylashtirilishi mumkin.

Bojxona hududiga olib kirilishi va bu hududdan olib chiqilishi taqiqlangan tovarlar ushbu Kodeks 24-moddasining to'rtinchi qismiga muvofiq vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovarni saqlash bojxona omborida yoki bojxona nazorati zonalarida, ularning mazkur bojxona rejimida turishi muddatlariga rioya etgan holda amalga oshirilishi mumkin.

Tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turish muddati ana shu tovarning mazkur bojxona rejimiga joylashtirilishini ma'lum qilgan vakolatli shaxs tomonidan belgilanadi, lekin bu muddat, agar ushbu Kodeksning 177-moddasida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, oltinshi kalendar kundan oshmasligi lozim.

Tez buziladigan tovar vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishining eng ko'p muddati o'n kalendar kunni tashkil etadi.

Bojxona omborlarida, erkin omborlarda yoki boj olinmaydigan savdo do'konlarida turgan tovar ularni tugatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan keyin, ushbu Kodeksning 177-moddasida belgilangan muddatlarda vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovar deb hisoblanadi.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimining amal qilish muddatini hisoblash tovar ushbu Kodeksning 177-moddasiga va 226-moddasining beshinchi qismiga muvofiq vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovar maqomini olgan kundan e'tiboran boshlanadi.

Tovarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant tomonidan bojxona organiga ushbu Kodeksning 267-moddasiga muvofiq tuzilgan qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim qilinadi.

Qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi tovar bojxona organiga taqdim etilgan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmasdan tashuvchi yoki boshqa vakolatli shaxs tomonidan beriladi. Agar tovar shu muddat ichida boshqa bojxona rejimiga joylashtirilsa, qisqa bojxona yuk deklaratsiyasi berilmaydi.

Tovarni vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirishda bojxona organi ushbu moddada nazarda tutilmagan boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga haqli emas.

Bojxona omborining egalari yoki vakolatli shaxslar vaqtincha saqlash bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan quyidagi operatsiyalar va harakatlarni bojxona organini xabardor qilgan holda amalga oshirishi mumkin:

tovarni ko'zdan kechirish va o'lchash;

ushbu Kodeksning 211-moddasiga muvofiq tovarni tadqiq etish va identifikatsiyalash uchun uning namunalari va nusxalarini olish;

tovarning o'zgarmas holatda but saqlanishi uchun zarur operatsiyalarni amalga oshirish, shu jumladan buzilgan o'rov-idishlarni to'g'rilash;

vaqtincha saqlash joyi doirasida tovarning o'rmini o'zgartirish.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan operatsiyalar va harakatlarning amalga oshirilishi tovarning yo'qotilishiga yoki uning xossalari o'zgarishiga olib kelsa, mazkur operatsiyalar va harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarning namunalari va nusxalariga nisbatan ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganidagi kabi bojxona to'lovlari to'lanishi yoki ularning to'lanishi ta'minlanishi zarur, bundan quyidagi hollar mustasno, agar vakolatli shaxsning yozma majburiyatiga muvofiq:

tovar keyinchalik boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan taqdirda namunalari va nusxalar bojxona yuk deklaratsiyasiga kiritilsa;

namunalari va nusxalar tovar saqlanadigan muddat ichida bojxona omboriga qaytarilsa, lekin bu muddat o'ttiz kalendar kundan oshmasligi lozim.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan tovarning bir bojxona omboridan boshqasiga bojxona nazorati ostida olib o'tilishiga ushbu Kodeks 85-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan muddat tugaguniga qadar yo'l qo'yiladi. Bunda tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishi muddatining o'tishi uzilmaydi va to'xtatib qo'yilmaydi.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turgan davrida avariya yoki yengil bo'lmis kuch ta'siri oqibatida yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovar vakolatli shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga tovar shu holatda bojxona hududiga olib kiritilganidagi kabi joylashtirilishi lozim. Mazkur holatlar vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Vaqtincha saqlash bojxona rejimida turish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi kerak.

Tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran uch kun ichida vaqtincha saqlash joyidan olib chiqilishi kerak, bundan tovar bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan hollar mustasno.

Bojxona ombori Bojxona ombori bojxona rejimi shunday rejimki, bunda bojxona hududiga olib kiritilgan va bojxona hududidan olib chiqish uchun mo'ljallangan tovar bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda muayyan binolarda (joylarda) bojxona nazorati ostida saqlanadi.

Bojxona ombori bojxona rejimiga har qanday tovar, shu jumladan ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar joylashtiriladi, quyidagilar bundan mustasno:

bojxona hududiga olib kiritilishi taqiqlangan tovar;

bojxona hududidan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovari;

qonun hujjatlariga muvofiq bojxona hududi orqali tranzit qilinishi taqiqlangan tovar;

bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilingan kundagi yaroqlilik muddati ushbu Kodeksning 94-moddasiga muvofiq ma'lum qilinadigan muddatdan kam bo'lgan dori vositalari va oziq-ovqat mahsulotlari.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan tovarni saqlash bojxona omborida amalga oshirilishi kerak, bundan ushbu Kodeksning 93-moddasida belgilangan hollar mustasno.

Vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgun tovar ushbu rejimlarning amal qilishini to'xtatib turish maqsadida bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Olib kirilayotgan yoki olib chiqilayotgan tovar bojxona ombori bilan olmaydigan joyda turgani holda bojxona ombori bojxona rejimiga quyidagi hollarda vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra joylashtiriladi:

tovar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, uning tashqi o'lchamlari, fizik ko'runkichlari tufayli yoki kimyoviy xossalriga ko'ra yoxud saqlanishiga doir shartlar qo'yilishi tufayli bojxona omboriga joylashtirilishi mumkin bo'lmasa;

tovar yetkazib beriladigan joyda bojxona ombori mavjud bo'lmasa.

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bojxona ombori bilan olmaydigan joylarda saqlanayotganda quyidagi shartlarga rioya etilishi lozim:

ushbu Kodeksning 47-bobiga muvofiq bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash taqdim etilganligi;

tovar bilan bog'liq yuk operatsiyalarini bajarishga, shuningdek uni istalgan boshqa joyga ko'chirishga bojxona nazorati ostida yo'l qo'yilishi;

bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrida tovarni undan foydalanish va uni tasarruf etish uchun boshqa shaxslarga o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi, bundan tashqari Kodeksning 96-moddasida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Ushbu modda ikkinchi qismining ikkinchi xatboshisida nazarda tutilgan shartlarga rioya etish harbiy yuklarga, insonparvarlik yordami, texnik ko'mak sifatida olib kiriladigan tovarlarga hamda O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan qarz (kredit) mablag'lari, grantlar hisobidan olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek olib kirilayotgan O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasiga, chet el valyutasiga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tovar tegishli bojxona rejimiga joylashtirilmagan holda yo'qotilgan yoki boshqa shaxslarga berib yuborilgan taqdirda bojxona to'lovlarini to'lash olib kirilayotgan tovar bojxona ombori hisoblanmaydigan joyda turavergani holda uni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati uch yilni tashkil etadi.

Tovarni bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs mazkur bojxona rejimini uning amal qilish muddati ushbu Kodeksning 98-moddasiga muvofiq tugaguniga qadar tugallash huquqiga ega.

Yaroqlilik, saqlash, ishlatish va (yoki) realizatsiya qilish muddati cheklangan tovar mazkur muddat tugaguniga qadar kamida bir yuz sakson kalendar kundan kechiktirmay boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi va bojxona omboridan olib chiqilishi kerak.

Vakolatli shaxslar bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan bojxona organini xabardor qilgan holda quyidagilarni amalga oshirishi mumkin:

tovarning o'zgarmas holatda but saqlanishini ta'minlash uchun zarur operatsiyalarni bajarish;

tovarni tekshirish, ko'zdan kechirish va o'lchash;

bojxona ombori ichida tovarning joyini o'zgartirish, basharti mazkur o'zgartirish tovarning holati o'zgarishiga, uning o'rov-idishi buzilishiga va (yoki) qo'yilgan bojxona identifikatsiyalash vositalarining o'zgarishiga olib kelmasa;

ushbu Kodeksning 211-moddasiga muvofiq tadqiq etish va identifikatsiyalash uchun tovarning namunalari va nusxalarini olish;

tovarni sotishga va tashishga tayyorlash uchun zarur operatsiyalarni bajarish, shu jumladan turkumlarga bo'lish, jo'natmalarni shakllantirish, saralash, o'rash-joylash, qayta o'rash-joylash, tamg'alash (aktsiz markalari bundan mustasno), boshqa shu kabi operatsiyalarni, shu jumladan oddiy yig'ish operatsiyalarini bajarish;

tovarning sifatini yaxshilash uchun zarur boshqa operatsiyalarni bajarish, bundan tovarni aralashtirish, qayta ishlash yoki unga ishlov berish mustasno.

Agar ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan operatsiyalar va harakatlarning bajarilishi tovarning yo'qotilishiga yoki xossalarining o'zgarishiga olib kelsa, ushbu operatsiyalar va harakatlarni amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarning namunalari va nusxalariga nisbatan ular erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilganida bo'lgani kabi bojxona to'lovlari to'lanishi yoki bunday to'lovlarni to'lash ta'minlanishi zarur, bundan tovarni keyinchalik boshqa bojxona rejimiga joylashtirishda namunalari va nusxalarning bojxona yuk deklaratsiyasiga kiritilish hollari mustasno.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan tovarni ushbu Kodeks 94-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan muddatlar tugaguniga qadar bojxona nazorati ostida bir bojxona omboridan boshqasiga olib o'tishga yo'l qo'yiladi. Bunda tovarning bojxona ombori bojxona rejimida turishi muddatining o'tishi uzilib qolmaydi va to'xtatib turilmaydi.

Bojxona ombori bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarni boshqa shaxsga o'tkazishga, unga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga berishga quyidagi shartlarga rioya etilgan taqdirda yo'l qo'yiladi:

tovarni yoki unga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqini boshqa shaxsga o'tkazuvchi vakolatli shaxs bojxona organini oldindan yozma shaklda xabardor etadi;

tovarga bo'lgan huquqni oluvchi vakolatli shaxs ushbu tovarga nisbatan tanlangan bojxona rejimi talablari va shartlariga rioya etgan holda bojxona deklaratsiyasini bojxona organiga taqdim etadi.

Vakolatli shaxsning tovarga nisbatan egalik qilish, foydalanish yoki tasarruf etish huquqi bojxona deklaratsiyasi bojxona organiga berilgan paytdan e'tiboran boshqa shaxsga o'tkazilgan deb hisoblanadi. Bojxona deklaratsiyasi berilgan paytda mazkur shaxsda bojxona rejimiga rioya etilishini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar yuzaga keladi.

Bojxona ombori bojxona rejimida turgan davrda avariya yoki yengib bo'lmaydigan ta'siri oqibatida yaroqsiz holga kelgan, buzilgan yoki shikastlangan tovar vakolatli shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga u shu holatda bojxona

hududiga olib kirilgan tovar kabi joylashtirilishi lozim. Mazkur holatlar vakolatli shaxs va vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugaydigan kundan kechiktirmay tovar boshqa bojxona rejimiga joylashtirish uchun ma'lum qilinishi kerak, bundan vaqtincha saqlash bojxona rejimi mustasno.

Boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida tovar bojxona omboridan olib chiqilishi kerak.

Ilgari vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimida turgan tovarni undan keyinchalik bojxona hududida ushbu bojxona rejimiga muvofiq foydalanish maqsadida bojxona omboridan olib chiqishda vaqtincha olib kirish yoki bojxona hududida qayta ishlash muddatining o'tishi tiklanadi.

Ushbu Kodeks 98-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan talabga rioya etilmagan taqdirda, bojxona organi bojxona ombori bojxona rejimida turish muddati tugagan tovarga nisbatan qaror qabul qilinishi uchun sudga murojaat etadi.

Erkin ombor Erkin ombor bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar muayyan joylar va hududlarda bojxona to'lovlari to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda joylashtiriladi.

Erkin ombor bojxona rejimiga har qanday tovar joylashtiriladi, bundan bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovar hamda ushbu hududdan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovari mustasno.

Boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida sharoitlarda saqlash talab etiladigan tovarlar maxsus moslashtirilgan binolarda saqlanishi lozim.

Ilgari boshqa bojxona rejimlariga joylashtirilgan tovarlar erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilishi mumkin.

Tovarni erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan quyidagi operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin:

tovarning o'zgarmas holatda but saqlanishini ta'minlash operatsiyalari;

tovarni sotishga va tashishga tayyorlash operatsiyalari, shu jumladan muomalarga bo'lish, jo'natmalarni shakllantirish, saralash, o'rash-joylash, qayta tash-joylash, tamg'alash operatsiyalari (aktsiz markalari bundan mustasno) va boshqa shu kabi operatsiyalar;

oldiy yig'ish operatsiyalari;

tovardan erkin omborda ishlatiladigan texnologik uskuna va uning ehtiyot qismlari, yuklash-tushirish texnikasi, boshqa texnik vositalar sifatida foydalanish operatsiyalari.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan ayrim operatsiyalarni amalga oshirishga qonun hujjatlariga muvofiq taqiqlar va cheklovlar belgilanishi mumkin.

Tovar erkin ombor bojxona rejimida cheklanmagan muddatda turishi mumkin. choralarining qo'llanilishi

Erkin ombor bojxona rejimida turgan tovar erkin muomalaga chiqarish (import) yoki eksport bojxona rejimiga joylashtirilayotganda, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda

tutilmagan bo'lsa, tovarning ishlab chiqarilgan mamlakatiga bog'liq ravishda bojxona to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladi.

Erkin ombor bojxona rejimiga joylashtirilgan va bojxona hududiga olib kiritiladigan chet el tovariga nisbatan, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, ushbu tovar bevosita bojxona hududi tashqarisidan olib kiritilganidagi kabi bojxona to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladi.

O'zbekiston tovari erkin ombordan bojxona hududidan tashqariga olib chiqilayotganda unga nisbatan bojxona hududidan olib chiqishda qo'llanilganidagi kabi bojxona to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llaniladi.

Erkin ombordan bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan tovarning kelib chiqishi to'g'risidagi sertifikat bo'lmagan taqdirda bunday tovar unga bojxona

to'lovlari va iqtisodiy siyosat choralari qo'llash maqsadida O'zbekiston tovari sifatida, boshqa maqsadlarda esa, chet el tovari sifatida qaraladi.

Agar tovar olib chiqilayotganda bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etilishi yoki to'langan summalar qaytarilishi nazarda tutilgan bo'lsa, erkin ombor bojxona rejimiga joylashtiriladigan va O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga eksport bojxona rejimida olib chiqish mo'ljallangan tovar bojxona bojlari va soliqlar to'lashdan ozod etiladi yoki to'langan summalar qaytariladi. Bunday tovarni olib chiqish bojxona bojlari, soliqlar summolari qaytarilgan yoki ularni to'lashdan ozod qilingan kundan e'tiboran olti oydan kechiktirmay amalga oshirilishi kerak.

Erkin omborlardan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga olib chiqilishi lozim bo'lgan tovar bojxona hududiga qaytarilgan yoki uni olib chiqish belgilangan muddatlar ichida amalga oshirilmagan taqdirda bojxona bojlari va soliqlar to'lanadi

Erkin bojxona zonasi Erkin bojxona zonasi bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovar muayyan joylar va hududlarda bojxona to'lovlari to'lanmagan hamda iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda joylashtiriladi va shu tarzda undan foydalaniladi.

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga har qanday tovar joylashtiriladi, bundan bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovarlar hamda ushbu hududdan olib chiqilishi taqiqlangan O'zbekiston tovarlari mustasno.

Erkin bojxona zonasi faoliyat ko'rsatishini ta'minlash uchun zarur O'zbekiston tovarlariga nisbatan erkin bojxona zonasi bojxona rejimi qo'llanilmaydi.

Boshqa tovarlarga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoki alohida sharoitlarda saqlash talab etiladigan tovarlar maxsus moslashtirilgan binolarda saqlanishi lozim.

Tovarni erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining

asborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan operatsiyalar erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan chakana savdo operatsiyalarini amalga oshirishga yo'l qo'yilmaydi.

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar bilan ayrim operatsiyalarni amalga oshirishga qonun hujjatlariga muvofiq taqiqlar va cheklovlar belgilanishi mumkin.

Tovar erkin bojxona zonasi bojxona rejimida cheklanmagan muddatda turishi mumkin.

Erkin bojxona zonasi bojxona rejimida bojxona to'lovlari ushbu Kodeksning 105-moddasi talablari inobatga olingan holda, erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq undiriladi.

Erkin bojxona zonasi erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda tashkil etiladi.

Boj olinmaydigan savdo Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimi shunday rejimki, bunda tovarlar bojxona hududining bojxona organlari tomonidan belgilangan joylarida bojxona bojlari, soliqlar to'lanmagan va iqtisodiy siyosat chorolari qo'llanilmagan holda bojxona nazorati ostida turadi hamda realizatsiya qilinadi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan chet el tovarlari, shuningdek O'zbekiston tovarlari bojxona hududidan chiqib ketayotgan va bojxona hududiga kirib kelayotgan jismoniy shaxslarga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilingan chet ellik shaxslarga ushbu bobda belgilangan shartlarda chakana holda realizatsiya qilinadi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat chegarasini kesib o'tmayotgan jismoniy shaxslarga hamda O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida akkreditatsiya qilinmagan chet ellik shaxslarga boj olinmaydigan savdo do'konlarida tovarlarni realizatsiya qilishga (sotib olishga) ruxsat etilmaydi.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni realizatsiya qilish boj olinmaydigan savdo do'konlarida bojxona nazorati ostida amalga oshiriladi.

Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga har qanday tovarlar joylashtiriladi, bundan ro'yxati qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tovarlar mustasno.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarni deklaratsiyalash boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Tovarlar boj olinmaydigan savdo bojxona rejimida cheklanmagan muddatda turishi mumkin.

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar bilan quyidagi operatsiyalar amalga oshirilishi mumkin:

tovar realizatsiya qilinguniga qadar uning o'zgarmas holatda but saqlanishini ta'minlash operatsiyalari;

tovarlarni sotishga tayyorlash bo'yicha, shu jumladan saralash, o'rash-joylash, qayta o'rash-joylash, tamg'alash operatsiyalari (aktsiz markalari bundan mustasno).

Boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar realizatsiya qilinguniga qadar o'zgarmas holatda qolishi kerak, bundan iste'mol qilish uchun mo'ljallangan oziq-ovqat mahsulotlarini tayyorlash uchun foydalaniladigan tovar mustasno.

Boj olinmaydigan savdo do'konida realizatsiya qilinadigan tovarlar tovarning boj olinmaydigan savdo do'koniga mansubligini anglatuvchi maxsus tamg'aga ega bo'lishi va chakana sotish uchun oldindan o'rab, joylangan bo'lishi kerak.

Tovarni boj olinmaydigan savdo bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga bojxona yuk deklaratsiyasini va tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Bojxona tranziti Bojxona tranziti bojxona rejimi shunday rejimki, bunda:

olib kirilgan tovar bojxona chegarasida joylashgan jo'natuvchi bojxona organi va tovar kelib tushadigan bojxona organi orasidagi bojxona hududi bo'ylab, shu jumladan chet davlat hududi orqali bojxona nazorati ostida;

O'zbekiston tovarlari bojxona chegarasida joylashgan jo'natuvchi bojxona organi va tovar kelib tushadigan bojxona organi orasidagi chet davlat hududi bo'ylab bojxona bojlari va soliqlar to'lanmagan, shuningdek iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda olib o'tiladi.

Qaysi bojxona organi faoliyat ko'rsatish zonasida tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish boshlanadigan bo'lsa, o'sha bojxona organi jo'natuvchi bojxona organi hisoblanadi.

Qaysi bojxona organi faoliyat ko'rsatish zonasida tovarlarni bojxona nazorati ostida tashish tugallanadigan bo'lsa, o'sha bojxona organi tovar kelib tushadigan bojxona organi hisoblanadi.

Har qanday tovar quyidagi talablarga va shartlarga rioya etilgan holda bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtiriladi:

tovarning bojxona hududi orqali tranziti O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq taqiqlanmagan bo'lsa;

agar qonun hujjatlariga muvofiq tovarning bojxona hududi bo'ylab tranzitiga faqat tegishli ruxsatnomalar asosida yo'l qo'yilsa, tovarga nisbatan shunday ruxsatnomalar mavjud bo'lsa.

Bojxona tranziti bojxona rejimida tovarni tashish ushbu Kodeksning 31-bobida belgilangan talablar va shartlarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Xalqaro pochta va kur'erlik jo'natmalari, quvur transporti orqali va elektr uzatish liniyalari orqali olib o'tiladigan tovarlar bojxona tranzitining bojxona ramiylashtiruvchi ushbu

Kodeksning 24 va 25-boblariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash sharti bilan bojxona hududi orqali bojxona tranzitiga yo'l qo'yiladigan tovarlarning ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Ayrim turdagi tovarlarning bojxona hududi orqali bojxona tranziti bojxona rejimida olib o'tilishiga nisbatan qonun hujjatlari bilan boshqa talablar va shartlar ham belgilanishi mumkin.

Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish ushbu Kodeksning 3-bobiga muvofiq bojxona organi xabardor qilingan holda amalga oshiriladi.

Tovarni bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi. Qonun hujjatlarida belgilangan tovarlarning alohida toifasini bojxona tranziti bojxona rejimiga joylashtirilayotganda qo'shimcha ravishda bojxona yuk deklaratsiyasi taqdim etiladi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda tranziti amalga oshiriladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

tovar bilan amalga oshiriladigan yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar

Bojxona tranziti bojxona rejimida turgan tovar bilan oraliq bojxona organi nazorati ostida quyidagi yuk operatsiyalarini va boshqa operatsiyalarni bajarishga yo'l qo'yiladi:

tovarni bojxona hududiga olib kirgan transport vositasidan olib, shu hududdan olib chiqadigan transport vositasiga yuklash;

bojxona tranziti bojxona rejimining amal qilish muddatini to'xtatib turish uchun, shu jumladan tovar tashilayotgan transport vositasi buzilib qolgan taqdirda shunday qilish uchun vaqtincha saqlash joylarida tovarni tushirish va vaqtincha joylab qo'yish (saqlash, turkumlarga bo'lish yoki turkumlarga to'plash va boshqa shu kabi operatsiyalar). Tovarni vaqtincha joylab qo'yish muddati mazkur operatsiyalarni bajarish uchun ketadigan vaqtdan yoxud transport vositasini ta'mirlash-tiklash ishlariga ketadigan vaqtdan kelib chiqqan holda tashuvchi tomonidan belgilanadi, biroq bu muddat tovarning vaqtincha saqlash bojxona rejimida turishining eng ko'p muddatlaridan oshmasligi kerak.

O'zining faoliyat ko'rsatish zonasida bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar bilan ruxsat etilgan yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar amalga oshiriladigan bojxona organi oraliq bojxona organi hisoblanadi.

Agar bajariladigan operatsiyalar tovar ustidan bundan buyongi bojxona nazoratini amalga oshirish imkoni bo'lmasligiga olib kelsa, oraliq bojxona organi ushbu tovar bilan operatsiyalarni amalga oshirishni taqiqlashga haqli.

Avariya, yengib bo'lmas kuch ta'siri yoki bojxona tranziti bojxona rejimiga muvofiq tovarning tashilishiga to'sqinlik qiladigan boshqa holatlarda, tashuvchi tovarning va transport vositasining but saqlanishini ta'minlash uchun barcha choralarni ko'rishi, eng yaqin bojxona organiga ushbu holatlar va tovar turgan joy to'g'risida darhol xabar qilishi, shuningdek tovarni eng yaqin bojxona organiga yoki bojxona organi ko'rsatgan boshqa joyga tashib o'tishi yoki tashilishini ta'minlashi shart.

Bojxona tranziti bojxona rejimi olib kirilgan tovarni bojxona hududidan olib chiqish bilan yoki O'zbekiston tovarini bojxona hududiga olib kirish bilan tugallanadi.

Tovarni jo'natuvchi bojxona organidan tovar kelib tushadigan bojxona organigacha bojxona tranzitining muddati tovarlarni tashishning odatiy muddatlariga muvofiq, transportning turi va transport vositasining imkoniyatlari, yo'nalishi, boshqa tashish shartlaridan kelib chiqqan holda va (yoki) deklarantning yoki, agar tashuvchi bojxona tranziti bojxona rejimi deklaranti sifatida ish yuritmagan bo'lsa, tashuvchining arizasidan kelib chiqqan holda, shuningdek haydovchining O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq mehnat qilish hamda dam olish rejimi talablari inobatga olingan holda, jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilanadi, lekin bu muddat bojxona tranzitining eng ko'p muddatidan oshmasligi kerak.

Bojxona tranziti bojxona rejimining eng ko'p muddati bojxona tranziti uchun xabarnoma berilgan kundan e'tiboran belgilanadigan quyidagi hisob-kitob muddatidan oshmasligi lozim:

havo transporti uchun — uch kalendar' kun;

yer usti va suv transporti uchun — o'n besh kalendar' kunda bir ming kilometr.

Vakolatli shaxs tovarni va ushbu Kodeksning 18-moddasida nazarda tutilgan hujjatlarni tovar kelib tushadigan bojxona organiga jo'natuvchi bojxona organi tomonidan belgilangan muddatda taqdim etishi shart.

Tovar kelib tushadigan bojxona organi bojxona tranziti bojxona rejimini tugallash uchun zarur operatsiyalarni bajaradi.

Vakolatli shaxsning arizasiga ko'ra bojxona tranziti bojxona rejimini oraliq bojxona organida quyidagi yo'llar bilan tugallashga yo'l qo'yiladi:

tovarni alohida turkumlar bilan va (yoki) jo'natuvchi bojxona organi tomonidan ilgari belgilanganidan boshqa tovar kelib tushadigan bojxona organlari orqali olib chiqish yo'li bilan. Tovarlar alohida turkumlar bilan olib chiqilganda tovarning oxirgi turkumi bojxona hududidan olib chiqilganidan keyin bojxona tranziti bojxona rejimi tugallangan hisoblanadi;

ushbu Kodeksning talablari va shartlariga rioya etilgan holda tovarni boshqa bojxona rejimlariga joylashtirish yo'li bilan.

Zarur bo'lgan hollarda, oraliq bojxona organi vakolatli shaxsning arizasida ko'rsatilgan muddatga muvofiq bojxona tranziti bojxona rejimini tugallashning boshqa muddatini belgilaydi.

Yo'q qilish Yo'q qilish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda chet el tovari bojxona to'lovlari to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda bojxona nazorati ostida yo'q qilinadi, shu jumladan foydalanish uchun yaroqsiz holga keltiriladi.

Tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish ushbu Kodeksning 21-bobi qoidalariga muvofiq bojxona organi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

Tovarlarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirishga, agar yo'q qilinadigan tovarlar o'zining iste'mol xossalarini to'liq yo'qotadigan bo'lsa va ularning dastlabki holatini iqtisodiy foydali usulda tiklab bo'lmasa, yo'l qo'yiladi.

Quyidagi tovarlarning yo'q qilinishiga yo'l qo'yilmaydi:

madaniy boyliklarning;

yo'q bo'lib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar va o'simliklar turlarining, ularning qismlari va derivatlarining, bundan epidemiyalar va epizootiyalarning oldini olish maqsadida yo'q qilinishi talab etiladigan hollar mustasno.

Quyidagi hollarda tovarlarni yo'q qilishga yo'l qo'yilmaydi, agar:

yo'q qilish atrof muhitga zarar yetkazishi yoxud insonlarning hayoti va sog'lig'iga bevosita xavf tug'dirsa yoki xavf tug'dirish ehtimoli bo'lsa;

yo'q qilish tovarlarning odatiy maqsadiga ko'ra ularni iste'mol qilish orqali amalga oshirilsa; bojxona organi tovarlar amalda yo'q qilinganligini nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'lmasa;

tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat organining yo'q qilishni amalga oshirish imkoniyati to'g'risidagi, uni amalga oshirishning usuli va joyi ko'rsatilgan qonun hujjatlarida bojxona organlarining axborot tizimida bo'lmasa. Ushbu qismning qoidalarini avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida qaytarib bo'lmas tarzda yo'q qotilgan tovarlarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Tovarlarni yo'q qilish quyidagi yo'llar bilan amalga oshirilishi mumkin:

tovarlarning batamom yo'q bo'lib ketishiga olib keladigan termik, kimyoviy, mexanik tarzdagi yoki boshqa turdagi (yoqib tashlash, buzib tashlash, ko'mib tashlash) ta'sir ko'rsatish;

demontaj qilish, qismlarga ajratish, mexanik usulda buzish, shu jumladan tashlash, yirtish, boshqa usulda shikast yetkazish, basharti bunday shikastlanishlar tovarlarni keyinchalik tiklash va ulardan dastlabki ko'rinishida foydalanish imkoniyatini istisno etsa.

Tovarlarni yo'q qilish tabiatni muhofaza qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya etilgan holda vakolatli shaxs tomonidan uning o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Bojxona omborida saqlanayotgan tovarlarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risida tegishli vakolatli davlat organining tovar iste'molga va foydalanishga yaroqsizligi,

shuningdek bundan buyon uni saqlash mumkin emasligi haqidagi xulosasi ko'ra, vakolatli shaxsga oldindan yozma xabar yuborilgan holda bojxona omborining egasi tomonidan ma'lum qilinishi mumkin.

Tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga:

bojxona yuk deklaratsiyasini;

tovarning kuzatuv hujjatlarini;

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan shakl bo'yicha tuzilgan yo'q qilish dalolatnomasini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda yo'q qilinadigan tovarlarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlar mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Tovarni yo'q qilish muddati mazkur turdagi tovarni yo'q qilish operatsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan vaqtdan kelib chiqqan holda bojxona organi tomonidan vakolatli shaxsning arizasi asosida belgilanadi. Tovarni yo'q qilish ma'lum qilingan usulda hamda tovarni turgan joyidan yo'q qilish joyiga tashishga ketadigan vaqt hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

Tovarni yo'q qilish joyi tabiatni muhofaza qilish sohasidagi davlat organining xulosasi inobatga olingan holda vakolatli shaxs tomonidan belgilanadi.

Yo'q qilish bojxona rejimi avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki shikastlangan tovarlarga nisbatan qo'llanilishi mumkin.

Tovarlarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish to'g'risida ma'lum qilgan shaxs bojxona organlariga tegishli vakolatli organning ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan holatlarning mavjudligi hamda tovarlar shu holatlar natijasida yo'q qilinganligi yoki shikastlanganligi to'g'risidagi xulosasini taqdim etishi kerak.

Avariya yoki yengib bo'lmas kuch ta'siri oqibatida yo'q qilingan yoki shikastlangan tovarlar yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirilayotganda ushbu Kodeks 122-moddasi birinchi qismining va 127-moddasining qoidalari qo'llaniladi.

Yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarning bojxona rasmiylashtiruvchi tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Tovar yo'q qililguniga qadar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga tovarni yo'q qilish bojxona rejimiga joylashtirish uchun bojxona yuk deklaratsiyasini, shuningdek tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Tovar bojxona omborida saqlangan taqdirda, yo'q qilinishi ma'lum qilingan tovarni bojxona omboridan olib chiqish uchun bojxona organi tomonidan ro'yxatga olingan bojxona yuk deklaratsiyasi asos bo'ladi.

Tovarni yo'q qilish joyigacha yetkazib berish va uni yo'q qilish bojxona nazorati ostida amalga oshiriladi.

Tovarni yo'q qilish fakti bo'yicha bojxona organing mansabdor shaxsi, vakolatli shaxs va tovarlarni amalda yo'q qilish chog'ida hozir bo'lgan boshqa shaxslar tomonidan imzolalanadigan yo'q qilish dalolatnomasi tuziladi.

Tovarni yo'q qilish dalolatnomasi tovar amalda yo'q qilinganidan keyin bir ish kuni ichida bojxona organiga taqdim etiladi.

Bojxona yuk deklaratsiyasini taqdim etish va ro'yxatdan o'tkazish yo'q qilishdan avval, uni rasmiylashtirish esa, tovar yo'q qilinganidan keyin amalga oshiriladi.

Tovarni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan chiqindilar ular shu holatda bojxona hududiga olib kirilganida bo'lgani kabi boshqa bojxona rejimiga joylashtirilishi lozim, bundan ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno.

Yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan va keyinchalik foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelgunga qadar qayta ishlangan chiqindilar deklaratsiyalanmaydi.

Davlat foydasiga voz kechish Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimi shunday rejimki, bunda vakolatli shaxs tovaridan voz kechadi hamda uni bojxona to'lovlari to'lanmagan va iqtisodiy siyosat choralari qo'llanilmagan holda tekinga davlat mulkiga o'tkazadi.

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish ushbu Kodeksning 21-bobiga muvofiq bojxona organi tomonidan beriladigan ruxsatnoma asosida amalga oshiriladi.

Tovardan davlat foydasiga voz kechish davlatning biror-bir xarajat qilishiga sabab bo'lmashligi kerak.

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga quyidagi tovar joylashtirilmaydi:

bojxona hududiga olib kirilishi taqiqlangan tovar;

muomaladan chiqarilgan yoki muomalasi cheklangan tovar;

agar tovar vakolatli organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa, bojxona organlarining axborot tizimida unga nisbatan ushbu organlarning tegishli ruxsatnomasi bo'lmagan tovar.

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish uchun ruxsatnoma tovar O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelganidan va bojxona organiga taqdim etilganidan keyingina beriladi.

Tovardan davlat foydasiga voz kechgan vakolatli shaxs uni bojxona organi tomonidan belgilanadigan joyga yetkazib berish bilan bog'lik barcha xarajatlarni o'z zimmasiga oladi.

Tovar davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilganidan keyin vakolatli shaxs mazkur bojxona rejimini boshqasiga almashtirishga haqli emas.

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirishga ruxsatnoma olish to'g'risidagi arizaning qonuniyligi uchun har qanday uchinchi shaxs oldida javobgarlik vakolatli shaxsning zimmasida bo'ladi.

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish uchun ruxsatnoma bergan bojxona organi:

vakolatli shaxs davlat foydasiga voz kechgan tovarga nisbatan uchinchi shaxslarning biror-bir mulkiy talabini qanoatlantirmaydi;

tovar davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar tashuvchining, ombor egasining yoki boshqa shaxslarning shu tovarni tashish,

saqlash, u bilan yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar o'tkazish bilan bog'liq biron-bir xarajating o'rini qoplamaydi.

Tovarni davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish uchun deklarant bojxona organiga:

bojxona yuk deklaratsiyasini;

davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilayotgan tovarni topshirish dalolatnomasini;

tovarning kuzatuv hujjatlarini taqdim etadi.

Ruxsat etish xususiyatiga ega tegishli hujjatlar bo'lgan taqdirda davlat foydasiga voz kechiladigan tovarga nisbatan bojxona organlarining axborot tizimida bunday hujjatlarning mavjudligini bojxona organi mustaqil ravishda tekshiradi.

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovarning bojxona rasmiylashtiruvi tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtiriladigan tovar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga topshirilayotganda ikki nusxada dalolatnoma tuziladi.

Dalolatnomaning bir nusxasi ruxsatnoma bergan bojxona organida saqlanadi. Dalolatnomaning ikkinchi nusxasi vakolatli shaxsga beriladi.

Davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirilgan tovar davlat mulkini boshqarish bo'yicha vakolatli organga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda topshiriladi.

Tovarni reeksport, vaqtincha olib chiqish, bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash, reimport, vaqtincha olib kirish, bojxona hududida qayta ishlash, yo'q qilish yoki davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimiga joylashtirish bojxona organi

1) reeksport bojxona rejimi uchun — ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza. Bunda ilgari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarga nisbatan tegishli vakolatli organlar tomonidan berilgan, tovarning qaytarilishiga sabab bo'lgan nuqsonlar va boshqa holatlar aniqlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar arizaga ilova qilinadi;

2) vaqtincha olib chiqish bojxona rejimi uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

tovarni yetkazib berish yoki topshirish to'g'risidagi kontrakt (shartnoma, kelishuv) (tovar ijara, lizing shartnomasi, kafolatli xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihasi doirasida vaqtincha olib chiqilgan hollarda);

3) reimport bojxona rejimi uchun — ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza. Bunda ilgari eksport bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarga nisbatan tegishli vakolatli organlar tomonidan berilgan, tovarning qaytarilishiga sabab bo'lgan nuqsonlar va boshqa holatlar aniqlanganligini tasdiqlovchi hujjatlar arizaga ilova qilinadi;

4) vaqtincha olib kirish bojxona rejimi uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

tovarni yetkazib berish yoki topshirish to'g'risidagi kontrakt (shartnoma, kelishuv) (tovar ijara, lizing shartnomasi, kafolatli xizmat ko'rsatish va investitsiya loyihasi doirasida vaqtincha olib kirilgan hollarda);

tovarning kuzatuv hujjatlari;

5) davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimi uchun — ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza.

Tovarni bojxona rejimlariga joylashtirishga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxsdan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan boshqa hujjatlar taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga va tovarni yo'q qilishga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxs tovar qaysi bojxona organining faoliyat ko'rsatish zonasida turgan bo'lsa, o'sha bojxona organiga quyidagi hujjatlarni taqdim etadi:

1) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlari bo'lgan texnik-iqtisodiy asoslar (hisob-kitoblar), shuningdek vakolatli organlarning va (yoki) vakolatli tashkilotlarning (shu jumladan bojxona laboratoriyalarining) qayta

ishlash mahsulotlarining chiqish normalarini belgilash uchun aniq qayta ishlash texnologik jarayoniga asoslangan xulosalari;

qayta ishlashni amalga oshirish uchun asos bo'lgan kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) yoki tovarni qayta ishlash uchun olib chiqishga va qayta ishlash mahsulotlarini olib kirishga doir kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) ko'chirma nusxasi;

2) bojxona hududida qayta ishlash uchun:

ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza;

qayta ishlashning texnologik jarayoni to'g'risidagi ma'lumotlari bo'lgan texnik-iqtisodiy asoslar (hisob-kitoblar), shuningdek vakolatli organlarning va (yoki) vakolatli tashkilotlarning (shu jumladan bojxona laboratoriyalarining) qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normalarini belgilash uchun aniq qayta ishlash texnologik jarayoniga asoslangan xulosalari;

qayta ishlashni amalga oshirish uchun asos bo'lgan kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) yoki tovarni qayta ishlash uchun olib kirishga va qayta ishlash mahsulotlarini olib chiqishga doir kontraktning (shartnomaning, kelishuvning) ko'chirma nusxasi;

3) tovarni yo'q qilish uchun — ruxsatnoma berish to'g'risidagi ariza.

Tovarni bojxona hududidan tashqarida (hududida) qayta ishlashga va tovarni yo'q qilishga ruxsatnoma olish uchun vakolatli shaxsdan ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilmagan boshqa hujjatlarni taqdim etilishini talab qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizada vakolatli shaxsning elektron manzili ko'rsatilishi mumkin. Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizada vakolatli shaxsning elektron manzili ko'rsatilganligi uning o'z arizasi bo'yicha qabul qilingan qaror to'g'risidagi xabarni axborot tizimi orqali elektron shaklda olishga bo'lgan roziligidir.

Ushbu Kodeksning 133 va 134-moddalarida ko'rsatilgan hujjatlar vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga Interaktiv davlat xizmatlarining yagona portali orqali «bir darcha» printsipli bo'yicha taqdim etiladi.

Vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organi uning aksini tasdiqlamagunicha barcha hollarda to'g'ri deb hisoblanadi.

Ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizada ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi uchun javobgarlik vakolatli shaxsning zimmasida bo'ladi.

Bojxona organi tegishli ruxsatnomani berish to'g'risidagi arizani olganidan so'ng ushbu Kodeksda nazarda tutilgan talablar va shartlarga rioya etilganligini tekshiradi.

Bojxona organi:

tovarlarni reeksport, vaqtincha olib chiqish, reimport, vaqtincha olib kirish va davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimlariga joylashtirishga;

yo'q qilishga ruxsatnoma olish uchun arizalarni ko'rib chiqayotganda tovarlarni bojxona ko'rigidan o'tkazadi.

Bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash va bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizalarni ko'rib chiqishda bojxona organi:

vakolatli organlarning ruxsatnomalari mavjudligini tekshiradi, agar tovarlar yoki qayta ishlash mahsulotlari shu organlar tomonidan nazorat qilinishi lozim bo'lsa;

qayta ishlash mahsulotlarining chiqish normasini belgilaydi;

qayta ishlash mahsulotlarining majburiy chiqish normalarini aniqlashda qiyinchilik bo'lgan taqdirda o'rganib chiqish, tadqiq etish, tekshirish yoki boshqa ilmiy va texnik jihatdan baho berish uchun uchinchi shaxslarni jalb qiladi.

Tegishli ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish quyidagi muddatlardan oshmasligi kerak:

1) reeksport bojxona rejimiga joylashtirish uchun:

ilgari erkin muomalaga chiqarish (import) bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarga nisbatan ariza qabul qilingan sanadan e'tiboran bir oy;

ilgari boshqa bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarga nisbatan, ushbu bojxona rejimini tugallash maqsadida, ariza qabul qilingan sanadan e'tiboran o'n ish kuni;

2) vaqtincha olib chiqish va vaqtincha olib kirish bojxona rejimlariga joylashtirishga besh ish kuni;

3) bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash va bojxona hududida qayta ishlashga bir oy;

4) reimport va davlat foydasiga voz kechish bojxona rejimlariga joylashtirishga o'n ish kuni;

5) tovarni yo'q qilishga o'n ish kuni.

Tegishli ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish muddati barcha zarur hujjatlar taqdim etilgan sanadan boshlab hisoblanadi.

Bojxona organi tegishli qaror qabul qilingan sanadan e'tiboran bir ish kunidan boshlab vakolatli shaxsga tegishli ruxsatnomani berishi (jo'natishi) yoki ruxsatnoma berish rad etilganligi haqida uni yozma shaklda, shu jumladan axborot tizimi orqali elektron shaklda xabardor qilishi shart. Ruxsatnoma vakolatli shaxsga O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda beriladi.

Agar bojxona organi tegishli ruxsatnoma berish to'g'risidagi arizani ko'rib chiqish, ruxsatnoma berish yoki uni berishni rad etish muddati ichida vakolatli shaxsga ruxsatnoma bermagan bo'lsa yoki berishni rad etmagan bo'lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan muddat tugaganidan keyin vakolatli shaxs bojxona organini yozma ravishda xabardor qilgan holda tovarlarni bojxona organining ruxsatnomasi olinishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish huquqiga ega.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan hollarda, bojxona organi vakolatli shaxsning yozma xabarini olganidan keyin besh ish kuni ichida unga ruxsatnoma berishi shart.

Qabul qilib olingan sanasi ko'rsatilgan ariza va vakolatli shaxs tomonidan bojxona organiga yuborilgan yozma xabar ruxsatnoma olinguniga qadar ruxsatnomaga tenglashtiriladi hamda tovarlarni bojxona organining ruxsatnomasi olinishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish uchun asos bo'ladi.

Ruxsatnoma berishni rad etishga quyidagilar asos bo'ladi:

ruxsatnoma berish uchun zarur hujjatlar vakolatli shaxs tomonidan to'liq bo'lmagan hajmda taqdim etilganligi;

tovarlarning ushbu Kodeksga muvofiq ruxsatnoma olinishini nazarda tutuvchi bojxona rejimiga joylashtirish uchun belgilangan talablar va shartlarga mos emasligi;

vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlarda noto'g'ri yoki buzib ko'rsatilgan ma'lumotlar mavjudligi.

Ruxsatnoma berishni boshqa asoslar, shu jumladan maqsadga muvofiq emas degan vajlar bilan rad etishga yo'l qo'yilmaydi.

Ruxsatnoma berish rad etilganligi haqidagi xabar rad etish sabablari, qonun hujjatlarining aniq normalari va vakolatli shaxs mazkur sabablarni bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishi mumkin bo'lgan muddat ko'rsatilgan holda vakolatli shaxsga topshiriladi (yuboriladi). Vakolatli shaxs rad etish sabablarini bartaraf etib, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish uchun taqdim etishga haqli bo'lgan muddat ruxsatnoma berish rad etilganligi haqida xabar olingan kundan e'tiboran o'n ish kunidan kam bo'lishi mumkin emas.

Vakolatli shaxs ruxsatnoma berishni rad etishga asos bo'lgan sabablarni belgilangan muddatda bartaraf etgan taqdirda, hujjatlarni takroran ko'rib chiqish, ruxsatnoma berish yoki uni berishni rad etish, vakolatli shaxsning rad etish sabablari bartaraf etilganligi to'g'risidagi arizasi va ularning bartaraf etilganligini tasdiqlovchi tegishli hujjatlar olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan ko'p bo'lmagan muddatda bojxona organi tomonidan amalga oshiriladi.

Vakolatli shaxsning hujjatlari takroran ko'rib chiqilganligi uchun bojxona yig'imi undirilmaydi.

Hujjatlarni takroran ko'rib chiqishda bojxona organi tomonidan ilgari xabarda bayon qilinmagan rad etish sabablari keltirilishiga yo'l qo'yilmaydi, bundan ilgari ko'rsatilgan sabablar bartaraf etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar bilan bog'liq rad etish sabablari keltirilishi mustasno.

Ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi xabarda ko'rsatilgan muddat tugaganidan keyin vakolatli shaxs tomonidan topshirilgan ariza yangi topshirilgan ariza hisoblanadi va bojxona organi tomonidan umumiy asoslarda ko'rib chiqiladi.

Vakolatli shaxs ruxsatnoma berishni rad etish to'g'risidagi qaror, shuningdek bojxona organi mansabdor shaxsining harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish huquqiga ega.

Ruxsatnomaning amal qilishi quyidagi hollarda to'xtatib turiladi:

tovarlarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirish talablari va shartlari vakolatli shaxs tomonidan buzilganligi aniqlanganda;

bojxona organining aniqlangan qoidabuzarliklarni bartaraf etish majburiyatini vakolatli shaxs zimmasiga yuklaydigan qarori vakolatli shaxs tomonidan bajarilmaganda.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sud tartibida amalga oshiriladi, bundan favqulodda vaziyatlar, epidemiyalar va aholining hayoti hamda sog'lig'iga huquqiy tahdid vujudga kelishining oldini olish munosabati bilan o'n ish kunidan hisoblanadigan muddatga ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish hollari mustasno.

Bojxona organining ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qarori ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish sabablari va qonun hujjatlaridagi aniq normalar ko'rsatilgan holda, qaror qabul qilingan kundan hisoblanib bir ish kunidan kechiktirmay vakolatli shaxsga yetkaziladi.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi sud qarori qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda vakolatli shaxsga yetkaziladi.

Bojxona organi yoki sud ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarning vakolatli shaxs tomonidan bartaraf etilish muddatini belgilashi shart.

Ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turishga sabab bo'lgan holatlarni vakolatli shaxs tomonidan bartaraf etish muddati ruxsatnomaning amal qilishini to'xtatib turish to'g'risidagi qaror vakolatli shaxs tomonidan olingan kundan hisoblanib besh ish kunidan kam bo'lmasligi kerak.

8. Jismoniy shaxslar tomonidan import bojxona rejimi ostida joylashtirilgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirayotgan bojxonalar idoralariga qanday hujjatlar taqdim etiladi?
9. Eksport va erkin muomalaga chiqarish (import) rejimlari bo'yicha Nizomlar qachon va qaysi organ tomonidan ro'yhatdan o'tkazilgan?
10. Tranzit rejimining va vaqtincha olib kirish(olib chiqish) rejimlaridan farqli jihatlari nimada?

BOJXONA NAZORATINI AMALGA OSHIRISH TARTIBLARI VA SHARTLARI

Reja:

Asosiy tushunchalar va

atamalar

Bojxona nazorati, bojxona deklaratsiyasi (rasmiylashtiruv), bojxona nazoratining huquqiy asosi, vakolatli shaxs, bojxona nazorati zonalar, bojxona nazorati obyekti, bojxona nazoratining shakllari, qizil yo'lak, yashil yo'lak, sariq va ko'k yo'laklar, xavfni boshqarish tizimi.

5.1 Bojxona nazoratining ahamiyati.

5.2 Bojxona nazoratining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

5.3 Bojxona nazoratining formalari va malga oshirish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan o'tayotgan tovar va transport vositalarini bojxona nazorati hamda bojxona ko'rigidan o'tkazishning maqsadi, ularning O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lgan qonunlari doirasida ekanligini aniqlash va tasdiqlashdir. **Bojxona nazoratining huquqiy asoslari bo'lib:**

- O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi;
 - O'zbekiston Respublikasining Davlat Bojxona Xizmati to'g'risidagi qonuni;
- Bojxona ishida bojxona nazorati hamda bojxona rasmiylashtiruvi (bojxona

Bojxona nazorati – O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiriladigan tadbirlar majmuidan iborat.

deklaratsiyasi) doim bir vaqtda amal qiladi. Ya'ni, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi 21-moddasiga muvofiq,

“Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan hamda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi kerak.

Bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash uchun bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan, shu jumladan xavfni boshqarish tizimi qo'llanilgan holda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmuidan iboratdir.

Bojxona chegarasidan olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash uchun bojxona organlarining mansabdor shaxslari tomonidan o'tkaziladigan bojxona operatsiyalari majmui bojxona rasmiylashtiruvi hisoblanadi.”

Bojxona nazorati:

- bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va (yoki) ushbu Kodeksga muvofiq deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlarga va transport vositalariga nisbatan;
- taqdim etilishi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan bojxona deklaratsiyasiga, tovarlar to'g'risidagi hujjatlarga va ma'lumotlarga nisbatan;

yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish, bojxona ishi sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq, shuningdek ayrim bojxona rejimlari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatiga nisbatan o'tkaziladi.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi 178-modd.

Demak, bojxona nazorati kompleks chora-tadbir bo'lib, bunda asosiy e'tibor mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash hamda O'zbekiston Respublikasi a'zo bo'lgan xalqaro shartnomalar shartlari bajarilishidir. Masalan: Narkotik moddalarning noqonuniy aylanishini oldini olish, azon qatlamini buzuvchi moddalarning tarqatilishini oldini olish to'g'risidagi xalqaro Konventsiyalar O'zbekiston Respublikasida qabul qilingan bo'lib, ushbu tovarlarning bojxona chegarasidan noqonuniy olib o'tilishiga yo'l qo'yilmaydi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA OLIB KIRISH

TAQIQLANGAN TOVARLAR RO'YXATI:

- a) "giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar (eksporti ham taqiqlangan);
- b) urushni targ'ib etuvchi, davlat va jamiyat tizimi, hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetiga daxl qiluvchi, urush, terrorizm, zo'ravonlik, millatchilik va diniy ayirmachilik, irqchilik va uning turlarini (antisemitizm, fashizm) targ'ib etuvchi bosma ishlar, qo'lyozmalar, klishe, stereotiplarni, chizmalar, rasmlar, filmlar, negativlar, kino, video va audio asarlar, ovoqli materiallar, gramyozuvlar, shuningdek, pornografik xususiyatga ega bo'lgan materiallar;
- c) portativ lazer nurlantiruvchilari;
- d) portlovchi va pirotexnik vositalar;
- e) uchuvchisiz havo vositalari"¹⁰.

Bojxona qoidabuzarliklari natijasida Respublika byudjetiga belgilangan tushumlar undirilmaydi hamda iqtisodiyotimizga ziyon yetkazadi.

¹⁰ <https://ustom.uz/uz/ins/view/112>

Bojxona nazorati zonalarini Bojxona nazorati zonalarini bojxona chegaralari bo'ylab, bojxona rasmiylashtiruvini joylarida, bojxona organlari joylashgan yerlarda va bojxona organlari tomonidan belgilangan boshqa joylarda tuziladi.

Bojxona nazorati zonalarini tuzish va belgilash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona nazorati zonalarida ishlab chiqarish, tijorat faoliyatini va boshqa faoliyatni amalga oshirishga, shuningdek ularning chegaralari orqali transport vositalari, tovarlar va shaxslarni olib o'tishga bojxona organlarining ruxsati bilan va nazorati ostida yo'l qo'yiladi.

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlarning nazoratdan chiqarilishi uchun bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish lozim bo'ladi. Bojxona rasmiylashtiruvini bojxona organi faoliyat ko'rsatadigan zonadagi shu maqsad uchun ajratilgan, tovarlarni jo'natuvchi yoki oluvchi yoxud ularning tarkibiy bo'linmasi joylashgan yerlarda bojxona organining ish vaqtida amalga oshiriladi.

Manfaatdor shaxsning yozma iltimosnomasiga binoan uning hisobidan va bojxona organining roziligi bilan bojxona rasmiylashtiruvini boshqa joylarda va bojxona organining ish vaqtidan tashqari vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona organlari joylashgan yerlarda emas, bevosita o'z hududlarida yoki binolarida bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazishdan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bu organlarga xizmat va maishiy binolarini, uskunalar hamda aloqa vositalarini bepul berib qo'yadilar.

Bojxona nazorati zonalarini bojxona chegaralari bo'ylab, bojxona rasmiylashtiruvini joylarida, bojxona organlari joylashgan yerlarda va bojxona

5.2

organlari tomonidan belgilanadigan boshqa joylarda tuziladi.

Bojxona nazorat zonalarini tuzish va belgilash tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona nazoratining iqtisodiy mohiyati va ahamiyati.

Bojxona nazorati:

- Bojxona hududiga olib kirishda tovarlar va transport vositalari bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan e'tiboran;



- Bojxona xududidan tovarlar va transport vositalarini olib chiqishda bojxona deklaratsiyasi qabul qilib olingan paytdan e'tiboran boshlanadi.

Bojxona nazorati, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, tovarlar va transport vositalari saqlangan bojxona rejimiga muvofiq chiqishga ruxsat berilgan paytdan e'tiboran tugallanadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish yoki nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi shaxslar bu organlarga ro'yxati va taqdim etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadigan hujjatlarni va ma'lumotlarni topshiradilar.

O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 184- modasiga muvofiq, bojxona nazorati uchun hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim qilish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1) nazorat qilinishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatni amalga oshiruvchi vakolatli shaxslardan va boshqa shaxslardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni;

2) tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organlardan va boshqa organlardan bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur hujjatlar va ma'lumotlarni talab qilib olish huquqiga ega"¹¹.

Hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish to'g'risida so'rov yo'llangan, ushbu moddaning birinchi qisimida ko'rsatib o'tilgan shaxslar va organlar ushbu hujjatlar va ma'lumotlarni bojxona organiga mumkin qadar qisqa muddatlarda yuborishi shart.

Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran uch yil davomida saqlanadi.

Bojxona nazoratini amalga oshirish uchun bojxona organlari banklardan, boshqa moliya kredit muassasalaridan va xo'jalik yurituvchi sub'ektlardan eksport-

¹¹ <https://lex.uz/docs/2876354>

import operatsiyalari hamda nazorat qilish bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan faoliyatning boshqa turlariga doir ma'lumotlarni oshirishga haqlidir.

Bojxona nazorati uchun zarur bo'lgan xujjatlar shaxslar tomonidan kamida uch yil saqlanishi lozim.

Tovarlar va transport vositalari chiqishga ruxsat berilganidan keyin, agar qonun xujjatlari buzilgan deb taxmin qilish uchun asoslar mavjud bo'lsa, tovarlar va transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkazilishi mumkin. Ko'rsatib o'tilgan xollarda bojxona organlari tovarlar va transport vositalari mavjudligini tekshirishga, ularni takroran bojxona tekshiruvidan o'tkazishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni qayta tekshirishga, ushbu tovarlar bilan amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy va keyingi tijorat operatsiyalariga daxldor xujjatlar va boshqa ma'lumotlarni tekshirishga haqlidir. Tekshirish deklarant turgan joyda, ko'rsatib o'tilgan operatsiyalarga bevosita yoki bilvosita aloqasi bo'lgan yoki zarur xujjatlarga ega bo'lgan har qanday boshqa shaxs turgan joylarda o'tkazilishi mumkin. Xuquqbuzarlik aniqlangan taqdirda shaxslar qonun xujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

Tovar va transport vositalarining bojxona nazorati O'zbekiston Respublikasi barcha bojxona xududida tashkil qilinib, ayniqsa erkin bojxona zonalarini, shuningdek, erkin chegaralar va erkin omborlarda amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratini sub'ektlariga O'zbekiston Respublikasining bojxona organlarining tizimi, ularning amaldor shaxslari, xokimiyat vakillari vazifalarini bajarib, tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari bilan o'zaro munosabatda bo'lganlar, bojxona chegarasidan tovar va transportlarni olib o'tish bilan bog'liq bo'lganlar, shuningdek transport vositalarini boshqa shaxslar orqali olib o'tuvchilar, bojxona chegaralarini boshqa shaxslar olib o'tuvchilar va shaxsni buyumlarini olib o'tuvchilar kiradi.

Bojxona nazoratini o'tkazish quyidagilarni ta'minlashni nazarda tutadi:

1. Tashqi iqtisodiy oborotning tezlanishi uchun sharoit yaratish
2. Bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini olib o'tish uchun ruxsat etiladigan tartibni joriy qilish

3. Kontrabandaga qarshi kurashish bojxona qoidalari va soliq to'grisidagi qonunchilikka amal qilish, shuningdek bojxona chegaralaridan qonunsiz ravishda qiyohvand moddalar: qurol-yarog', o'q dori, portlovchi moddalar badiiy tarixiy va arxeologik qiymatga ega bo'lgan xalq boyligining o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik
4. O'z vaqtida va to'raligicha bojxona solig'i yig'im va boshqa bojxona to'lovlarini undirib olish
5. O'zbekiston Respublikasining maxsus bojxona siyosatini yuritish va tashqi savdo lo'i'yicha tashqi savdo hisobini olib borish
6. Bojxona organlarining vakolati doirasida valyuta nazoratini amalga oshirish
7. Tashqi iqtisodiy faoliyat va boshqalar bo'yicha tovarlar ro'yxatini yuritish

5.3

Bojxona nazoratining formalari va amalga oshirish tartibi

Ko'rishimiz mumkinki, O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 28 bobi aynan bojxona nazorati shakllari va tartiblariga bag'ishlangan. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksining 188-moddasiga ko'ra, bojxona nazorati shakllari quyidagilarni tashkil etadi:

- hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish; (190 - modda)
- og'zaki so'rov; (191 - modda)
- axborot olish; (192 - modda)
- bojxona ko'zdan kechiruv; (193 - modda)
- tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish; (194 - modda)
- bojxona ko'rigi; (195 - modda)
- shaxsiy ko'rik; (196 - modda)
- bojxona identifikatsiyalashi; (197 - modda)
- bojxona kuzatuv; (198 - modda)
- binolar va hududlarni tekshirish; (199 - modda)
- tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish; (200- modda)



- tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati. (201- modda)

Bojxona organlari bojxona nazorati shakllarini qo'llashda tanlab olish prinsipiga asoslanadi va bojxona nazoratining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan shakllari bilan cheklanadi. Bojxona nazorati shaklini tanlash bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan belgilanadi.

Bojxona nazorati amalga oshirilayotganda bojxona organlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish maqsadida, tekshirilishi kerak bo'lgan tovarlarni va transport vositalarini, yuridik va jismoniy shaxslarning hujjatlarini aniqlash, bojxona nazorati shakllarini va ularning qo'llanilish hajmini tanlash uchun xavfni boshqarish tizimini qo'llaydi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo'llamaslik yoki ulardan ozod qilish yuridik va jismoniy shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish majburiyatidan ozod qilinganligini anglatmaydi.

Quyidagilar bojxona ko'rigidan o'tkazilmaydi:

-O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi sobiq Prezidentining shaxsiy bagaji;

-O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a'zolarining va Qonunchilik palatasi deputatlarining, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a'zolarining, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakilining (ombudsmanning) va O'zbekiston Respublikasi diplomatik pasportlari egalarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog'liq holda bojxona chegarasini kesib o'tsalar;

-qonunga muvofiq boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy bagaji.

-chet el harbiy kemalari, jangovar va harbiy-transport havo kemalari, shuningdek o'zi yurib kelayotgan harbiy texnikasi bojxona ko'rigidan ozod qilinadi.

Bojxona nazoratini o'tkazishda insonning hayoti va sog'lig'i, hayvonlar, o'limliklar uchun xavfsiz bo'lgan hamda tovarlarga va transport vositalariga zarar etkazmaydigan texnik va boshqa vositalar qo'llanilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi bojxona nazoratini amalga oshirish maqsadida chet davlatlarning bojxona organlari bilan hamkorlik qiladi, ular bilan o'zaro yordam va axborot almashinuvi to'g'risida bitimlar tuzadi"¹².

O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi 189-modda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2017 dagi PK-3454 sonli quroriga asosan bojxona nazoratiga quyidagi o'zgartirishlar kiritildi:

1 2018-yil 1-yanvardan boshlab O'zbekiston Respublikasining xalqaro aeroportlarida jismoniy shaxslar bojxona nazoratidan o'tishlari uchun ikki tomonli "yashil" va "qizil" yo'laklar tizimi joriy etilgan.

Quyidagi hollarda har qanday shaxs bojxona deklaratsiyasini to'ldirmasdan "yashil" koridordan o'tish huquqiga egadir:

- olib kirilayotgan/olib chiqilayotgan xorijiy valyuta 2000 (ikki ming) AQSh dollaridan oshmasa;
- olib kirilayotgan tovarlarning qiymati va (yoki) soni qonun hujjatlarida belgilangan bojxona to'lovlari uchun asos bo'ladigan me'yorlardan oshmasa;
- qonunchilikka muvofiq olib kirilishi/chiqilishi taqiqlangan yoki cheklangan tovarlar mavjud bo'lmasa.

"Yashil" koridorni tanlash jismoniy shaxsning bojxona organiga yozma deklaratsiyaga kiritilishi lozim bo'lgan tovar yoki naqd xorijiy valyutasi mavjud emasligini anglatadi.

Tovarlar yoki naqd xorijiy valyuta mavjud ekanligi aniqlangan taqdirda, shaxs qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

"Qizil" yo'lakni tanlaganda, shaxs bojxona deklaratsiyasini to'ldirishi, undagi yozma deklaratsiyaga kiritilishi zarur bo'lgan tovarlar, naqd xorijiy valyuta va boshqa predmetlar mavjudligini ko'rsatishi va uni bojxona xodimiga taqdim etishi shart.

¹² <https://lex.uz/docs/2876334>

Deklaratsiyada noto'g'ri ma'lumot taqdim etganlik qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo'ladi.

Qaysi yo'lakdan kirishga shubha tug'ilgan holatda "qizil" yo'lakni tanlagan ma'qul yoki bojxona xodimiga murojaat qilish lozim.

Bojxona qonunchiligi bilan bog'liq batafsil ma'lumot "yashil" va "qizil" yo'laklar kirish oldida berilgan.

2019 yil 1 martdan boshlab:

- **"yashil yo'lak"**, bunda xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi;
- **"ko'k yo'lak"**, bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

"Xavfni boshqarish" – bu qanday tizim?

Xalqaro press-klubda bojxona sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi strategik vazifalarga bag'ishlangan maxsus sessiya tashkil etildi.

Unda Davlat bojxona qo'mitasi rahbariyati va qo'mita tarkibiy tuzilmalari boshliqlari, mutasaddi vazirlik va idoralar vakillari, tadbirkorlik subyektlari ishtirok etdi.

Davlat bojxona qo'mitasi raisi M.Azimov va boshqalar Prezidentning 2018 - yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni sohani har tomonlama rivojlantirishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilayotganini ta'kidladi.

Bugungi kunda bojxona qo'mitasi tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatda muammolarni o'rganish, bartaraf etish, tadbirkorlarga qulay sharoit yaratish, bojxona qonunchiligini takomillashtirish va uning sodda xalq tilida bo'lishini ta'minlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda xavfni boshqarish tizimini keng qo'llagan holda soddalashtirilgan va shaffof bojxona ma'murchiligini yo'lga qo'yish kabi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Press-klubda joriy yil 1-sentyabrdan yangi “xavfni boshqarish” tizimi ishga tushishi haqida ma’lumot berildi. “Xavfni boshqarish” tizimi halol tadbirkorlik subyektlariga bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirgan tartibda tezkorlik bilan o’tkazish, aksincha, belgilangan bojxona qoidalarini buzgan tadbirkorlarni to’g’ri yo’lga boshlash maqsadida yaratilgan. Eksport-import qilinayotgan tovarlar faqat dastlabki bojxona rejimiga rasmiylashtirish vaqtida xavfni boshqarish tizimini qo’llash asosida tanlab tekshirish prinsipiga rioya etilib, bojxona ko’rigidan o’tkaziladi.

Bojxona xodimlari tomonidan joriy yilning o’tgan davrida o’tkazilgan tadbirlar va bojxona ko’riklari natijasida jami 5 ming 215 huquqbuzarlik holatlari aniqlanib, qiymati 69,9 milliard so’mlik tovarlar olib qo’yilgan. Aniqlangan huquqbuzarliklarning 230 holati yuzasidan jinoyat ishi qo’zg’atilgan. Joriy yilda tovarlarni soxta kuzatuv hujjatlari asosida chegaradan olib o’tish va rasmiylashtirish bilan shug’ullangan 20 tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari (TIF)ning jinoiy faoliyati fosh etilib, ularga nisbatan jinoyat ishi qo’zg’atilgan va jami 135,2 milliard so’mga yaqin qo’shimcha bojxona to’lovlari hisoblangan. Bundan tashqari, 60 TIF qatnashchilari tomonidan 24,5 milliard so’mlik bojxona imtiyozlaridan noqonuniy foydalanganlik holati aniqlandi.

2018-yil 1-sentyabrdan Davlat bojxona qo’mitasining veb-saytida “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmati joriy etiladi. Unga ko’ra, tovarlarning bojxona chegarasi orqali harakati rejimini tartibga soluvchi bu xizmat barcha normativ hujjatlar va ushbu hujjatlarni beruvchi organlar to’g’risidagi batafsil axborotni, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish uchun boshqa ma’lumotlarni real vaqt rejimida bepul asosda olish imkonini beradi. Tadbirkorlik subyektlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat amalga oshirilganda davlat organlariga “Integratsiyalashgan tarif” interaktiv xizmatida nazarda tutilmagan ma’lumot va hujjatlarni talab qilish man etilishi belgilab qo’yildi.

Xavfni boshqarish tizimida qo’llaniladigan asosiy tushunchalar

Xavfni boshqarish tizimida quyidagi asosiy tushunchalar qo’llaniladi:

xavf — bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmasligi ehtimolining darajasi;

aniqlangan xavf — bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish sodir etilganligidan va bojxona organlari ushbu holat to'g'risida ma'lumotga ega ekanligidan dalolat beruvchi fakt;

potensial xavf — aniqlanmagan, lekin uning yuzaga kelishi uchun sharoitlar mavjud bo'lgan xavf;

xavf indikatorlari — oldindan belgilangan ko'rsatkichlarga ega muayyan mezonlar bo'lib, ulardan og'ish yoki ularga mos kelish nazorat ob'ektini tanlashni amalga oshirish imkonini beradi;

xavf profili — xavf sohasi, xavf indikatorlari to'g'risidagi ma'lumotlarning yig'indisi, shuningdek xavfning oldini olish yoki uni imkon qadar kamaytirish bo'yicha zarur choralarini ko'rish to'g'risidagi ko'rsatmalar;

xavf sohasi — xavf tahlilining ayrim guruhlariga bo'lingan ob'ektlari bo'lib, ularga nisbatan bojxona nazoratining alohida shakllari yoki majmui qo'llanilishi, shuningdek ularning samaradorligini oshirish talab etiladi;

xavfni baholash — xavfning yuzaga kelishi ehtimolini va u yuzaga kelganda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi oqibatlarini muntazam ravishda aniqlab borish;

yashiruvchi tovarlar — xavf tovarlari o'rniga deklaratsiyalanishi ehtimoli etarli darajada bo'lgan tovarlar;

xavf tovarlari — xavf aniqlangan yoki potensial xavf mavjud bo'lgan bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar;

xavf darajasi — xavfning yuzaga kelishining ehtimoliga va uning mumkin bo'lgan oqibatlariga bog'liq tarzda aniqlanadigan xavfning holati;

xavf tahlili — bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotdan xavfning yuzaga kelishi holatlari va shart-sharoitlarini aniqlash, ularni identifikatsiyalash va bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmasligining ehtimol tutilgan oqibatlarini baholash maqsadida muntazam ravishda foydalanish;

xavfni boshqarish — xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo'llanilish samaradorligini baholash, shuningdek bojxona operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotning uzluksiz yangilanishini, tablil etilishini va qayta ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlar.

2. NAQD XORIJIY VALYUTANI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIGA OLIB KIRISH

Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining naqd valyutasini va chet el naqd valyutasini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish cheklovlarisiz amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining naqd valyutasini va chet el naqd valyutasini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga olib chiqish yuz million so'm ekvivalentdan ortiq bo'lmagan summada amalga oshiriladi. Naqd valyutani belgilangan ekvivalentdan ortiq summada olib chiqish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

Yuridik shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining naqd valyutasini va chet el naqd valyutasini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish taqiqlanadi, bundan O'zbekiston Respublikasi banklari mustasno.

Agar Siz bojxona qoidalari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lmasangiz, u holda chegara-bojxona postida xizmat olib borayotgan bojxona xodimlariga murojaat qilishingiz mumkin.

4. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIGA OLIB KIRISH TAQIQLANGAN TOVARLAR RO'YXATI:

- a) "giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar va prekursorlar
- b) urushni targ'ib etuvchi, davlat va jamiyat tizimi, hududiy yaxlitligi, siyosiy mustaqillik va davlat suverenitetiga daxl qiluvchi, urush, terrorizm, zo'rvonlik, millatchilik va diniy ayirmachilik, irqchilik va uning turlarini (antisemitizm,

fashizm) targ'ib etuvchi bosma ishlar, qo'lyozmalar, klishe, stereotiplar, chizmalar, rasmlar, filmlar, negativlar, kino, video va audio asarlar, ovozl materiallar, gramyozuvlar, shuningdek, pornografik xususiyatga ega bo'lgan materiallar;

c) portativ lazer nurlantiruvchilari;

g) portlovchi va pirotexnik vositalar;

e) uchuvchisiz havo vositalari"¹³.

5. JISMONIY SHAXSLAR TOMONIDAN SHAXSIY ISTE'MOL MAQSADIDA DORI VOSITALARINI OLIB KIRISH/OLIB CHIQISH TARTIBI

Yashash yoki bo'lish mamlakati tibbiyot muassasasi tomonidan berilgan hujjat taqdim etilmasdan quyidagilar jismoniy shaxslar tomonidan shaxsiy foydalanish uchun olib kiriladi va olib chiqiladi:

turli nomdagi 10 tagacha dori preparatlaridan iborat dori vositalari va ularning har biri uchun 5 o'randan ortiq bo'lmagan dori vositalari;

5 birlikdan ortiq bo'lmagan tibbiy buyumlar.

Bunda bir o'ramda:

qattiq (tabletkalar, drajelar, granulalar, kukunlar, kapsulalar) dori shakllari uchun — 100 birlikdan ortiq emas;

eritma tayyorlash uchun qo'llaniladigan kukunlar uchun — 500 grammdan ortiq emas;

granula shakldagi gomeopatik dori vositalari uchun — 50 grammdan ortiq emas;


infuzion eritmalar va oral (og'iz orqali) qo'llaniladigan eritmalar uchun — 500 millilitrdan ortiq emas;

inyeksiyalar uchun eritmalar — 10 ampuladan yoki 10 flakondan ortiq emas;

tashqi dorilar uchun — 200 millilitrdan yoki 200 grammdan ortiq emas.

Dori vositalari va tibbiy buyumlar ishlab chiqaruvchining o'ramida bo'lishi kerak.

¹³ <https://customs.uz/uz/lists/view/112>



Muhokama uchun savol va topshiriqlar

1. Bojxona nazorati nima?

2. Bojxona nazoratining nechta shakllari mavjud va ular qaysilar?

3. “ yashil ” va “ qizil ” yo`laklarning (koridorlarning) mazmuni nimalardan iborat?

4. “ yashil ” va “ qizil ” yo`laklarning farqi nimada?

5. Tovarlar bojxona ko`rigidan o`tkazilmasligi mumkinmi?


6. Qanday holatlarda bojxona ko`rigi o`tkazilmaydi?

7. Bojxona ko`rigidan o`tkazilmaydigan tovarlarning egalari kimlar bo`lishi mumkin?

8. O`zbekiston Respublikasi hududiga kiritilishi taqiqlangan tovarlardan kamida 10 tasini sanab bering.

9. Bojxona Kodeksining 28-bobi nimaga bag`ishlangan?

10. Bojxona ko`rigi hamda bojxona kuzatuvchi o`rtasidagi farq nimada?



6 MAVZU

BOJXONA RASMIYLASHTIRUVI VA DEKLARATSIYALASH

**Asosiy tushuncha va
atamalar:**

Bojxona
rasmiylashtiruvi,
deklaratsiyalash,
tashuvchi, qisqa
deklaratsiyalash,
davriy bojxona
deklaratsiyasi,
deklarant, elektron
deklaratsiya.

Reja

1. **Bojxona**
rasmiylashtiruvining
umumiy qoidalari
2. **Bojxona**
rasmiylashtiruvidagi
dastlabki
operatsiyalar
3. **Bojxona**
organlarida
deklaratsiyalash

6.1

Bojxona rasmiylashtiruvining umumiy qoidalari

Bojxona rasmiylashtiruvi — tovar va transport vositalarini muayyan bir rejim ostiga joylashtirish va bu rejim xarakterlarini tugallash jarayonidir.



6.1.-rasm

Bojxona organlariga yuklatilgan bir qator vazifalarni bajarish uchun avvalo bojxona chegarasidan kesib o'tayotgan tovar va transport vositalari ustidan samarali bojxona nazoratini o'rnatish va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish dardor. Ushbu vazifalarni bojxona organlariga yuklatilishini sababi sifatida tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tishida ular to'g'risidagi barcha zarur ma'lumodlarni bir bojxona organida to'plash va ularga nisbatan to'g'ri qaror qabul qilishini ko'rsatib o'tish mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruv -
 tovar va transport vositalari
 ustidan bojxona nazoratini
 o'tkazish maqsadida bojxona
 xizmatlari oshiradigan operatsiyalar
 o'tkazilishi bo'lib, ular bojxona
 xizmatlari bilan uzviy bog'liqdir
 O'zbekiston Respublikasi Bojxona
 Kodeksi, 21-modda, 3-band)



6.2.-rasm. Bojxona rasmiylashtiruv




Tovar transport vositalarini
 bojxona rasmiylashtiruv vazifasini
 bajarish orqali bojxona nazoratini
 samarali qo'llash imkoniyati paydo
 bo'ladi, shu sababli bojxona nazorati
 va bojxona rasmiylashtiruv o'zaro
 chambarchas bog'liq jarayonlardir.

6.3.-rasm. Bojxona rasmiylashtiruv va bojxona nazoratining bog'liqligi


Ushbu vazifa ichiga bojxona uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni hisob -kitob
 qilish, bojxona chegarasida harakatda bo'lgan tovar va transport vositalari
 to'g'risida to'la va aniq hujjatlar asosida axborot yig'ish, samarali bojxona nazorati
 o'tkazish uchun shart- sharoitlar yaratish, valyuta, eksport, veterinar, ekologik
 nazorat qilish uchun to'la imkoniyatlar yaratish kabilar kirib, ular TIF
 qatnashchilariga bojxona rejimlarini to'g'ri tanlashga yordam beradi.

Tovarlarni bojxona rasmiylashtiruv tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarini
 bojxona qonunchiligiga binoan tovarlarni albatta deklaratsiya qilish majburiyatiga
 ayohlanadi.



6.4.-rasm. Deklaratsiya shakllari.

Tovar va transport vositalarini olib kirish va olib chiqishda ularga bojxona deklaratsiyasi to'ldirish jarayonida turli xil holatlar vujudga kelishi tufayli tovar va transport vositalarini deklaratsiyalash, shakli, mazmuni, vaqt oralig'i va deklaratsiya tanlagan bojxona rejimiga qarab, bojxona yuk deklaratsiyalari bir-biridan farq qiladi. Bunga muvofiq tovar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruv ham xar bir holatlarga mos ravishda amalga oshiriladi.



6.5.-rasm. Bojxona rasmiylashtiruvining asosiy mazmuni va maqsadlari

Bojxona rasmiylashtiruvi quyidagi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

- Deklarantlardan tovar va transport vositalari haqida tegishli ma'lumotlarni olish va qayd etish. Bu ma'lumotlar asosan tovar haqidagi barcha bojxona uchun zarur hujjatlarni o'z ichiga oladi;
- Deklarantdan qabul qilingan bojxona yuk deklaratsiyasiga tegishli ma'lumotlarni kiritish va bu ma'lumotlarni o'z muhri bilan tasdiqlash;
- Bojxonaga taalluqli hujjatlarni to'ldirish;
- Vaqtincha saqlov omborlariga tovarlarni qabul qilish, uni hisobini olib borish va tovarlarni egasiga berish;
- Vaqtincha saqlash omborlaridan namuna sifatida olingan tovarlarga tegishli bayonnomalar tuzish;
- Tovar va transport vositalariga nisbatan dastlabki qarorlarni qabul qilish;
- Bojxona hujjatlarida bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruvi tugallanganligi haqida yozma tasdiqlar kiritish.

6.5.-rasm. Bojxona rasmiylashtiruvining asosiy jarayonlari.

Tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali o'tkazishi olib o'tiyotgan shaxs tomonidan tanlangan bojxona rejimiga muvofiq bojxona nazorati ostida bojxona rasmiylashtiruvi yo'li bilan amalga oshiriladi.

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tish joyi va vaqti bojxona organlari tomonidan belgilanadi. (**O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi, 20-modda**)

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan, shu jumladan tovar sifatida o'tiladigan transport vositalari bojxona organlari belgilaydigan joylarda to'xtatiladi va rasmiylashtiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organi faoliyati ko'rsatadigan zonada yoki uning tarkibiy bo'linmasi joylashgan yerlarda amalga oshiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'gan shaxslar bojxona rasmiylashtiruv vaqtida ishtirok etishga haqlidir.

Transport vositalari to'xtatib turish muddati joyi bojxona organlari tomonidan tanishuv bilan birgalikda aniqlanadi.

Transport vositalari to'xtatib turish joylaridan jo'natib yuborish bojxona organlarining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlar uchun bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovarlar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan soddalashtirilgan, imtiyozli tartibda olib o'tiladi. Bunda tovarlarning nima uchun mo'jallanganligi ularning xususiyatlari va miqdoriga, tovarlarning olib o'tilishini takrorlanib turishiga qarab, jismoniy shaxsning safari qanday kechayotganligini hisobga olib belgilanadi.

Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilib, shartli chiqarib yuborilgan tovarlar va transport vositalaridan, ana shu imtiyozlar nima munosabat bilan berilgan bo'lsa, ulardan faqat shu maqsadda yoki bojxona organlarining boshqa maqsadlarda berilgan ruxsati bilan foydalanishga va bojxona to'lovlarini to'lashni hamda Bojxona Kodeksi va boshqa qonun hujjatlar nazarda tutilgan talablarni bajarishni shart qilib qo'ygan holda chiqarishga yo'l qo'yiladi

Bojxona rasmiyatchiliklari va tartiblari tovar mamlakat bojxona chegarasini kesib o'tgan paytdan boshlanadi. Tovarlar va transport vositalarini bojxona rasmiylashtiruvidan oldingi tartiblar (bojxona deklaratsiyasi taqdim etilgunga qadar) davlatlarning qonun hujjatlari va bir qancha xalqaro hujjatlar bilan tartibga solinadi. Ko'pincha chegarani kesib o'tgan transport vositalari va yuklar ular bojxona rasmiylashtiruvidan o'tiladigan va bojxona deklaratsiyasi taqdim etiladigan punktga muayyan yo'lni bosib o'tishlariga to'g'ri keladi. Jahondagi ko'pchilik mamlakatlarning bojxona qoidalarida tovarlar va transport vositalari mamlakat chegarasini kesib o'tar ekan, transport vositasi ko'zdan kechirilib, yuklar bixillashtirilgandan keyin eng qisqa muddatda bojxona rasmiylashtiruvidan o'tish uchun eng yaqin bojxona muassasiga borishi nazarda tutiladi. Ushbu

holatda amal qiluvchi asosiy huquqiy qoida tovarlar va transport vositalari, ular bu yo'lni bojxona rasmiylashtiruvidan o'tishlari yoki o'tmasligidan qat'i nazar, bojxona nazorati ostida bosib o'tishlaridan iboratdir.

Xalqaro qoidalar bojxona deklaratsiyasi taqdim qilganga qadar amal qiluvchi bojxona rasmiyatchiliklari eng kam bo'lishini va barcha mamlakatlarning tovarlari va transport vositalariga nisbatan bir xilda qo'llanilishini, tashqi savdo uchun to'siq yaratmasligini talab qiladi.

Bojxona rasmiylashtiruvi bojxona organi faoliyat ko'rsatadigan zonadagi shu maqsad uchun ajratilgan, tovarlarni jo'natuvchi yoki oluvchi yoxud ularning tarkibiy bo'linmasi joylashgan yerlarda bojxona organining ish vaqtida amalga oshiriladi.

Manfaatdor shaxsning yozma iltimosnomasiga binoan uning hisobidan va bojxona organining roziligi bilan bojxona rasmiylashtiruvi boshqa joylarda va bojxona organining ish vaqtidan tashqari vaqtda amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona organlari joylashgan yerlarda emas, bevosita o'z hududlarida yoki binolarida bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazishdan manfaatdor bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar bu organlarga xizmat va maishiy binolarini, uskunalar hamda aloqa vositalarini bepul berib turadilar.

Bojxona organi tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan hamda barcha zarur hujjatlar va ma'lumotlar taqdim etilgan paytdan boshlab o'n kundan kechiktirmay,

Mazkur muddatlar davlatning boshqa organlari tovarlar va transport vositalarini nazorat qilishi uchun zarur bo'lgan vaqtni o'z ichiga olmaydi.

Bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida ishtirok etishga haqlidir, bojxona organi mansabdor shaxslarining talabiga binoan esa, bojxona rasmiylashtiruvi vaqtida xozir bo'lishlari va rasmiylashtirishni amalga oshirishda ularga zarur yordam ko'rsatishlari shart.

Bojxona chegarasi orqali tovarlar olib o'tuvchi shaxs, tashuvchi, ombor egasi yoki tovarlar va transport vositalariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan boshqa shaxs bojxona organining talabiga binoan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilishi

lozim bo'lgan tovarlarni transportda tashish, tortishni yoki ularning miqdorini boshqacha tarzda aniqlashni, ortish, tushirish, qayta ortish, buzilgan o'rovlarni tuzatish, o'rovlarni ochish, tovarlar va transport vositalarini o'rash yoki qayta o'rashni, shuningdek bunday tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan binolar, idishlar va boshqa joylarni ochishni o'z hisobidan amalga oshirishi shart.

Agar tovarlar va transport vositalariga nisbatan bojxona rasmiylashtiruvini tugallanmagan bo'lsa, yuqorida ko'rsatilagan operatsiyalar bojxona organining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazish uchun bojxona organlari, ularning ruxsati bilan esa tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar va davlat nazoratini amalga oshiruvchi boshqa organlar bojxona nazorati ostida turgan tovarlardan ularni tekshirish (ekspertiza qilish) uchun namunalar va nusxalar olishga haqlidirlar.

Tovarlariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar namunalar va nusxalar olish vaqtida xozir bo'ladilar va bojxona organlarining mansabdor shaxslariga yordam ko'rsatadilar, shuningdek namunalar va nusxalarni tekshirish natijalari bilan tanishadilar.

Tovarlariga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxsning tashabbusi bilan bojxona organlari tomonidan tovarlardan namunalar va nusxalar olish, shuningdek namunalar va nusxalarni tekshirish natijasida yuzaga kelgan xarajatlarni ana shu shaxs to'laydi.

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona rasmiylashtiruvini veterinariya, fitosanitariya, ekologiya nazorati va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda davlat nazoratining boshqa turlari amalga oshirilganidan keyin tugaydi.

Tabiiy ofatlar, falokatlar, xalokatlar yuz berganda zarur bo'ladigan tovarlarni, tirik xayvonlar, tez buziladigan tovarlar, radioaktiv materiallar, ommaviy axborot uchun zarur xabarlar va boshqa materiallarni,

O'zbekiston Respublikasining qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud xokimiyatining oliy organlari nomiga yuborilayotgan tovarlarni, shuningdek insonparvarlik yordami sifatida yuborilayotgan tovarlarni va boshqa shunga

o'xshash tovarlarni **O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib
qilishda ularning bojxona rasmiylashtiruvi soddalashtirilgan tartibda va
birinchi o'rinda amalga oshiriladi.**

Erkin bojxona zonolari va erkin omborlarga olib kirilayotgan, shuningdek ularning hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi soddalashtirilgan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona rasmiylashtiruvining soddalashtirilgan tartibini qo'llanish shartlari qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona rasmiylashtiruvi tugallanmagan tovarlar va transport vositalaridan foydalanishga hamda ularni tasarruf etishga yo'l qo'yilmaydi, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

**Tovar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvi
qo'yidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:**

- Deklarantdan og'zaki ma'lumotlarni olish, bojxona rasmiylashtiruvi uchun hujjatlar va elektron nusxalarni hisob daftarini amalga oshirish;
- Bojxona yuk baennomasi va bojxonaga taa'luqli bo'lgan xujjatlarga qonunda ko'zda tutilgan shartlar asosida bojxona rejimiga taa'luqli ma'lumotlarni kiritish xamda ularni bojxona nozirini tegishli muxri va imzosi bilan tasdiqlash;
- Bojxonaga taa'luqli xar-xil xujjatlarni (etkazib berish nazorat varaqasi kabilar) tuzish;
- Vaqtincha saqlov omborlariga tovarlarni kelib tushish xujjatlarini rasmiylashtirish ularni xisobini olib borish va tovarlarni omborxonadan chiqarish;
- Tovar va transport vositalaridan ekspertiza va boshqa maqsadlar uchun namuna va nusxalar olish xujjatlarini to'ldirish;
- Tovarlarga nisbatan ma'lum bir qarorlarni qabul qilish;
- Bojxona xujjatlarida bojxona rasmiylashtiruvini va bojxona nazoratini tugallanganligini tasdiqlash.

6.6.-rasm. Bojxona rasmiylashtiruvi bosqichlari.

6.7.-rasm. O'zbekiston bojxonasi 10 yil nishoni Bojxona rasmiylashtiruvidagi dastlabki operatsiyalar

Bojxona rasmiylashtiruvi boshlangunga va tovarlar hamda transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgunga qadar qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda dastlabki operatsiyalar o'tkaziladi.

Bojxona hududiga tovarlar va transport vositalarini olib kirishda, shu jumladan erkin bojxona zonalar va erkin omborlar hududidan tovarlar va transport vositalarini olib kirishda **tashuvchi** bojxona chegarasini kesib o'tish to'g'risida bojxona organini xabardor qiladi.

Tovarlar va transport vositalari **bojxona hududidan tashqariga olib chiqilayotganda** tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs bu tovarlar va transport vositalarini olib chiqish niyati to'g'risida bojxona organlarini oldindan xabardor qiladi. Bojxona organi xabarnomani qayd etadi va bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish uchun tovarlar hamda transport vositalari keltirilishi lozim bo'lgan vaqt va joyni tayin qiladi. Agar tovarlarni olib o'tuvchi shaxs ushbu xabarni yetkazmasa, bu vazifa tashuvchi zimmasiga yuklatiladi.

Mazkur talablar O'zbekiston Respublikasining hududida joylashgan port yoki aeroportda to'xtamay bojxona hududini kesib o'tadigan dengiz, daryo va xavo kemalariga nisbatan qo'llanilmaydi.

Yuqorida keltirilgan xabarnoma berilganidan keyin tashuvchi Bojxona Kodeksning talablariga rioya etgan holda tovarlar, transport vositalari va ularga tegishli hujjatlarni bojxona organi belgilagan joyga yetkazib keltirishi va kelganidan keyin shu joyda turishi shart.

Tovarlar va transport vositalari yetkazib keltirilgan joyda bojxona organiga ko'rsatiladi, ularga tegishli hujjatlar esa, topshiriladi. Ko'rsatish tovarlar va transport vositalari keltirilganidan keyin kechi bilan **30 minut** ichida, tovarlar va transport vositalari bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda yetkazib keltirilgan taqdirda, bojxona organining **ish vaqti boshlanganidan keyin ko'pi bilan 30 minut ichida** ular keltirilganligi haqida xabar qilishdan iboratdir.

Bojxona organining talabiga binoan ko'rsatilgan tovarlar va transport vositalari amalda ana shu organga taqdim etiladi.

Tovarlar ko'rsatilganidan keyin tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish maqsadida bojxona organining ruxsati bilan ulardan namunalar va nusxalar olishlari mumkin.

Tayin qilingan joyga bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda keltirilgan tovarlar va transport vositalari bojxona nazorati zonasida joylashtiriladi.

Qonunchilik talablarida nazarda tutilgan xarakatlar yoki holatlar oqibatida vujudga kelgan xarajatlar tashuvchining o'z hisobiga yoziladi va bojxona organlari tomonidan qoplanmaydi.

Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar **qisqa deklaratsiya** qo'llanilishi mumkin.

Bojxona organining ruxsati bilan qisqa deklaratsiya sifatida transport, tijorat hujjatlari va boshqa hujjatlardan, shu jumladan xalqaro tashishlarni amalga oshirish ahog'ida qo'llaniladigan, chet tillarda tuzilgan hujjatlardan foydalanilishi mumkin.

Qisqa deklaratsiya tashuvchi tomonidan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatish bilan bir vaqtda yoki bojxona organining ruxsati bilan tovarlar va transport vositalari ko'rsatilganidan keyin **yigirma to'rt soat ichida** topshiriladi.

Agar tovarlar ko'rsatilgan muddat ichida muayyan bojxona rejimiga joylashtirilsa, qisqa deklaratsiya topshirilmaydi.

Tashuvchi tomonidan qisqa deklaratsiya topshirish vakolati berilgan shaxs bo'lmasa, kapitan, xaydovchi yoki transport vositasini boshqaruvchi boshqa shaxs bojxona organlari uchun shunday shaxs deb hisoblanadi.

Tashuvchining vakili qisqa deklaratsiyani rasmiylashtirishda bojxona organlariga yordam ko'rsatishi shart.

Qisqa deklaratsiyaning shakli va unda ko'rsatilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarning ro'yxati va uni berish tartibi bojxona organlari tomonidan belgilanadi.

Olib kirilgan tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar ular uchun, shu jumladan boj to'lovlari to'lanishi uchun bojxona organlari oldida tashuvchi javobgar bo'ladi, ushbu Kodeks 84-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan hol bundan mustasno.

6.3

Bojxona organlarida deklaratsiyalash


O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan yoki bojxona rejimi o'zgartirilayotgan tovarlar va transport vositalari, shuningdek boshqa tovarlar va transport vositalari uchun qonun hujjatlarida belgilangan hollarda bojxona organiga deklaratsiya topshirilishi lozim.

Deklaratsiyalash tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi, ular joylashtiriladigan bojxona rejimlari haqidagi aniq ma'lumotlarni, bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni belgilangan shaklda bayon etish orqali amalga oshiriladi.


Deklaratsiyalashning shakli va tartibi, shuningdek bojxona deklaratsiyasida ko'rsatiladigan ma'lumotlarning ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.

Tovarlar uchun bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilayotgan bojxona organiga deklaratsiya topshiriladi.

Tovarlar tashiydigan transport vositalari tovarlar bilan bir vaqtda deklaratsiyalanadi.



6.8.-rasm. Deklaratsiyalash tartibi



6.9-rasm. Deklaratsiyalash joyi

Bojxona deklaratsiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshiriladi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko'rsatilgan kundan tiboran o'n besh kundan oshmasligi lozim.

Jismoniy shaxslar tomonidan notijorat maqsadlardagi tovarlarni qo'l yuki va hujaj holida bojxona chegarasidan olib o'tishda bojxona deklaratsiyasi tovarlarni ko'rsatish bilan bir vaqtda topshiriladi.

Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin ko'pi bilan uch soat.

bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tishiga ko'pi bilan uch soat qolganida deklaratsiyalanadi. Ko'rsatilgan muddatlar bojxona organi belgilaydigan tartibda va shartlarda uzaytirilishi mumkin.

Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishga haqli emas. Bojxona deklaratsiyasi qabul qilinganligi rasmiylashtirilgan paytdan boshlab u yuridik ahamiyatga molik faktlardan dalolat beruvchi hujjatga aylanadi.

Bojxona deklaratsiyasini taqdim etish bilan bir vaqtda bojxona organiga boshqa zarur hujjatlar ham topshiriladi. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasi va taqdim etilgan hujjatlarda bayon etilgan ma'lumotlarni tekshirish uchun qo'shimcha ma'lumotlarni so'rab olishga haqli. Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlar ro'yxati qonun hujjatlarida belgilanadi.



Bojxona organi yetishmayotgan hujjatlar va ma'lumotlarni taqdim etish muddatlarini belgilashga haqli. Bojxona organining ruxsati bilan xalqaro tashishlarda qo'llaniladigan chet tillarda tuzilgan hujjatlar taqdim etilishi mumkin.

6.10.-rasm. Qisqa deklaratsiya

Bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlar bojxona organining ruxsati bilan deklarant tomonidan o'zgartirilishi yoki to'ldirilishi, topshirilgan bojxona deklaratsiyasi esa qaytarib olinishi mumkin.

O'zgartirish, to'ldirish yoki qaytarib olish faqatgina:

Bojxona deklaratsiyasini tekshirish boshlanguniga qadar;

Tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirish boshlanguniga qadar;

Ko'rsatilgan ma'lumotlarning noto'g'ri ekanligi bojxona organi tomonidan aniqlanguniga qadar amalga oshirilishi mumkin.

Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish yoki to'ldirish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkin emas.

Bojxona organlarining mansabdor shaxslari o'z tashabbusi bilan, shaxsning topshirig'i yoki iltimosiga binoan yozma bojxona deklaratsiyasini to'ldirishga, bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirishga haqli emas, bojxona organlarining vakolatiga kiritilgan ma'lumotlarni bojxona deklaratsiyasiga kiritish hollari, shuningdek agar mashinada ishlov berish uchun foydalaniladigan kodli ma'lumotlar bojxona deklaratsiyasida kodsiz ko'rinishda mavjud bo'lsa, kodli ma'lumotlarni o'zgartirish yoki to'ldirish bundan mustasno.

Agar deklarant alohida sabablar tufayli batafsil bojxona deklaratsiyasini taqdim eta olmasa, bojxona organi qonun hujjatlarida belgilanadigan tartibda muvaqqat yoki to'liq bo'lmagan bojxona deklaratsiyasini taqdim etish uchun ruxsat berishga haqli, bunda muvaqqat yoki to'liq bo'lmagan bojxona deklaratsiyasida bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar bayon etilishi va yetishmayotgan ma'lumotlar bojxona organi belgilaydigan muddatlarda taqdim etilishi shart qilib qo'yiladi.

Ayni bir shaxs tomonidan ayni bir xil tovarlar va transport vositalari muntazam ravishda olib o'tilsa, bojxona organi muayyan davr mobaynida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan barcha tovarlar va transport vositalariga **bitta bojxona deklaratsiyasi** berilishiga ruxsat etishi mumkin.

Dayriy bojxona deklaratsiyasini topshirish hollari va tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Bojxona organlari tovarlar va transport vositalarini deklaratsiyalashning soddalashtirilgan tartibini belgilab qo'yishga haqli.

Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri deklarant bo'lishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxsi deklarant bo'lishi mumkin, jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlarida tovarlar olib o'tish hollari va bojxona organlari belgilaydigan boshqa hollar bundan mustasno.

Deklarant, u bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri bo'lishidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida

nazarda tutilgan barcha vazifalarni bajaradi va to'liq javobgar bo'ladi. Deklaranti bojxona deklaratsiyasini topshirgunga qadar bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga, bojxona organining ruxsati bilan namunalar va nusxalar olishga haqli. Agar tovarlarga doir bojxona deklaratsiyasida hisobga olingan bo'lsa, namunalar va nusxalar olinganida ular haqida alohida bojxona deklaratsiyasi taqdim etilmaydi.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar?



1.Bojxona rasmiylashtiruvi nima?

2.Tovarlarni deklaratsiyalash qanday ko'rinishlarda bo'ladi?

3.Bojxona rasmiylashtiruvining asosiy mazmuni va maqsadi nimadan iborat?

4.Bojxona rasmiylashtiruvi qanday jarayonlarni o'z ichiga oladi?

5.Qisqa deklaratsiya qanday hollarda qo'llaniladi?


6. O'zgartirish, to'ldirish, qaytarib olish shartlari qanday?


7. Bitta va davriy bojxona deklaratsiyasini berish hollari?

8. O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksida Bojxona rasmiylashtiruv va deklaratsiyalashga oid moddalar?

9. Tovar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvi qanday bosqichlarni o'z ichiga oladi?

10.Elektron deklaratsiyalash qanday tartibda amalga oshiriladi?





BOJXONA BOJI VA TA`RIF USULLARI. BUDJETGA BOJXONA TO`LOVLARI.

Reja:

Asosiy tushuncha va atamalar

Bojxona boji, bojxona to'lovlari, bojxona bojining iqtisodiy mohiyati, to'lov turlari, ta'rif usullari, bojxona ta'rifi, boj, QQS, aksiz, boj ta'rifi.

7.1 Bojxona bojining iqtisodiy mohiyati va turlari.

7.2 Bojxona to'lovlarining turlari.

7.3 Bojxona to'lovlarining huquqiy asoslari.



Boj tarifi - bojxona chegarasidan olib o'tiladigan, O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyatining Tovar nomenklaturasi (bundan keyin matnda - Tovar nomenklaturasi deb yuritiladi) printsiplari va qoidalariga muvofiq holda bir tizimga solingani tovarlarga nisbatan qo'llaniladigan boj stavkalarining to'plamidir.

Tovar nomenklaturasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Boj tarifi (customs tariff) o'z o'rniga qarab quyidagicha aniqlanadi:

- Savdo siyosatining asosiy quroli va davlatning ichki bozorni tartibga solish vositasi, shuningdek jahon bozorida o'z o'rniga ega bo'lish va o'z ta'sirini o'tkazish maqsadida ham qo'llaniladi;
- Boj tarifi ko'zda tutilgan bojxona bojlari stavkalari bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar va transport vositalari uchun tashqi iqtisodiy faoliyatda tovarlar nomenklaturasi asosida belgilanadi;
- Bojxona bojining aniq stavkasi, aniq bir tovarni bojxona chegarasi orqali olib kirish va olib chiqishda qo'llaniladi;

O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

- Boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavkalar;
- Boj undiriladigan tovarlar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavkalar;
- Bojning advalor hamda xos turlarini o'z ichiga oladigan aralash stavkalar.

O'zbekiston Respublikasi "Bojxona kodeksi" ning 293-moddasi

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boj turlari to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilanmagan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalar qo'llaniladi.

Import boji xalqaro shartnomalarga muvofiq belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish uchun qo'llayotgan mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar uchun undiriladigan import boji stavkalarining eng kam yoki eng ko'p miqdori qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladi.

Savdo-iqtisodiy aloqalarda eng ko'p qulaylik berish tartibi nazarda tutilmagan mamlakatlarda ishlab chiqarilgan yoki qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi aniqlanmagan tovarlar uchun undiriladigan import bojining stavkalari ikki baravar belgilanadi, ushbu Qo'shimga muvofiq O'zbekiston Respublikasi tomonidan tarif preferentsiyalari belgiladigan hollar bundan mustasno.

Mavsumiy bojlar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanib, tovarlar olib kirish va olib chiqishni tezkor tartibga solish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan boj stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojlar ular belgilangan vaqtdan e'tiboran olti oydan ortiq amal qilishi mumkin emas.

Maxsus bojlar, basharti, o'xshash yoki bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududiga O'zbekiston Respublikasidagi tovar ishlab chiqaruvchilarga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va shartlarda olib kirilayotgan bo'lsa, himoya chorasi sifatida, shuningdek boshqa davlatlar tomonidan qilinayotgan O'zbekiston Respublikasining huquqlarini cheklovchi va manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlarga javob chorasi sifatida qo'llaniladi.

Dempingga qarshi bojlar quyidagi hollarda qo'llaniladi:

Tovarlar bojxona hududiga ularning olib chiqilgan davlatda ayni vaqtda amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib kirilsa, agar bunday olib kirish O'zbekiston Respublikasining shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfini tug'dirsa yoxud O'zbekiston Respublikasida xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki ta'minlashni ta'minlashga to'siqinlik qilsa;

Tovarlar bojxona hududidan uning O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda amalda bo'lgan real qiymatidan past narxda olib chiqilayotgan bo'lsa, agar bunday olib chiqish O'zbekiston Respublikasining shunga o'xshash tovarlarni ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfi bo'lsa yoxud

O'zbekiston Respublikasining ishlab chiqaruvchilari o'rtasida normal raqobat o'rnatilishiga to'sinlik qilsa.

Kompensatsiya bojlari quyidagi hollarda qo'llaniladi:

“O'zbekiston respublikasining bojxona hududiga ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita yoxud bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib kirilsa, agar bunday olib kirish o'zbekiston respublikasining o'xshash tovarlar ishlab chiqaruvchilariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfi bo'lsa yoxud o'zbekiston respublikasida xuddi shunday tovarlar ishlab chiqarishni tashkil qilish yoki kengaytirishga to'sinlik qilsa;

Bojxona hududidan ishlab chiqarish yoki olib chiqish paytida bevosita yoxud bilvosita subsidiyalardan foydalanilgan tovarlar olib chiqilsa, agar bunday olib chiqish o'zbekiston respublikasining manfaatlariga moddiy ziyon yetkazsa yoki yetkazish xavfi bo'lsa”¹⁴.

Alohida bojlar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda davlat boshqaruvi organlari tashabbusi bilan o'tkaziladigan tekshiruv natijalariga binoan qo'llaniladi.

Alohida bojlarning stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan har bir holat bo'yicha maxsus belgilanadi va ularning miqdori tekshiruv natijasida aniqlangan bahoni demping tarzida arzonlashtirishga subsidiyalar va aniqlangan zarar miqdoriga mutanosib bo'lishi kerak.

Bojxona qiymati – O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga muvofiq belgilanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblab chiqarish maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.

Bojxona qiymati o'tkaziladigan bojxona rasmiylashtiruv vaqtida bojxona organiga deklarant tomonidan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda va shartlarda ma'lum qilinadi (deklaratsiyaga kiritiladi).

Bojxona qiymatini aniqlash to'g'ri va hujjatlar bilan tasdiqlangan ma'lumotlarga asoslanishi lozim.

¹⁴ <https://lex.uz/uz/docs/-62843>

Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qonun hujjatlariga muvofiq boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i solinadi.

Tovarlar qavtarib olib chiqilgan taqdirda ilgari to'langan boj, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i summalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda qaytarilishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi "Bojxona Kodeksi"ning 290-moddasi.

Eksport bojxona boji tovar bojxona hududidan olib chiqilayotganda to'lanadi.

Alohida (maxsus, antidemping va kompensatsiya) bojxona bojlari qonun hujjatlarida belgilangan O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida qo'llaniladi.

Mavsumiy bojxona bojlari tovarlarni bojxona hududiga olib kirish va bojxona hududidan olib chiqishni tezkor tartibga solib turish uchun qo'llaniladi. Bunda boj tarifida nazarda tutilgan bojxona bojlarining stavkalari qo'llanilmaydi. Mavsumiy bojxona bojlarining amal qilish muddati ular belgilangan paytdan e'tiboran 6 oydan oshmasligi kerak.

1-jadval

Bojxona to'lovlari

TASNIFLAGICHI

T/r	To'lov turining nomi	Kodl
	Bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'implari	
1.	Tovarlarning bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'implari	10
2.	Tranzit rejimida bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'implari	11
3.	Tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqaridagi va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtdagi bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazganlik uchun bojxona yig'implari	12
4.	Tovarlarni erkin bojxona zonalar va erkin omborlar hududida bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'implari	13
5.	Yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan naqd tarzdgagi chet el valyutasining bojxona rasmiylashtiruv uchun bojxona yig'implari	14
	Bojxona organlari tomonidan undiriladigan bojxona bojlari va soliqlar	
1.	Import bojxona boji	20
2.	Eksport bojxona boji	25
3.	Olib kirilayotgan tovarlar uchun aksiz solig'i	27
4.	Olib chiqilayotgan tovarlar uchun aksiz solig'i	28
5.	Qo'shilgan qiymat solig'i	29

Boshqa yig'irlar

Tovarlarni bojxona organlari egaligidagi bojxona omborida saqlaganlik uchun bojxona yig'irlari	40
Transport vositasini bojxona kuzatib borishi uchun bojxona yig'irlari	41
Tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnoma berganlik uchun bojxona yig'irlari	42
O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa yig'irlar	43
Olib kelinayotgan transport vositalarini (shu jumladan, vaqtincha olib kelinayotganlarini) ro'yxatdan o'tkazish va qayta ro'yxatdan o'tkazish huquqiga guvohnomalar berganlik uchun bojxona yig'iri	49
Dastlabki qaror qabul qilganlik uchun bojxona yig'iri	50
Intellectual mulk obyektlarini Intellectual mulk obyektlarining bojxona reyestriga kiritish uchun bojxona yig'iri	21

Tushumlar va jarimalar

Musodara etilgan tovarlarni realizatsiya qilishdan tushumlar	60
Garovga qo'yilgan moddiy boyliklarni realizatsiya qilishdan tushumlar	61
Jarimalar	62

Boshqa bojxona to'lovlari

Bojxona to'lovini kechiktirib to'lash imkoniyatini taqdim etganlik uchun foizlar	70
Bojxona to'lovini bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini taqdim etganlik uchun foizlar	71
Penya	72
Undirilishi bojxona organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa turdagi bojxona to'lovlari	74
Bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash summasi	75
Uchinchi mamlakatlarda ishlab chiqarilgan hamda yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan tijorat maqsadida qo'shni davlatlar hududidan reeksport qilinayotgan nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini import qilganlik uchun yig'im	76
Belgilangan muddat tugagandan so'ng vaqtinchalik olib kirilgan avtotransport vositasini qaytarib olib chiqib ketilishini yoki tegishli bojxona rejimiga rasmiylashtirilishini ta'minlamaganlik uchun yig'im	77
Chet davlatlar va ular ittifoqlarining huquqni kamsituvchi yoki O'zbekiston Respublikasining manfaatlarini kamsituvchi boshqa harakatlarga javob chorasi tariqasida belgilangan qo'shimcha yig'irlar	78

Alohida bojxona bojlari

Maxsus bojxona boji	80
Vaqtinchalik maxsus bojxona boji	81
Dempingga qarshi bojxona boji	82
Vaqtinchalik dempingga qarshi bojxona boji	83
Kompensatsiya bojxona boji	84
Vaqtinchalik kompensatsiya bojxona boji	85
Mavsumiy bojxona boji	86

Davlat bojlari

Bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini amalga oshirishga litsenziya berilganligi va uning amal qilish muddati uzaytirilganligi uchun davlat boji	90
---	----

Bojxona to'lovlarining turlari O'zbekiston Respublikasi «Bojxona Kodeksi»ning 293-moddasida berilgan va ularga quyidagilar kiradi:

1. Bojxona to'lovlari stavkalarining turlari quyidagilardan iborat:
2. to'lov undiriladigan tovarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan advalor stavka;
3. to'lov undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan miqdorda hisoblanadigan xos stavka;
4. bojxona to'lovlari stavkalarining advalor va xos turlarini o'z ichiga oladigan aralash stavka.
5. Advalor stavka belgilangan tovar bo'yicha bojxona to'lovlarining summasi bojxona to'lovlari advalor stavkasining tovarning bojxona qiymatiga ko'paytmasi sifatida hisoblab chiqariladi.
6. Xos stavka belgilangan tovar bo'yicha bojxona to'lovlarining summasi bojxona to'lovlarining xos stavkasining tovar miqdoriga ko'paytmasi sifatida hisoblab chiqariladi.
7. Bojxona qiymatiga nisbatan foizlardagi aralash stavka qo'llanilgan, lekin to'lov undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan stavkadan kam bo'lmagan holda qo'llanilgan taqdirda, bojxona to'lovlarining summasi advalor va xos stavkalari bo'yicha hisoblab chiqarilgan summalarning eng ko'piga tengdir.
8. Bojxona qiymatiga nisbatan foizlardagi aralash stavka va to'lov undiriladigan tovar birligi uchun belgilangan stavka qo'llanilgan taqdirda bojxona to'lovlarining summasi bojxona to'lovlarining advalor va xos stavkalari bo'yicha hisoblab chiqarilgan summa yig'indisiga tengdir.

O'zbekiston Respublikasi «Bojxona Kodeksi»ning 293-moddasidagi muvofiq bojxona organlari tomonidan quyidagi harakatlar yoki tartib-taomillari bajarilganligi uchun bojxona yig'implari undiriladi:

- bojxona rasmiylashtiruvi;
- bojxona rasmiylashtiruvi uchun belgilangan joylardan tashqaridagi va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtdagi bojxona rasmiylashtiruvi;

- tovarlarni bojxona organi egaligidagi bojxona omborida saqlash;
- transport vositasini bojxona hamrohligida kuzatib borish;
- dastlabki qarorni qabul qilish;
- tovarlarni bojxona hududidan tashqarida qayta ishlashga, tovarlarni bojxona hududida qayta ishlashga ruxsatnomalar berish;
- bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisni o'qitish;
- bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini berish, ushbu attestatni qayta ro'yxatdan o'tkazish (uning amal qilish muddatini uzaytirish) va uning amal qilishini tiklash;
- intellektual mulk ob'ektlarini Intellektual mulk ob'ektlarining bojxona reestriga kiritish;
- yuridik shaxslar tomonidan olib kiriladigan naqd chet el valyutasining bojxona rasmiylashtiruvini.

Bojxona yig'imlarining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Quyidagi harakatlar uchun O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan miqdorlarda bojxona yig'imlari undiriladi:

- tovarlar va transport vositalarini, shu jumladan kuzatuvchisiz bagajda, xalqaro pochta jo'natmalari va yuklarda olib o'tilayotgan notijorat maqsadlaridagi tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazganlik uchun;
- tovarlar va transport vositalarini belgilangan joylardan tashqarida va bojxona organlarining belgilangan ish vaqtidan tashqari vaqtda bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazganlik uchun;
- tovarlar va transport vositalarini bojxona organlari egaligidagi bojxona omborlari va vaqtincha saqlash omborlarida saqlaganlik uchun;
- tovarlarni bojxona kuzatuviga olganlik uchun.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bojxona ma'muriyatchiligi takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2018 yil 24 noyabrda PF-5582-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi "Bojxona yig'imi stavgalarini optimallashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq:

2-jadval.

Bojxona yig'imi

STAVKALARI

T/r	Bojxona yig'imi turi	Yig'im stavkalari
1.	Quyidagilarning bojxona rasmiylashtiruv uchun*:	
	a) bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD)ni taqdim etish orqali ekvivalenti quyidagi bojxona qiymatidagi tovarlarni tegishli bojxona rejimlarida ("eksport", "bojxona hududida qayta ishlash" va "bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash", "tranzit", "yo'q qilish", "vaqtincha saqlash", "davlat foydasiga voz kechish" va mazkur bandning "g" hamda "d" kichik bandlarida ko'rsatilgan tovarlardan tashqari):	
	10 000 AQSh dollarigacha	BHMning 1 baravari**
	10 000 dan 20 000 AQSh dollarigacha	BHMning 1,5 baravari
	20 000,00 dan 40 000 AQSh dollarigacha	BHMning 2,5 baravari
	40 000,00 dan 60 000 AQSh dollarigacha	BHMning 4 baravari
	60 000,00 dan 100 000 AQSh dollarigacha	BHMning 8 baravari
	100 000,00 dan 200 000 AQSh dollarigacha	BHMning 15 baravari
	200 000,00 dan 500 000 AQSh dollarigacha	BHMning 30 baravari
	500 000,00 dan 1 000 000 AQSh dollarigacha	BHMning 58 baravari
	1 000 000,00 AQSh dollari va undan ortiq	BHMning 75 baravari
	b) BYuDni taqdim etish orqali ekvivalenti quyidagi bojxona qiymatidagi tovarlarni "eksport" bojxona rejimida:	
	20 000 AQSh dollarigacha	BHMning 50 foizi
	20 000 dan 40 000 AQSh dollarigacha	BHMning 1 baravari
	40 000 dan 60 000 AQSh dollarigacha	BHMning 2 baravari

60 000 dan 100 000 AQSh dollarigacha	BHMning 3 baravari
100 000 dan 200 000 AQSh dollarigacha	BHMning 5 baravari
200 000 dan 500 000 AQSh dollarigacha	BHMning 10 baravari
500 000 dan 1 000 000 AQSh dollarigacha	BHMning 25 baravari
1 000 000 AQSh dollari va undan ortiq	BHMning 50 baravari
v) BYuDni taqdim etish orqali tovarlarni "bojxona hududida qayta ishlash", "bojxona hududidan tashqarida qayta ishlash" va "transit" bojxona rejimlarida:	
BYuDning asosiy varag'i uchun;	BHMning 50 foizi,
har bir qo'shimcha varag'i uchun;	BHMning 25 foizi
g) BYuDni taqdim etish orqali yuridik shaxslar tomonidan olib kelinayotgan naqd chet el valyutasining (bir dona deklaratsiya uchun);	BHMning 2,5 baravari
d) tovarlarni bojxona kirim orderini qo'llash orqali (bir dona order uchun).	BHMning 25 foizi
Deklarant yoki u ishonch bildirgan shaxsning BYuDga o'zgartirish va qo'shimcha kiritish bo'yicha murojaatiga asosan, rasmiylashtirilgan BYuDni o'zgartirish va (yoki) qo'shimcha kiritish uchun (qog'oz shakldagi BYuDda bir dona BYuD uchun, elektron shakldagi BYuDda bir dona BYuDni tuzatish shakli uchun)	BHMning 25 foizi
Bojxona rasmiylashtiruv uchun belgilangan joylardan*** tashqaridagi va (yoki) bojxona organlarining ish vaqtidan tashqari vaqtidagi bojxona rasmiylashtiruv uchun ("eksport" bojxona rejimi bundan mustasno):	
a) bojxona organlari ish vaqtidan tashqari (18.00 — 9.00)****. dam olish va bayram kunlari (har bir BYuD uchun);	BHMning 2 baravari
b) bojxona organi xodimi tomonidan (uning ishtirokida) istalgan bojxona nazorati davomida bojxona ko'rigini, ko'zdan kechiruvni, qayta yuklash operatsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq harakatlarni bajarganligi (bir soatlik ish uchun)*****;	
kunduzgi vaqtda (9.00 — 18.00 ish vaqtida);	BHMning 25 foizi,
bojxona organlari ish vaqtidan tashqari (18.00 — 9.00), dam olish va bayram kunlari.	BHMning 2 baravari
Egasi bojxona organi bo'lgan bojxona omborida tovarlarni saqlaganlik uchun (har bir sutka uchun)*****;	
dastlabki o'n sutka mobaynida (to'liq, to'liq bo'lmagan) 1 tonna (brutto) uchun;	BHMning 3 foizi
har bir keyingi sutkalar uchun (to'liq, to'liq bo'lmagan) 1 tonna (brutto) uchun.	BHMning 4 foizi
O'zbekiston Respublikasi hududida bitta avtotransport vositasini quyidagi masofalarga bojxona hamrohligida kuzatib borganlik uchun:	

	200 km masofagacha;	BHMning 2 baravari
	200 km dan ortiq masofagacha.	BHMning 5 baravari
6.	Dastlabki qarorni qabul qilganlik uchun*****	BHMning 75 foizi
7.	Avtotransport vositasini bir kalendar yil davomida to'qson kalendar kundan ortiq muddatga vaqtinchalik olib kirganlik uchun	olib chiqib ketish muddatining o'tkazib yuborilgan har kuni uchun transport vositasining har bir ot kuchi uchun BHMning 0,7 % miqdorida*****
8.	Bojxona nazorati ostida tashilayotgan tovar va transport vositalari uchun belgilangan yetkazib berish muddati o'tkazib yuborilgan har bir kuni uchun	BHMning 1 baravari

* Tovarlarini "davlat foydasiga voz kechish", "yo'q qilish", "vaqtincha saqlash" bojxona rejimlariga rasmiylashtirganlik uchun bojxona yig'imi undirilmaydi.

Dastlabki, vaqtinchalik, to'liq bo'lmagan va davriy deklaratsiyalash orqali tovarlar rasmiylashtirilganda, bojxona rasmiylashtiruvini uchun yig'im faqatgina dastlabki deklaratsiyalashda bir marta undiriladi;

** BHM — bazaviy hisoblash miqdori;

*** Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirayotgan xodim xizmat olib boradigan bojxona posti va unga birlashtirilgan bojxona ombori, erkin ombor hamda boj olinmaydigan savdo do'koni bojxona rasmiylashtiruvini joylari hisoblanadi;

**** Bojxona organlari ish vaqtidan tashqari (18.00 — 9.00) vaqt bu, bojxona yul deklaratsiyasini rasmiylashtirgan payti (BYuDning "D" grafasiga bojxona organi tomonidan belgi qo'yilgan vaqt) hisoblanadi;

***** Bojxona organi tomonidan bir soatdan kam bo'lgan vaqt sarf qilingan taqdirda bojxona yig'imi bir xodimning to'liq bir soat ish vaqti uchun undiriladi;

***** Sud qaroriga asosan davlat foydasiga o'tkazilgan yoki yo'q qilinadigan tovarlarni saqlaganlik uchun yig'im undirilmaydi;

***** Tovarni tasniflanishi bo'yicha dastlabki qaror bekor qilinganda, o'zgartirilganda yoki qaytib olinganda uni qabul qilganlik uchun to'lov qaytarilmaydi;

***** Umumiy hisoblangan yig'imlar qiymati, transport vositasini "erkin muomala qilarish" bojxona rejimiga joylashtirgandagi to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlari summasidan oshmasligi sharti.

Tovarlar va transport vositalarining qonun hujjatlarida belgilanadigan bojxona qiymati import bojini, aksiz solig'ini va tegishli bojxona yig'imlarini hisoblab chiqarish uchun asos bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun tovarning bojxona qiymati asos bo'lib, unga to'lanishi lozim bo'lgan boj, aksizga tortiladigan tovar bo'yicha esa, aksiz solig'ining summasi ham qo'shiladi.

Bojxona to'lovlari deklarant tomonidan to'lanadi. Har qanday manfaatdor shaxs, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lovchining o'miga bojxona to'lovlarini to'lashga haqli.

Bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasi qabul qilingunga qadar yoki qabul qilinishi bilan bir vaqtda to'lanadi. Tovarlar notijorat maqsadlari uchun olib o'tilayotganda bojxona to'lovlari bojxona deklaratsiyasini qabul qilish bilan bir vaqtda to'lanadi.

Bojxona to'lovlarini to'lash muddatining o'tishi bojxona deklaratsiyasini topshirish muddati tugaganidan keyingi kundan boshlanadi.

Bojxona to'lovlari bojxona organiga, xalqaro pochta jo'natmalarida yuborilayotgan tovarlarga nisbatan esa, aloqa korxonalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilaydigan tartibda to'laydi.

Bojxona to'lovlari, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoidalar nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida to'lanadi.

O'z vaqtida to'lanmagan bojxona to'lovlari o'tgan muddatdan qa'tiy nazar undiriladi va undirilmagan summadan 0,033 foiz miqdorida peniya undiriladi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining, shuningdek bojxona rejimlariga muvofiq qaytarilishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining summolari qaytarilishi yoxud to'langan paytdan boshlab yoki bunday to'lovlar undirilgan paytdan boshlab bir yil mobaynida to'lovchining talabnomasi bo'yicha qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda kelgusi to'lovlar hisobiga o'tkazilishi lozim.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish bojxona qiymatiga va (yoki) bojxona rasmiylashtiruvda avval hisoblangan bojxona to'lovlariga tuzatishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi "Bojxona Kodeksi" ning 357-moddasi.

Bojxona to'lovlari qaytarilganda ular uchun foizlar to'lanmaydi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish mazkur summalarni quyidagi tartibda o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi:

- to'lovchining arizada ko'rsatilgan hisobvarag'iga;
- ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan hollarda, bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'iga;
- to'lov amalga oshirilgan valyutada;
- dastlabki pul mablag'lari hisobiga;
- bojxona organlari oldidagi boshqa majburiyat bo'yicha bojxona to'lovlari to'lanishini ta'minlash uchun.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalari qaytarilayotganda ular uchun foizlar to'lanmaydi va qaytarilayotgan to'lov summasi indeksatsiyalanmaydi.

Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalarini qaytarish bojxona to'lovlari turi bo'yicha bojxona organining shaxsiy g'azna hisobvarag'idan, tovarlari bojxona jihatidan rasmiylashtirilgan boshqa to'lovchilarning mablag'laridan va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga o'tkazilishi lozim bo'lgan mablag'lardan amalga oshiriladi.

Tashqi savdo siyosati amalga oshirilayotganda ilgari to'langan bojxona boji qaytarish, bojxona boji stavkasini pasaytirish va bojxona bojini to'lashdan ozod etish tarzida tarif imtiyozlari berilishiga yo'l qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi "Bojxona Kodeksi"ning 297-moddasi.

Bojxona bojidan ozod etish tarzidagi tarif imtiyozlari quyidagilarga nisbatan beriladi:

1) 'xalqaro yo'nalishda yuklar, bagaj va yo'lovchilar tashishni amalga oshiradigan transport vositalariga, shuningdek ularning yo'lda qatnov vaqtida, oraliq to'xtash punktlarida bir maromda ishlashi uchun zarur bo'lgan yoki transport vositalarida yuz bergan avariyalarga (nosozliklarga) barham berish uchun bojxona hududidan tashqarida olingan moddiy-texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka;

2) O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasiga, chet el valyutasiga (numizmatika maqsadida ishlatiladigan valyuta bundan mustasno), shuningdek qimmatli qog'ozlarga;

3) dengizda ov bilan band bo'lgan O'zbekiston Respublikasi kemalarini hamda O'zbekiston Respublikasi yuridik va jismoniy shaxslari tomonidan ijaraga olingan (fraxt qilingan) kemalarning faoliyatini ta'minlash uchun bojxona hududidan tashqariga olib chiqiladigan moddiy-texnika ta'minoti predmetlariga va anjomlariga, yoqilg'iga, oziq-ovqatga va boshqa mol-mulkka, shuningdek ularning bojxona hududiga olib kiriladigan ov mahsulotiga;

4) davlat mulkiga aylantirilishi lozim bo'lgan tovarlarga;

5) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda insonparvarlik yordami sifatida olib kiriladigan tovarlarga;

6) xayriya yordami, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan olib kiriladigan tovarlarga;

7) uchinchi davlatlar uchun mo'ljallangan va bojxona nazorati ostida bojxona hududidan bojxona tranziti bojxona rejimida olib o'tiladigan tovarlarga;

8) O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga ko'ra xalqaro moliyaviy tashkilotlar va xorijiy hukumatning moliyaviy tashkilotlari tomonidan berilgan qarzlar (kreditlar) hisobidan, shuningdek grantlar hisobidan yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga;

9) ustav fondida (ustav kapitalida) chet el investitsiyalarining ulushi kamida o'ttiz uch foiz bo'lgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar tomonidan ular davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil davomida o'z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

10) chet ellik investorlar, chet ellik investorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalariga muvofiq O'zbekiston Respublikasida turgan chet davlatlar fuqarolari va O'zbekiston Respublikasidan tashqarida doimiy ravishda yashaydigan fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning shaxsiy ehtiyojlari uchun bojxona hududiga olib kiriladigan mol-mulkka;

11) O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotiga umumiy summasi ellik million AQSH dollari ekvivalentidan ortiq bo'lgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyani amal oshirgan chet ellik yuridik shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, bosharti olib kirilayotgan tovarlar ularning o'z ishlab chiqarish mahsuloti bo'lsa;

12) mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlar olib borish uchun mo'ljallangan va loyiha hujjatlariga muvofiq mahsulot taqsimotiga oid bitim bo'yicha ishlarni bajarishda ishtirok etayotgan chet ellik investor yoki boshqa shaxslar tomonidan bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlarga, shuningdek investor tomonidan bojxona hududidan olib chiqiladigan, mahsulot taqsimotiga oid bitimga muvofiq investorga tegishli bo'lgan mahsulotga;

13) bojxona hududiga qonun hujjatlariga muvofiq tasdiqlanadigan ro'yxat bo'yicha olib kirilayotgan texnologik asbob-uskunalar, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlar, agar ularni yetkazib berish kontrakti (shartnomasi, kelishuvi) shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa. Olib kirilgan texnologik asbob-uskunalar olib kirilgan paytdan e'tiboran uch yil mobaynida eksportga realizatsiya qilingan yoki tekin berilgan taqdirda, mazkur imtiyozning amal qilishi bojxona bojarini to'lash majburiyatlari tiklangan holda bekor qilinadi;

14) vakolatli davlat organining yozma shakldagi tasdig'i bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari hamda tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik vositalariga”¹⁵.

7.3

Bojxona to'lovlarining huquqiy asoslari.

“Bojxona kodeksi”ning VIII bo'limi 42,43-boblarida bojxona to'lovlari, bojxona to'lovlarining turlari, bojxona bojlari, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'i, bojxona yig'implari, boj tarifi, bojxona bojlari qo'llanilayotgandagi tarif kvotalari, bojxona to'lovlari stavkalarining turlari va ularni hisoblab chiqarish

¹⁵ <https://lex.uz/docs/-2876354>

tartibi, bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha majburiyat, bojxona to'lovlarini to'lovchilar, bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar va tarif preferensiyalari berish, tarif imtiyozlari, bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlar, bojxona rasmiylashtiruvi uchun bojxona yig'imlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar, tarif preferensiyalari kabi masalalar voritib berilgan

Bojxona bojlarini hisoblash va
undirishning huquqiy asoslari
quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 29 dekabrtdagi "Eksport-import operatsiyalarini tartibga solish borasida qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3454 sonli Qarori;
- 2018 yil 24 noyabrtdagi PF-5582-son Farmoniga muvofiq Vazirlar Mahkamasi **"Bojxona yig'imlari stavkalarini optimallashtirish to'g'risida"gi qarori**;
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PF-5414-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni;
- 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.

1. Boj ta'rifi qanday aniqlanadi?

2. O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining qanday turlari mavjud?

3. Bojxona bojlarining nechta turi mavjud?

4. Bojxona bojlarining qanday huquqiy asoslari mavjud?

5. Bojxona to'lovlarining qanday turlari mavjud?

6. Bojxona yig'imlarining qanday turlari mavjud?

7. Bojxona to'lovlari stavkalarining turlari va ularni hisoblab chiqarish tartibi qanday?

8. Bojxona to'lovlarini to'lovchilar kimlar hisoblanadi?

9. Bojxona to'lovlarini to'lash bo'yicha qanday imtiyozlar va preferensiyalar mavjud?

10. Bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga qo'shilgan qiymat solig'ini va aksiz solig'ini to'lash bo'yicha imtiyozlarni aytib bering.

TOVARNING BOJXONA QIYMATI VA ULARNI ANIQLASH USULLARI

Reja:

Asosiy tushuncha
va atamalar

Tovarning bojxona
qiymati. Aynan bir
xil Tovar. O'xshash
tovarlar. Rezervdagi
usul. Deklarant.
Deklaratsiyalash.
Bojxona brokeri.

4. Tovarning bojxona
qiymati.
5. Tovarning bojxona
qiymatini aniqlash usullari.
6. Bojxona qiymatlarini
belgilashda deklarantning
huquq va majburiyatlari.

Tovarning bojxona qiymati.

Respublika bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymati - bitim qiymatidan, ya'ni olib kirilgach tovar uchun respublika bojxona chegarasidan o'tish vaqtida amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bahodan iboratdir.

Respublika bojxona hududiga olib kirilayotgan

tovarning bojxona qiymati - bitim qiymatidan, ya'ni olib kirilgach tovar uchun respublika bojxona chegarasidan o'tish vaqtida amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bahodan iboratdir, boshqari - bojxona qiymatini e'lon qilish vaqtida deklarant foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlangan va to'g'ri bo'lsa;

- xaridomning tovarlarni tasarruf etishi yoki ulardan foydalanishiga taalluqli cheklovlar bo'lmasa, qonun hujjatlarda belgilangan cheklovlar bundan mustasno;
- tovarlarning sotilishi yoki narxi baholanayotgan tovarlarning bojxona keladigan qandaydir shartlar yoki fikrlarga sabab bo'lmasa;
- xaridor tovarni keyinchalik qayta sotishi, tasarruf etishi yoki undan foydalanishidan kelgan tushumning biron-bir qismi bevosita yoki bilvosita sotuvchiga o'tmasa;
- xaridor va sotuvchi bir-biriga bog'liq shaxslar bo'lmasa, bunday o'zaro bog'liqlik bitim qiymatiga tya'sir etmaganligi deklarant tomonidan isbot qilingan hollar bundan mustasno.

Bojxona qiymatini aniqlashda olib kirilayotgan tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bahoga quyidagi xarajatlar qo'shiladi, boshqari ulur mazkur bahoga kiritilmagan bo'lsa:

- 1) tovarni bojxona hududiga olib kiriladigan joyga etkazib keltirgunga qadar qilingan xarajatlar; tashish qiymati; yuklash, tushirish, yuklash va boshqa joyga to'kish bilan bog'liq xarajatlar; sug'urta summasi;
- 2) xaridor tomonidan qilingan xarajatlar; vositachilik va brokerlik haqlari, tovarni sotib olish chog'idagi vositachilik xarajatlari bundan mustasno; konteynerlar va (yoki) ko'p marta ishlatiladigan boshqa idishlar qiymati, agar ular baholanayotgan tovar bilan bir butun deb hisoblansa; o'rash qiymati, bunga o'rash materiallari qiymati va o'rash haqi kiradi;

1) xizmatlarning hamda sotuvchi xaridorga tekinga yoki arzon narxda bevosita yoxud bilvosita beradigan boshqa tovarlarning qiymati;

4) intellektual mulk ob'ektlaridan foydalanganlik uchun xaridor baholanayotgan tovarlarni sotish sharti sifatida bevosita yoki bilvosita to'lashi shart bo'lgan lisenziya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

5) olib kirilgan tovarni keyinchalik qayta sotish, tasarruf etish yoki undan foydalanishdan kelgan tushumning bevosita yoki bilvosita sotuvchiga tegishli bo'lgan istalgan qismining qiymati.

Tovarni bojxona qiymatini aniqlash uchun olib kirilayotgan tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish usulidan foydalanish mumkin emas, bosharti:

- "xaridorning baholanayotgan tovarga bo'lgan huquqlari cheklangan bo'lsa, qonun hujjatlarida belgilangan cheklollar va tovar bahosiga jiddiy ta'sir qilmaydigan cheklollar bundan mustasno;
- tovarni sotish va bitim qiymati ta'sirini hisobra olish mumkin bo'lmagan shartlarga rioya etilishiga bog'liq bo'lsa;
- bojxona qiymatini e'lon qilish vaqtida deklarant foydalangan ma'lumotlar hujjatlar bilan tasdiqlanmagan bo'lsa yoki ular noto'g'ri bo'lsa;
- bitim qatnashchilari bir-biriga bog'liq shaxslar bo'lsa, ularning o'zaro bog'liqligi bitim bahosiga ta'sir etmagan va bu narsa deklarant tomonidan isbot qilingan hollar bundan mustasno"¹⁶.

Bir-biriga bog'liq shaxslar deyilganda quyidagi keltirilgan belgilarning aqalli bittasiga mos keladigan kishilar tushuniladi:

- bitim qatnashchilaridan bittasi (jismoniy shaxs) yoki bitim qatnashchilaridan birining mansabdor shaxsi ayni bir vaqtda bitimda qatnashayotgan boshqa shaxsning mansabdor shaxsi bo'lsa;
- bitim qatnashchilari korxonaga birgalikda egalik qiluvchi shaxslar bo'lsa;
- bitim qatnashchilari mehnat munosabatlari orqali o'zaro bog'liq bo'lsa;

¹⁶ <http://lex.uz/docs/-2876354>


- bitim qatnashchilaridan biri bitimga qatnashayotgan boshqa shaxs nazorat kapitalining ovoz huquqini beruvchi kamida besh foiziga teng bo'lgan ulush (pay) yoki aksiya egasi bo'lsa;
- bitimning har ikkala qatnashchisi bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxs nazorat ostida bo'lsa;
- bitim qatnashchilari birgalikda bevosita yoki bilvosita uchinchi shaxsni nazorat qilsalar;
- bitim qatnashchilaridan biri bitimda qatnashayotgan boshqa shaxsning bevosita yoki bilvosita nazorati ostida bo'lsa;
- bitim qatnashchilari yoki ularning mansabdor shaxslari qarindosh bo'lsalar.

Customs value of the goods bringing into the customs border of the Republic – price of the contract, which is paid or must be paid for the bringing goods into the customs border of the Republic of Uzbekistan.

- Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati tovarning bojxona qiymatini aniqlash usullaridan biri orqali aniqlanadigan va bojxona to'lovlarini hisoblash maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.
- O'zbekiston Respublikasi Bojxona Kodeksi 44-bob.301-modda.

Respublika bojxona hududiga olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymati - bitim qiymatidan, ya'ni olib kirilgach tovar uchun respublika bojxona chegarasidan o'tish vaqtida amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan bahodan iboratdir.

Tovarlarning bojxona qiymatlarini aniqlash usullari



8.1.- rasm. Bojxona qiymatini aniqlash usullari

Olib kiriladigan tovarga doir bitim qiymatiga oid usul olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini bitim qiymati bo'yicha, ya'ni olib kirilayotgan Tovar

bojxona chegarasini kesib o'tayotgan paytda tovar uchun amalda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan, Bojxona kodeksining 304 va 305-moddalari qoidalari hisobga olingan holda tuzatilgan narx bo'yicha aniqlashni nazarda tutadi.



Tovarning bojxona qiymati to'g'risida "Bojxona Kodeksining 44-bobida keltirilgan. 301-modda "Bojxona hududiga olib kiriladigan tovarning bojxona qiymati" to'g'risida.

8.2.-rasm. Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlash

O'zbekiston Respublikasida joriy etiladigan tovarlarning bojxona qiymati xalqaro amaliyotda qo'llaniladigan bojxonada baholashning umumiy qoidalariга moslanadi.

Bojxona qiymati deklarant tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona organiga tovarni bojxonada rasmiylashtirish paytida bayon kilinadi (deklaratsiyalanadi). Bojxona qiymatining deklaratsiyalanishi bojxona qiymati deklaratsiyalarining belgilangan shakllari (BKD-1 va BKD-2 shakllari) buyicha amalga oshiriladi. Bunda bojxona qiymati deklaratsiyasi bojxona qiymati 1000 AQSh dollariga teng yoki undan kam bulgan tovarlarga doyr bitimlar uchun tuldirlmaydi.

304-modda. Olib kiriladigan tovarga doir bitim narxiga kiritiladigan xarajatlar

Olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitimning narxiga quyidagi xarajatlar kiritiladi, agar bu xarajatlar bitimning narxiga kiritilmagan bo'lsa:

a) tovarni bojxona hududiga olib kiriladigan joyga yetkazib berilgunga qadar qilinadigan xarajatlar:

- tashish qiymati;
- tovarlarni yuklash, tushirish, qayta yuklash va boshqa jouga to'kish xarajatlari;
- sug'irta qiymati;

b) sotib oluvchi tomonidan qilingan xarajatlar:

-vositachilik va brokerlik haqlari, bundan tovarni xarid qilishdagi vositachilik xarajatlari mustasno;

- konteynerlar va ko'p marta ishlatiladigan boshqa idishlarning qiymati, agar ular O'zbekiston Respublikasining Tashqi iqtisodiy faoliyatining tovar nomenklaturasiga muvofiq baholanayotgan Tovar bilan bir butun deb qaralsa;

- o'rov-joylov qiymati, shu jumladan o'rash-joylash materiallarining va o'rash-joylash ishlarining qiymati;

v) sotuvchi sotib oluvchiga bepul yoki arzonlashtirilgan narxda bevosita yoxud bilvosita taqdim etadigan xizmatlarning va boshqa tovarlarning qiymati;

g) intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun sotib oluvchi baholanayotgan tovarni sotish sharti sifatida bevosita yoki bilvosita to'lashi kerak bo'lgan litsenziya to'lovlari va boshqa to'lovlar;

d) olib kirilgan tovarni keyinchalik qayta sotish, o'zgacha tarzda tasarruf etish yoki undan boshqa tarzda foydalanishdan tushgan tushumning bevosita yoki bilvosita sotuvchiga tegishli kerak bo'lgan har qanday qismining qiymati.

Ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan, bitimning narxiga kiritiladigan xarajatlar tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug'urta qilish, brokerlik xizmati) uchun haq to'langanligi to'g'risida vakolatli shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisob-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

Ushbu moddada ko'rsatilmagan xarajatlarni bitim narxiga qo'shishga yo'l qo'yilmaydi.

Turli nomdagi tovarlardan tashkil topgan tovarlarning bitta turkumi yetkazib berilganda, bojxona hududiga olib kirilgan tovarlardan har birining bojxona qiymatiga qo'shilishi lozim bo'lgan hamda tovarlarning butun turkumi uchun belgilangan xarajatlarni aniqlash har bir tovar qiymatining tovarlar turkumining qiymatiga nisbati bilan aniqlanadigan kattalikka mutanosib ravishda, transport xarajatlarini hisobga olishda esa, tovarlarning og'irligiga yoxud hajmiga mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish.

Aynan bir xil tovar deyilganida har jihatdan, shu jumladan: fizik xususiyatlari; sifat va bozordagi qadri; qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi; ishlab chiqaruvchisi kabi belgilari jihatidan baholanayotgan tovar bilan bir xil bo'lgan tovar tushuniladi.

Tovarning tashqi ko'rinishidagi juz'iy farqlar, agar u boshqa jihatlar bilan yuqorida ko'rsatilgan talablarga mos bo'lsa, uni aynan bir xil emas, deb hisoblash uchun asos bo'la olmaydi.

Aynan bar xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymati boj qiymatini belgilash uchun asos qilib olinadi, agar bu tovar:

- baholanayotgan tovar olib o'tilgunga qadar ko'pi bilan 90 kun oldin respublikaning bojxona hududiga olib kirish uchun sotilgan bo'lsa;
- taxminan o'shancha miqdorda va (yoki) o'shanday tijorat shartlarida olib kiritilgan bo'lsa. Agar aynan bir xil tovar ko'p yoki kam miqdorda va (yoki) boshqa tijorat shartlarida olib kiritilgan bo'lsa, baholanayotgan tovarning bojxona qiymatiga ana shu farqlarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritiladi, basharti, bu tuzatishlarning asosli ekanligini bojxona organiga hujjatlar bilan tasdiqlab berish mumkin bo'lsa.

Tuzatishlar deklarant tomonidan to'g'ri va hujjat bilan tasdiqlangan ma'lumotlar asosida kiritilishi lozim.

305-modd. Olib kiriladigan tovarga doir bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlar va xarajatlari

Olib kiriladigan tovarning bojxona qiymatini aniqlashda bitim narxidan quyidagi to'lovlar va xarajatlari, basharti ular bojxona hududiga olib kiriladigan tovar uchun haqiqatda to'langan yoki to'lanishi lozim bo'lgan narxidan ayirilib olingan bo'lsa, chiqarib tashlanadi:

- Sanoat qurilmalari, mashinalar yoki uskunalari kabi tovarlar bojxona hududiga olib kiritilganidan keyin amalga oshirilgan uskunalarini qurish, o'rnatish, yig'ish, montaj qilish, sozlash va ularga xizmat ko'rsatish yoki texnik o'rnatish xarajatlari;
- Tovar bojxona hududiga olib kiritilganidan keyin qilinadigan transport xarajatlari;
- Tovarni olib kirish-sotish bilan bog'liq holda O'zbekiston Respublikasida to'lanadigan bojxona to'lovlari va boshqa to'lovlar, agar kontrakt (shartnoma, kelishuv) shartlariga ko'ra bu to'lovlar sotuvchi tomonidan to'lanadi.

Bitimning narxidan chiqarib tashlanadigan to'lovlar va xarajatlari, bundan O'zbekiston Respublikasida to'lanadigan bojxona to'lovlari mustasno, tegishli tovarlar, ishlar va xizmatlar (tashish, sug'urtalash) uchun haq to'langanligi to'g'risida yakolati shaxs tomonidan taqdim etilgan hujjatlar (hisobxaraq-fakturalar, to'lov topshiriqnomalari, cheklar) asosida aniqlanadi.

8.3.-rasm. Birinchi usulda bitim qiymatidan chegirib tashlanadigan xarajatlar

Agar mazkur usulni qo'llash vaqtida aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitimning ikki va undan ortiq narxi mavjudligi aniqlansa, olib kirilayotgan tovarning bojxona qiymatini belgilash uchun ularning eng past narxi qo'llaniladi. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish Bojxona kodeksining 309-moddasida keltirib o'tilgan.

O'xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish.

O'xshash tovar deyilganida har jihatdan bir xil bo'lmasada, o'xshash xususiyatlarga ega bo'lganligi va tarkibiy jihatdan o'xshashligi tufayli baholanayotgan tovar bilan bir xil vazifalarni bajara oladigan va tijorat nuqtai nazaridan uning o'rnini bosa oladigan tovar tushuniladi.

Tovarning o'xshashligini aniqlashda uning quyidagi belgilari: sifati, tovar belgisining mavjudligi va bozordagi qadri; qaysi mamlakatda ishlab chiqarilganligi; ishlab chiqaruvchisi hisobga olinadi.

O'xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona qoidalariga asosida, shuningdek quyidagi hollarda:

- agar tovar baholanayotgan tovar ishlab chiqilgan mamlakatda ishlab chiqarilmagan bo'lsa, u baholanayotgan tovar bilan aynan bir xil yoki o'xshash hisoblanmaydi;
- baholanayotgan tovarning ishlab chiqaruvchisi tomonidan emas, balki boshqa shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan tovar, baholanayotgan tovarni ishlab chiqargan shaxs tomonidan ishlab chiqarilgan aynan bir xil tovar ham, o'xshash tovar ham bo'lmagan taqdirdagina e'tiborga olinadi;

agar tovarni loyihalash, uning ustida tajriba-konstruktorlik ishlari, uning badiiy bezagi, dizayni, eskizi, chizmalari va boshqa shunga o'xshash ishlar respublikada amalga oshirilgan bo'lsa, bunday tovar aynan bir xil yoki o'xshash hisoblanmaydi. O'xshash tovar yuzasidan tuzilgan bitim qiymatiga qarab bojxona bahosini chiqarish Bojxona Kodeksining 310-moddasida keltirib o'tilgan.

Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish.

Agar baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar o'zining dastlabki holati o'zgarmagan holda respublika hududida sotilsa, ushbu usul qo'llaniladi.

Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish usulidan bojxona qiymatini aniqlash uchun asos sifatida foydalanilganda tovar birligining baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar olib kelingan vaqtdan boshlab kamida 90 kundan keyin respublika hududida katta turkumlarda bitimning sotuvchi bilan o'zaro bog'liq bo'lmagan ishtirokchisiga sotilgan bahosi qo'llaniladi.

Tovar birligining bahosidan quyidagi xarajatlar chegirib tashlanadi:

- to'lanadigan yoxud to'lashga kelishilgan vositachilik haqi yoki foyda uchun ustamalar hamda olib kirilgan o'sha klassdagi va turdagi tovarni bojxona hududida sotish bilan bog'liq umumiy xarajatlari;
- tovarlarni olib kirish yoki sotish munosabati bilan respublikada to'lanishi lozim bo'lgan bojxona to'lovlarining va boshqa to'lovlarning summalari;
- bojxona hududida transportda tashish, sug'urtalash, yuklash va tushirish uchun sarflangan xarajatlar.

Olib kirilayotgan vaqtda qanday holatda bo'lsa, shu holatda baholangan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar sotilgan hollar mavjud bo'lmasa, deklarantning iltimosiga binoan qo'shilgan qiymatga tuzatish kiritilib, qayta ishlangan tovar birligining bahosidan foydalannsh mumkin. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida bojxona bahosini chiqarish Bojxona kodeksining 311-moddasida keltirib o'tilgan.

Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish.

Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish usulidan foydalanilganda, tovarning:

- baholanayotgan tovarni ishlab chiqarish munosabati bilan tayyorlovchi tomonidan sarflangan materiallar qiymatini va boshqa xarajatlarni;
- ayni bir turdagi tovarlarni olib chiqilayotgan mamlakatdan respublikaga sotishga xos bo'lgan umumiy xarajatlarni, shu jumladan, respublikaning bojxona chegarasidan o'tish joyigacha transportda tashib keltirish, yuklash va tushirish, sug'urtalash xarajatlari; aynan bir xil yoki o'xshash tovarlarni respublikaga

yetkazib berash natijasida eksportchi tomonidan odatda olinadigan foydani qo'shgan holda chiqariladigan bahosi bojxona qiymatini belgilash uchun asos sifatida qabul qilinadi. Qiymatlarni qo'shish asosida bojxona bahosini chiqarish Bojxona kodeksining 312-moddasida keltirib o'tilgan.

Rezerv usuli yordamida bojxona bahosini chiqarish.

Agar tovarning bojxona qiymatini yuqorida ko'rsatilgan usullar yordamida aniqlash mumkin bo'lmasa, baholanayotgan tovarlarning bojxona qiymati bojxona organida mavjud bo'lgan narxlarga doir axborot asosida belgilanadi.

Tovarning bojxona qiymatini zaxira usulda aniqlash uchun asos sifatida quyidagilardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi:

- O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilgan o'xshash tovarning sotilish narxida;
- ikki va undan ortiq muqobil qiymatlarning eng yuqori qiymatidan;
- eksport qiluvchi mamlakatning ichki bozordagi tovar narxidan;
- bojxona qiymatini aniqlash uchun qiymatlarni qo'shish usulini qo'llashda foydalanilmaydigan ishlab chiqarish chiqimlaridan;
- eksport qilayotgan mamlakatdan uchinchi mamlakatlarga yetkazib berilayotgan tovarning narxidan;
- eng past bojxona narxidan;
- tovarning o'zboshimchalik bilan belgilangan yoki to'g'ri tasdiqlanmagan narxidan.

Rezerv usuli yordamida bojxona bahosini chiqarish Bojxona Kodeksining 313-moddasida keltirib o'tilgan.

Bojxona qiymatlarini belgilashda deklarantning huquq va majburiyatlari


Tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona broken deklarant bo'lishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 39-bob 274-modda.

Respublikaning yuridik va jismoniy shaxsi deklarant bo'lishi mumkin, jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali notijorat maqsadlarida

tovarlar olib o'tish hollari va bojxona organlari belgilaydigan boshqa hollar bundan mustasno.

Deklarant, u bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tuvchi shaxs yoki bojxona brokeri bo'lishidan qat'i nazar, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan barcha vazifalarni bajaradi va to'liq javobgar bo'ladi.

Deklarant bojxona deklarasiyasini topshirgunga qadar bojxona nazorati ostida tovarlar va transport vositalarini ko'zdan kechirishga, bojxona organining ruxsati bilan namunalar va nusxalar olishga haqli. Agar tovarlarga doir bojxona deklarasiyasida hisobga olingan bo'lsa, namunalar va nusxalar olinganida ular haqida alohida bojxona deklarasiyasi taqdim etilmaydi.



8.4.-rasm. Deklarant

Tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalash chog'ida deklarant:

- nazarda tutilgan tartibga muvofiq tovarlar va transport vositalarini deklarasiyalashga va bojxona organiga bojxona deklarasiyasini topshirishga;
- bojxona organining talabiga binoan deklarasiyalanayotgan tovarlar va transport vositalarini ko'rsatishga;

bojxona organiga bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlarni taqdim etishga;

bojxona to'lovlarini to'lashga;

bojxona organlariga bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda yordam berishga majburdir. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi 39-bob 276-modda.

Qonun hujjatlarida deklarantning boshqa huquq va majburiyatlari ham nazarda tutilgan bo'lishi mumkin.



Bojxona brokeri — bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni deklarantning yoki vakolatli shaxsning topshirig'iga binoan va uning nomidan shartnoma asosida amalga oshiradigan, tegishli ruxsatnoma olgan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxsi. B.K.40-bob 277-modda

Deklaratsiyalash — bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalari to'g'risidagi zarur ma'lumotlarni bojxona organlariga ma'lum qilish. B.K.37-bob 252-modda

8.5.-rasm. Bojxona brokeri

Bojxona brokeri — bojxona organining lisenziyasini olgan respublikaning yuridik shaxsidir.

Bojxona brokeri o'zini vakil qilgan shaxs hisobidan va uning topshirig'iga binoan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha operatsiyalarni o'z nomidan o'tkazish va bojxona ishi sohasida boshqa vositachilik vazifalarini boshqarishga haqli.


Bojxona brokeri bilan uni vakil qilgan shaxsning o'zaro munosabatlari notarial tasdiqlangan shartnoma asosida ko'riladi.

Bojxona brokerining bojxona organlari oldidagi huquqlari va majburiyatlari uni vakil qilgan shaxs bilan tuzilgan shartnomada cheklab qo'yilishi mumkin emas.

Bojxona organining malaka attestatiga ega bo'lgan mutaxassis deklarant nomidan bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha harakatlarni amalga oshirish huquqiga ega.

Deklarant bojxona rasmiylashtiruvi bo'yicha mutaxassisning bojxona organlari oldidagi majburiyatlarini cheklab qo'yishi mumkin emas. B.K. 40-bob 277-modda.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.



1. Tovarining bojxona qiymati deganda nimani tushunasiz?

2. Tovarining bojxona qiymatini aniqlashning qanday usullari mavjud?

3. Aynan bir xil tovar deyilganda qanday tovar

tushuniladi?

4. O'xshash tovarlar deganda qanday tovarlar tushuniladi?

5. Tovar birligining bahosidan qaysi xarajatlar chegirib tashlanadi?


6. Tovarining bojxona qiymatini aniqlash Bojxona Kodeksining qaysi bob va moddalarida keltirib o'tilgan?

7. Deklarant deb kimlarga aytiladi?

8. Deklarant qanday huquq va majburiyatlarga ega?

9. Deklaratsiyalash deganda nimani tushunasiz?

10. Bojxona brokeri deb kimlarga nisbatan aytiladi?



9-

MAVZU

BOJXONA TIZIMIDA AKSIZLAR O`RNI. IMPORT BO`YICHA QO`SHILGAN QIYMAT SOLIG`INI HISOBLASH XUSUSIYATLARI.

Reja:

**Asosiy tushuncha va
atamalar**

**Aksiz solig`ining
iqtisodiy vazifasi,
Aksiz solig`ini hisoblab
chiqish tartibi, aksiz
solig`i bo'yicha
imtiyozlar, Aksiz
solig`i to'lovchi
yuridik va jismoniy
shaxslar, Soliqni
hisoblab chiqarish
tartibi, Aksiz solig`i
summasi formulasi,
Aksiz to'lanadigan
tovarlar eksportini
tasdiqlash, QQSni
hisoblab chiqish
tartibi.**

**9.1 Aksiz solig`ining
iqtisodiy vazifasi.**

**9.2. Aksiz solig`ini
hisoblab chiqish tartibi va
aksiz solig`i bo'yicha
imtiyozlar.**

**9.3. Aksiz solig`ini to'lash
tartibi va muddatlari.**

**9.4. QQSni iqtisodiy
mohiyati.**

**9.5. QQSni hisoblab
chiqish tartibi va QQSni
to'lash bo'yicha**

Aksiz solig'i bilvosita soliq turi bo'lib, tovar yoki xizmat narxiga ustama ko'rinishida undiriladi va pirovard iste'molchi tomonidan to'lanadi. Aksizlar davlatning soliqqa doir umumiy siyosati tarkibiy qismi hisoblanadi hamda byudjet daromadini ko'paytirish, ba'zi tovar iste'mol qilishi (tamaki, spirtli ichimliklar), ishlab chiqarish ayrim turlarining tabiatni muxofaza qilishga salbiy ta'sir oqibatida yuzaga keladigan ijtimoiy xarajatlar o'rnini qoplashda, shuningdek avtomobil yo'llari qurish va saqlash xarajatlarini, boshqa xarajatlar, vatanimizdagi ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashda va xokazolar uchun qo'llaniladi.

Aksiz hajmi qoida tariqasida, tovar qiymati bilan ham, uni ishlab chiqarish uchun qilingan mexnat sarfi bilan xam bog'liq emas, balki davlatning soliq siyosatiga qarab belgilanadi.

Ba'zi mamlakatlarda iste'mol solig'i, ya'ni chakana savdodagi xar bir xarid uchun soliq, xizmat ko'rsatish sohasida oborot solig'i, tomoshaxonalardan undiriladigan soliq va boshqalar tobora ko'proq rivojlantirilmoqda.

«Aksiz» so'zi frantsuzchadan olingan bo'lib, «qirqib olmoq», «kesmoq» degan mahnoni anglatadi va shundan uning mazmunlari kelib chiqqan. 230-modda. Soliq solish ob'ekti

Quyidagi operatsiyalar aksiz

solig'i solinadigan obyektidir:

1) aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilish, shu jumladan:

- "tovarni sotish (jo'natish);

garov bilan ta'minlangan majburiyat bajarilmagan taqdirda, garovga qo'yilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni garovga qo'yuvchi tomonidan topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni bepul topshirish;

- aksiz to'lanadigan tovarlarni ish beruvchi tomonidan ish haqi hisobiga yollangan xodimga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda topshirish yoki hisoblangan dividendlar hisobiga yuridik shaxsning muassisiga (ishtirokchisiga) topshirish;

-aksiz to'lanadigan tovarlarni qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) ayirboshlash uchun topshirish;

2) Aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ustav fondiga (ulush kapitaliga) hissa yoki pay badali tariqasida yoxud oddiy shirkat shartnomasi bo'yicha sherikning (ishtirokchining) hissasi sifatida topshirish;

3) Aksiz to'lanadigan tovarlarni yuridik shaxsning ishtirokchisiga (muassisiga) yoki yuridik shaxs tarkibidan chiqqan (chiqib ketgan) taqdirda yoki yuridik shaxs qayta tashkil etilganligi, tugatilganligi (bankrotligi) munosabati bilan topshirish, shuningdek oddiy shirkat shartnomasi doirasida ishlab chiqarilgan aksiz to'lanadigan tovarlarni mazkur shartnoma sherigiga (ishtirokchisiga) uning shartnoma ishtirokchilari umumiy mulkidagi mol-mulkdan ulushi ajratib berilgan yoki bunday mol-mulk taqsimlangan taqdirda topshirish;

4) Aksiz to'lanadigan tovarlarni ulush qo'shish asosida qayta ishlashga topshirish, shuningdek ulush qo'shish asosida xom ashyo va materiallarni, shu jumladan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarni qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqaruvchi tomonidan qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallarning mulkdoriga topshirish;

5) Ishlab chiqarilgan va (yoki) qazib olingan aksiz to'lanadigan tovarlarni o'z ehtiyojlari uchun topshirish;

6) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilish¹⁷.

9.2

Aksiz solig'ini hisoblab chiqish tartibi va aksiz solig'ibo'yicha imtiyozlar.

¹⁷ <https://lex.uz/docs/4674902>

Aksiz solig'i -tovar qiymatiga foizlarda advolor stavkalarida (Advalor-tovarning bojxona qiymatidan foizda hisoblanib undiriladi. Misol uchun tovarning bojxona qiymatidagi 20% miqdorida) o'lchov birliklaridagi absolyut summaga natural ko'rinishida qat'iy stavkalarda qo'llaniladi.

Quyidagilarga aksiz solig'i solinmaydi:

1) "aksiz to'lanadigan tovarlarni ularning ishlab chiqaruvchilari tomonidan eksportga realizatsiya qilishga, bundan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

tomonidan belgilanadigan aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari mustasno;

2) keyinchalik O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqib ketilishi sharti bilan "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlardan ishlab chiqarilgan qayta ishlash mahsuli bo'lgan aksiz to'lanadigan tovarlarni topshirishga;

3) O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda insonparvarlik yordami sifatida;

davlatlar, hukumatlar, xalqaro tashkilotlar tomonidan hayriya yordami maqsadida, shu jumladan texnik ko'mak ko'rsatish maqsadida;

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bo'yicha xalqaro va chet el hukumat moliya tashkilotlari tomonidan berilgan zayomlar (kreditlar) mablag'lari hisobiga, shuningdek grantlar hisobiga yuridik shaxslar tomonidan olib kirilayotgan, aksiz to'lanadigan tovarlarni import qilishga;

4) aksiz to'lanadigan tovarlarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni olib kirish normalari doirasida jismoniy shaxslar tomonidan import qilishga. O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz solig'i solinmaydigan tovarlarni jismoniy shaxslar tomonidan olib kirish normalarining eng yuqori chegarasi qonun hujjatlarida belgilanadi;

5) vakolatli davlat organining yozma tasdig'i mavjud bo'lgan taqdirda, telekommunikatsiyalar operatorlari va tezkor-qidiruv tadbirlari tizimining texnik

vositalarini sertifikatlashtirish bo'yicha maxsus organ tomonidan olinadigan tezkor qidiruv tadbirlari tizimi texnik vositalarini import qilishga"¹⁸.

Aksiz solig'i quyidagi asosiy xususiyatlarga ega:

1. Aksiz ayrim xollarda kofe, tamaki mahsulotlari aroq. (O'zbekistonda paxta yog'i uchun ham) ishlab chiqarish xarajatlaridan tashqari sezilarli darajada salmoqni tashkil qiladi;

2. Barcha egri soliqlar singari Aksiz solig'i fiskal siyosati funksiyasini bajradi, yahni davlat byudjetini yetarli darajada to'ldiradi. Ilgarilari Aksiz solig'i faqatgina qimmatbaxo zeb-ziynat buyumlari yoki yuqori foyda keltiruvchi faoliyatlardan olinar edi.

3. Aksizlar neft, gaz ishlab chiqaruvchi monopol korxonalarini narx belgilash jarayonini tartibga solishda ham qo'llaniladi. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqarilgan va O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilingan tovarlardan undiriladi.

Soliq kodeksining 235-moddasiga binoan:

Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi.

Aksiz solig'i stavkalari tovarning qiymatiga nisbatan foizlarda (advalor) va (yoki) naturada ifodalangan o'lchov birligiga mutlaq summada (qat'iy) belgilanadi.

9.3

Aksiz solig'ini to'lash tartibi va muddatlari.

Soliqni hisoblab chiqarish tartibi

¹⁸ <https://lex.uz/docs/-4674902>

Aksiz solig'ini hisoblab chiqarish Soliq Kodeksining 232-moddasiga muvofiq aniqlanadigan soliq solinadigan bazadan va aksiz solig'ining belgilangan

Aksiz solig'i summasi quyidagi formula

bo'yicha aniqlanadi:

$$S * A / 100$$

Bu yerda:

S - bojxona qiymati;

A - aksiz solig'i stavkasi.

stavkalaridan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliqdan chegirma

Soliq Kodeksining 236-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan aksiz solig'ining summasi ushbu moddada belgilangan chegirma summasiga kamaytiriladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar olinayotganda yoki O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga import qilinayotganda, agar mazkur tovarlardan keyinchalik aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqarish uchun xom ashyo sifatida foydalanilgan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi hududida to'langan aksiz solig'i summasi chegirib tashlanadi.

Aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) yetkazib beruvchilar mazkur tovar (xom ashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasini hisobvara-q-fakturada ajratib ko'rsatishlari kerak. Olinayotgan aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) bo'yicha aksiz solig'i summasi hisobvara-q-fakturada ajratib ko'rsatilmagan bo'lsa, aksiz solig'ining mazkur summasi chegirib tashlanmaydi.

Chegirma soliq davrida realizatsiya qilingan aksiz to'lanadigan tovarlar hujmiga to'g'ri keladigan aksiz to'lanadigan tovar (xom ashyo) hajmidan kelib chiqqan holda aniqlangan aksiz solig'ining hisobvara-q-fakturada yoki bojxona yuk deklaratsiyasida ko'rsatilgan summasiga nisbatan amalga oshiriladi.

Ushbu moddaning qoidalarini qayta ishlashga berilgan xom ashyo va materiallardan tayyorlangan aksiz to'lanadigan tovarlar topshirilayotganda ham qayta ishlashga berilgan aksiz to'lanadigan xom ashyo va materiallarning mulkdori aksiz solig'i to'laganligini tasdiqlashi sharti bilan qo'llaniladi.

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlovchi hujjatlar quyidagilardir:

Soliq davri

Yil choragi soliq davridir.

Hisob-kitobni taqdim etish tartibi

Aksiz solig'ining hisob-kitobi soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga yilning har choragida, soliq davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etiladi.

Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar quyidagilardir:

Aksiz to'lanadigan tovarlarning ayrim turlari bo'yicha aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi bo'lmagan shaxs O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan aksiz solig'ini to'lovchi etib belgilanishi mumkin.

Oddiy shirkat aksiz to'lanadigan tovar ishlab chiqargan taqdirda, oddiy shirkat shartnomasining oddiy shirkat ishlarini yuritish zimmasiga yuklatilgan sherigi (ishtirokchisi).



O'zbekiston Respublikasi hududida aksiz solig'i solinadigan tovarlarni (aksiz to'lanadigan tovarlarni) ishlab chiqaruvchilar.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga aksiz to'lanadigan tovarlarni import qiluvchilar.

9.3-rasm. Aksiz solig'ini to'lovchilar

Aksiz to'lanadigan tovarlar eksportini tasdiqlash

Eksport qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlarni yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt;

Tovarlarni eksport rejimida chiqarishni amalga oshiruvchi bojxona organining belgisi qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasidagi o'tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar tayinlangan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo'yilgan tovarga ilova qilinadigan hujjatlar.

Soliq to'lash tartibi

Soliq to'lovchilar soliqlar davri mobaynida joriy to'lovlarni kiritish orqali aksiz solig'ini to'laydilar.

Aksiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlarning summasini aniqlash uchun soliqlar to'lovchilar joriy soliqlar davri birinchi oyining 10-kunigacha davlat soliqlar xizmati organiga joriy soliqlar davri uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishning taxmin qilinayotgan hajmi hamda aksiz solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqib hisoblangan aksiz solig'ining summasi haqida ma'lumotnoma taqdim etadilar.

Aksiz solig'i bo'yicha joriy to'lovlar har oyning 25-kunidan kechiktirmay yil choragi bo'yicha aksiz solig'i summasining uchdan bir qismi miqdorida to'lanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni realizatsiya qilishning taxmin qilinayotgan hajmidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi soliqlar davri uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'i summasiga nisbatan 10 foizdan ko'proq kamaytirilgan taqdirda, davlat soliqlar xizmati organi joriy to'lovlarni byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan aksiz solig'ining haqiqiy summasidan kelib chiqib pena hisoblagan holda qayta hisoblashga haqli.

Aksiz solig'ini to'lash hisob-kitoblarni topshirish muddatlaridan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi lozim bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i aksiz markalari olinguniga qadam to'lanadi.

Aksiz to'lanadigan tovarlarni aksiz markalari bilan tamg'alash

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek uning bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

9.4

Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiy mohiyati

Davlat byudjetining daromadlarini shakllantirishda qo'shilgan qiymat solig'i bilan to'ldirish g'oyasi XX asr boshlarida vujudga kelgan. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor Germaniyada 1919 yilda *Vilgelm*

fon Simenst tomonidan «Veredelte Umsatzsteuer» nemischa mukammallashgan aylanma soliq nomi bilan joriy etilgan. Bu soliq turi ilk bor qo'shilgan qiymat solig'i nomi bilan fransuz iqtisodchisi M. Lore tomonidan 1954 yilda taklif qilingan va 1960 yilda Kot-d-Ivuar Respublikasi joriy etilib, ushbu mamlakat soliq tizimiga soliq turi sifatida kiritilgan.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'i 1992 yilda joriy

etilgan bo'lib, bu soliqni huquqiy tartibga soluvchi soliq qonunchiligi hujjati bo'lib 1991 yil 15 fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida»gi qonun va unga muvofiq ishlab chiqilgan 1992 yil 30 martdagi «Qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi to'g'risidagi»

Dunyo mamlakatlarida qo'shilgan qiymat solig'i undirish tartibi dastlab 1954 yilda fransuz iqtisodchisi M.Lore tomonidan tavsiya etilgan, bu soliq turi bilan bog'liq fikrlar XX asrning boshlarida vujudga kelgan va jahonning 48 dan ortiq mamlakatlarida joriy etilgan. Mustaqil Davlatlar Xamdo'stligi davlatlarida 1992 yildan boshlab qo'shilgan qiymat solig'i joriy etilgan.

yo'riqnoma hisoblanadi. Soliq qonunchiligiga muvofiq 1992 yilda dastlab qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 30 % miqdorida belgilangan.

Qo'shilgan qiymat solig'i egri (bilvosita) soliq bo'lib, tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) ishlab chiqarish, sotish jarayonida qo'shilgan qiymatning bir qismini byudjetga ajratilishidir.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlarga ishlarga, xizmatlarga qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash va to'lash tartibi alohida belgilangan. O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyatini yuritayotgan yuridik shaxslar soliq (qo'shilgan qiymat solig'ini) to'lovchilar hisoblanadilar. Lekin amaldagi qonunchilikka muvofiq soliqqa tortishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslar (yagona soliqni to'lashga o'tgan kichik korxonalar, savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari va yagona yer solig'ini to'lashga o'tgan qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari) ushbu soliqni to'lovchilar hisoblanmaydilar. 2007 yildan boshlab ushbu soliqni soliqqa tortishning alohida tartibi o'rnatilgan yuridik shaxslar ixtiyoriy ravishda hisoblashlari va to'lashlari mumkin.

Asosiy faoliyati bilan bir qatorda qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan boshqa faoliyat bilan shug'ullanadigan qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari - yagona yer solig'i to'lovchilar, soliq qonunchiligida belgilangan tartibda shu faoliyatdan qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari hisoblanadilar.

9.5

QQSni hisoblab chiqishtartibi va QQSni to'lash bo'yicha imtiyozlar.

Qo'shilgan qiymat solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

1)"Sug'urta qilish va qayta sug'urta qilishga doir operatsiyalar, shu jumladan sug'urta bo'yicha vositachilar va agentlar amalga oshiradigan bunday operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar;

2)Sudalarni berish va o'tkazish bo'yicha operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar. Ssudalarni berish va uzatishga (uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit) bank mijozlari hujjatlarini tayyorlash (TIA ni tayyorlash uchun shartnoma bo'lmagan

holda), kreditni rasmiylashtirish; uchun hujjatlar paketini ko'rib chiqish (arizani ko'rib chiqish, kreditni to'lay olish qobiliyatini baholash, kreditning bahosini (foizini) aniqlash, kredit shartnomasini tayyorlash va tuzish), ssuda hisobvarag'i va kredit liniyasini ochish, kreditga (kreditlashga) xizmat ko'rsatish, ssudalarning maqsadli ijro etilishini nazorat qilish kiradi;

3) Pul omonatlari, joriy hisobvaraqlar, to'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlarga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar. Pul omonatlariga daxldor operatsiyalarga jismoniy va yuridik shaxslarning hisobvaraqlariga o'tkazish, qo'yilmalardan qo'yilmalarga summalarni o'tkazish va ularni rasmiylashtirish; O'zbekiston Respublikasidan tashqariga o'tkazish kiradi".

Joriy hisobvaraqlarga daxldor operatsiyalarga bank hisobvaraqlarini ochish, mijozning arizasi bo'yicha hisobvaraqlar rejimini o'zgartirish va hisobvaraqlarni qayta rasmiylashtirish: saqlash, hisobvaraqlarga pul o'tkazish va hisobvaraqlardan pul berish bo'yicha operatsiyalar, qabul qilish, qayta hisoblash bo'yicha operatsiyalar, hisobvaraqlarni yopish, mijozning talabiga ko'ra joriy hisobvaraqlar bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish va hisobvaraqlarning holati to'g'risida ko'chirma-ma'lumotnomalar berish kiradi.

To'lovlar, o'tkazmalar, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlarga daxldor operatsiyalarga inkassoni ijro etish, o'tkazmalar, korrespondent bankka inkassoga qo'yilgan hujjatlarni yuborish yoki qaytarish, eksport qilinadigan hujjatlashtirilgan inkasso bo'yicha hujjatlarni qabul qilish, tekshirish va jo'natish, inkasso topshiriq shartlarini o'zgartirish yoki uni bekor qilish, to'lovdan ozod bo'lgan hujjatlarni berish, hujjatlashtirilgan akkreditivlar bo'yicha operatsiyalar, kafolatli-akseptli operatsiyalar, cheklar bilan operatsiyalar (naqd pulni chet el banklari cheklariга almashtirish va aksincha, topshiriq bo'yicha cheklar inkassosi, cheklarni joriy hisobvaraqa kiritish, so'mli chekli daftarchalarga xizmat ko'rsatish (berilgan chek daftarchasini hisobga qo'yish realizatsiya hisoblanmaydi, balki mijozning joriy hisobvaraqlaridan cheklar yordamida mijoz tomonidan naqd pul olish uchun to'lovlarni o'tkazish bo'yicha to'lov bo'lib hisoblanadi) kiradi;

4)Xorijiy valyuta va qonuniy to'lov vositalari bo'lgan pullar muomalasiga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, numizmatika maqsadlarda foydalaniladiganlaridan tashqari.

Qonuniy to'lov vositasi hisoblangan chet el valyutasining muomalasiga taalluqli bo'lgan operatsiyalarga qonuniy to'lov vositasi hisoblangan naqd chet el valyutasi bilan operatsiyalar (valyutani qabul qilish, berish, almashtirish, sotib olish, maydalash, eskirgan valyutani inkasso qilish, naqd valyutani olib chiqib ketishga ruxsat berish), chet el valyutalari bilan konversion operatsiyalar, ushbu operatsiyalarni va valyuta kurslarini tasdiqlash to'g'risidagi hujjatlarni berish bilan birga, eksport-import shartnomalarini hisobga olish va xizmat ko'rsatish operatsiyalari (shartnomaning to'g'ri rasmiylashtirilganligini va uni shartnoma bo'yicha to'lovlarni o'tkazish uchun hisobga qo'yilganligini tekshirish; korxonalarning hisobvaraqlariga tushumlarning o'z vaqtida to'liq tushishlarini nazorat qilish, valyuta tushumlarini shartnoma bo'yicha majburiy sotilishini amalga oshirish; sheriklar tomonidan majburiyatlar to'liq bajarilganda hisobdan chiqarish); SWIFT, TELEKS, REUTER maxsus telekommunikatsion bank tizimlari orqali to'lovlar va o'tkazishlar amalga oshiriladigan operatsiyalar; qoplash sharti bilan o'tkaziladigan kafolatli operatsiyalar (kafolatlarni avizo qilish va berish, ko'rsatilgan summadan berish va kafolatlarni tasdiqlash, kafolatlash shartlarini o'zgartirish, so'rovlarni tayyorlash va banklarga jo'natish); kredit kartochkalari (VISA, IAPA, Priorite Pass) bo'yicha to'lov o'tkazishlarga xizmat ko'rsatish (pul mablag'larini chiqarish, almashtirish, hisobga kiritish, o'tkazish va hisobdan chiqarish) kiradi.

Qonuniy to'lov vositasi bo'lgan pul muomalasiga taalluqli bo'lgan operatsiyalarga qonuniy to'lov vositasi bo'lgan, pul mablag'lariga mulk huquqini almashtirishga olib keluvchi naqd pul hajmi bilan, jumladan puldan to'lov sifatida foydalanish bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar kiradi.

Inkassatsiyaga doir xizmatlar pullar muomalasiga taalluqli operatsiyalarga kirmaydi;

5) qimmatli qog'ozlar muomalasiga tegishli operatsiyalar bilan bog'liq xizmatlar, ularning tayyorlanishi va saqlanishiga doir operatsiyalardan tashqari. Qimmatli qog'ozlar muomalasiga tegishli operatsiyalar deganda qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdisiga tegishli operatsiyalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida nazarda tutilgan, qimmatli qog'ozlar egasining almashtirishiga olib keladigan boshqa harakatlar tushuniladi;

6) maxsus vakolat berilgan organlar tomonidan bajariladigan va davlat boji, yig'imga undiriladigan xatti-harakatlar. Mazkur imtiyoz litsenziya (ruxsatnoma), ro'yxatdan o'tkazish va patentlarga oid bojlar va yig'imlarning hamma turlariga, shuningdek davlat boshqaruv organlari, joylardagi davlat hokimiyati organlari, boshqa vakolatli organlar yuridik va jismoniy shaxslarga muayyan huquqlarni berishda undiradigan bojlar va yig'imlarga nisbatan qo'llaniladi;

7) bolalarning maktabgacha tarbiya muassasalarida saqlanishi, kasallar va qariyalarni parvarish qilishga doir xizmatlar;

8) dafn qilish byurolari va qabristonlarning marosim xizmatlari;

9) intellektual mulk ob'ektlarini xarid qilish huquqi uchun patent bojlari, ro'yxat yig'imlari va ruxsatnoma to'lovlari;

10) protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish va nogironlarga ortopedik protez qo'yish xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan korxonalarning mahsulotlari, davolash muassasalari huzuridagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari mahsulotlari;

11) pochta markalari (kolleksiya qilinadiganlaridan tashqari), markalangan otkritkalar va konvertlarning sotilishi;

12) aloqa tashkilotlarining pensiya va nafaqalarni to'lash bo'yicha xizmatlari;

13) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ilmiy-texnika taraqqiyotini muvofiqlashtirish kengashi qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining ilmiy-texnika dasturlari doirasida davlat kontraktlari bo'yicha bajariladigan ilmiy-tadqiqot va innovatsiya ishlari".

Mazkur imtiyozni olish uchun asos bo'lib davlat buyurtmalari bo'yicha ITTMK qoshidagi Fan va texnologiyalar markazining (ITD - ilmiy-texnika

15) aholiga ko'rsatiladigan uy-joy-kommunal va foydalanishga doir xizmatlar (bundan suv, issiqlik va gaz ta'minoti bo'yicha xizmatlar mustasno).

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan uy-joy-kommunal xo'jalik xizmatlariga aholi tomonidan haqi to'lanadigan kanalizatsiya, elektr energetika xo'jaliklari, sanitariya-tozalash, lift xo'jaliklari, umumiy foydalanishdagi antennalarni o'rnatish va foydalanishga doir xo'jaliklar, yer resurslari va davlat kadastri, uy-joy fondidan foydalanish va uni tutib turish boshqarmalari va bo'limlarining xizmatlari kiradi.

Mazkur imtiyoz, shuningdek aholi nomidan ish yuritadigan va yuqorida sanab o'tilgan xo'jaliklar bilan ularning aholiga ko'rsatgan xizmatlari uchun hisob kitoblarni amalga oshiradigan uy-joylardan foydalanish boshqarmalari (UFB) yoki shirkatlarga ham tegishli bo'ladi;

16) xalq ta'limi sohasidagi o'quv-ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar, shuningdek oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi ta'lim uchun haq.

Xalq ta'limi sohasidagi o'quv-ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xizmatlar deganda korxonalarning ta'lim berish faoliyati sohasida ko'rsatadigan xizmatlarni tushuniladi. Ta'lim muassasalari tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirganida, shu jumladan, mol-mulkni ijaraga berganda qo'shilgan qiymat solig'i umumiy belgilangan tartibda to'lanadi;

17) saqlash uchun vakolatli davlat organiga qimmatbaho metallarni sotishdan olingan aylanmalari;

18) diniy tashkilotlar va birlashmalarning udum va marosimlarni o'tkazishga doir tadbirlari. Ko'rsatilgan birlashmalarning marosimlar uchun va diniy maqsaddagi buyumlarni tayyorlashi va sotishi ham qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadi;

19) tibbiy, sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish, turistik-ekskursiya xizmatlari, jismoniy tarbiya va sport muassasalari, bolalar dam olish lagerlarining asosiy faoliyatiga doir xizmatlari.

Tibbiy xizmatlarga sog'liqni saqlash muassasalari, stomatologiya, gomeopatiya poliklinikalari, kosmetologiya shifoxonalari, tish-protez qo'yish

bo'limlari va kabinetlari, narkologiya ambulatoriyalari, haydovchilarning tibbiy komissiyalari, dezinfeksiya stansiyalari, sanitariya-epidemiyalarga qarshi yo'nalishdagi laboratoriya va bo'linmalari hamda boshqa tibbiy-sanitariya yo'nalishdagi muassasalar ko'rsatadigan tibbiy yordam va sanitariya xizmati kiradi.

Veterinariya xizmatlari tibbiy xizmatlarga kirmaydi.

Sanatoriy - kurort va sog'lomlashtirish xizmatlariga sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish tashkilotlarining yo'llanmalar qiymatiga qo'shiladigan xizmatlari kiradi. Sanatoriy-kurort va sog'lomlashtirish tashkilotlarining dam oluvchilarga ko'rsatadigan yo'llanmalar qiymatidan ortiq bo'lgan xizmatlariga ham qo'shilgan qiymat solig'i solinmaydi.

Turistik-ekskursiya xizmatlariga turistik-ekskursiya tashkilotlarining, turistik xizmatlar ko'rsatishda yo'llanma qiymatiga qo'shiladigan, tur tarkibiga kiradigan va haqiqatda ko'rsatilganini tasdiqlaydigan xizmatlar majmuikiradi. Turistik xizmatlar majmuiga "Turistik xizmatlarni taqdim etish shartnomasi"da belgilanganidek transport xizmati ko'rsatish, yashash, ovqatlanish xizmatlari, ekskursiya xizmati ko'rsatish, madaniy, jismoniy dastur va boshqa xizmatlarni tashkillashtirishni o'z ichiga oladi. Mazkur imtiyoz ushbu tashkilotlardan turistlarga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatilganda, shartnomada belgilanganidek ortiqcha turistik-ekskursiya xizmatlariga nisbatan ham qo'llaniladi.

Mazkur imtiyoz turistik-ekskursiya faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan pullik xizmatlarga tegishli bo'lmaydi.

Jismoniy tarbiya va sport muassasalari xizmatlariga sport inshootlarida o'tkaziladigan musobaqalar, bayramlar, sport-tomosha tadbirlari, taqvimiy va matchlardagi uchrashuvlar, sport turlari bo'yicha o'quv guruhlar va komandalar, maktablar, sog'lomlashtirish, umumiy jismoniy tayyorgarlik, salomatlik, chiniqish, suzish, sog'lomlashtiruvchi yugurish va yurish yo'nalishiga ega, atletika, ritmik va davolanish gimnastikasi va shu kabi klublarda bajariladigan jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazish, sport inshootlariga tashrif buyuruvchilarga taqdim qilinadigan, pattalar qiymatida nazarda tutilgan sport-texnika uskunolari, trenajerlar, inventar, kiyim-boshlarni berishga doir va boshqa xizmatlar kiradi;

- 20) xususiylashtiriladigan davlat mol-mulki qiymati;
- 21) gidrometeorologiya va aerologiya ishlari;
- 22) geologiya va topografiya ishlari;
- 23) nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa va kitob savdosi korxonalari, teleradiokompaniya, O'zbekiston Milliy axborot agentligining asosiy faoliyatga doir mahsulotlari va xizmatlari.

Nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari va matbaa korxonalarining asosiy faoliyatiga bosma mahsulotlar (kitoblar, gazetalar, jurnallar, ma'lumot beruvchi to'plamlar, risolalar, albomlar, plakatlar, bukletlar, otkritkalar, daftarlar, rasm va chizmachilik daftarlari, blanklar va boshqa bosma mahsulotlar)ni tayyorlash va nashr qilish, maketlash, kompyuter grafikasi, sahifalash, original maketlarni tayyorlash, nashrlarga reklama murojaatlarini qabul qilish, rasmiylashtirish va joylashtirish, rang tasvirlashtirish, yuridik va jismoniy shaxslarni axborot bilan ta'minlash, uni yig'ish va qayta ishlash, matnlarni tarjima qilish bo'yicha ishlar, magnitli va qog'ozli tashuvchilarda, pochta tizimi va Internet vositasida sotish bilan bog'liq faoliyatlar, shuningdek qonunlarda ko'zda tutilgan boshqa turdagi matbaa korxonalari kiritiladi.

Bunda, agar ma'lum bir faoliyat (reklamani qabul qilish, axborotni yig'ish, qayta ishlash va sotish) bosma mahsulotni tayyorlash, nashr qilish va tarqatish bilan bog'liq bo'lmagan alohida va uzil-kesil ishlar ko'rinishida amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda mazkur faoliyatdan olingan daromadlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i yuzasidan beriladigan imtiyozlar qo'llanilmaydi (masalan, reklamani televidenie, tashqi vositalar va hokazolarda uning joylashtirilishi uchun qabul qilinishi).

Nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa korxonalarining asosiy faoliyat bilan bog'liq bo'lmagan faoliyati (mol-mulkning ijaraga berilishi, oldi-sotdi, vositachilik va boshqalar) umumiy belgilangan tartibda qo'shilgan qiymat solig'iga tortilishi lozim.

Nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa korxonalari ular tomonidan asosiy faoliyatning amalga oshirilishi chog'ida amaldagi qonunchilikku

muvofiq ravishda tegishli ro'yxatdan o'tkazilishlari va qonunchilikda ko'zda tutilgan litsenziyaga ega bo'lishlari shart.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan faoliyatni amalga oshiruvchi, biroq nashriyotlar, gazeta va jurnallar tahririyatlari, matbaa korxonalari bo'lib hisoblanmaydigan korxonalarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha imtiyoz qo'llanilmaydi;

24) vakolatli davlat tashkilotlari o'tkazadigan ekologik ekspertiza xizmatlari;

25) davlat tilini o'qitishga va davlat tilida ish yuritishni o'rgatishga oid xizmatlar;

26) eksport qilinadigan tovarlarni tashish, ortish, tushirish, qayta ortish bo'yicha xizmatlar.

O'zbekiston Respublikasidan tashqariga eksport qilinadigan yuklarni tashish va xizmat ko'rsatishga doir xizmatlarga ularni xalqaro tashish hujjatlarida rasmiylashtirishda tashish, ekspeditsiya qilish, ortish, tushirish va qayta yuklash bo'yicha xizmatlar kiradi;

27) ishlovchilar umumiy sonining kamida ellik foizini nogironlar tashkil etgan nogironlarning jamoat birlashmalari, "Nuroniylar" jamg'armasi va "O'zbekiston chernobilchilari" uyushmasining mulkida bo'lgan, tovarlarni (chetdan keltiriladigan va aksizlanadiganlari bundan mustasno) ishlarni va xizmatlarni (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish va tayyorlov bundan mustasno) ishlab chiqadigan va sotadigan yuridik shaxslar.

Ko'rsatilgan imtiyozni olish huquqini belgilash chog'ida xodimlarning umumiy soniga shtatda bo'lgan korxona xodimlari, shu jumladan o'rindoshlik bo'yicha ishlovchilar, shuningdek korxona shtatida turmagan shaxslar (pudrat shartnomasi va fuqarolik-huquqiy tushdagi boshqa shartnomalar bo'yicha ish bajaradigan) kiritiladi;

28) ichki ishlar organlari huzuridagi qo'riqlash bo'linmalari xizmatlari;

29) faoliyatning ushbu turi bilan shug'ullanish huquqiga litsenziyaga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan gastrol-konsert faoliyati;

30) kitob mahsulotlarini, o'quvchilar o'quv qurollari va ko'rgazmali o'quv qurollarini, dori-darmon vositalari va tibbiy buyumlarni ulgurji sotuvchilar;

31) mol-mulkni lizingga berishdan lizing to'lovlari"¹⁹.

Qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, shuningdek soliq qonunchiligida ko'rsatilgan, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi korxonalar moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ni qo'shilgan qiymat solig'i bilan sotib oladilar. Bunda sotib olingan moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar)ga doir qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish xarajatlari yoki davr xarajatlari kiritiladi. Savdo, ta'minot-sotish va tayyorlash korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini xarid qilingan tovar qiymatiga kiritadilar.

Shunga o'xshash sotib olingan moddiy resurslar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summalarini ishlab chiqarish va muomala xarajatlari, savdo, ta'minot-sotish va tayyorlash korxonalari bo'yicha - xarid qilingan qiymatga kiritish tartibi amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

Agar korxona qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan faoliyat turi bilan bir qatorda bunday soliqqa tortiladigan faoliyatni ham amalga oshiradigan bo'lsa, unda u faoliyatning bunday turlari bo'yicha xarajatlar va natijalarning alohida hisobini yuritishi kerak.

Agar korxona yetkazib berilishi qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va bunday soliqqa tortilmaydigan bir xildagi mahsulotni ishlab chiqaradigan bo'lsa, unda bunday holda xarajatlarning ajratib ko'rsatilishi soliq solinadigan aylanma jami aylanma summasidagi salmog'iga qarab amalga oshiriladi.

Masalan,

Hisobot davri uchun korxona 200000 so'mlik, qo'shilgan qiymat solig'ini sotish aylanmasiga ega bo'lib, shu jumladan soliqqa tortiladigan aylanmasi 170000 so'm, soliqqa tortilmaydigan (soliqdan ozod qilingan) aylanmasi 30000 so'm;

Jami sotish summasidagi soliqqa tortiladigan aylanma summasi salmog'i 85% ni tashkil etadi ($170000 : 200000 \times 100$).

¹⁹ <https://lex.uz/docs/-4674902>

Agar hisobot davrida olingan hisobvara-q-fakturalardagi qo'shilgan qiymat solig'i summasi 35000 so'mni tashkil etgudek bo'lsa, u holda ushbu summaning 85 %i hisobga olinadi, ya'ni 29750 so'mi ($35000 \times 85/100$).

Qolgan 5250 so'mlik ($35000 - 29750$) to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi amalga kiritilishiga qadar qabul qilingan qonun hujjatlariga muvofiq taqdim etilgan soliq imtiyozlari ular taqdim etilgan muddat tugagunigacha saqlab qolinadi.

Benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish chog'ida to'lanadigan aksiz solig'i

2019 yil 1 yanvardan boshlab benzin, dizel yoqilg'isi va gaz ishlatganlik uchun olinadigan soliq bekor qilinib benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish chog'ida to'lanadigan aksiz solig'i joriy qilindi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 204-moddasiga kiritilgan o'zgartirishlarga muvofiq, benzin, dizel yoqilg'isi va gaz realizatsiya qilinganda soliq solinadigan baza ularni realizatsiya qilish qiymati asosida, unga qo'shilgan qiymat solig'i hamda benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish chog'ida to'lanadigan aksiz solig'i kiritilmagan holda aniqlanadi.

Shunday qilib, benzin, dizel yoqilg'isi va gazni yakuniy iste'molchiga realizatsiya qilish chog'ida to'lanadigan aksiz solig'i summasiga qo'shilgan qiymat solig'i hisoblanmaydi.

QQSni hisoblab chiqish tartibi.

Import qilinadigan tovarlar, ishlar va xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i 15 (yigirma) foiz stavkasi bo'yicha to'lanadi.

Quyidagilar nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi:

1) erkin almashtiriladigan valyutaga tovarlar hamda O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar) eksporti, shu jumladan Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlariga yetkazib berishlar, agar

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida boshqa narsa nazarda tutilmagan bo'lsa.

Tovarlar eksportiga soliq solishda tovarni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan olib chiqish belgilovchi omil hisoblanadi. Tovarlar eksportida nol stavkasi bo'yicha soliq solish quyidagi hujjatlar mavjud bo'lganida qo'llaniladi:

- kontrakt (yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan kontrakt nusxasi);
- tovarning bojxona rasmiylashtiruvini o'tkazadigan bojxona organining belgilari qo'yilgan bojxona yuk deklaratsiyasi;
- eksport qilinayotgan tovarlarga xorijiy shaxs haq to'laganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari va bank ko'chirmasi;
- tovarlar ko'rsatilgan mamlakatga jo'natilganligini tasdiqlaydigan, tovarga ilova qilinuvchi hujjatlar.

O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar, xizmatlar eksportida nol stavkasi bo'yicha soliq solish quyidagi hujjatlar mavjud bo'lganida qo'llaniladi: xorijiy shaxslar bilan kontraktlar; ishlar (xizmatlar) sotuvchisi va sotib oluvchisi imzolagan dalolatnomalar, ma'lumotnomalar yoki boshqa hujjatlar; bajarilgan ishlar (xizmatlar)ga xorijiy shaxs haq to'laganligini tasdiqlaydigan to'lov hujjatlari.

Bevosita O'zbekiston Respublikasi aeroportlari va havo makonida xorijiy havo kemalariga xizmat ko'rsatish, shu jumladan aeronavigatsiya xizmati bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, agar ularga erkin almashtiriladigan valyutada haq to'lansa, eksport xizmatlariga tenglashtiriladi va ularga nol stavkasi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i solinadi.

2) chet el diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan vakolatxonalarning rasmiy foydalanishi uchun, shuningdek mazkur vakolatxonalarning diplomatiya va ma'muriy-texnik xodimlarining, ular bilan birga yashovchi oila a'zolarining, agar ular O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lib hisoblanmasalar va respublikada doimiy yashamasalar, chet el tarafi tomonidan o'zaro muvofiqlik tamoyilining qo'llanilish sharti bilan shaxsiy foydalanish uchun sotiladigan tovarlar (ishlar, xizmatlar).

3) "bojxona hududida qayta ishlash" bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlarni qayta ishlash bo'yicha erkin almashtiriladigan valyutaga bajariladigan (ko'rsatiladigan) ishlar (xizmatlar).

4) O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet mamlakatlarning yuklarini tashish (tranzit tashishlar) bo'yicha xizmatlar. Chet mamlakatlar yuklarini tranzit tashishlarga yuklarning tranzitini amalga oshirish uchun xorijiy shaxslar bilan bevosita shartnomalar yoki xalqaro transport bitimlari va bojxona organlarining ko'rsatilgan tranzit yuklarning amalda olib kelingani va olib chiqib ketilishi haqidagi belgilari mavjud bo'lganida O'zbekiston Respublikasi hududi orqali chet mamlakatlar tranzit yuklarining tashilishi va xizmat ko'rsatishga doir xizmatlar kiradi.

5) suv, issiqlik, gaz ta'minoti bo'yicha aholiga ko'rsatiladigan kommunal xizmatlar.

Korxonalar nol darajali stavka bo'yicha soliqla tortiladigan mahsulotlarga qo'shilgan qiymat solig'ini "0" stavkasi bo'yicha hisoblaydilar va ishlab chiqarishda ishlatiladigan moddiy resurslar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasini hisobga olish uchun qabul qiladilar. Qo'shilgan qiymat solig'i summasi belgilangan stavkalar asosida quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Say \times S / 100; (1),$$

bunda: Sqqs - iste'molchilardan undiriladigan soliq summasi;

Say - soliqqa tortiladigan aylanma;

S - qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi.

Tovarlar (ishlar, xizmatlar) qo'shilgan qiymat solig'ini o'z ichiga olgan narxlar va tariflar bo'yicha sotilganida - soliq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Sqqs = Tq \times S / (S + 100); (2),$$

bunda: Tq - qo'shilgan qiymat solig'i ham hisobga olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) qiymati.

Soliq qonunchiligida ko'rsatilgan qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan yoki qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni sotadigan korxonalar erkin (shartnomaviy) narx va tarifga qo'shilgan qiymat solig'i

summasini qo'shmaydilar. Shunga o'xshash tartib amaldagi qonunchilikka muvofiq soliq solishning alohida tartibi ko'zda tutilgan yuridik shaxslarga nisbatan ham qo'llaniladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblab chiqarish uchun asos bojxona qonunlariga muvofiq belgilanadigan bojxona qiymati hisoblanadi.

Tovarlar importi bo'yicha soliq solinadigan oborot hajmiga bojxona qiymati bilan bir qatorda bojxona boji summasi va aksiz solig'i summasi (aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha) kiritiladi.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$Sqqs = (Sb+Bb+As) \times S/100,$$

bu yerda: S qqs - qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

Sb - import qilinadigan tovarning bojxona qiymati;

Bb - bojxona boji summasi;

As - aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'i summasi;

S - qo'shilgan qiymat solig'ining foizlardagi stavkasi.

Import qilinadigan ishlar, xizmatlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i ishlar, xizmatlar bajarilganligi dalilini tasdiqlovchi hujjatlar (dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki boshqa hujjatlar) asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqariladi:

$$Cqqs = S \times N/100,$$

bu yerda: Sqqs- qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

S - dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki boshqa hujjatlarga ko'ra tasdiqlanadigan, import qilinadigan ishlar, xizmatlar qiymati;

N - qo'shilgan qiymat solig'ining foizlardagi stavkasi.

Realizatsiya qilinadigan joyi O'zbekiston Respublikasi bojxona hududi bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan import qilinadigan ishlar, xizmatlar import qilinadigan ishlar, xizmatlar deb tan olinadi.

Ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan, sotib olinadigan moddiy resurslarga, shuningdek chetdagi tashkilotlar bajaradigan ishlar (xizmatlar)ga

qo'shilgan qiymat solig'i ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritilmaydi, qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning notilishi bundan mustasnodir.

Byudjetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i soliq solinadigan aylanmalar bo'yicha hisoblangan soliq summasi bilan soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga kiritiladigan soliq summalari o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Ushbu tartib qo'shilgan qiymat solig'ini to'lovchi hisoblanadigan hamma korxona va tashkilotlarga tatbiq etiladi.

O'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobda sotib olish qiymati bo'yicha, to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ham qo'shilgan holda aks ettiriladi.

Hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib, hisobot davri mobaynida haqiqatda kelib tushgan, shu jumladan, import qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun nol stavkasi bo'yicha aylanma bilan birgalikdagi soliq solinadigan aylanma uchun foydalaniladigan olingan hisobvara-q-fakturalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasi hisoblanadi.

Hisobot davri mobaynida xo'jalik yurituvchi sub'ektlar shartnomalarining shartlariga ko'ra xorijiy valyutaga ekvivalentda yozilgan hisobvara-q-fakturalar bo'yicha kelib tushgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib O'zbekiston Respublikasi pul birligida - hisobvara-q-faktura yozilgan sanada O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha qayta hisoblangan so'mlardagi soliq summasi hisoblanadi.

Import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha bojxona yuk deklaratsiyasi (BYuD), shuningdek bojxona deklaratsiyasi qiymati (BDQ), bojxona qiymatining tuzatilishi (BKT) (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar dalolatnomalari) va qo'shilgan qiymat solig'ining amalda to'langanligini tasdiqlovchi to'lov hujjatlari hisobga olish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Import qilingan tovarlar bo'yicha hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib importchi bayonot bergan bojxona qiymatidan kelib chiqib belgilangan

tartibga muvofiq hisoblab chiqarilgan, sotish chog'ida soliq solinadigan aylann uchun foydalaniladigan soliq summasi hisoblanadi.

Agar qo'shilgan qiymat solig'i tovarlarni olib kirish chog'ida bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq bojxona baholash usullari tizimini qo'llash yo'li bilan aniqlanadigan bojxona qiymatidan kelib chiqib hisoblab chiqarilgan, bojxona rasmiylashtiruv chog'ida haqiqatda to'langan soliq bilan soliq qonunchiligiga muvofiq hisobga kiritiladigan soliq o'rtasidagi farq import qilingan tovarlarning xarid qiymatiga kiritiladi.

Misol:

Importchi tomonidan olib kirilayotgan tovarga doir bayonot berilgan bojxona qiymati 100 mln.so'mni tashkil etadi, tovar importi chog'ida bojxona to'lovlarini to'lash uchun hisob-kitobli bojxona qiymatini bojxona organlari 200 mln. so'm miqdorida belgilagan. Bojxona rasmiylashtiruv chog'ida bojxona to'lovlarining hisoblangan summalari: bojxona boji (30%) - 60 mln so'm, aksiz (20%) - 40 mln so'm, QQS (20%) - 60 mln so'm, $(200+60+40) \times 20/100$.

Hisobga kiritiladigan QQS summasi - 40 mln.so'm $(100 \text{ (importchi bayonot bergan bojxona qiymati)} + 60 \text{ (bojxona boji)} + 40 \text{ (aksiz)} \times 20/100)$. 20 mln.so'm $(60-40)$ summasidagi farq import qilingan tovarning xarid qiymatiga kiradi.

Import qilish chog'ida qo'shilgan qiymat solig'ini to'lash bo'yicha muddatlarning uzaytirilishi yoki bo'lib-bo'lib to'lash taqdim etilgan hollarda (bojxona qonunchiligiga yoki hukumat qaroriga muvofiq) hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib soliqning haqiqatda to'langan summasi hisoblanadi.

Eksportga yetkazib beriladigan mahsulot bo'yicha hisobga kiritiladigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi bo'lib tovarlar O'zbekiston Respublikasi hududidan olib chiqilganligi va tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligida, eksportdan valyuta tushumi korxonaning hisobvarag'iga kelib tushganligi dalili tasdiqlanganda, soliq qonunchiligiga ko'ra hisoblab chiqarilgan soliq summasi hisoblanadi.

Quyidagilar bo'yicha soliq summasi hisobga olinmaydi:

a) qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan, shuningdek qo'shilgan qiymat solig'idan ozod qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaruvchi korxonalar foydalanadigan sotib olingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

b) soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha;

v) xarid qilingan, hisobda dastlabki qiymati bo'yicha aks ettiriladigan asosiy vositalar (shu jumladan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, foydalanishga topshirish hamda undan vazifasiga ko'ra foydalanish uchun aktivni ishlash holatiga keltirish bilan bevosita bog'langan har qanday boshqa xizmatlar) va o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan nomoddiy aktivlar bo'yicha;

g) korxonaning ustav jamg'armasiga ulush sifatida kiritilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) va moddiy resurslar bo'yicha, ular keyinchalik sotilganida, soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan aylanmalar bo'yicha va tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatda ishlatilishida.

Bunda korxonaning ustav jamg'armasiga ulush sifatida kiritilgan import qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi ushbu tovarlar (ishlar, xizmatlar) keyinchalik sotilganda yoki soliqqa tortiladigan aylanmalar bo'yicha ishlatilganda umumiy belgilangan tartibda hisobga olinadi.

Agar xarid qilingan tovarlar (ishlar, xizmatlar) bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'i summasi hisobot oyida hisobga kiritilgan bo'lsa, keyingi davrlarda esa ushbu moddiy resurslar tadbirkorlik faoliyatida va soliq to'lovchining soliq solinadigan yetkazib berishlari uchun ham foydalanilmagan bo'lsa, u holda ushbu (keyingi) davrlarda soliq solinadigan aylanma va soliq qonunchiligida ko'rsatilgan hisobga olish uchun qabul qilingan soliq summaları tuzatilishi amalga oshiriladi.

Ushbu qoida yagona soliq (kichik korxonalar), yagona yer solig'i, yalpi tushundan yagona soliq to'lovchi yuridik shaxslarga ham tatbiq etiladi.


Bunda aytilgan soliqlarni to'lashga o'tgunga qadar qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha manfiy saldosi bor, yuqorida aytilgan yuridik shaxslar, qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha oxirgi hisob-kitobda bu summaga tuzatish qiladilar va uni ishlab

chiqarish (muomala) xarajatlariga, savdo, ta'minot-sotish va tayirlash korxonalari bo'yicha xarid qilingan qiymatga hisobdan chiqaradilar.


Korxona qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan va bunday soliقدan ozod qilingan aylanmalarga ega bo'lganida, qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan yetkazib berishlarga (nol darajali stavka bo'yicha soliq solish kirgan holda) to'g'ri keladigan bunday soliq summasi qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha hisobga olish uchun qabul qilinadi.

Bunday tartibdan istisno tariqasida, kommunal xo'jalik korxonalari aholiga soliq qonunchiligida ko'rsatilgan kommunal xizmatlarni ko'rsatishda foydalanilgan moddiy resurslar uchun yetkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ishlab chiqarish xarajatlariga kiritmaydi, balki hisobga olish uchun qabul qiladi. Bunda kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari qo'shilgan qiymat solig'ini faqat musbat saldo mavjud bo'lganida, ya'ni ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan qo'shilgan qiymat solig'i tushumlari umuman barcha faoliyatlar bo'yicha foydalanilgan moddiy resurslar uchun yetkazib beruvchilarga to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan ortiq bo'lganida to'laydilar.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar.



- 1. Aksiz solig'i qanday xususiyatlarga ega?**
- 2. Aksiz solig'i summasi formulasi qanday aniqlanadi?**
- 3. Aksiz solig'i to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslarni tushuntiring?**
- 4. Aksiz to'lanadigan tovarlar ro'yxati kim tomonidan tasdiqlanadi?**
- 5. Aksiz solig'idan qaysilar ozod etiladi?**



- 6. Qo'shilgan qiymat solig'i tushunchasi qanday?**
- 7. QQS bo'yicha imtiyozlarni qaysi yo'nalishlar bo'yicha ajratish mumkin?**
- 8. Qaysilar nol darajali stavka bo'yicha soliqqa tortiladi?**
- 9. Qo'shilgan qiymat solig'ini iqtisodiy mohiyati nimada?**
- 10. Qo'shilgan qiymat solig'i ilk bor qayerda joriy etilgan?**

BOJXONA ORGANLARINING HUQUQNI MUXOFAZA QILISH SOXASIDAGI FAOLIYATI.

Asosiy tushuncha va atamalar:

Bojxona organlarining vakolatlariga kiritilgan jinoyatlar, kontrabanda, jarima, yuridik shaxslarning jabd qilinishi, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 246 va 182 moddalarida haqida tushuncha hosil qilish;


REJA:

- 10.1 Bojxona organlarining vakolatlariga kiritilgan jinoyatlar uchun javobgarlik.
- 10.2 Yuridik shaxs va jismoniy shaxslarning javobgarligi.

Bojxona organlarining vakolatlariga kiritilgan jinoyatlarga quyidagilar kiradi:

- 1) kontrabanda;
- 2) noqonuniy ravishda texnologiyalarni, ilmiy texnika axborotlari va boshqa yalqin qirg'in qurollari va harbiy texnikalarni yaratishda foydalaniladigan ma'lumotlarni tashqariga chiqarish;
- 3) O'zbekiston Respublikasi xalqaro va xorijiy mamlakatlarning badiiy, tarixiy va arxeologik boyliklariga oid buyumlarni O'zbekiston Respublikasi xududiga qaytarilmaslik;
- 4) bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortib, chet el valyutasida bo'lgan mablag'larni xorijiy mamlakatlardan qaytarmaslik.

Kontrabanda - italyancha "contro-qarshi" "bando-hukumat qarorlari" degan so'zlardan olingan bo'lib, amalda barcha mamlakatlarda davlat chegaralaridagi jinoyat deb ehlon qilingan tovarlar va narsalarning olib o'tilishi tushuniladi.



10.1.-rasm. Kontrabanda


belgilangan qoidalarga ko'ra kontrabanda deb quyidagi holatlar hisoblanadi:

1) "O'zbekiston Respublikasining bojxona chegaralaridan bojxona nazoratidan tashqari yoki yashirin holatda, qalbaki xujjatlardan foydalanish va bojxona o'xshashlik vositalaridan foydalanish bilan, shuningdek, bayonot bermaslik, yoki noto'g'ri bayonot berish yo'li bilan olib o'tiladigan quyidagi xollarda:

a) tovar yoki boshqa buyumlarni;

b) narkotik moddalarni: asabga taosir etuvchi, tez taosir ko'rsatuvchi, zaxarli, zaxarlovchi, radioaktiv, yoki portlovchi moddalarni, qurol-yarog', portlatuvchi uskunalar, o'q otar qurollar va o'q-dorilar, yadroviy, kimyoviy, biologik, yoki boshqa yalpi qirg'in qurollari, yalpi qirg'in qurollarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan va shu kabilar.

2) yuqorida nazarda tutilgan qoidalarni bir necha marta buzilib, yoki o'zining mansabidan foydalanilgan xolda mansabdor shaxslar tomonidan, yoki bojxona nazoratini amalga oshiruvchi shaxsга nisbatan kuch ishlatilgan holatlar sodir etilgan taqdirda;



10.2.-rasm

3) yuqorida sanab o'tilgan holatlar tashkiliy guruh tomonidan sodir etilgan taqdirda kontrabanda deb hisoblanadi²⁰.

²⁰ <https://lex.uz/docs/111453>

Noqonuniy ravishda texnologiya, ilmiy-texnika mahlumotlari va xizmatlari, shuningdek, yalpi qirg'in qurolini ishlab chiqarish va uni yaratishda, ularni olib yurish vositalari, qurol-aslaha va xarbiy texnikalarni tashish yuzasidan maxsus eksport nazorati belgilangandir.

Jinoyat ob'ekti bo'lib tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishdagi belgilangan tartib hisoblanadi, hamda ular o'z ichiga ayrim turdagi tovarlarni eksport qilishdagi davlat monopoliyasini mujassamlashtiradi va ularni respublika chegarasidan olib o'tish tartibini belgilaydi.

Jinoyatga oid buyumlar bo'lib texnologiya, ilmiy texnika axborotlari va xizmatlar shuningdek, yalpi qirg'in qurollari, ularni tashish vositalari, qurol aslaha xarbiy texnikani yaratishda foydalaniladigan materiallar va uskunalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi xalqlari va xorijiy mamlakatlar xalqlarining boyligi bo'lgan badiiy, tarixiy va arxeologiyaga oid buyumlarni O'zbekiston Respublikasi xududiga qaytarilmaganlik uchun jazo choralari O'zbekiston Respublikasi halqlarining madaniy merosini saqlab qolish, shuningdek, madaniy boyliklarning noqonuniy ravishda tashib ketilishi va mulk huquqlarining boshqalarga berib yuborilishining oldini olishni nazarda tutadi.

Chet ellardan xorijiy valyutalarni qaytarmaslik holatlariga:


Xorijiy davlatlarning valyutalarining O'zbekiston Respublikasi vakolatlil banklariga qaytarilishi lozim bo'lgan qismini yashirganlik uchun, shuningdek, tashkilot rahbari tomonidan xorijiy mamlakatlardan chet el valyutasidagi katta miqdordagi mablag'larni qonun asosida qaytarilmaganlik uchun jinoiy javobgarlik nazarda tutilganidir.

Ushbu jinoyatning jamiyat uchun xavfli tomoni shundan iboratki, bunda valyuta jarayonlarini yuritishdagi belgilangan tartib qoidalarining buzilishiga yo'l qo'yiladi, shu bilan birgalikda valyuta bozorining barqarorligiga, O'zbekiston Respublikasining moliyaviy manfaatlariga xorijiy valyutada davlat byudjetiga tushishi zarur bo'lgan mablag'lar bo'yicha putur yetkazilishi mumkin.

Ushbu jinoyatning ob'ekti bo'lib jamiyat munosabatlari hisoblanib, ular moliyaviy faoliyatning valyuta bo'yicha tartibga solish qismida vujudga keladi va

jinoyatning buyumlari bo'lib xorijiy valyutalar hisoblanadi.

Bojxona to'lovlarini to'lashdan bosh tortishning xavfli tomoni shundan iboratki, uni sodir etish bilan bojxona to'lovlaridan davlat byudjetiga tushadigan tushumlar, bojxona soliqlari va boshqa bojxona to'lovlari o'tkazilmaydi.



10.3.-rasm. Bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish

Soliqlar, to'lovlar, bojlar va boshqa to'lovlar deyilganda- davlat byudjetining tegishli darajasiga yoki byudjetdan tashqari foizlarga qonunchilik xujjatlari bilan belgilanib, to'lovchi tomonidan majburiy amalga oshiriladigan to'lovlar tushuniladi.

Mazkur jinoyatning ob'ekti bo'lib moliyaviy tizimning tarkibiy qismi bo'lgan soliqlarni undirish tartibi bilan belgilangan qoidalar hisoblanadi.

10.2 Yuridik shaxs va jismoniy shaxslarning javobgarligi.



Kontrabandaga bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzishlarga va O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlarga tegishli soliqlar va boshqa majburiy boj to'lovlarini to'lashdan

bosh tortishga qarshi kurash funksiyasi O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining asosiy funksiyalaridan biri ekanligi qonun bilan mustahkamlangan. Yuqorida aytib o'tilgan funksiya bilan qonun hujjatlari tomonidan huquqni muhofaza qilish organlari sirasiga kiritilgan bojxona organlarining mavqecini ham belgilab berilishi o'z funksional vazifalarini hal etishda bojxona organlarining huquqini kengaytiradi. Bojxona organlari bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklarga qarshi kurash vazifasini hal etib, bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishiga barham berish maqsadida huquqiy majburlash, sanksiya usullarini qo'llaydilar.

Bojxona bilan bog'liq huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlikka tortilish sohasida O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining huquqni qo'llash amaliyoti O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining IX va X bo'limlari qoidalari bilan qonuniy tartibga solinadi. Ushbu qoidalar asosida bojxona haqidagi qonunlar buzilganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralari tegishli masalalar bo'yicha normativ baza shakllanadi.

Bojxona kodeksida bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishi tushunchasiga keng izoh berilgan. Bojxona kodeksida va O'zbekiston Respublikasining bojxona qonun hujjatlarida belgilangan bojxona qoidalariga rioya etmaslik bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi deb hisoblanadi.

Aytib o'tilgan moddaga binoan bojxona qonunlarining buzilishi Bojxona kodeksi, «Boj tarifi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari va O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari bilan belgilangan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovarlar va transport vositalarining bojxona nazorati va bojxona rasmiylashtiruv (shu jumladan bojxona rejimlari) tartibiga

bojxona to'lovlarini to'lashga, bojxona imtiyozlari berish va ulardan foydalanishga tajovuz qiluvchi shaxslarning huquqqa zid tusdagi xatti-harakati yoxud harakatsizligidir. Buning uchun (ya'ni, ularning huquqqa zid hatti-harakati yoki harakatsizligi uchun) Bojxona kodeksida javobgarlik nazarda tutilgan.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun javobgarlik sub'yektlarini aniqlashda shuni nazarda tutish kerakki, quyidagi O'zbekiston Respublikasi shaxslari ham, xorijiy shaxslar ham ma'muriy javobgarlikka tortilishi mumkin:

fuqarolar (ular huquqbuzarlik sodir etilgan paytda o'n olti yoshga to'lganda); mansabdor shaxslar (agar ular huquqbuzarlik sodir etgan paytda ularning xizmat vazifalariga Bojxona kodeksi va O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi bo'yicha qonun hujjatlari talablari bajarilishini ta'minlash kirsas);

yuridik shaxslar (mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar, tashkilotlar, muassasalar);

yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan fuqarolar va mansabdor shaxslar ma'muriy javobgar bo'ladilar, ularning qilmishlarida jinoyat alomatlari bo'lgan taqdirda esa, jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

Huquqni buzuvchi (jismoniy shaxs) bilan bojxona organi (yuridik shaxs) o'rtasida o'zaro munosabatlar paydo bo'lganda, huquq buzish mavzusi esa fuqaroga tegishli tovar bojxona qoidalarining buzilishi fuqaro tomonidan sodir etilgan deb tavsiflanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun shaxslardan bojxona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestati chaqirib olinishi mumkin.

Mansabdor shaxslar, agar ular tomonidan huquqni buzish sodir etilishi paytida Bojxona kodeksi, shuningdek boshqa qonun hujjatlarida belgilangan talablar bajarilishini ta'minlash ularning xizmat majburiyatlariga kirsas, bojxona qoidalari buzilganligi uchun javob beradi.

Yuridik shaxslar va yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan nazarda tutilgan bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilganligi uchun jarimalar, boj-xona organi tomonidan faoliyatning muayyan turini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish, bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishi quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalari musodara qilinishi qo'llaniladi.

Korxonalar va tashkilotlar xodimlari tomonidan ular o'z xizmat vazifalarini bajarishi chog'ida sodir etilgan bojxonaga oid qonun hujjatlarining buzilishi, ya'ni korxona yoki fuqaro (yukni oluvchi, jo'natuvchi, tashuvchi, saqlovchi)ning ishi bilan bog'liq hamda ularning manfaatlari yo'lida va tovarlari bilan sodir etilgan hatti-harakat korxona va tashkilot (yuridik shaxs) tomonidan sodir etilgan bojxona qoidalarining buzilishi sifatida tavsiflanadi. Ushbu holda yuridik shaxslar sifatida bojxona organi bilan korxona, tashkilot o'rtasida o'zaro munosabat paydo bo'ladi. Korxona, tashkilot yoki fuqaroga qarashli bo'lgan tovar qonunni buzish ashyosi hisoblanadi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzgan shaxslardan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish imkoniyati bo'lmagan taqdirda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda ularning qiymati undiriladi.

Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganligi uchun javobgarlikdan ozod etmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganlik uchun jinoyat javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun beriladigan jazo turlari Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jazolar beriladi: Jarima. Jarima ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undirishdir. Jarimaning miqdori ma'muriy huquqbuzarlik sodir etilgan

vaqtdagi, davom etayotgan ma'muriy huquqbuzarlik uchun esa huquqbuzarlik aniqlangan vaqtdagi belgilab qo'yilgan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqqan holda belgilanadi. Tovarlar va transport vositalarining qiymatidan kelib chiqib hisoblanadigan jarima ko'rinishidagi jazoni belgilashda ana shu narsalar qiymati deganda huquqbuzarlik aniqlangan kunda ularning erkin (bozor) narxi tushuniladi.

2. Bojxona kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organi tomonidan berilgan litsenziyani yoki malaka attestatini chaqirib olish. Litsenziya yoki malaka attestatini chaqirib olish bojxona omborlari, bojsiz savdo do'konlari, erkin omborlar, vaqtincha saqlash omborlariga, shuningdek bojxona brokeri, bojxona tashuvchisiga yoki bojxona rasmiylashtiruvchi mutaxassisiga ular tomonidan bojxona qoidalarini buzilganligi uchun, agar ushbu huquqbuzarliklar ko'rsatib o'tilgan shaxslar tomonidan litsenziya yoki malaka attestati bilan nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish munosabati bilan sodir etilgan bo'lsa qo'llanilishi mumkin.

3. Bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovarlar va transport vositalarini musodara qilish. Musodara qilish - bojxona qoidalarini buzilishi ob'yekti hisoblangan tovarlar va transport vositalarining davlat mulkiga majburiy tekinga olib qo'yilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Yuridik shaxs yoki yuridik shaxsni tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs tomonidan bojxona haqidagi qonun hujjatlari bir necha marta buzilsa, har bir huquqbuzarlik uchun alohida jazo beriladi.

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun jazo berilishi javobgarlikka tortilayotgan shaxslarni boj to'lovlarini to'lashda Bojxona kodeksida nazarda tutilgan boshqa talablarni bajarish majburiyatidan ozod etmaydi.

Bojxona organi tomonidan muayyan faoliyat turlarini amalga oshirish uchun berilgan litsenziya yoki malaka attestatini qaytarib olish hamda jarima ko'rinishida jazo belgilash bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish holati aniqlangan kundan boshlab olti oydan kechiktirmay, lekin u sodir etilgan kundan boshlab uch yildan kechiktirmay byudjetga bojxona to'lovlarini to'lamaslik bilan bog'liq ishlar

bo'yicha - besh yildan kechiktirmay qo'llanishi mumkin.

Tovarlar va transport vositalarini musodara qilish ko'rinishidagi jazo bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzish sodir etilgan yoki aniqlangan vaqtdan hamda u asosiy yoki qo'shimcha jazo ekanligidan qat'iy nazar qo'llaniladi.

Tovarlar va transport vositalarini g'ayriqonuniy olib o'tish kuni deb ularni O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali haqiqatda olib o'tilgan kun hisoblanadi. Yuridik shaxslarni javobgarlikka tortish ularning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini Yuridik shaxslar va yuridik shaxs tashkil etmagan xolda iadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan shaxslarga nisbatan Bojxona Kodeksining tegishli moddalarida nazarda tutilgan ular bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzilganligi uchun javobgarlikdan ozod etilmaydi.

Yuridik shaxsning mansabdor shaxslari va boshqa xodimlarini kontrabanda uchun hamda bojxona ishi sohasida boshqa jinoyatlarni sodir etganliklari uchun jinoiy javobgarlikka tortish yuridik shaxsni bojxonaga oid qonun hujjatlarida nazarda tutilgan javobgarlikdan ozod etmaydi.

1. jarima;

Bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun quyidagi jarimalar beriladi

2. Bojxona Kodeksida nazarda tutilgan ayrim faoliyat turlarini amalga oshirish uchun bojxona organi tomonidan berilgan litsenziyani yoki malaka attestatini chaqirib olish;

3. bojxona haqidagi qonun hujjatlari buzilishini sodir etish quroli yoki bevosita ashyosi hisoblangan tovalar va transport vositalarini musodara qilish.

“Bojxona nazorati zonasi rejimining buzilishi

Bojxona organining ruxsatisiz bojxona nazorati zonasi chegarasi orqali va uning doirasida tovarlar, transport vositalari va shaxslarni olib o'tish yoki bojxona nazorati zonasi rejimini buzuvchi boshqa xatti-harakatlar sodir etish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi;

Bojxona chegarasini kesib o'tganlik to'g'risida yoki tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to'g'risida bojxona organiga xabar berish tartibini buzish

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kirish chog'ida O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tganlik to'g'risida yoki tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasi bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to'g'risida bojxona organiga xabar bermaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqish maqsadi to'g'risida bojxona organiga noto'g'ri xabar berish, agar bunday xabar bojxona organi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatga olingan bo'lsa, xuddi shuningdek tovarlar va transport vositalarini belgilangan joyga hamda belgilangan vaqtda yetkazib bermaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Falokat yuz bergan yoki yengib bo'lmas kuch ta'sir etgan holda chora ko'rmaslik

Falokat yuz bergan yoki yengib bo'lmas kuch ta'sir etgan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 224-moddasida nazarda tutilgan chora-tadbirlarni ko'rmaslik, -

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti

baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlar va transport vositalarini yetkazib berilgan joyda ko'rsatmaslik hamda ularning hujjatlarini topshirmaslik

Tovarlar va transport vositalarini yetkazib berilgan joyda O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 218-moddasida nazarda tutilgan muddatda bojxona organlariga ko'rsatmaslik hamda ularning hujjatlarini topshirmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlar, transport vositalari va ularning hujjatlarini bojxona organining ruxsatisiz berish, ularni yo'qotish yoki yetkazib bermaslik

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarini bojxona organining ruxsatisiz berish, ularni yo'qotish yoki bojxona organi belgilagan joyga yetkazib bermaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

tovarlar va transport vositalari musodara qilinib yoki musodara qilinmay, fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar va transport vositalari musodara qilinib yoki musodara qilinmay, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarining bojxona organiga topshirish uchun qabul qilingan bojxona hujjatlari yoki boshqa hujjatlarni

yo'qotish yoxud yetkazib bermaslik —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Transport vositasini to'xtatmaslik yoki bojxona organining ruxsatisiz jo'natib yuborish

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali o'tayotgan transport vositasini bojxona organi tomonidan belgilanadigan joyda to'xtatmaslik, shuningdek bojxona nazorati ostida turgan transport vositasini to'xtat turish joyidan bojxona organining ruxsatisiz jo'natib yuborish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona nazorati ostida turgan kema va boshqa suzuvchi vositalar yoniga kelib to'xtash

Kemalar va boshqa suzuvchi vositalarning bojxona nazorati ostida turgan kema va boshqa suzuvchi vositalar yoniga bojxona organining ruxsatisiz kelib to'xtashi, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining bir baravaridan uch baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibini buzish

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish tartibini buzish, ya'ni bojxona rasmiylashtiruvini boshlash va tugallash, uni o'tkazish joyi, vaqti va taomili to'g'risidagi belgilangan talablarga rioya etmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona rasmiylashtiruv tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan g'ayriqonuniy operatsiyalar, shuningdek bojxona organining ruxsatisiz yuk operatsiyalari va boshqa operatsiyalar o'tkazish

Bojxona rasmiylashtiruv tugallanmagan tovarlar va transport vositalari bilan operatsiyalar o'tkazish, belgilangan talablar va shartlarni buzib, ularning holatini o'zgartirish, ulardan foydalanish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona nazorati ostida turgan tovarlar va transport vositalarini bojxona organining ruxsatisiz transportda tashish, ortish, tushirish, qayta ortish, buzilgan o'rovni tuzatish, o'rash, qayta o'rash yoki tashish uchun qabul qilish, shunday tovarlardan namunalar va nusxalar olish, mazkur tovarlar va transport vositalari turishi mumkin bo'lgan binolar va boshqa joylarni ochish —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona rasmiylashtiruvı tugallanmagan tovarlar va transport vositalarını tasarruf etish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

fuqarolarga eng kam ish haqining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona identifikatsiyalash vositalarını o'zgartirish, yo'q qilish, shikastlash yoki yo'qotish

Bojxona identifikatsiyalash vositalarını o'zgartirish, yo'q qilish, shikastlash yoki yo'qotish, shuningdek bojxona nazorati ostida turgan transport vositalarining yukxonasını, yuklangan tovarlarnı qonunga xilof ravishda ochish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravaridan yigirma baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddı shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorası qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga eng kam ish haqining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlar va transport vositalarını deklaratsiyalash tartibını buzish

Tovarlar va transport vositalarını deklaratsiyalash tartibını buzish, ya'ni deklaratsiyalash shakli, joyi va uni amalga oshirish taomili haqidagi belgilangan

talablarga rioya etmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona organiga tovarlar va transport vositalari uchun bojxona deklaratsiyasini, xuddi shuningdek hujjatlar va qo'shimcha ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etish,

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona organi mansabdor shaxsining bojxona nazoratini o'tkazish uchun hudud va binoga kirishiga to'sqinlik qilish

Bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozim bo'lgan tovarlar va transport vositalari, bunday nazoratni o'tkazish uchun kerakli hujjatlar mavjud bo'lgan yoki nazorat etish bojxona organlari zimmasiga yuklangan faoliyat amalga oshirilayotgan hudud yoxud binoga bojxona organi mansabdor shaxsining kirishiga to'sqinlik qilish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona organiga hisobotlarni taqdim etmaslik va hisob-kitob yuritish

tartibiga rioya qilmaslik

Bojxona nazorati ostida yoxud erkin bojxona zonalarida va erkin omborlar hududida bo'lib, olib kirilayotgan, olib chiqilayotgan, kelib tushayotgan, saqlanayotgan, qayta ishlamayotgan, tayyorlanayotgan, sotib olinayotgan va sotilayotgan tovarlar haqida belgilangan tartibda bojxona organiga zarur hisobotlarni taqdim etmaslik, xuddi shuningdek bunday tovarlar hisob-kitobini yuritish tartibiga rioya etmaslik, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni saqlash uchun qo'yish, ularni saqlash va ular bilan operatsiyalar o'tkazish tartibini buzish

Ushbu Kodeksning 227⁴, 227⁸, 227⁹ va 227¹¹-moddalarida nazarda tutilgan hollardan tashqari, tovarlarni saqlash uchun qo'yishning belgilangan talablari va shartlariga, ularni saqlash, xuddi shuningdek bojxona omborlarida va erkin omborlarda tovarlar bilan operatsiyalar o'tkazish tartibiga va muddatlariga rioya etmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni qayta ishlash tartibini buzish

Tovarlarni qayta ishlash tartibini buzish, ya'ni tovarlarni qayta ishlashda belgilangan talablarga, cheklashlar va shartlarga, shu jumladan qayta ishlash muddatlari, qayta ishlash mahsulotlarining chiqish miqdori, tovarlarni qayta ishlash bo'yicha operatsiyalar o'tkazish tartibi to'g'risidagi talablar, cheklashlar va shartlarga rioya etmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qayta ishlash mahsulotlarini boshqa tovarlarga almashtirib qo'yish —

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning uchinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzartikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish —

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda ishlab chiqarish, tijorat hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini buzish

Erkin bojxona zonalari va erkin omborlarda ishlab chiqarish, tijorat hamda boshqa faoliyatni amalga oshirish tartibini buzish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqmaslik yoki ularni ushbu hududga qaytarib olib kirmaslik

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga ilgari olib kirilgan tovarlar va transport vositalarini bojxona hududidan tashqariga belgilangan muddatlarda olib chiqmaslik, agar ularni qaytarib olib chiqish shart bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ilgari olib kirilgan tovarlar va transport vositalarini olib chiqmaganlik uchun ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin o'ttiz kun ichida ularni O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga olib chiqmaslik, agar bunday olib chiqish shart bo'lsa, —

tovarlarni va transport vositalarini musodara qilishga sabab bo'ladi.

Ilgari olib chiqib ketilgan tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga belgilangan muddatlarda qaytarib olib kirmaslik, agar bunday qaytarib olib kirish shart bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Ushbu moddaning to'rtinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etish —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga ilgari olib kirilgan transport vositasini O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tashqariga belgilangan muddatda olib chiqmagan shaxs qonunchilikda belgilangan yig'imni o'z ixtiyori bilan bir ish kuni ichida to'lagan taqdirda, javobgarlikdan ozod etiladi.

Tovarlarni yo'q qilish tartibini buzish

Tovarlarni yo'q qilish tartibini buzish, ya'ni tovarlarni yo'q qilishning, ularni yo'q qilish natijasida hosil bo'lgan chiqindilarni tegishli bojxona rejimiga joylashtirishning belgilangan talablari, cheklashlari va shartlariga rioya etmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzartik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar va transport vositalari bilan g'ayriqonuniy operatsiyalarni amalga oshirganlik

Tovarlar va transport vositalari bilan g'ayriqonuniy operatsiyalarni amalga oshirish, ularning holatini o'zgartirish, ulardan bojxona rejimiga nomuvofiq tarzda foydalanish, xuddi shuningdek O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollardan tashqari, bojxona rejimining boshqa talablari, cheklashlari va shartlariga rioya qilmaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh

baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Muayyan bojxona rejimiga joylashtirilgan tovarlar va transport vositalarini ushbu bojxona rejimi talablariga muvofiq bo'lmagan tarzda tasarruf etish, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

fuqarolarga eng kam ish haqining yigirma baravaridan o'ttiz baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'ttiz baravaridan ellik baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishda iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklavlarni qo'llanish tartibiga rioya qilmaslik

Iqtisodiy siyosat choralari va boshqa cheklovlar qo'llaniladigan tovarlarni ana shu choralar va cheklavlarni qo'llanishning belgilangan tartibini buzgan holda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tish, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollardan tashqari, —

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga eng kam ish haqining o'n baravaridan

o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar musodara qilinib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — o'n besh baravaridan o'ttiz baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tijorat maqsadlari uchun mo'ljallanmagan tovarlar niqobi ostida O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish

Ushbu Kodeks 227²⁵-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollardan tashqari, O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali aslida ishlab chiqarish yoki tijorat faoliyati uchun mo'ljallangan tovarlarni tijorat maqsadlari uchun mo'ljallanmagan tovarlar niqobi ostida olib o'tish, —

tovarlarni musodara qilib, eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasi qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilgan bo'lsa, —

tovarlarni musodara qilib, bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlarni musodara qilib, eng kam ish haqining o'n baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlar va transport vositalarini belgilangan tartibni buzgan holda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tish

Tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali bojxona nazoratini chetlab, ya'ni bojxona organlari tomonidan belgilangan joylarni chetlab yoki bojxona rasmiylashtiruvining belgilangan vaqtidan tashqari paytda olib o'tish, —

tovarlar va transport vositalarini musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar va transport vositalarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarni bojxona nazoratidan yashirish, ya'ni xufyadonlardan yoki tovarlarni topishni qiyinlashtiradigan boshqa usullardan foydalanish yoxud bir tovarni boshqa tovarga o'xshash qilib qo'yish, —

tovarlarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Hujjatlardan yoki bojxona identifikatsiyalash vositalaridan aldov yo'li bilan foydalangan holda O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish, bundan ushbu Kodeksning 227²²-moddasida va 227²⁵-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollar mustasno, —

tovarlarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Tovarlarni deklaratsiyalamaslik yoki noto'g'ri deklaratsiyalash

O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlarni deklaratsiyalamaslik yoki noto'g'ri deklaratsiyalash, ya'ni tovarlar, ularning bojxona rejimi va boshqalar haqida bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan belgilangan yozma, og'zaki yoki boshqa shakldagi ma'lumotlarni bermaslik yoxud noto'g'ri ma'lumotlar berish, ushbu Kodeksning 227⁷, 227¹⁰, 227¹⁹, 227²⁰,

227²¹-moddalarida va 227²⁵-moddasining birinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, —

tovarlarni musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlarni musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatish, bu ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tish, ularni talab etilayotgan bojxona rejimiga joylashtirish, bojxona to'lovlari miqdori to'g'risida bojxona organi tomonidan qaror qabul qilinishiga ta'sir etmagan bo'lsa, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga bojxona qoidalarini buzgan holda olib kirilgan tovarlar va transport vositalarini tashish, saqlash, sotib olish, ulardan foydalanish yoki ularni tasarruf etish

O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga bojxona nazoratini chetlatib o'tib yoxud bojxona nazoratidan yashirib yoxud hujjatlar yoki bojxona identifikatsiyalash vositalaridan aldov yo'li bilan foydalanib olib kirilgan yoxud deklaratsiyalanmagan yoki noto'g'ri deklaratsiyalangan holda olib kirilgan tovarlar va transport vositalarini tashish, saqlash, sotib olish, shuningdek ushbu tovarlar va transport vositalaridan foydalanish yoki ularni tasarruf etish, xuddi shuningdek boj to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilgan, bunday imtiyozlar berilishiga sabab bo'lganidan boshqa maqsadlarda foydalanilayotgan yoxud tasarrufdan chiqarilayotgan tovarlar va transport vositalarini bojxona organining ruxsatini tashish, saqlash va sotib olish, —

tovarlar va transport vositalarini musodara qilib, fuqarolarga eng kam ish haqining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti

baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

tovarlar va transport vositalarini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilgan, shartli ravishda chiqarilgan tovarlar va transport vositalaridan foydalanish hamda ularni tasarruf etish tartibini buzish

Bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlar berilgan, shartli ravishda chiqarilgan tovarlar va transport vositalaridan imtiyozlar berilishiga sabab bo'lganidan boshqa maqsadlarda foydalanish va ularni tasarruf etish, O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona to'lovlaridan g'ayriqonuniy ozod qilishga, ularni kamaytirishga, to'langan bojxona to'lovlarini qaytarib olish, to'lovlar va boshqa haqni olishga yoxud yetarli asoslarsiz ularni qaytarmaslikka qaratilgan xatti-harakatlar

Bojxona deklaratsiyasi va boshqa hujjatlarda bojxona to'lovlaridan ozod qilish yoki ularning miqdorini kamaytirish uchun asos bo'ladigan noto'g'ri ma'lumotlarni ko'rsatish, ushbu Kodeksning 227²⁰-moddasi va 227²¹-moddasi uchinchi qismida nazarda tutilgan hollar bundan mustasno, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

To'langan bojxona to'lovlarini qaytarib olish, to'lovlarni va boshqa haqni olish huquqini beradigan noto'g'ri ma'lumotlardan iborat hujjatlarni bojxona organiga taqdim etish yoki yetarli asoslarsiz ularni qaytarmaslik yoxud bu to'lovlarni va boshqa haqni to'liq bo'lmagan hajmda qaytarganlik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n

baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — yetti baravaridan o'n besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona to'lovlarini to'lash muddatlarini buzish

Bojxona to'lovlarini belgilangan muddatlarda to'lamaslik, —

fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan yetti baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa — besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Bojxona brokeri yoki bojxona tashuvchisi sifatidagi faoliyat shartlarini buzish

Bojxona brokeri yoki bojxona tashuvchisi sifatidagi faoliyat shartlarini buzish, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining besh baravaridan o'n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo chorasini qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takror sodir etilgan bo'lsa, —

mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi"²¹.

Mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar:




1. Bojxona organlarining vakolatlariga qanday jinoyatlarga kiradi ?

2. Kontrabanda tushunchasiga ta'rif bering?

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksining 246- va 182-moddalariga asoslanib qanday jazolar qo'llaniladi ?

4. Yuqoridagi mazkur jinoyatlarning ob'yekti deganda nimani tushunasiz ?



5. Soliqlar, to'lovlar, bojlar va boshqa to'lovlarga tushuncha bering?

6. Bojxona haqidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun qanday jazolar qo'llanishi mumkin ?

7. Bojxona kodeksining nechanchi moddasi 2 va 3-bandlarida nazarda tutilgan

²¹ <https://lex.uz/docs/-97664>

jazolar esa, ham asosiy, ham qo'shimcha jazo sifatida qo'llanilishi mumkin?

8. Qaysi rejim amal qilayotgan xudda Bojxona Kodeksida belgilangan tartibni buzgan xolda binolar, imoratlar va inshootlar barpo etish?

9. Qayerlarda ishlab chiqarish va boshqa tijorat faoliyatini amalga oshirish tartibini buzish litsenziyani chaqirib olib yoki chaqirib olmay eng kam ish haqining 20 baravaridan 50 baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi?

10. Litsenziyani chaqirib olib yoki chaqirib olmay, eng kam ish haqining necha baravaridan necha baravarigacha jarima solishga sabab bo'ladi?

TESTLAR

1. «Davlat Bojxona Xizmati to'g'risida» qonuning yangi tahriri qachon qabul qilingan?
 - A. 2018-yil 18-oktabr
 - B. 1997-yil 29-avgust
 - C. 1997-yil 8-iyul
 - D. 2018-yil 20-yanvar
2. O'zbekistonda birinchi bojxona nechanchi yilda tashkil etilgan?
 - A. 1893-yil
 - B. 1958-yil
 - C. 1970-yil
 - D. 1991-yil
3. O'zbekiston Respublikasi "Davlat Bojxona Qo'mitasi"ni tashkil etish to'g'risidagi farmon qachon qabul qilingan?
 - A. 1997-yil 8-iyul
 - B. 1994-yil 18-noyabr
 - C. 1997-yil 29-avgust
 - D. 1997-yil 26-dekabr
4. Dastlabki O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi qachon qabul qilingan?
 - A. 2016-yil 20-yanvar
 - B. 2016-yil 18-noyabr
 - C. 2015-yil 29-avgust
 - D. 2015-yil 8-iyul
5. «Davlat Bojxona Xizmati to'g'risida» qonunining yangi tahririda nechta bob va modda mavjud?
 - A. 6 ta bob, 37 ta modda
 - B. 26 ta bob, 128 ta modda
 - C. 8 ta bob, 62 ta modda
 - D. 14 ta bob, 98 ta modda
6. Respublika bojxona organlarini shakllanishi nechta bosqichni o'z ichiga oladi?
 - A. 3ta bosqichni
 - B. 2ta bosqichni
 - C. 4ta bosqichni
 - D. 5ta bosqichni
7. Bojxona organlarining shakllanishidagi 2-bosqich nechanchi yillarni o'z ichiga oladi?
 - A. 1994-1999 yillar

- B. 1991-1993 yillar
- C. 1993-1997 yilla
- D. 1997-2005 yillar

8. Bojxona organlari kim yoki qaysi tashkilot tomonidan tashkil etiladi va tugatiladi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- C. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi

9. Bojxona organlarining tashkiliy-shtat tuzilmasi va cheklangan shtatlar soni kim yoki qaysi tashkilot tomonidan tasdiqlanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
- B. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
- C. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi raisi
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi

10. Kompetensiya so'zi qaysi tildan olingan?

- A. Lotin tilidan
- B. Rus tilidan
- C. Ingiliz tilidan
- D. Fransuz tilidan

11. Tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv olib borish va tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish bojxona organlarining... kiradi?

- A. Huquqlariga
- B. Majburiyatlariga
- C. Xavfni baholashga
- D. Xavfni boshqarishga

12. Bojxona tizimini yanada rivojlantirish va isloh qilishning nechta ustuvor yo'nalishi mavjud?

- A. 7 ta
- B. 6 ta
- C. 5 ta
- D. 8 ta

13. Bojxona organlari

- A. bevosita bojxona ishini amalga oshiradigan ijro etuvchi xokimiyatning huquqini muhofaza qilish organidir
- B. Davlatning bojxona siyosati amalga oshirilishini ta'minlovchi davlat tuzilmalari va boshqa tuzilmalarnigina emas, balki ular faoliyatining amaliy shakllarini ham nazarda tutuvchi eng umumiy va jamlovchi tushunchadir

- C. Tovarlarini olib o'tuvchi, tovarlar va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki Tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri
- D. Tashkilot va jismoniy shaxslardan yig'ib olinuvchi davlat yoki mahalliy boshqaruv faoliyatini ta'minlovchi davlat organi

14. ...qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalarga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmui

- A. Bojxona nazorati
- B. Bojxona rejimi
- C. Bojxona rasmiylashtiruvi
- D. Bojxona ta'minlovi

15. ...tovarlar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui

- A. Bojxona rasmiylashtiruvi
- B. Bojxona nazorati
- C. Bojxona rejimi
- D. Iqtisodiy siyosat choralari

16. O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, boj to'lovlarini undirish, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shartlaridan hamda bojxona siyosatini amalga oshirishning boshqa vositalaridan iborat tushuncha nima deb ataladi?

- A. Bojxona ishi
- B. Bojxona rejimi
- C. Bojxona tizimi
- D. Bojxona nazorati

17. Bojxona organlari qonun xujjatlariga muvofiq o'z faoliyatini davlat xokimiyati mahalliy organlari bilan qanday holda amalga oshiradilar?

- A. Ulardan mustaqil tarzda
- B. Ularga bo'ysungan holda
- C. Ular bilan birgalikda
- D. Ulardan yuqori holda

18. 2018-yil 12-aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3665-son Qarori qanday nomlanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida
- B. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida

- C. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlar to'g'risida
- D. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini rivojlantirish to'g'risida

19. Amaldagi Davlat Bojxona Qo'mitasi raisini aniqlang.

- A. Mavlonov Akmalxuja Yusupovich
- B. Azimov Murodjon Berdialiyeovich
- C. Aripov Jasur Alimovich
- D. Asamov Anvar Damirovich

20. Qaysi sana O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati xodimlarining kuni etib belgilangan?

- A. 26-yanvar
- B. 26-dekabr
- C. 26-fevral
- D. 26-mart

21. Bojxona xizmatining polkovnigi bojxona organlari mansabdor shaxslarining lavozimlaridan qaysi ofitserlar tarkibiga kiradi?

- A. Katta
- B. Yuqori
- C. Oliy
- D. O'rta

22. Bojxona xizmatining kapitani bojxona organlari mansabdor shaxslarining lavozimlaridan qaysi ofitserlar tarkibiga kiradi?

- A. Kichik
- B. O'rta
- C. Katta
- D. Oliy

23. "O'zbekiston Respublikasi bojxona organlarining intizomiy ustavi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaysi qarori bilan va qachon tasdiqlangan?

- A. 2018 yil 12 apreldagi PQ-3665
- B. 2018 yil 26 martdagi PQ-3995
- C. 2018 yil 28 martdagi PQ-3665
- D. 2018 yil 29 martdagi PQ-3512

24. O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari faoliyatiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish va rivojlantirish bo'yicha «Yo'l xaritasi» qaysi hujjat bilan tasdiqlangan?

- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi PQ-3665-son qarori

- B. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2-noyabrdagi PQ-3995-son qarori
- C. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5-noyabrdagi PQ-3996-son qarori
- D. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 15-apreldagi PQ-3663-son qarori

25. Bojxona organlarining nechta asosiy vazifalari mavjud.

- A. 12 ta
- B. 11 ta
- C. 8 ta
- D. 17 ta

26. Bojxona organlarining nechta asosiy majburiyatlari mavjud.

- A. 8 ta
- B. 7 ta
- C. 5 ta
- D. 6 ta

27. Bojxona siyosatini tashkil etuvchi nechta iqtisodiy asoslar mavjud?

- A. 4 ta
- B. 5 ta
- C. 6 ta
- D. 3 ta

28. Bojxona siyosatining asosiy ko'rinishlari qaysilar?

- A. Qisman cheklash, Fritrederlik, Tanqis bozorni to'ldirish, Proteksionizm
- B. To'liq cheklash, Proteksionizm, Bozorni to'ldirish, Erkin ochiq savdo
- C. Qisman cheklash, Fritrederlik, Tanqis bozorni to'ldirish, Erkin ochiq savdo
- D. Qisman cheklash, Proteksionizm, Bozorni to'ldirish, Ochiq savdo

29. Milliy bozorni himoya qilish bo'yicha qarorlar ko'p tomonlama maslahatlashuvlardan keyin qabul qilinishi kerak. Bu O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatining asosiy prinsiplarining qaysi biriga to'g'ri keladi?

- A. Bir tomonlama xarakatlarning qabul qilinmasligi prinsipi
- B. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olish prinsipi
- C. O'z milliy davlat manfaatlarini yuqoriligi sharoitida o'zaro manfaatlar va savdo yengilliklarini har tomonlama hisobga olish prinsipi
- D. Ikki tomonlama va ko'p tomonlama aloqalar o'rnatilishi va rivojlanishi prinsipi

30. Bojxona ishi sohasida fuqarolarning, xo'jalik sub'ektlarining huquqlari himoya qilinishi ta'minlash. Bu O'zbekistonning tashqi va ichki siyosatining asosiy prinsiplarining qaysi biriga to'g'ri keladi?

- A. Demokratizm prinsipi

- B. Bir tomonlama xarakatlarning qabul qilinmasligi prinsipi
- C. Kamsitmaslik prinsipi
- D. O'z milliy davlat manfaatlarini yuqoriligi sharoitida o'zaro manfaatlar va savdo yengilliklarini har tomonlama hisobga olish prinsipi

31. Quydagilardan qaysi biri bojxona siyosatining asosiy vazifalariga kirmaydi?

- A. Bozor ishlashi uchun sharoitlarni qisman cheklash Chet davlatlari va ularning ittifoqdoshlarini kamsitish aksiyalariga qarshi harakat
- B. Davlatning siyosiy savdo tizimlarini mustahkamlash
- C. Chet davlatlari va ularning ittifoqdoshlarini kamsitish aksiyalariga qarshi harakat
- D. Milliy iqtisodiyot tarkibini qayta qurishga yordamlashish

32. Milliy bozor nihoyatda taqchil bo'lgan taqdirdagina siyosatini qo'llash samarali bo'ladi. Nuqtalar o'rniga mos so'zni qo'ying.

- A. Tanqis bozorni to'ldirish
- B. Qisman cheklash
- C. Proteksionizm
- D. Erkin savdo

33. Qisman cheklash siyosati nima maqsadda qo'llaniladi?

- A. Milliy bozorni chet el tovarlaridan himoyalash maqsadida
- B. Milliy bozorni raqobatchilarda himoyalash maqsadida
- C. Milliy bozorni chet el korxonalaridan himoyalash maqsadida
- D. Tashqi bozorni to'ldirish maqsadida

34. "Barcha joylarda turlicha bojxona siyosati o'tkazilishidan voz kechishni, O'zbekiston Respublikasining butun bojxona hududiga yagona bojxona siyosati tatbiq etilishi" bu ...

- A. O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan bojxona siyosati yagonaligi prinsipi
- B. Xalqaro huquq normalarining ichki davlat normalariga qaraganda ustunligini tan olish prinsipi
- C. O'z milliy davlat manfaatlarini yuqoriligi sharoitida o'zaro manfaatlar va savdo yengilliklarini har tomonlama hisobga olish prinsipi
- D. Demokratizm prinsipi

35. Bojxona organlari nima maqsadda tashkil topgan?

- A. O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.
- B. O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.
- C. O'zbekiston Respublikasining bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy- madaniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi.

D. O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va O'zbekiston manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi

36. Tanqis bozorni to'ldirish siyosati mamlakatimizda qachon qo'llanildi?

- A. 80-yillar oxiri 90-yillar boshlarida
- B. 2000-yillar boshida
- C. 1996-1999 yillar oralig'ida
- D. Bunday siyosat qo'llanilmagan

37. "Fuqarolarning bojxona sohasidagi huquqiy madaniyatini yuksaltirish" quyidagilardan qaysi biriga taalluqli.

- A. Bojxona organlarining vazifalari
- B. Bojxona organlarining huquqlari
- C. Bojxona organlarining majburiyatlari
- D. Bojxona organlarining tamoyili

38. Qaysi rejimda O'zbekiston tovari uni qaytarib olib kirish majburiyatlarz bojxona xududidan tashqariga olib chiqiladi?

- A. Eksport
- B. Reeksport
- C. Reimport
- D. Vaqtincha saqlash

39. Eksport bojxona rejimiga nisbatan bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'ladigan hujjatlarni ro'yhati kim tomonidan belgilanadi?

- A. Vazirlar Maxkamasi
- B. Prezident
- C. Vakolatli shaxs
- D. Bosh vazir

40. Bojxona rejimi

- A. Bojxona chegarasi orqali olib otiladigan tovarlarning va transport vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui
- B. Bojxona maqsadlari uchun amalga oshiriladigan boxona operatsiyalarini majmui
- C. Avtotransport vositalarining bojxona orginlari tomonidan bojxona nazorati

41. Bojxona rejimlari turlari nechta?

- A. 16 ta
- B. 18 ta
- C. 12 ta
- D. 15 ta

42. Bojxona tranziti bojxona rejimi talablari va rioya tilishi uchun kim javobgar?

- A. Tashuvchi javobgar
 - B. Mansabdor shaxs
 - C. Bojxona rejimiga joylashtirgan shaxs
 - D. Ombor egasi
- 43. Agar tovar bojxona omborida turgan bo'lsa kim javobgar?**
- A. Bojxona ombori egasi
 - B. Erkin ombor egasi
 - C. Javobgar bolmaydi
 - D. Tovar egasi
- 44. Tovarni bojxona xududidan tashqarida qayta ishlash ruxsotnomasi ... muddatga beriladi**
- A. 2 yil
 - B. 1 yil
 - C. 3 yil
 - D. 5 yil
- 45. Bojxona hududiga olib kirilgan tovarlar ularni ushbu hududdan olib chiqib ketish majburiyatisiz bu yerda doimiy qoladi. Bu ta'rif qaysi rejimga berilgan?**
- A. Erkin muomalaga chiqarish
 - B. Eksport
 - C. Tranzit
 - D. Import
- 46. Qaysi rejimda tovarlar O'zbekiston Respublikasining ikki bojxona organi o'rtasida,shu jumladan chet el davlat xududi orqali boj,soliqlar undirilmasdan bojxona nazorati ostida olib o'tiladi?**
- A. Tranzit
 - B. Vaqtincha olib kirish
 - C. Vaqtincha saqlash
 - D. Bojxona xududida qayta ishlash
- 47. Tovarlar vaqtincha saqlash rejimida uzog'i bilan qancha muddat turadi?**
- A. 60 kalendar kun
 - B. 6 oy
 - C. 2 oy
 - D. 1 yil
- 48. O'zbekiston Respublikasida tovarlarni qayta ishlash muddati qancha?**
- A. 2 yil
 - B. 6 oy
 - C. 1 yil
 - D. 9 oy

49. ...O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidan iborat. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni toping?

- A. Bojxona nazorati
- B. Bojxona rejimi
- C. Bojxona tizimi
- D. Bojxona ta'rifi

50. Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran necha yil davomida saqlanadi?

- A. 3 yil
- B. 4 yil
- C. 5 yil
- D. 2 yil

51. Yashil yo'lak-...?

- A. bunda xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi
- B. bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.
- C. bunda bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;
- D. bunda bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.

52. Sariq yo'lak-...?

- A. bunda bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;
- B. bunda xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi
- C. bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

D. bunda bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.

53. Ko'k yo'lak-...?

A. bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

B. bunda bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;

C. bunda xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi

D. bunda bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.

54. Qizil yo'lak-...?

A. bunda bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.

B. bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

C. bunda bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;

D. bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.

55. ...bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo'nalishlari uchun ochiq bo'lgan transit zonasida bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan o'tkaziladi.

A. Shaxsiy ko'rig

B. Bojxona ko'rigi

C. Og'zaki so'rov

D. Bojxona kuzatuv

56. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 27.12.2017 dagi ... sonli qaroriga asosan bojxona nazoratiga o'zgartirishlar kiritildi.

A. PQ-3454

B. PQ-3304

C. PQ-5504

D. PQ-2994

57. Sariq va qizil yo'laklar qaysi sanadan boshlab ishga tushirildi?

- A. 2018-yil 1-dekabrda
- B. 2018-yil 1-yanvardan
- C. 2019-yil 1-yanvardan
- D. 2019-yil 1-martdan

58. Yashil va ko'k yo'laklar qaysi sanadan boshlab ishga tushiriladi?

- A. 2019-yil 1-martdan
- B. 2018-yil 1-dekabrda
- C. 2018-yil 1-sentabrda
- D. 2019-yil 1-yanvardan

59. ...oldindan belgilangan ko'rsatkichlarga ega muayyan mezonlar bo'lib, ulardan og'ish yoki ularga mos kelish nazorat ob'ektini tanlashni amalga oshirish imkonini beradi.

- A. xavf indikatorlari
- B. potentsial xavf
- C. xavf profili
- D. xavf sohasi

60. ...-xavf tahlilining ayrim guruhlariga bo'lingan ob'ektlari bo'lib, ularga nisbatan bojxona nazoratining alohida shakllari yoki majmui qo'llanilishi, shuningdek ularning samaradorligini oshirish talab etiladi.

- A. xavf sohasi
- B. xavf profili
- C. xavfni baholash
- D. xavf tahlili

61. ...-xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo'llanilish samaradorligini baholash, shuningdek bojxona operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotning uzlukals yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlar.

- A. xavfni boshqarish
- B. xavf tahlili
- C. xavf profili
- D. xavf indikatorlari

62. Qaysi biri bojxona hodimlar tarkibiy tuzilmasiga kirmaydi?

- A. Bojxona deklaratsiyalarini tekshirish guruhi
- B. Bojxona to'lovlar guruhi
- C. Ekspert

D. Bojxona statistikasi va tahlil guruhi

63. ...-xavfning yuzaga kelishi ehtimolini va u yuzaga kelganda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarining buzilishi oqibatlarini muntazam ravishda aniqlab boorish.

- A. xavfni baholash
- B. xavfni boshqarish
- C. xavf profili
- D. xavf indikatorlari

64. Tovar va transport vositalari bojxona rasmiylashtiruvı nechta bosqichda amalga oshiriladi?

- A. 7-bosqich
- B. 5-bosqich
- C. 8-bosqich
- D. 9-bosqich

65. Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa hujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yo'qotgan yildan keyingi yildan e'tiboran necha yil davomida saqlanadi?

- A. 3 yil
- B. 4 yil
- C. 5 yil
- D. 2 yil

66. Naqd xorijiy valyutani qancha miqdorda O'zbekiston Respublikasiga olib kirish mumkin?

- A. Cheklanmagan miqdorda
- B. 2000 \$
- C. 4000 \$
- D. 5000 \$

67. Tovarlar va transport vositalari muayyan bojxona rejimiga joylashtirilguniga qadar qanday deklaratsiya qo'llanilishi mumkin.

- A. Qisqa deklaratsiya
- B. Maxfiy deklaratsiya
- C. Qo'llanilmaydi
- D. Oddiy deklaratsiya

68. Tayin qilingan joyga bojxona organining ish vaqtidan tashqari paytda keltirilgan tovarlar va transport vositalari qayerga joylashtiriladi?

- A. Bojxona nazorati zonasida joylashtiriladi
- B. Bojxona omboriga joylashtiriladi
- C. Bojxona postiga joylashtiriladi

D. Xech qayerga joylashtirilmaydi

69. Erkin bojxona zonolari va erkin omborlarga olib kirilayotgan, shuningdek ularning hududidan olib chiqilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi qanday tartibda amalga oshirilishi mumkin?

- A. Soddalashtirilgan tartibda
- B. Maxfiy tartibda
- C. Murakkablashgan tartibda
- D. Oddiy tartibda

70. Tovarlar ko'rsatilganidan keyin tovarlarga nisbatan vakolatlarga ega bo'lgan shaxslar tovarlarni bojxona rejimiga joylashtirish maqsadida kimning ruxsati bilan ulardan namunalar va nusxalar olishlari mumkin?

- A. Bojxona organining
- B. Bojxona posti boshlig'ining
- C. Bojxona qo'mitasi raisining
- D. Navbatchi boshliq

71. Bojxona deklaratsiyasi hamda bojxona nazoratini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa xujjatlar tovarlar bojxona nazorati ostida turgan tovar maqomini yuqotgan keying yildan e'tiboran necha yil davomida saqlanadi

- A. 3 yil
- B. 5 yil
- C. 1 yil
- D. 6 oy

72. Bojxona deklaratsiyasini o'zgartirish yoki to'ldirish uning amal qilish doirasini kengaytirishi yoki toraytirishi mumkinmi?

- A. Mumkin emas
- B. Mumkin
- C. Ba'zi hollarda mumkin emas
- D. Ba'zi hollarda mumkin

73. Bojxona deklaratsiyasi bojxona organlari tomonidan belgilangan muddatlarda topshiriladi. Bu muddatlar tovarlar va transport vositalari ko'rsatilgan kundan e'tiboran necha kundan oshmasligi lozim.

- A. 15 kalendar kun
- B. 30 kalendar kun
- C. 10 kalendar kun
- D. 3 kalendar kun

74. Bojxona hududiga kirib kelayotgan transport vositalari O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasini kesib o'tganidan keyin ko'pi bilan necha soatda deklaratsiyalanadi?

- A. 3 soat

- B. 1 soat
- C. 2 soat
- D. 4 soat

75. Bojxona hududidan chiqib ketayotgan transport vositalari esa O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasini kesib o'tishiga ko'pi bilan necha soat qolganida deklaratsiyalanadi

- A. 3 soat qolganida
- B. 1 soat qolganida
- C. 2 soat qolganida
- D. 4 soat qolganida

76. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishi mumkinmi?

- A. Mumkin emas
- B. Mumkin
- C. Ba'zi hollarda mumkin
- D. Ba'zi hollarda mumkin emas

77. Tovar nomenklaturasi qaysi organ tomonidan belgilanadi?

- A. Vazirlar Mahkamasi tomonidan
- B. Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan
- C. Bojxona qo'mitasi tomonidan
- D. Bojxona mansabdor shaxsi tomonidan

78. O'zbekiston Respublikasida boj stavkalarining nechta turlari mavjud?

- A. 3 ta
- B. 4 ta
- C. 6 ta
- D. 5 ta

79. Boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan stavkalar nima deyiladi?

- A. Advalor stavkalar
- B. Xos stavkalar
- C. Aralash stavkalar
- D. Belgilangan stavkalar

80. O'xshash yoki bevosita raqobat qiluvchi tovarlar bojxona hududiga O'zbekiston Respublikasidagi tovar ishlab chiqaruvchilarga ziyon yetkazadigan yoki ziyon yetkazishi mumkin bo'lgan miqdorda va shartlarda olib kirilayotganda bo'lsa qanday boj turi qo'llaniladi?

- A. Maxsus bojlar
- B. Mavsumiy bojlar
- C. Alohida bojlar

D. Xalqaro shartnomalar asosida

81. Boj to'lovlari qaysi organ byudjetiga tushadi?

- A. Davlat byudjetiga
- B. Bojxona qo'mitasi byudjetiga
- C. Soliq qo'mitasi byudjetiga
- D. MXX byudjetiga

82. O'zbekiston Respublikasida Bojxona to'lovlarining turlari nechta?

- A. 4 ta
- B. 5 ta
- C. 7 ta
- D. 9 ta

83. Bojxona chegarasi orqali oib o'tiladigan tovarlarga nisbatan qonun hujjatlarga muvofiq qanday to'lovlar to'lanadi?

- A. Boj, qo'shilgan qiymat solig'i, aktsiz solig'i
- B. Boj, rasmiylashtiruv to'lovi
- C. Boj, yagona solig' stavkasi, tovarning 10%ni
- D. Boj, tovarning 15%ni, eng kam ish xaqining 5 barovarini

84. Boj tarifi nima?

- A. Tovarlarga nisbatan qo'llaniladi boj stavkalarining to'plami
- B. Bojxona mansabdor shaxslariga beiladigan sovg'alar
- C. Bojxona rejimlarining asosiy qismi
- D. Bojxona mansabdor shaxsiga nisbatan beriladigan jarima

85. Tarif perefentsiyasi nima bildiradi?

- A. O'zbekiston Resibulikasi Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovarlar uchun boj to'lovlari bo'yicha imtiyozlar
- B. O'zbekiston Resibulikasi Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan bazi tovarlar uchun taqiqlashlar
- C. O'zbekiston Resibulikasi Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan Tovar va transport vositalariga nisbatan rasmiylashtiruv
- D. Bojxona mansabdor shaxsining maxsus to'lovlar bo'yicha qarorlari

86. Bojxona to'lovlari kim tomonidan to'lanadi?

- A. Deklarant
- B. Bojxona mansabdor shaxsi
- C. Advokat
- D. Markaziy bank

87. Bojxona to'lovlarini to'lashdan bo'yin tovlayotgan shaxslarga qanday imkoniyatlar beriladi?

- A. Bojxona to'lovlarini kechiktirib yoki bo'lib-bo'lib to'lash

- B. Bunday xollarda imkoniyat berilmaydi
 - C. Tovarlarni o'z narxidan pasaytirib sotish
 - D. Bojxona kuzatuv
- 88. Bojxona to'lovlarini to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash bojxona deklaratsiyasi qabul qilingan kundan boshlab qancha muddatdan oshmasligi lozim?**
- A. 2 oy
 - B. 1 oy
 - C. 4 oy
 - D. 20 kun
- 89. Bojxona bojlarining va soliqlarning stavkalari kim tomonidan belgilanadi?**
- A. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
 - B. Vazirlar Mahkamasi
 - C. Davlat Bojxona Qo'mitasi
 - D. Oliy Majlis
- 90. Bojxona to'lovlari qaytarilganda ular uchun foizlar to'lanadimi?**
- A. to'lanmaydi
 - B. 12% to'lanadi
 - C. 6% to'lanadi
 - D. 2% to'lanadi
- 91. Ortiqcha to'langan yoki undirilgan bojxona to'lovlarining summalari qancha muddat ichida qaytarib olinishi mumkin?**
- A. 1 yil
 - B. 6 oy
 - C. 9 oy
 - D. Qaytarib berilmaydi
- 92. Import boji, aktsiz solig'i va boshqa tegishli bojxona yeg'imlarini hisoblashda qanday qiymat asos qilib olinadi?**
- A. Bojxona qiymati
 - B. O'zbekiston xududidagi bozor qiymati
 - C. Jahon bozori qiymati
 - D. Hamma tovarlarga bir xil qiymat belgilanadi
- 93. "TIF TN" nima?**
- A. Tashqi Iqtisodiy Faoliyat Tovarlar Nomenklaturasi
 - B. Taqiqlangan Iqtisodiy Faoliyat Tovarlar Nomi
 - C. Toshkent Iqtisodiy Faoliyat Tovarlar Nomi
 - D. Topshirilgan Iqtisodiy Tovarlar Nomi

94. O'zbekiston Respublikasi Bojxona organlari qaysi mablag'lar evaziga ta'minlanadi?

- A. O'zbekiston Respublikasi Davlat Byudjeti hisobiga
- B. Mahalliy Byudjetlar hisobiga
- C. O'z fondi hisobiga
- D. Boj to'lovlari hisobiga

95. Boj undiriladigan tovarlarning bojxona qiymatiga nisbatan foizlarda hisoblanadigan stavkalar nima deyiladi?

- A. Advalor stavkalar
- B. Xos stavkalar
- C. Aralash stavkalar
- D. Belgilangan stavkalar

96. Farg'ona viloyati bojxona boshqarmasida nechta TIF bojxona postlari mavjud?

- A. 5 ta
- B. 8 ta
- C. 13 ta
- D. 7 ta

97. Tovarlarini deklaratsiya qilish qanday shakllarda amalga oshiriladi?

- A. Og'zaki, elektron va yozma
- B. Faqat yozma
- C. Og'zaki va yozma
- D. Faqat elektron

98. Tovarlarini tashiydigan transport vositalari ham deklaratsiyalanadimi?

- A. Ha, deklaratsiyalanadi
- B. Yo'q, deklaratsiyalanmaydi
- C. Ayrim transport vositalari deklaratsiyalanadi
- D. Shaxs ixtiyoriga qarab deklaratsiyalanadi

99. Bojxona organi bojxona deklaratsiyasini qabul qilishni rad etishga haqlimi?

- A. Yo'q
- B. Ha
- C. Ha, qonunda ko'rsatilgan tartibda
- D. Bunday ko'rsatilmagan

100. Bojxona nazorati maqsadlari uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar ko'rsatilgan hujjat nima?

- A. Deklaratsiya
- B. Shartnoma
- C. Deklarant tavsifnomasi

D. Dalolatnoma

101. Bojxona to'lovlari kim tomonidan to'lanadi?

- A. Deklarant
- B. Bojxona mansabdor shaxsi
- C. Advokat
- D. Istemolchi

102. Bojxona qiymatini aniqlashning nechchi xil usuli mavjud?

- A. 6 xil
- B. 5 xil
- C. 4 xil
- D. Bojxona qiymatini aniqlashning birgina usuli mavjud xolos

103. Agar baholanayotgan, aynan bir xil yoki o'xshash tovarlar o'zining dastlabki holati o'zgarmagan xolda O'zbekiston Respublikasi hududida sotilsa qaysi bojxona qiymati asosida xisoblanadi?

- A. Qiymatlarni chegirib tashlash asosida
- B. Rezerv asosida
- C. Qiymatlarni qo'shish asosida
- D. Aynan bir xil tovar yuzasidan tuzilgan bitim

104. Bojxona qiymati nima?

- A. Bojxona to'lovlari hisoblab chiqarish maqsadida foydalaniladigan tovar qiymatidir.
- B. O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan Tovarlarining bozordagi qiymati
- C. O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan Tovarlarining tannarxi
- D. O'zbekiston Respublikasi Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan Tovarlariga to'lanadigan solig'lar yeg'indisi

105. «Aksiz» so'zi qaysi so'zdan olingan bo'lib, «qirqib olmoq», «kesmoq» degan mahnoni anglatadi

- A. Fransuzcha
- B. Lotincha
- C. Inglizcha
- D. Italyancha

106. QQS ni xisoblash formulasi toping? Bu erda: Sb-boj miqdori, Bk-bojxona qiymati, As-aksiz solig'i qiymati, S-QQS stavkasi

- A. $QQS = (Sb + Bk + As)S / 100\%$
- B. $QQS = (AsBk)S$
- C. $QQS = (Sb + Bb) (AsS)S / 100$
- D. $QQS = BkK / 100$

107. Aksiz solig'i summasi quyidagi qaysi formula bo'yicha aniqlanadi? Bu erda: Sb-boj miqdori, Bk-bojxona qiymati, As-aksiz solig'i qiymati, A-aksiz stavkasi

- A. $Bk \cdot A / 100$
- B. $BkK / 100$
- C. $Sb + Bb) (AsS) / 100$
- D. $(Sb + Bk + As)S / 100\%$

108. Advalor stavkalar-....?

- A. Boj undiriladigan tovarlarning qiymatiga nisbattan foizlarda xisoblanadigan stavkalar.
- B. Chegaradan o'tayotgan Tovar miqdoriga nisbattan qo'llaniladigan qiymat
- C. Transport vositalariga qo'llaniladigan stavkalar
- D. Bojxona statistikasi stavkalari

109. ...qonunda belgilangan hollarda undiriladigan mablag'.

- A. Jarima
- B. Patent
- C. Yer rentasi
- D. Soliq

110. ...davlat byudjetining tegishli darajasiga yoki byudjetdan tashqari foizlarga qonunchilik xujjatlari bilan belgilanib, to'lovchi tomonidan majburiy amalga oshiriladigan to'lovlar tushuniladi.

- A. Soliqlar, bojlar va boshqa to'lovlar
- B. Soliqlar to'lovlar va jarimalar
- C. Jarimalar va soliqlar
- D. Bojlar va soliqlar

111. Kontrabanda qaysi tildan olingan?

- A. Italyancha
- B. Ispancha
- C. Lotincha
- D. Inglizcha

112. Kontrabanda qanday ma'noni anglatadi?

- A. "contro-qarshi" "bando-hukumat qarorlari"
- B. "contro-mos" "bando-hukumat qarorlari"
- C. "contro-qarshi" "bando-jamiyat qarorlari"
- D. "contro-qarshi" "bando- qarorlari"

113. Barcha mamlakatlarda davlat chegaralaridan jinoyat deb ehlon qilingan tovarlar va narsalarning olib o'tilishi deb nima tushuniladi?

- A. Kontrabanda

- B. Jarima
- C. Jinoyat
- D. Javobgarlik

Glossariy

Atamaning o'zbek tilida nomlanishi	Atamaning ingliz tilida nomlanishi	Atamaning rus tilida nomlanishi	Atamaning mazmuni
Strategiya	Strategy	Стратегия	noaniqlik sharoitida bir yoki bir nechta maqsadga erishish uchun yuqori darajadagi reja
Kompetensiya	Competence	Компетентность	ikki xil ma'noni anglatadi: savollar to'plami ya'ni bunda belgilangan shaxs o'z aqliy qobiliyati va ikkinchisi huquq va majburiyatlar.
Bojxona	Customs	Таможня	1)boj undiriladigan joy; 2)chegara orqali o'tadigan jami yuklarni, jumladan, bagaj va pochta jo'natmalarini nazorat qiladigan davlat muassasasi
Kontrabanda	Smuggling	Контрабанда	davlat chegarasi bo'ylab tovarlar, qadriyatlar va boshqa narsalarni noqonuniy olib o'tish
Bojxona organi	Customs authority	Таможенный орган	bevosita bojxona ishini amalga oshiradigan ijtiro etuvchi
Kinologiya	Kinology	Кинология	xokiniyatning huquqini muhofaza qilish organidir itlarning ilm-fani, itlarni tayyorlash, itlar tayyorlash, itlarning kelib chiqish tarixi

Bojxona organlari	Customs authorities	Таможенные органы	O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona siyosatini amalga oshirish va iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish maqsadida tuziladigan organlar.
Bojxona xizmati	Customs service	Таможенная служба	O'zbekiston Respublikasida bojxona organlarining yagona tizimi sifatida tarkib topgan va faoliyat ko'rsatuvchi tizimi.
Bojxona hodimlari	Customs officers	Таможенники	Bojxona organlarida xizmat qilayotgan, maxsus unvon berilgan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bojxona organining xodimidir.
serjant	sergeant	сержант	(lot. serviens — xizmatchi) — ko'pgina xorijiy davlatlar qurolli kuchlarida kichik komandirlarga beriladigan harbiy unvon hamda shu unvonga ega bo'lgan kishi.
leytenant	Lieutenant	лейтенант	(frans. lieutenant) — ko'pgina mamlakatlarda kichik ofitserlarning harbiy unvoni. <u>Frans</u>

mayor	Major	майор	iyada 15-asrda paydo bo'lgan (lot. major — yirik, katta) — O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari va boshqa davlat armiyalaridagi katta zobitlik unvoni.
podpolkovnik	lieutenant colonel	подполковник	(rus. polkovnikdan quyi) — bir qator davlatlar qurolli kuchlarida zobitlik unvoni. Podpolkovnik unvoni rus armiyasida 17-asrdan mavjud bo'lgan
polkovnik	Colonel	полковник	bir qancha davlatlar kurolli kuchlarida zobitlik unvoni. Polkovnik unvoni rus armiyasida 17-asrdan mavjud bo'lgan.
Xavfni boshqarish	Risk management	Управление рисками	xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo'llanilishi samaradorligini baholash, shuningdek bojxonni operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxonni

			organlarida mavjud bo'lgan axborotning uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlar.
Xavf	Danger (risk)	Риск	bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmasligi ehtimolining darajasi.
Bojxona siyosati	Customs policy	Таможенная политика	Bu ichki va tashqi iqtisodiy manfaatlarni amalga oshirishda bozor munosabatlari sharoitida siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy harakterga ega bo'lgan maqsadlarni yo'naltiruvchi qonunchilik, ijro va nazorat me'yorlari tizimidir
Proteksionizm	Protectionism	Протекционизм	lotinch Protectib - yashirish, himoya qilish. Ushbu siyosat ichki bozorni tashqi raqobatdan himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.
Fritrederlik	Freetrader	Фритредер	Erkin savdo siyosati- tashqi savdoda chegaralashni minimumgacha kamaytirish (iloji

Jahon savdo tashkiloti	World trade organization	Всемирная торговая организация	boricha kamaytirish). 1995- yilda a'zo davlatlar tomonidan xalqaro savdoni erkinlashtirish va tartibga solish maqsadida tashkil etilgan tuzilma
Demokratizim	Democratizm	Демократизм	Bojxona siyosatini ishlab chiqishda va uni amalga oshirishda demokratizm prinsipi bojxona ishi sohasida fuqarolarning, xo'jalik sub'ektlarining huquqlari himoya qilinishi ta'minlanishi
Qisman cheklash	Partial restriction	Частичное ограничение	Ichki bozorga chet el tovarlarini kiritmaslik maqsadida amalga oshiriladi. Masalan: kinovideo mahsulotlari, bosma mahsulotlari, g'ayriqonuniy qarashlar va xokazolar.
Teskari proteksionizm	Inverse protectionism	Обратный протекционизм	Barcha to'siqlarni olib tashlash ya'ni antiproteksionizm qo'llash siyosatidir.
Bojxona rejimi	Customs routine	Таможенный режим	O'zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan tovar va transport

			vositalarining maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalar majmui; ya'ni bojxona hududiga olib kiriladigan va undan olib chiqiladigan tovarlarning maqomini bojxona maqsadlari uchun belgilovchi qoidalarini har bir rejimga nisbatan xalqaro huquq me'yorlari asosida qo'llash tartibotini ko'rsatadi – bojxona chegarasidan o'tayotgan tovarlarni qonuniy o'tkazish tartibotlarini belgilaydi.
Bojxona rasmiylashtiruv	Customs register	Таможенная оформление	tovar va transport vositalari ustidan bojxona nazoratini ta'minlash maqsadida bojxona organlarining mansabdor shaxslari amalga oshiradigan operatsiyalar majmui bo'lib, bojxona rejimlari bilan uzviy bog'liqdir (Bojxona kodeksining 21-moddasi).
Eksport	Export	Экспорт	rejimida olib chiqilayotganda tovarlar soliqlardan

			ozod etiladi yoxud to'langan soliqlar summasi qonun hujjatlariga muvofiq qaytarilishi lozim. Reeksport shunday rejimki, bunda chet el tovarlari bojxona hududidan olib chiqiladi.
Reeksport	Reexport	Реекспорт	
			Tranzit shunday rejimki, bunda tovarlar O'zbekiston Respublikasining ikki bojxona organi o'rtasida, shu jumladan chet davlat xududi orqali, boj, soliqlar undirilmasdan, shuningdek tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmasdan bojxona nazorati ostida olib o'tiladi.
Tranzit	Transit	Транзит	
			Tranzit shunday rejimki, bunda tovarlar O'zbekiston Respublikasining ikki bojxona organi o'rtasida, shu jumladan chet davlat xududi orqali, boj, soliqlar undirilmasdan, shuningdek tovarlarga nisbatan iqtisodiy siyosat choralari qo'llanmasdan bojxona nazorati ostida olib o'tiladi.
Bojxona ombori	Customs pantry	Таможенный склад	

Bojxona nazorati	Customs control	Таможенный контроль	O'zbekiston Respublikasining bojxona ishi sohasidagi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidan iborat. Tovarlarni olib o'tuvchi, tovar va transport vositalarini o'z nomidan deklaratsiyalovchi, ko'rsatuvchi va taqdim etuvchi shaxs yoki tovar olib o'tuvchi shaxs nomidan ish olib borayotgan bojxona brokeri. bunda xavf darajasi past bo'lgan tovar va transport vositalarini chiqarib yuborish to'g'risidagi qaror qabul qilinganda, bojxona nazorati shakllari ularga nisbatan amalga oshirilmaydi
Deklarant	Declarant	Декларант	bunda xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlov asosida aniqlangan tovarlarga nisbatan bojxona nazorati shakllari ular
Yashil yo'lak	Green corridor	Зеленый коридор	
Ko'k yo'lak	Blue corridor	Синий коридор	

			chiqarib yuborilgandan so'ng amalga oshiriladi.
Sariq yo'lak	Yellow corridor	Желтый коридор	bunda bojxona deklaratsiyasi, hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish bo'yicha bojxona nazorati shakllari xavf darajasi o'rta ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi;
Qizil yo'lak	Red corridor	Красный коридор	bunda bojxona nazorati shakllari xavf darajasi yuqori ko'rsatkichga ega yoki tasodifiy tanlovda aniqlangan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladi.
Shaxsiy ko'rigi	personal observation	личное наблюдение	Bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo'nalishlari uchun ochiq bo'lgan transit zonasida bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan o'tkaziladi.
Xavfni boshqarish	Risk management	Управление рисками	xavfning oldini olish va ularni imkon qadar kamaytirish, ularning qo'llanilish

			samaradorligini baholash, shuningdek bojxona operatsiyalarining bajarilishi ustidan nazorat qilish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalda bajarishni, bojxona organlarida mavjud bo'lgan axborotning uzluksiz yangilanishini, tahlil etilishini va qayta ko'rib chiqilishini nazarda tutuvchi doimiy ishlar.
Xavf	Danger (risk)	Риск	bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilmasligi ehtimolining darajasi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. 1992-yil 8-dekabr (2021-yil 8-fevraldagi O'RQ-671-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi Bojxona Kodeksi. (2022 yil 1-fevraldagi O'RQ-748-son Qonuniga muvofiq kiritilgan).
3. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 1995-yil 1-aprel (O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
4. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. 2020-yil 1-yanvar (O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
5. Davlat boji to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2020-yil 6-yanvar, O'RQ 600-son (O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
6. Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2017-yil 3-yanvar, O'RQ 419-son.
7. Davlat bojxona xizmati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2018-yil 18-oktyabr (2022-yil 18-fevraldagi O'RQ-755-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
8. Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2013-yil 11-dekabr (O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).
9. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Mazkur Qonunning yangi tahriri 2000-yil 26-may (O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuniga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari va qarorlari

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-iyundagi "Bojxona ma'muriyatchiligini isloh etish va O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6005-sonli Farmoni.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi "Raqqamli O'zbekiston-2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-sonli Farmoni.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 7-sentyabrdagi "Eksportchi korxonalarni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6306-sonli Farmoni.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentyabrdagi "Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF-6310-sonli Farmoni.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-apreldagi "Bojxona hududida qayta ishlash bojxona rejimi qo'llanilishini soddalashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-115-sonli Farmoni.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5414-sonli Farmoni.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 24-noyabrdagi "Bojxona ma'muriyatchiligini takomillashtirish va O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5582-sonli Farmoni.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 20-oktyabrdagi "Raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5262-sonli Qarori.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-apreldagi "Tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ma'muriy tartib-taomillarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4297-sonli Qarori.

20. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 6-fevraldagi "Jismoniy shaxslar tomonidan bojxona chegarasi orqali tovarlarni olib o'tishni yanada tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3512-sonli Qarori.

21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-3665-sonli Qarori.

22. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 29-iyundagi "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyatini yanada tartibga solish hamda bojxona-tarif jihatdan tartibga solish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3818-sonli Qarori.

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 2-dekabrdagi "2018-2022-yillarda transport infratuzilmasini takomillashtirish va yuk tashishning tashqi savdo yo'nalishlarini diversifikatsiyalash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3422-sonli Qarori.

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va

O'zbekiston Respublikasi vazirlik va idoralarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari

24. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi "Dori vositalari va tibbiy buyumlarni majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to'g'risida" №149-sonli Qarori.

25. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyuldagi "Bojxona ma'muriyatchiligi va tartib-taomillarini yanada soddalashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" №429-sonli Qarori.

26. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 4-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilishda bojxona boji va qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etiladigan o'xshashi respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi texnologik asbob-uskunalar ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida" №352-sonli Qarori.
27. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-noyabrda "Bojxona yig'implari stavkalarini tasdiqlash to'g'risida" №700-sonli Qarori.
28. Investitsiya va tashqi savdo vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2020-yil 30-iyundagi "Eng ko'p qulaylik rejimi hamda erkin savdo rejimini yaratgan holda savdo-iqtisodiy hamkorlik sohasidagi bitimlar imzolangan davlatlar ro'yxatlarini tasdiqlash to'g'risida"gi №3267-sonli Qarori.
29. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining bojxona hududiga olib kiriladigan tovarlar va transport vositalarini rasmiylashtirishda bojxona tartibotlarini takomillashtirish to'g'risida" №1057-sonli Qarori.
30. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" №1029-sonli Qarori.
31. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2017-yil 14-martda "O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" №2868-sonli Qarori.
32. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2016-yil 6-aprelda "Bojxona yuk deklaratsiyasini to'ldirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" №2773-sonli Qarori.
33. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining 2014-yil 5-avgustda "Yo'lovchi bojxona deklaratsiyasini to'ldirish va rasmiylashtirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida" №2606-sonli Qarori.

34. Bojxona ishi tarixi. D.Z.Ziyayeva va boshqalar. Monografiya. T.: Yangi asr avlodi, 2015, 220 b.
35. Буаева, Н. Э. Международное таможенное право : учебник для бакалавриата и магистратуры / Н. Э. Буаева, А. В. Зубач ; под общ. ред. А. В. Зубача. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 298 с.
36. Геращенко, Г. П. Экономика таможенного дела : учебник и практикум для вузов / Г. П. Геращенко, В. Ю. Дианова, Е. Л. Андрейчук ; под ред. Г. П. Геращенко. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 234 с.
37. Крюкова, Н. И. Квалификация и расследование преступлений в сфере таможенного дела / Н. И. Крюкова, Е. Н. Арестова. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 223 с.
38. Лузина, Т. В. Организация делопроизводства в таможенных органах / Т. В. Лузина, С. С. Решетникова. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 273 с.
39. Карагодин, В. П. Таможенная экспертиза : учебник и практикум для бакалавриата и специалитета / В. П. Карагодин, С. В. Золотова ; под ред. В. П. Карагодина. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 208 с.
40. Крюкова, Н. И. Основы квалификации и расследования преступлений в сфере таможенного дела : учебник и практикум для вузов / Н. И. Крюкова, Е. Н. Арестова. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 221 с.
41. Новикова, С. А. Таможенное дело : учебник для бакалавриата и магистратуры / С. А. Новикова. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 302 с.
42. Основы таможенного дела : учебник для вузов / А. П. Джабиев [и др.] ; под общ. ред. А. П. Джабиева. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 392 с.

43. Покровская, В. В. Таможенное дело в 2 ч. Часть 2 : учебник для академического бакалавриата / В. В. Покровская. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2019. — 344 с.
44. Покровская, В. В. Таможенное дело в 2 ч. Часть 1 : учебник для академического бакалавриата / В. В. Покровская. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 298 с.
45. Попова, Л. И. Товароведение и экспертиза в таможенном деле : учеб. пособие для вузов / Л. И. Попова. — 3-е изд. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 227 с.
46. Прокушев, Е. Ф. Внешнеэкономическая деятельность : учебник и практикум для прикладного бакалавриата / Е. Ф. Прокушев, А. А. Костин ; под ред. Е. Ф. Прокушева. — 10-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 450 с.
47. Сафонов, П. Н. Производство по делам об административных правонарушениях, отнесенных к компетенции таможенных органов : учебник для вузов / П. Н. Сафонов. — М. : Издательство Юрайт, 2018. — 251 с.
48. Сидоров, В. Н. Таможенное право. Практикум : учеб. пособие для академического бакалавриата / В. Н. Сидоров. — 2-е изд., перераб. и доп. — М. : Издательство Юрайт, 2020. — 267 с.
49. Customs Management (Amendment) Regulations, 2020.
50. Uniformity of Customs Administration in the European Union. Kathrin Limbach, 2019.
51. The Customs and Border control law, 2018.
52. Макрусов В. В., Суглобов А. Е. Таможенный менеджмент. Учебник. М.: Издательство Дашков и К, 2019. — 348 с.
53. Trebilcock, M. J. International Trade Law / Michael J. Trebilcock and Joel Trachtman. — 2th ed. Cheltenham, UK • Northampton, MA, USA. DOI 10.4337/9781788971430. 2020. - 257 pages.

54. Salixova F.T., Rahmatov E.J., Askarov J.T. Bojxona huquqi. Darslik. – Toshkent: TDYU, 2019. – 160 b.
55. D. Qosimova, M. Tashxodjayev. Bojxona menejmenti. Darslik. - T.: «Инновацион ривожланиш нашриёт- матбаа уйи», 2020, 244 б.
56. K.I.Kurpayanidi, E.A.Muminova, A.A.Ilyosov. Bojxona ishi: Elektron darslik. Farg'ona, Al-FERGANUS, 2022, 2.75 Gb.

MUNDARIJA

1-mavzu.	O'zbekiston Respublikasida bojxona xizmatini shakllanish bosqichlari va inqiroz davrida uni amal qilish xususiyatlari	7
2-mavzu.	Bojxona ishini tashkil etish va boshqarish asoslari	23
3-mavzu.	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida O'zbekiston Respublikasi bojxona siyosatini takomillashtirish	47
4-mavzu.	Bojxona rejimlari va ularni qo'llash shartlari	59
5-mavzu.	Bojxona nazoratini amalga oshirish tartiblari va shartlari	111
6-mavzu.	Bojxona rasmiylashtiruvi va deklaratsiyalash	126
7-mavzu.	Bojxona boji va tarif usullari. Byudjetga bojxona to'lovlari	141
8-mavzu.	Tovarlarning bojxona qiymati va uni aniqlash usullari	159
9-mavzu.	Bojxona tizimida aktsizlar o'rni. Import bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'ini hisoblash xususiyatlari	172
10-mavzu.	Bojxona organlarining huquqni himoya qilish sohasida faoliyati	199
Testlar.....		226
Glossariy.....		246
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....		256

СОДЕРЖАНИЕ

1-тема.	Становление таможенных органов и особенности их функционирования в период кризиса	7
2-тема.	Основы организации и управления таможенного дела	23
3-тема.	Формирование таможенной политики Республики Узбекистан в условиях финансово-экономического кризиса	47
4-тема.	Таможенные режимы и правила их применения	59
5-тема.	Принципы и этапы проведения таможенного контроля	111
6-тема.	Таможенное оформление и декларирование	126
7-тема.	Таможенная пошлина и тарифные методы. Таможенные платежи в государственный бюджет	141
8-тема.	Порядок определения таможенной стоимости	159
9-тема.	Место акцизов в таможенном деле. Особенности расчета налога на добавленную стоимость на импортируемые товары и транспортные средства	172
10-тема.	Деятельность таможенных органов по охране правопорядка. Ответственность за нарушение таможенного законодательства	199
Тесты		226
Глоссарий.....		246
Список использованной литературы.....		256

CONTENT

1-theme.	The formation of customs authorities and features of their functioning during the crisis	7
2-theme.	Fundamentals of organization and management of customs affairs	23
3-theme.	Formation of the customs policy of the Republic of Uzbekistan in the context of the financial and economic crisis	47
4-theme.	Customs regimes and rules for their application	59
5-theme.	Principles and stages of customs control	111
6-theme.	Customs clearance and declaration	126
7-theme.	Customs duty and tariff methods. Customs payments to the state budget	141
8-theme.	The procedure for determining the customs value	159
9-theme.	The place of excises in the customs business. Features of the calculation of value added tax on imported goods and vehicles	172
10-theme.	The activities of customs authorities for the protection of law and order. Responsibility for violation of customs legislation	199
Tests		226
Glossary		146
References.....		256

O'QUV ADABIYOTINING NASHR RUXSATNOMASI

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligining 2022 yil "25" Noyabr dagi
"388"-sonli buyrug'iga asosan

E.A. MU'MINOVA

(muallifning familiyasi, ismi, shartifi)

Barcha mutaxassisliklar uchun

(ta'lim yo'nalishi mutaxassisligi)

ning

talabalari (o'quvchilari) uchun tavsiya etilgan

Bojxona ishi

(o'quv adabiyotining nashi va turi, darajasi, o'quv qo'llanmasi)

ga


O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi
tomonidan litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
etishga ruxsat berildi.

Vazir



A. Toshqulov

№ 388 - 101



Хурматли ҳамкасабалар “Al-Ferganus” нашриёти ва “Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali” электрон журнали Ўзбекистон таълим хизматлари бозорида ўзининг фаолиятини бошлаганлигини маълум қиламиз.

Ажойиб имкониятдан сиз биринчилар қаторида фойдаланиб илмий нашрларингизни чоп этишингиз мумкин.

“Al-Ferganus” нашриётимиз томонидан Сиз тақдим этган дарслик, ўқув қўлланма, монография ва илмий рисоаларга ISBN, Doi халқаро рақамли идентификаторларни бириктириш, уларнинг электрон замонавий андозадаги муқовалар ва ишланмаларнинг электрон макетини ярагиш, нашриётда эълон қилинган ишларни электрон ахборот нашрларида жойлаштириш хизматлари кўрсатилади.

Бизнинг нашриётимизнинг бошқа нашриётлардан фарқи шундаки, тезкор ва сифатли хизмат кўрсатамиз ҳамда энг асосийси биз Сизнинг ишларингизни Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси ва Россия Миллий кутубхонаси фондларига бепул жойлашга шунингдек, Россия илмий иқтибослик индекси (РИНЦ ва E – library) платформасига, CrossRef базаларига шартнома асосида жойлаштиришга қўмаклашамиз.

“Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali” ISSN 2181-2357 электрон журнали ҳам ўз фаолиятини бошламоқда. Бизнинг журналда Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссиясининг қуйидаги ихтисосликлари физика-математика, кимё, биология, геология-минералогия, техника, кишлок

хўжалиги, тарих, иктисодиёт, фалсафа, филология, география, юридик, педагогика, тиббиёт санъатшунослик, архитектура, психология, социология фанлари бўйича миллий ва хорижий муаллифларнинг фанлардан эришган ютуқлари ва истикболлари борасидаги илмий мақолалари, илмий тадқиқотлар олиб бораётган олимларнинг илмий изланишлари натижалари эълон қилинади. Электрон журнал ҳар ойда бир марта эълон қилинади.

Журналларда эълон қилинадиган ҳар бир мақолага шартнома асосида DOI (Crossref) рақами берилади.

Шунингдек, таҳририят томонидан:

- мақолаларни сифатли таржима қилиш;
- мақолаларни таҳрирлаш ва журналлар талабига мослаш;
- мақолаларга ишлов бериш;
- мақолаларни плагиатга текшириш;
- хориждаги нуфузли (Scopus, Web of sciences ва юқори импакт факторли) журналларда мақолларни сифатли ва ишончли чоп этишга кўмаклашиш хизматларини ҳам кўрсатади.

Имкониятни бой бериб қўйманг!

Қуйидаги манзилларга мурожаат қилинг:

Электрон почта манзили: Alferganus.ltd@gmail.com

Телеграмм манзилимиз : [@Alferganus_ltd](https://t.me/Alferganus_ltd)

Телефонлар: (97) 100-38-88

(91) 109-05-38

(97) 337-86-00



PUBLIC IDENTIFIERS OF INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH

PUBLISHER: AL FERGANUS LLC - UZBEKISTAN


INTERNATIONAL JOURNAL ADDRESS^{IAA}



IJA ZONE / 1645E-57645


INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH^{IAA}

INTERNATIONAL ARTICLE ADDRESS^{IAA}



IJA ZONE / 1264564543

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH^{IAA}



Уважаемые коллеги! Сообщаем вам, что издательский дом «AL-FARGANUS» и «*Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali*» – «Международный журнал теоретических и прикладных исследований» начали свою деятельность на рынке образовательных услуг Узбекистана.

Это прекрасная возможность одним из первых опубликовать свои научные публикации. Наше издательство «AL-FARGANUS» предоставляет услуги по прикреплению международных цифровых идентификаторов ISBN, Doi к учебникам, учебным пособиям, монографиям и научным брошюрам, созданию электронных макетов их обложек и дизайнов в современной электронной форме, размещению опубликованных работ в электронные публикации.

Отличие нашего издательства от других издательств в том, что мы предоставляем быстрые и качественные услуги, а главное, бесплатно размещаем ваши работы в Национальной библиотеке Узбекистана им. Алишера Навои и оказываем помощь в размещении вашей работы в Российской национальной библиотеке, а также на платформе Российского индекса научного цитирования (РИНЦ, e-library) облегчить размещение.

Совместно с Ферганским политехническим институтом запущен проект электронного научного журнала «*Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar jurnali* – International Journal of Theoretical and Practical Research. Международный журнал теоретических и прикладных исследований».

Миссия научного электронного журнала направлена на развитие национальной и зарубежной науки, обеспечение общедоступности теоретических позиций и практических результатов прикладных исследований. В журнале представлены следующие специальности Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан по физике и математике, химии, биологии, геологии и минералогии, технике, сельскому хозяйству, истории, экономике, философии, филологии, географии, праву, педагогике, медицине, архитектуре, психологии, социологии. Журнал публикует научные статьи отечественных и зарубежных авторов о достижениях и перспективах науки, результатах научных исследований ученых, проводящих исследования. Электронный журнал издается один раз в месяц.

Каждой статье, опубликованной в журнале, на контрактной основе присваивается номер DOI (Crossref).

Также издательство оказывает услуги по:

- качественный перевод статей;
- редактирование статей и адаптация к требованиям журнала;
- обработка статей;
- проверка научных работ (статей, учебных пособи, монографий, диссертаций и др.) на плагиат статей;
- оказывает информационное обеспечение публикаций статей в престижных зарубежных журналах (Scopus, Web of Sciences и журналах с высоким импакт-фактором).

Не упускайте возможность!

Пожалуйста, свяжитесь с нами:

Электронный адрес: Alferganus.ltd@gmail.com

Наш адрес в телеграмм: [@Alferganus_ltd](https://t.me/Alferganus_ltd)

Телефоны: (97) 100-38-88

(91) 109-05-38

(97) 337-86-00



PUBLIC IDENTIFIERS OF INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH

PUBLISHER: AL-FERGANUS LLC - UZBEKISTAN

INTERNATIONAL JOURNAL ADDRESS^{IJA}



IJA_ZONE/16456457645

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH^{IJA}

INTERNATIONAL ARTICLE ADDRESS^{IJA}



IJA_ZONE/1264564543

INTERNATIONAL JOURNAL OF THEORETICAL AND PRACTICAL RESEARCH^{IJA}



O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti
Administratsiyasi
huzuridagi Axborot
va ommaviy
kommunikatsiyalar
agentligi

Nr 7430-3360 d0-2-4e5b-8cf1-9914 2923
Hujjat yaratilgan sana: 2021-06-22
Ariza raqami: 32087634

Hujjat berilgan: ОБЩЕСТВО С ОГРАНИЧЕННОЙ
ОТВЕТСТВЕННОСТЬЮ "AL-FERGANUS"
Qabul qiluvchining identifikatsiya raqami: 308291417

Ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganligi to'g'risida
GUVOHNOMA

Ni 1189

Nomi: "Xalqaro nazariy va amaliy tadqiqotlar"

Tarqatish shakli: Jurnal

Til(lar)i: o'zbek, rus, ingliz

Muassis(lar)i: "AL-FERGANUS" mas'uliyati cheklangan jamiyat

Ixtisoslashuvi: fan sohasidagi ilmiy nashr

Tahririyat manzili: 150100, Farg'ona viloyati, Farg'ona shahar, Mustaqillik ko'chasi, 42-uy

Tarqatish hududi: O'zbekiston Respublikasi hamda belgilangan tartibda chet davlatlarga

Berilgan sanasi: 17-06-2021

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organ rahbari: Xodjayev Asadjon Azatbekovich

Mazkur hujjat Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrda 728-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to'g'risidagi nizamga muvofiq shakllantirilgan elektron hujjatning nusxasi hisoblanadi. Elektron hujjatning nusxasida ko'rsatilgan ma'lumotlar to'g'riligini tekshirish uchun my.gov.uz veb-saytiga o'ting va elektron hujjatning noyob raqamini kiriting yoki mobil telefon yordamida QR-kodni skaner qiling. Diqqat! Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 sentyabrda 728-son qaroriga muvofiq elektron hujjatdagi ma'lumotlar qonuniy hisoblanadi. Davlat organlariga Yagona portalda shakllantirilgan elektron hujjatlarning nusxalarini qabul qilishni rad etishlari qat'iyan taqiqlangan.

9103





Д.Р.ТУХТАСИНОВА

КОРХОНАЛАРДА ХОДИМЛАРНИ
БОШҚАРИШДА ИННОВАЦИОН УСУЛЛАРДАН
ФЙДАЛАНИШНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

Монография



AL-FERGANUS 2022

Тухтасинова Д.Р
Корхоналарда
ходимларни бошқаришда
инновацион усуллардан
фойдаланишни
такомиллаштириш:
монография / Тухтасинова
Д.Р. - Фарғона
политехника институти.
Фарғона, AL-FERGANUS,
2022. – 162 б.
ISBN 978-9943-8579-5-7



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7352200>



Kurpayanidi K.I.,

Issues of innovation and
innovation management in
the context of economic
transformation: monograph
/ Kurpayanidi K.I.,
edited by M.A.Ikramov. –
Fergana polytechnic
institute. AL-FERGANUS,
2022. – 280 p.
ISBN 978-9943-8579-2-6



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7220693>



**Курпаяниди К.И.,
Муминова Э.А.**

Основы экономических знаний. Учебное пособие. Для неэкономических направлений бакалавриата высших образовательных учреждений /К.И.Курпаяниди, Э.А.Муминова Ферганский политехнический институт. Фергана: AL-FERGANUS, 2022.-280 с. ISBN: 978-9943-7707-9-9



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6880920>



Мадаминов Ж.З.

Бўлажак муҳандисларнинг лойиҳалаш компетенцияларини компьютер графикаси воситасида ривожлантириш методикаси

Монография

AL-FERGANUS

Фергана: AL-FERGANUS - 2022

Мадаминов Ж.З.
Бўлажак муҳандисларнинг лойиҳалаш компетенцияларини компьютер графикаси воситасида ривожлантириш методикаси: Монография / Мадаминов Ж.З. - Ферғона политехника институти. Фарғона, AL-FERGANUS, 2022. – 150 б.



ISBN: 978-9943-8579-0-2

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.7060384>



**Курпаяниди К. И.,
Илёсов А.А. Саноат
махсулотлари
экспортининг ташкилий-
иқтисодий
механизмларини
такомиллаштириш
(Фарғона вилояти саноат
тармоғи мисолида):
монография / Курпаяниди
К. И., Илёсов А.А.; М. А.
Икрамов таҳрир остида. -
Фарғона политехника
институти. AL-
FERGANUS, 2022. – 184 б.
ISBN 978-9943-7707-5-1**



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6618980>



**Э.Т.Мамуров, А.М.Гафуров
CAD/CAM/CAE ТИЗИМЛАРИДА
ЛОЙИХАЛАШ АСОСЛАРИ**

Дарслик

Фарғона - AL - FERGANUS - 2022

**Мамуров Э.Т., Гафуров
А.М. CAD/CAM/CAE
тизимларида лойиҳалаш
асослари. Дарслик
/Э.Т.Мамуров,
А.М.Гафуров – Фарғона:
AL-FERGANUS, 2022.-
200 б.**

ISBN 978-9943-7706-9-0

**Ўзбекистон
Республикаси Олий
ва ўрта махсус
таълим вазирлиги
ҳузуридаги Олий,
ўрта махсус ва
профессional
таълим
йўналишлари бўйича
ўқув-услубий
бирлашмалар
фойдага
Мувофиқлаштирувч
и кенгаш томонидан
дарслик сифатида
таъсия этилган.
(2022 йил 9 сентябр
№302-сонли буйруқ).**



E.T. Mamurov, Yu. Yu. Xusanov,
S.M. Yusupov

Mexatronika asoslari

Darslik

Farg'ona - AL - FERGANUS - 2022

Mamurov E.T., Xusanov Yu.Yu., Yusupov S.M. Mexatronika asoslari. Darslik/ - E.T.Mamurov, Yu. Yu.Xusanov, S.M.Yusupov - Farg'ona: AL-FERGANUS, 2022. 280 b.

ISBN 978-9943-7707-1-3

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. (2022 yil 9 sentyabr №302-sonli buyruq).



E.T.Mamurov, S.M.Yusupov,
Yu.Yu.Xusanov

YO'NALISHGA KIRISH

Darslik

Farg'ona - AL - FERGANUS - 2022

Mamurov E.T., Yusupov S.M., Xusanov Yu.Yu. Yo'nalishga kirish. Darslik / E.T.Mamurov, S.M.Yusupov, Yu. Yu.Xusanov - Farg'ona: AL-FERGANUS, 2022.- 150 b.

ISBN 978-9943-7707-0-6

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. (2022 yil 9 sentyabr №302-sonli buyruq).

**MANAGEMENT OF
INNOVATIVE ACTIVITIES
OF BUSINESS ENTITIES IN
INDUSTRY**

MONOGRAPH



Crossref

Fergana - AL - FERGANUS - 2022

**Kurpayanidi K.I.,
Mamurov D.E.**
**Management of innovative
activity of business entities
in industry: monograph /**
**Kurpayanidi K.I., Mamurov
D.E.; edited by**
**M.A.Ikramov. - Fergana
polytechnic institute. AL-
FERGANUS, 2022. – 200 p.**
ISBN: 978-9943-7707-3-7



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6475830>



Муминова Э.А.,
Хонкелдиева К.Р.

Тухимачилик саноати кластерлари
фаолиятида бошқарув механизмларини
такомиллаштириш

Монография

Crossref

Fergana - AL - FERGANUS - 2022

**Муминова Э.А.,
Хонкелдиева К.Р.**
**Тухимачилик саноати
кластерлари
фаолиятида бошқарув
механизмларини
такомиллаштириш
[Матн]: монография**
**/Э.А.Муминова,
К.Р.Хонкелдиева.-
Фарғона политехника
институти. Фарғона: AL-
FERGANUS, 2022.-166 б.**
ISBN: 978-9943-7707-7-5



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6759902>



РАХМОНАЗАРОВ П.Й

Худудларнинг иқтисодий - экологик
тизимларини бошқариш самарадорлигини
ошириш

Монография



Фарғона - AL - FERGANUS - 2022

Рахмоназаров П.Й.
Худудларнинг
иқтисодий - экологик
тизимларини бошқариш
самарадорлигини
ошириш: монография /
Рахмоназаров П.Й. -
Фарғона политехника
институти. AL-
FERGANUS, 2022. – 170 б.
ISBN 978-9943-7707-6-8



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.6750455>



Ashurov Maxammadjon Solvoldievich

Sanoat korxonalarida risklarni boshqarish
mexanizmini takomillashtirish strategiyalari
Monografiya



Farg'ona - AL - FERGANUS - 2022

Ashurov, M. S. Sanoat
korxonalarida risklarni
boshqarish mexanizmini
takomillashtirish
strategiyalari. Monografiya.
Farg'ona: Al-Ferganus,
2022.- 120 b.



A.M. Abdullaev, K.I. Kurpayanidi,
A.Sh. Khudaykulov

INSTITUTIONAL TRANSFORMATION OF THE
ENTREPRENEURIAL SECTOR

Monograph

 Crossref

Fergana - AL - FERGANUS - 2021

**Abdullaev A.M.,
Kurpayanidi K. I.,
Khudaykulov A. S.**
Institutional transformation
of the business sector.
Monograph. Fergana "AL-
FERGANUS", 2021. - 180

p.
ISBN: 978-9943-7189-9-9



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5457089>



M.S. Ashurov,
K.I. Kurpayanidi

RAQOBATBARDOSH MILLIY INNOVATSIYA
TIZIMINI SHAKLLANTIRISH
MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

Monografiya

 Crossref

Fergana - AL - FERGANUS - 2021

**Ashurov, M.S.,
Kurpayanidi, K.I.**
Problems and solutions for
the formation of a
competitive national
innovation system.
Monograph. Edited by
Doctor of Economics,
Professor Ikramov M.A.,
Fergana: Al-Ferganus,
2021.- 102 p.
ISBN: 978-9943-7706-0-7



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5676027>



ASHUROV M.S., SHAKIROVA Yu. S.

EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI HAL
QILISHDA EKOLOGIK MENEJMENTNING
STRATEGIK YO'NALISHLARI

Монография



Fergana - AL - FERGANUS - 2021

Ashurov M.S., Shakirova Yu.S. Environmental problems and strategic directions of environmental management in their solution. Monograph. Edited by Doctor of Economics, Professor Ikramov M.A., Fergana: Al-Ferganus, 2021.- 160 p.
ISBN: 978-9943-7706-4-5



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5722678>



Н.К. Жўраева

Уй-жой коммунал соҳаси @ воқияти
бошқариш механизмларини такомиллаштириш

Монография



Fergana - AL - FERGANUS - 2021

Жўраева, Н.К. Уй-жой коммунал соҳаси фаолиятини бошқариш механизмларини такомиллаштириш. Монография. - Фарғона: Al-Ferganus, 2021.- 140 б.
ISBN: 978-9943-7189-8-2



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5335878>



A.T. Mirzaev

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИСТИК-РЕКРЕАЦИЯ
ҚАСЛИЯТИНИ БЎШҚАРИШНИНГ УСУБИЙ
ЖИХАТЛАРИ: ЎЗГАРИШЛАР ВА
ИСТИҚБОСЛАР

Монография



Ферган - AL - FERGANUS - 2021

Mirzaev, A.T.
Methodological aspects of
tourism and recreational
activity management in
Uzbekistan: changes and
prospects: Monograph
/Mirzaev A.T.; ed G. Sh.
Khankeldiyeva - Fergana:
Al-Ferganus, 2021.- 174 p.
ISBN: 978-9943-7706-3-8



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5722700>



E.A. Muminova

ТУЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИ ҚОРХОНАЛАРИДА
КОРПОРАТИВ БОШҚАРУВНИ ИННОВАЦИОН
ПАРАДИГМАСИ: МЕТОДОЛОГИЯ, ТАЖРИБА
ВА РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Монография



Ферган - AL - FERGANUS - 2021

Muminova, E.A.
Innovative paradigm of
corporate governance at
textile enterprises:
methodology, experience
and development prospects:
monograph /Muminova
E.A.; ed. G. Sh.
Khankeldiyeva - Fergana:
Al-Ferganus, 2021.- 160 p.
ISBN: 978-9943-7706-1-4



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5676091>



М.М. Набиева

Хизмат курсатиш корхоналарида
инновацион маркетинг стратегиясини
ишлаб чиқиш

Монография



Фарғона - AL - FERGANUS - 2021

Набиева, Н.М. Хизмат
курсатиш корхоналарини
ривожлантиришнинг
маркетинг стратегиясини
ишлаб чиқиш.
Монография. - Фарғона:
Al-Ferganus, 2021.- 162 б.
ISBN: 978-9943-7189-7-5



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5230368>



О.С. Назарматов

Тўқимачилик саноати корхоналарида
инновацион жараёнларни бошқариш
услувийётини такомиллаштириш

Монография



Фарғона - AL - FERGANUS - 2021

Nazarmatov, O.S.
Improving the methodology
of management of
innovative processes in the
enterprises of the textile
industry. Monograph. -
Fergana: Al-Ferganus,
2021.- 200 p.
ISBN: 978-9943-7706-2-1



DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5675967>



UBAYDULLAYEV M.M.

G'O'ZADA DEFOLIATSIYA O'TKAZISHNING
MAQSUL ME'YOR VA MUDDATLARI

Monografiya

Qo'shimcha

Ubaydullayev M.M.
G'o'zada defoliatsiya
o'tkazishning maqbul
me'yor va muddatlari.
Monografiya. /q.x.f.d.,
professor F.J. Teshayev
muharrirligi ostida.
Farg'ona: Al-Ferganus,
2021. — 160 b.

ISBN: 978-9943-7706-6-9



Farg'ona - AL - FERGANUS - 2021

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.5722721>

MUMINOVA ELNORAXON ABDUKARIMOVNA

Doctor of Science in Economics,
Fergana Polytechnic Institute, Uzbekistan

BOJXONA ISHI

darslik

Bosh muharrir: M.Ashurov
Musahhih: M.To'xtasinova
Sahifalovchi: M.To'rhunov
Bosib chiqarish uchun imzolangan 30.12.2022

ISBN 978-9943-8579-9-5



Nashr.lits. № № 4446-5760-5988-7507-e628-4252-5710, 23.03.2021.

Bosishga ruxsat etildi 30.12.2022.

Bichimi 60x84 1/16. «Timez Uz» garniturası.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 17,75. Nashriyot bosma tabog'i 15.77.

Adadi 50. Buyurtma № X.

“Al – Ferganus” nashriyoti

Farg'ona sh., Aeroport ko'chasi

“Poligraf servis” MChJ bosmaxonasida chop etildi

Farg'ona shahar, Aviasozlar, 6.

alferganus.ltd@gmail.com



1126

“Bojxona ishi” darsligida bojxona tizimi, bojxona organlari, bojxona to‘lovlari, tarif va notarif tartibga solish, bojxona hududi va bojxona chegarasi kabi tushunchalar mohiyati ochib berilgan. Bojxona qonunchiligi, bojxona ishi tizimining huquqiy asoslarini o‘rganish talabalarga davlat bojxona siyosatining mohiyati va mazmuni, uning asosiy maqsad va vazifalarini tushunish imkonini beradi, bu esa raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

Darslik fanning tashkiliy-metodik bo‘limi, video-taqdimot materiallari, davlat bojxona organlari faoliyatining huquqiy asoslari, yo‘nalishning o‘quv rejasiga muvofiq o‘quv-uslubiy ish turlari va nazorat shakllari, fan bo‘yicha boshqa o‘quv-uslubiy materiallarni o‘z ichiga oladi.

Darslik oliy ta‘limning 60310100 “Iqtisodiyot” yo‘nalishi bo‘yicha tahsil olayotgan talabalar, o‘qituvchilar, bojxona rasmiylashtiruvchi bo‘yicha mutaxassislar, bojxona brokerlari, tadbirkorlar, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun mo‘ljallangan.



**Muminova Elnoraxon
Abdukarimovna**
Iqtisod fanlari doktori (DSc),
dotsent, Farg‘ona politehnika
instituti “Iqtisodiyot”
kafedrası mudiri.



ISBN 978-9943-8579-9-5



9 789943 857995 >